

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**M.I. ALIMARDONOV, O.A. YUSUPOV,  
SH.SH. ISLAMOV**

# **YURIDIK SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy o'rta maxsus ta'lism vazirligi huzuridagi  
Muvoqitalashuvchi kengash tomonidan 5230800 - «Soliqlar va soliqqa  
tortish» bakalavriat ta'limgan yo'naliishiha tahlil olayotgan talabalar uchun  
derslik sifatida tavsiya etilgan.*

*UO'K:621.315.532*

*KBK: 67,402я73*

**Alimardonov M.I., Yusupov O.A., Sh.Sh.Islamov. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish: Darslik. – T.: IQTISODIYOT, 2020. – 282 b.**

Ushbu darslik O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'limgan vazirligi tomonidan oliy ta'limgan 200000-djtimoiy soha, iqtisod va huquq bilim sohasining 230000- «Qitisos» ta'limgan sohasidagi 5230800-«Soliqlar va soliqqa tortish» ta'limgan yo'naliishi uchun 2018 yilda tasdiqlangan va ro'yxatga olingan «Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fani o'quv dasturiga asosan yozilgan.

Darslik O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi, O'zbekiston Respublikasining «Soliq maslahati to'g'risidaqgi qonuni, O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risidaqgi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari proqnozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarda byudje mo'ljallari to'g'risidaqgi PQ-4086-son qarori va soliqqa oid qonun hujjalari asosida yoritilgan.

Darslikda iqtisodiyotni modernizastiyalash sharoidita soliq tizimida yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartibi, yuridik shaxslardan undiriladigan umum davlat va mahalliy soliqlarni iqtisodiy mohiyati va soliq tizimidagi ahamiyati, yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlarning turlari, yuridik shaxslarni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari o'z aksini topgan.

Darslik oliy ta'limgan 200000-«Qitisos» soha, iqtisod va huquq bilim sohasining 230000- «Qitisos» ta'limgan sohasidagi 5230800-«Soliqlar va soliqqa tortish» ta'limgan yo'naliishi tabalabari va iqtisodiy ta'limgan yo'naliishiha oliy o'quv yurtlарining bakalavrlari, magistrleri, davlat soliq xizmati organlari, moliya va bank xodimlari, buxgalterlar, auditorlar, professor-o'qituvchilar va ilmiy tadqiqotchilarga mo'ljallangan.

**Mas'ul muharrir dost. M.Eshov**

Taqrizchilar: A.S.Jo'raev- TMI, "Soliqlar va soliqqa tortish" kafedrasi professori iqtisod fanlari doktori

S.K. Xudoqulov - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti «Moliya va soliqlar» kafedrasi mudiri, iqtisod fanlari doktori

**Алимардонов М.И., Юсупов О.А., Ш.Ш.Исламов. Налогообложение юридических лиц: Учебник. – Т.: IQTISODIYOT, 2020.- 282 с.**

В данном учебнике раскрываются особенности налогообложения юридических лиц, экономическое значение и объективная необходимость налогообложения юридических лиц в условиях модернизации страны.

Большое внимание уделяется налоговой системе Республики Узбекистан, механизму налогообложения юридических лиц и изучению налоговой реформы в условиях экономических преобразований.

Учебник предназначено для студентов ВУЗов сферы высшего образования область знаний 200000 - «Социальная сфера, экономика и право», область образования 230000 - «Экономика», по направлению образования 5230800-«Налоги и налогообложение» и студентов бакалавров экономического направления и мастеров, специалистов по финансам и налогам, для банковских служащих, бухгалтеров, аудиторов, органов государственной налоговой службы, профессоров-преподавателей и консультантов.

**Ответственный редактор док. М.Эшов**

Рецензенты: проф.А.С.Джураев

док.С.К.Худайкулов

**Alimardonov M.I., Yusupov O.A., Sh.Sh.Islamov. Taxation of business entities: Textbook. – T.: IQTISODIYOT, 2020. – 282 p.**

Given textbook was written on the basis of studying curriculum "Taxation of business entities" which was confirmed and registered by the ministry of higher and secondary - specific education of the Republic of Uzbekistan in 2018. The above mentioned studying curriculum is designed for concentration 5230800 - "Taxes and taxation" that is under major 230000 - "Economics" which is under science sphere 200000 - "Social sphere, economics and law" of higher education.

The current textbook was created on the basis of Tax code of the Republic of Uzbekistan, Law of the Republic of Uzbekistan on Tax Consulting, Law of the Republic of Uzbekistan on State Tax Service, The Presidential Decree # 4086 of the Republic of Uzbekistan on forecasting of major macroeconomic indicators for 2019 and public budget parameters dated December 26 th, 2018 and the other tax related legal grounds.

In the textbook the followings are described, they are taxation of business entities in the condition of economy modernization, economic essence of state and local taxes and other mandatory payments levied on business entities, their role in the tax system, tax types that levied on business entities, specific features of taxation of business entities and the like.

Given textbook is intended for bachelor and graduate students with concentration of 5230800 - "Taxes and taxation" that is under major 230000 - "Economics" which is under science sphere 200000 - "Social sphere, economics and law" of higher education and as well as for tax authority employees, finance and bank employees, accountants, auditors, professors and teachers, and scientific researchers.

**Chief editor dots. Eshov M.**

Reviewers: prof. A.S.Jo'raev

dots. S.K.Xudoqulov

**ISBN 978-9943-6067-9-1**

*UO'K:621.315.532*

*KBK: 67,402я73*

**© «IQTISODIYOT», 2020.**

**© Alimardonov M.I., Yusupov O.A.,**

**Sh.Sh.Islamov., 2020.**

## M U N D A R I J A

<b>Kirish</b>			
<b>1-bob</b>	<b>«YURIDIK SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH» FANINING MAZMUNI, PREDMETI VA METODI.....</b>	<b>9</b>	
1.1.	«Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fanining maqsadi va vazifasi.....	13	
1.2.	«Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fanining predmeti va o'rganish usullari.....	13	
1.3.	«Yuridik shaxslarni soliqqa tortishi» fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi.....	14	
1.4.	Yuridik shaxslarni soliqqa tortishning asosiy prinsiplari.....	16	
	Takrorlash uchun savollar.....	17	
<b>2-bob</b>	<b>YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN FOYDA SOLIG'I.....</b>	<b>20</b>	
2.1.	Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar.....	20	
2.2.	Soliq munosabatlarining subyektlari.....	21	
2.3.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i ni to'lovchilar va soliq solish obyekti....	24	
2.4.	Jami daromadning tarkibi.....	26	
2.5.	Xarajatlarning guruhlash.....	36	
2.6.	Kredit tashkilotlarining daromadlariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.....	57	
2.7.	Sug'urta tashkilotlarining daromadlariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.....	59	
2.8.	Qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari daromadlariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.....	61	
2.9.	O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining daromadlariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.....	62	
2.10.	Dividendlar va foizlar tarzidagi daromadlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari .....	72	
2.11.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar va soliq stavkalari	73	
2.12.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i ni hisoblash va to'lash tartibi.....	77	
	Takrorlash uchun savollar.....	81	
<b>3-bob</b>	<b>SOLIQ SOLISHNING SODDALASHTIRILGAN TARTIBI.....</b>	<b>82</b>	
3.1.	Soliq solishning soddalashtirilgan tartibining soliq amaliyotiga tattbiq etilishi.....	82	
3.2.	Soliq solishning soddalashtirilgan tartibining rivojlanish bosqichlari.....	82	
3.3.	Soliq solishning soddalashtirilgan tartibining iqtisodiy ahamiyati.....	83	
3.4.	Soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo'llash o'ziga xos xususiyatlari.....	84	
	Takrorlash uchun savollar.....	86	
<b>4-bob</b>	<b>YAGONA SOLIQ TO'LOVI.....</b>	<b>87</b>	
4.1.	Yagona soliq to'lovi to'lovchilar va soliq solish obyekti.....	87	
4.2.	Yagona soliq to'lovi stavkalari va belgilangan imtiyozlar.....	95	
4.3.	Yagona soliq to'lovi hisoblash va uni to'lash tartibi .....	97	
	Takrorlash uchun savollar.....	98	
<b>5-bob</b>	<b>YAGONA YER SOLIG'I.....</b>	<b>99</b>	
5.1.	Yagona yer solig'i to'lovchilar va soliq solish obyekti.....	99	
5.2.	Yagona yer solig'i stavkasi va soliq imtiyozlar.....	102	
5.3.	Yagona yer solig'i ni hisoblash va to'lash tartibi.....	102	
	Takrorlash uchun savollar.....	103	
<b>6-bob</b>	<b>YURIDIK SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I.....</b>	<b>104</b>	
6.1.	Qo'shilgan qiymat solig'ining davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda tutgan o'mni.....	104	
6.2.	Qo'shilgan qiymat solig'ining rivojlanish bosqichlari.....	106	
6.3.	Qo'shilgan qiymat solig'i ni to'lovchilar va soliq solish obyekti.....	106	
6.4.	Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi va soliq imtiyozlar.....	118	
6.5.	Qo'shilgan qiymat solig'i ni hisoblash va to'lash tartibi.....	139	
	Takrorlash uchun savollar.....	145	
<b>7-bob</b>	<b>YURIDIK SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN AKSIZ SOLIG'I.....</b>	<b>147</b>	
7.1.	Aksiz solig'i va uning soliq tizimida tutgan o'mni.....		147
7.2.	Yuridik shaxslardan undiriladigan aksiz solig'i ni to'lovchilar va soliq solish obyekti.....		149
7.3.	Aksiz solig'i stavkalari va hisoblash tartibi.....		154
	Takrorlash uchun savollar.....		156
<b>8-bob</b>	<b>YURIDIK SHAXSLARNING MOL-MULKIGA SOLINADIGAN SOLIQ.....</b>	<b>157</b>	
8.1.	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilar va soliq solish obyekti.....		157
8.2.	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalari va soliq imtiyozlar.....		160
8.3.	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblash va to'lash tartibi.....		163
	Takrorlash uchun savollar.....		165
<b>9-bob</b>	<b>YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG'I.....</b>	<b>167</b>	
9.1.	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i ni soliq to'lovchilar va soliq solish obyekti.....		167
9.2.	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari va soliq imtiyozlar.....		169
9.3.	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i ni hisoblash va to'lash tartibi.....		176
	Takrorlash uchun savollar.....		178
<b>10-bob</b>	<b>SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ.....</b>	<b>179</b>	
10.1.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar va soliq solish obyekti...		179
10.2.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari va soliq imtiyozlar.....		182
10.3.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va to'lash tartibi.....		184
	Takrorlash uchun savollar.....		187
<b>11-bob</b>	<b>YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHILAR UCHUN SOLIQLAR VA MAXSUS TO'LOVLAR.....</b>	<b>188</b>	
11.1.	Yer qa'ridan foydalananuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlarini to'lovchilar va soliq solish obyekti.....		188
11.2.	Yer qa'ridan foydalananuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlarini hisoblash va to'lash tartibi.....		190
11.3.	Qo'shimcha foyda solig'i ni to'lovchilar va soliq solish obyekti.....		195
11.4.	Bonuslar.....		197
11.5.	Mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida amalga oshiriladigan faoliyatga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.....		200
	Takrorlash uchun savollar.....		202
<b>12-bob</b>	<b>YURIDIK SHAXSLAR TOMONIDAN DAVLAT MAQSADLI JAMG'ARMALARIGA TO'LANADIGAN MAJBURIY TO'LOVLAR.....</b>	<b>204</b>	
12.1.	Yagona ijtimoiy to'lovnini to'lovchilar va soliq solish obyekti .....		204
12.2.	Yagona ijtimoiy to'lov stavkalari va imtiyozlar.....		205
12.3.	Yagona ijtimoiy to'lovnini hisoblash va to'lash tartibi.....		206
12.4.	Avtotransport yig'imlarini to'lovchilar va soliq solish obyekti.....		210
12.5.	Avtotransport yig'imlarini stavkalari va imtiyozlar.....		211
12.6.	Avtotransport yig'imlarini hisoblash va to'lash tartibi.....		212
	Takrorlash uchun savollar.....		213
<b>13-bob</b>	<b>DAVLAT BOJI VA BOJXONA TO'LOVLARI.....</b>	<b>214</b>	
13.1.	Davlat boji va bojxonasi to'lovlarini undirish obyekti va to'lovchilar tarkibi .....		214
13.2.	Davlat boji va bojxonasi to'lovlarini stavkalari va soliq imtiyozlar.....		220
13.3.	Davlat boji va bojxonasi to'lovlarini hisoblash va to'lash tartibi.....		236
	Takrorlash uchun savollar.....		251
<b>14-bob</b>	<b>SOLIQ TO'LOVCHILARING AYRIM TOIFALARIGA SOLIQ SOLISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....</b>	<b>252</b>	
14.1.	To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar ishtirokida soliq to'lovchilarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.....		252
14.2.	Oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birgalikdagi faoliyatga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.....		254
14.3.	Dehqon xo'jaliklariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.....		258

14.4.	Bozorlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.....	258
14.5.	Konster-tomosha faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.....	260
14.6.	Advokatlar hay'atlari, advokatlik firmalari, advokatlik byurolari va advokatlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.....	262
	Takrorlash uchun savollar.....	263
<b>15-bob</b>	<b>DAVLAT SOLIQ XIZMATI ORGANLARI TIZIMIDA YURIDIK SHAXSLARGA OID AXBOROT - KOMMUNIKASTIYA TEKNOLOGIYALARI.....</b>	<b>264</b>
15.1.	Davlat soliq xizmati organlarida yuridik shaxslarga oid amaliyotda qo'llanilayotgan dasturiy maxsullar, interaktiv xizmatlarni joriy qilinishi va ahamiyati.....	264
15.2.	Davlat soliq xizmati organlaridagi axborot tizimlari.....	269
15.3.	Soliq xizmati organlaridagi axborot tizimlari va texnologiyalarining vazifalari.....	271
15.4.	Davlat soliq xizmati organlarida yuridik shaxslarni soliqqa tortishga doir dasturiy maxsullar turlari va mohiyati.....	273
	Takrorlash uchun savollar.....	277
	<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>278</b>

<b>ОГЛАВЛЕНИЕ</b>		
<b>Введение</b>	<b>9</b>	
<b>Глава 1</b>	<b>СУЩНОСТЬ, ПРЕДМЕТ И МЕТОДЫ ДИСЦИПЛИНЫ «НАЛОГООБЛОЖЕНИЕ ЮРИДИЧЕСКИХ ЛИЦ».....</b>	<b>13</b>
1.1.	Цель и задачи дисциплины «Налогообложение юридических лиц».....	13
1.2.	Предмет и методы дисциплины «Налогообложение юридических лиц»..	14
1.3.	Взаимосвязь с другими дисциплинами дисциплины «Налогообложение юридических лиц».....	16
1.4.	Принципы налогообложения юридических лиц.....	17
	Контрольные вопросы.....	19
<b>Глава 2</b>	<b>НАЛОГ НА ПРИБЫЛЬ ЮРИДИЧЕСКИХ ЛИЦ.....</b>	<b>20</b>
2.1.	Виды налогов и других обязательных платежей уплачиваемые юридических лиц.....	20
2.2.	Субъекты налоговых отношений.....	21
2.3.	Налогопательщики и объект налогообложения налога на прибыль юридических лиц.....	24
2.4.	Состав совокупного дохода.....	26
2.5.	Группировка расходов.....	36
2.6.	Особенности налогообложения доходов кредитных организаций.....	57
2.7.	Особенности налогообложения доходов страховых организаций.....	59
2.8.	Особенности налогообложения доходов профессиональных участников рынка ценных бумаг.....	61
2.9.	Особенности налогообложения доходов нерезидентов Республики Узбекистан.....	62
2.10.	Особенности налогообложения доходов в виде дивидендов и процентов	72
2.11.	Ставки и льготы налога на прибыль юридических лиц.....	73
2.12.	Порядок исчисления и уплата налога на прибыль юридических лиц	77
	Контрольные вопросы.....	81
<b>Глава 3</b>	<b>УПРОЩЕННЫЙ ПОРЯДОК НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ.....</b>	<b>82</b>
3.1.	Применение упрощенного порядка налогообложения в налоговую практику.....	82
3.2.	Этапы развитие упрощенного порядка налогообложения.....	82
3.3.	Экономическая значение упрощенного порядка налогообложения.....	83
3.4.	Особенности применение упрощенного порядка налогообложения.....	84
	Контрольные вопросы.....	86
<b>Глава 4</b>	<b>ЕДИНЫЙ НАЛОГОВЫЙ ПЛАТЕЖ.....</b>	<b>87</b>
4.1.	Налогопательщики и объект налогообложения единого налогового платежа.....	87
4.2.	Ставки и льготы единого налогового платежа.....	95
4.3.	Порядок исчисления и уплата единого налогового платежа.....	97
	Контрольные вопросы.....	98
<b>Глава 5</b>	<b>ЕДИНЫЙ ЗЕМЕЛЬНЫЙ НАЛОГ .....</b>	<b>99</b>
5.1.	Налогопательщики и объект налогообложения единого земельного налога.....	99
5.2.	Ставки и льготы единого земельного налога.....	102
5.3.	Порядок исчисления и уплата единого земельного налога.....	102
	Контрольные вопросы.....	103
<b>Глава 6</b>	<b>НАЛОГ НА ДОБАВЛЕННУЮ СТОИМОСТЬ УПЛАЧИВАЕМЫЕ ЮРИДИЧЕСКИХ ЛИЦ.....</b>	<b>104</b>
6.1.	Значение налога на добавленную стоимость формирования доходов государственного бюджета.....	104
6.2.	Этапы развитие налога на добавленную стоимость.....	106
6.3.	Налогопательщики и объект налогообложения налога на добавленную стоимость.....	106
6.4.	Ставки и льготы налога на добавленную стоимость.....	118
6.5.	Порядок исчисления и уплата налога на добавленную стоимость.....	139

<b>Глава 7</b>	<b>АКЦИЗНЫЙ НАЛОГ УПЛАЧИВАЕМЫЕ ЮРИДИЧЕСКИХ ЛИЦ.....</b>	145	<b>КАТЕГОРИЙ НАЛОГОПЛАТЕЛЬЩИКОВ.....</b>	252
7.1.	Акцизный налог и его значение в налоговом системе.....	147	Особенности налогообложения налогоплательщиков с участием прямых частных иностранных инвестиций.....	254
7.2.	Налогоплательщики и объект налогообложения акцизного налога.....	147	Особенности налогообложения совместной деятельности по договору простого товарищества.....	255
7.3.	Ставки и порядок исчисления акцизного налога.....	149	Особенности налогообложения дехканских хозяйств.....	258
Контрольные вопросы.....		154	Особенности налогообложения рынков.....	258
<b>Глава 8</b>	<b>НАЛОГ НА ИМУЩЕСТВО ЮРИДИЧЕСКИХ ЛИЦ.....</b>	156	Особенности налогообложения юридических и физических лиц, осуществляющих концернно-зрелищную деятельность.....	260
8.1.	Налогоплательщики и объект налогообложения налога на имущество юридических лиц.....	157	Особенности налогообложения коллегий адвокатов, адвокатских фирм, адвокатских бюро и адвокатов.....	262
8.2.	Ставки и льготы налога на имущество юридических лиц.....	157	Контрольные вопросы.....	263
8.3.	Порядок исчисления и уплата налога на имущество юридических лиц.....	160		
Контрольные вопросы.....		163		
<b>Глава 9</b>	<b>ЗЕМЕЛЬНЫЙ НАЛОГ С ЮРИДИЧЕСКИХ ЛИЦ.....</b>	165	<b>ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В СИСТЕМЫ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ОРГАНАХ НАЛОГОВОЙ СЛУЖБЫ ДЛЯ ЮРИДИЧЕСКИХ ЛИЦ.....</b>	264
9.1.	Налогоплательщики и объект налогообложения земельного налога с юридических лиц.....	167	Значение программных продуктов и интерактивных государственных услуг в государственных органах налоговой службы для юридических лиц.....	264
9.2.	Ставки и льготы земельного налога с юридических лиц.....	169	Информационные системы в государственных органах налоговой службы.....	266
9.3.	Порядок исчисления и уплата земельного налога с юридических лиц.....	176	Задачи информационных систем и технологии в государственных органах налоговой службы.....	269
Контрольные вопросы.....		178	Сущность и виды программных продуктов и интерактивных государственных услуг в государственных органах налоговой службы для юридических лиц.....	271
<b>Глава 10</b>	<b>НАЛОГ ЗА ПОЛЬЗОВАНИЕ ВОДНЫМИ РЕСУРСАМИ.....</b>	179	Контрольные вопросы.....	273
10.1.	Налогоплательщики и объект налогообложения налога за пользование водными ресурсами.....	179	<b>ИНФОРМАЦИОННО-МЕТОДИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ.....</b>	274
10.2.	Ставки и льготы налога за пользование водными ресурсами.....	182		277
10.3.	Порядок исчисления и уплата налога за пользование водными ресурсами.....	184		
Контрольные вопросы.....		187		
<b>Глава 11</b>	<b>НАЛОГИ И СПЕЦИАЛЬНЫЕ ПЛАТЕЖИ ДЛЯ НЕДРОПОЛЬЗОВАТЕЛЕЙ.....</b>	188		
11.1.	Налогоплательщики и объект налогообложения налоги и специальные платежи для недропользователей.....	188		
11.2.	Порядок исчисления и уплата налоги и специальные платежи для недропользователей.....	190		
11.3.	Налогоплательщики и объект налогообложения налог на сверхприбыль.....	195		
11.4.	Бонусы.....	197		
11.5.	Особенности налогообложения деятельности, осуществляющей в рамках соглашения о разделе продукции.....	200		
Контрольные вопросы.....		202		
<b>Глава 12</b>	<b>ОБЯЗАТЕЛЬНЫЕ ПЛАТЕЖИ В ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ЦЕЛЕВЫЕ ФОНДЫ.....</b>	204		
12.1.	Налогоплательщики и объект налогообложения единого социального платежа.....	204		
12.2.	Ставки и льготы единого социального платежа.....	205		
12.3.	Порядок исчисления и уплата единого социального платежа.....	206		
12.4.	Налогоплательщики и объект налогообложения автотранспортных сборов.....	210		
12.5.	Ставки и льготы автотранспортных сборов.....	211		
12.6.	Порядок исчисления и уплата автотранспортных сборов.....	212		
Контрольные вопросы.....		213		
<b>Глава 13</b>	<b>ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ПОШЛИНЫ И ТАМОЖЕННЫЕ ПЛАТЕЖИ.....</b>	214		
13.1.	Налогоплательщики и объект налогообложения государственной пошлины и таможенных платежей.....	214		
13.2.	Ставки и льготы государственной пошлины и таможенных платежей....	220		
13.3.	Порядок исчисления и уплата государственной пошлины и таможенных платежей.....	236		
Контрольные вопросы.....		251		
<b>Глава 14</b>	<b>ОСОБЕННОСТИ НАЛГООБЛЕЖЕНИЯ ОТДЕЛЬНЫХ</b>	252		

## KIRISH

Yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar davlatning barcha vazifalarini amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan moliya manbalaridan biri bo‘lib, u davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy vositadir. Yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar bo‘yicha soliq yukini kamaytirish kichik biznes subyektlarning ishbilarmonlik faolligi va moliyaviy barqarorligini yuksaltirishda asosiy o‘rin tutadi.

«Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fani O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq xizmati organlariga mutaxassis kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yuridik shaxslardan undiriladigan umumdavlat va mahalliy soliqlarni iqtisodiy mohiyati, yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlarning turlari, yuridik shaxslarni soliqqa tortishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishda «Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fani alohida o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018- yil 29- dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2019- yildan boshlab joriy etilayotgan yangi soliq konsepsiyasining eng asosiy g‘oyasi soliq yukini kamaytirish, sodda va barqaror soliq tizimini qo‘llashni ko‘zda tutilishi ta’kidlab o‘tildi:

«2019- yildan boshlab joriy etilayotgan yangi soliq konsepsiyasining eng asosiy g‘oyasi soliq yukini kamaytirish, sodda va barqaror soliq tizimini qo‘llashni ko‘zda tutadi. Shu orqali iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish, tadbirkor va investorlar uchun har tomonlama qulay muhit yaratishga erishish mumkin»<sup>1</sup>

O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimida yuridik shaxslardan olinadigan resurs soliqlari davlatimiz rivojlanishining barcha bosqichlarida davlat byudjetiga zarur moliyaviy resurslarning kelib tushishishi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minalash bo‘yicha o‘z oldida turgan vazifalarni bajarib kelmoqda. Ishbilarmonlik va investisiyaviy faoliytni oshirishga, sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishga, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar yig‘iluvchanligining zarur darajasini ta’minalashga to‘sinqilik qilayotgan bir qator tizimli muammolarni mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 29- iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to‘g‘risida”gi PF-5468-son Farmoniga muvofiq soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish, soliq ma‘muriyatichilagini takomillashtirish, iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yo‘nalishlari belgilab berildi:

“Soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma‘muriyatichilagini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investisiyaviy jozibadorligini yaxshilashning eng muhim shartlari hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yo‘nalishlari etib belgilansin:

-iqtisodiyotga soliq yukining darajasini kamaytirish, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimi bo‘yicha soliqlarni to‘laydigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi soliq yuki darajasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish;

-soliqlarni unifikastiya qilish orqali ularning sonini optimallashtirish, shuningdek, o‘xshash soliq solish bazasiga ega bo‘lgan soliqlarni birlashtirish, soliq hisobotlarini qisqartirish va soddalashtirish, operastion xarajatlarni minimallashtirish;

-makroiqtisodiy vaziyatning barqarorligini, O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va uning daromadlarini shakllantirishning mustahkamligini ta’minalash;

-soliq qonunchiligini soddalashtirish, soliq munosabatlari sohasida normativ-huquqiy hujjatlardagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni bartaraf etish, insofli soliq to‘lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini kuchaytirish;

-soliq solish masalalarini tartibga soladigan havolaki normalar va qonun osti hujjatlarini maksimal darajada cheklagan holda, soliq qonunchiligining barqarorligini hamda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi normalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishini ta’minalash, shu jumladan kodeksda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar stavkalarining miqdorlarini belgilash;

<sup>1</sup>2019 yil – «Faol investisiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili» O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018- yil 28- dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi //Xalq so‘zi, 2018- yil 29- dekabr

-xorijiy investorlar va investisiyalar uchun qulay rejimni saqlab qolish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ishonchli huquqiy himoyalash;

-soliq nazoratining shakl va mexanizmlarini, shu jumladan soliq solish obyektlari hamda soliq to'lovchilarni yanada to'liq qamrab olish va hisobini ta'minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikastiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga takomillashtirish, transfer narxlarni shakllantirish bilan bog'liq operastiyalarga soliq solish tartibini joriy etish.”<sup>2</sup>

Mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish va xorijiy investisiyalarни jalb qilish uchun soliq yukini izchillik bilan kamaytirish va qulay shart-sharoitlarni yaratishni ta'minlaydigan soliq tizimi shakllantirilgan. Soliq sohasidagi islohatlarni amalga oshirishda yuridik shaxslardan olinadigan resurs soliqlari va ularning korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'sirini tahlil qilish va soliq munosabatlarni takomillashtirish, soliq tizimidagi mavjud muammolarni bartaraf etish va jahon tajribasidan foydalanish istiqbollarini ilmiy tahlil qilish muhim va dolzarb muammoli masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Iqtisodiyotni modernizastiyalash sharoitida yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartibi, yuridik shaxslardan undiriladigan umum davlat va mahalliy soliqlarni iqtisodiy mohiyati va soliq tizimidagi ahamiyati, yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlarning turlari, yuridik shaxslarni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari bilan yaqindan tanishtirib, ularning bilimlarini chuqurlashtirish, fan buyicha nazariy va amaliy bilim ko'nikmalarini hosil qilish lozimligini ko'rsatmoqda.

Ushbu fan yuridik shaxslarni soliqqa tortish tushunchasi, yuridik shaxslardan undiriladigan umum davlat va mahalliy soliqlarni iqtisodiy mohiyati, yuridik shaxslarni soliqqa tortishning asosiy prinstiplarini o'rgatishda qo'l keladi. Shuningdek, «Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fani mutaxassislik fanlardan biri bo'lib, boshqa iqtisodiy fanlarni chuqur o'rganishda asos bo'lib xizmat qiladi.

## I bob. «YURIDIK SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH»

### FANINING MAZMUNI, PREDMETI VA METODI

#### 1.1. «Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fanining maqsadi va vazifasi

«Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fanining maqsadi yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartibi, yuridik shaxslardan undiriladigan umum davlat va mahalliy soliqlarni iqtisodiy mohiyati va soliq tizimidagi ahamiyati, yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlarning turlari, yuridik shaxslarni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari bilan yaqindan tanishtirib, yuridik shaxslarni soliqqa tortish bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish, fan buyicha nazariy va amaliy bilim ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat.

Ushbu fan yuridik shaxslarni soliqqa tortish tushunchasi, yuridik shaxslardan undiriladigan umum davlat va mahalliy soliqlarni iqtisodiy mohiyati, yuridik shaxslarni soliqqa tortishning asosiy prinstiplarini o'rgatishda qo'l keladi. Shuningdek, «Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fani mutaxassislik fanlardan biri bo'lib, boshqa iqtisodiy fanlarni chuqur o'rganishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Fanning vazifasi yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartibi bo'yicha talabalar va davlat soliq xizmati organlari xodimlarini nazariy hamda amaliy tomonidan o'rgatish hamda soliq amaliyotida tatbiq etishdir.

Shuningdek, rivojlangan chet el mamlakatlarining soliq amaliyotidagi ilg'or tajribalarini o'rganish asosida qilingan xulosalarni iqtisodiyotimizga mos tomonlarini tatbiq etishdan iboratdir.

«Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fani O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq xizmati organlariga mutaxassis kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

«Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fanining asosiy vazifasi yuqori malakali davlat soliq xizmati organlariga mutaxassis kadrlarni tayyorlashda ularni ham nazariy, ham ilmiy, ham amaliy jihatidan o'rganishlarini va bilimga ega bo'lishlarini ta'minlashdan iboratdir.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-son Farmoni

## **1.2.«Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fanining predmeti va o‘rganish usullari**

«Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fani barcha iqtisodiy fanlar kabi o‘zining predmetiga, ya’ni izlanish obyektiiga ega. «Soliq nazariyasi» fanining predmeti bo‘lib soliqlar va soliq munosabatlarini paydo bo‘lishi hamda soliqlarning harkati hisoblansa, «Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish» fanida esa jismoniy shaxslarni soliqqa tortish mexanizmini har taraflama o‘rganish bo‘lsa, yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarning harakati, yuridik shaxslarni soliqqa tortish mexanizmini o‘rganish, yuridik shaxslarni soliqqa tortish jarayoni «Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fanining predmeti bo‘lib hisoblanadi.

«Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fanini o‘rganishdagi usullar umumiy va alohida usullarga bo‘linadi.

Tabiat, jamiyat va tafakkurning rivojlanish qonunlarini tadqiq qilishning ilmiy uslubi dialektik uslubdir. Shuning uchun ham ushbu ilmiy uslub barcha fanlarning, shu jumladan «Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fanining nazariy va uslubiy asosini tashkil etadi. Dialektika iqtisodiy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi, harakat va rivojlanishida tadqiq qilishni talab etadi. Dialektik uslub shuni tadqiq etadiki, rivojlanish quyidan yuqoriga qarab sodir bo‘ladi, bilish esa oddiydan murakkabga tomon rivoj topib boradi. Shuning uchun ushbu uslub tadqiq etishning indukstiya va dedukstiya usullarini o‘z ichiga oladi.

Xususiy, yakka fakt olinib, uning asosida umumiy qoida hosil qilinadigan bo‘lsa – indukstiya usuli vujudga keladi. Barcha xususiy hollarni o‘z ichiga olgan umumiy qoida hosil qilinsa – dedukstiya usuli yuzaga keladi.

Hamma iqtisodiy fanlar kabi «Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fanining ham o‘ziga xos ilmiy tadqiq etish usullari mavjud, ya’ni ilmiy tadqiq etish usullari biri bu ilmiy abstrakstiya usulidir. Ilmiy abstrakstiya usulining mohiyati bu tahlil paytida obyektning faqat bir tomoniga, tadqiq etilayotgan jarayonning asosiy mohiyatiga e’tibor qaratilib, halal berishi mumkin bo‘lgan ikkinchi darajali elementlarning ta’siri e’tibordan chetda qoldiriladi.

Tabiat va jamiyatdagi voqeа hodisalar singari iqtisodiy jarayonlarning ham tarkibiy bo‘limlarini tadqiq etmay turib, ya’ni tahlil qilmay turib, ularni ilmiy jihatidan o‘rganib bo‘lmaydi.

«Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fani shuningdek, o‘z predmetini o‘rganishda tahlil va sintez usulidan ham foydalanadi.

«Tahlil» iborasi grekcha «analiz» so‘zidan olingan bo‘lib, bu qismlarga bo‘lish yoki ajratish, tahlil qilish kabi ma’nolarni bildiradi, ya’ni tahlil murakkab hodisa va predmetlarni tarkibiy bo‘laklarga bo‘lish, ajratish asosida ko‘rsatkichlarni taqqoslash va tadqiq etish demakdir.

Tahlil usuli bo‘lib, bu usul vositasida voqeа hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar tadqiq etiladi.

Sintez usuli tadqiq etilgan bo‘limlardan olingan xulosa va natijalarni butun bir yaxlit jarayon deb hisoblab, umumiy xulosa chiqarishdan iborat. Yuridik shaxslardan undiriladigan soliq turlarini hisoblash va davlat byudjetiga o‘tkazish tartibining amaliy masalalari mazkur usul bilan tadqiq etiladi.

To‘liq tasavvur paydo bo‘lishi uchun predmetning ayrim tarkibiy elementlarining bog‘liqligini va mayjud muammolarni aniqlab olish, umumlashtirish, ya’ni sintez qilish lozim. Tahlilsiz sintez ham bo‘lmaydi.

Shuningdek, «Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fanini o‘rganishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin: foiz chiqarish, taqqoslash, koeffistent, zanjirli bog‘lanish, korrelyastiya, matematik usullarni qo‘llash, statistik, grafik, yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlarni davrlar bo‘yicha taqqoslash, yuridik shaxslardan undiriladigan soliq tushumlarini jadvallar orqali ifodalash, o‘zgarishlarni aniqlash, ularga nazariy jihatdan baho berish, yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlarning boshqa iqtisodiy kategoriyalarga ta’sirini grafik usulda tasvirlash va boshqalar.

Yuqorida aytib o‘tilgan usullardan foydalanib yuridik shaxslarning faoliyatini tahlil qilish iqtisodiyotdagi yangi imkoniyatlarni topishda yordam beradi, yuridik shaxslarni soliqqa tortish samaradorligini yanada oshiradi.

Statistik guruhlash usuli - bu ma’lumotlarni ma’lum belgilariga ko‘ra guruhlarga ajratish statistik tadqiq etishning muhim usuli hisoblanadi. Statistik usul

deb atalishiga sabab shundaki, bunda ko'rsatkichlar bir qancha statistik ma'lumotlarni guruhlarga bo'lish asosida o'rganiladi. Statistik guruhlash usuli orqali iqtisodiy ko'rsatkichlar bir hil bo'lgan guruhlarga ajratiladi va ayrim ko'rsatkichlar o'rtaida bir-biriga bog'liqlik borligini hamda tadqiq etilayotgan voqeа hodislarning eng zaruri, muhimani aniqlanadi.

### **1.3.«Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi**

«Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fani yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarning harakatini va yuridik shaxslarni soliqqa tortish mexanizmini chuqur o'rganish asosida xulosa qilib olingan, takrorlanib turadigan munosabatlarni tartibga solib o'rgatadi.

«Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fani «Soliq nazariyasi» fani bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki yuridik shaxslardan olinadigan soliq nazariyasi qonuniyatlar va soliqqa tortish tamoyillaridan chetga chiqib ketaolmaydi, ularga asoslanadi.

Bu fan moliya fani bilan ham chambarchas bog'liqdir. Chunki yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar moliya munosabatlarining tarkibiga kiradi. Shuning uchun moliya ham, yuridik shaxslar soliqlari ham pul munosabatlarini ifodalaydi. Bu ikkala fan uchun yagona asos pul munosabatlarining mavjudligidir. Lekin yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar keyinchalik o'ziga xos bo'lgan pul munosabatlarini, ya'ni soliq to'lovchilar bilan davlat o'rtaidiagi majburiy pul munosabatlarini ifodalaydi.

Shuningdek, «Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fani bakalavriat ta'lim yo'nalishidagi «Soliq nazariyasi», «Moliya», «Buxgalteriya hisobi», «Iqtisodiy tahlil va audit», «Soliq ma'murchiligi», «Soliq statistikasi va prognozi», «Soliq hisobi va hisoboti», «Iqtisodiyot nazariyasi», «Soliq tizimi», «Soliq tizimida dasturiy mahsullar», «Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish», «Xalqaro soliqqa tortish munosabatlari» va «Mikroiqtisodiyot.Makroiqtisodiyot» va boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqdir.

### **1.4.Yuridik shaxslarni soliqqa tortishning asosiy prinstiplari**

Davlat soliq xizmati organlari xodimlari o'zlariga soliq qonunchiligi xujjalarda yuklangan vazifalarni muvaffaqiyatlari bajarishlari uchun faqat nazariy jihatlarini o'rganib qolmasdan, yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarning iqtisodiy mohiyati va obyektiv zarurligi, umumiylashtirish asosga ega bo'lgan soliq qonunchiligi tamoyillari, soliqlar va majburiy to'lovlar tizimi, yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarning turlari va yuridik shaxslarni soliqqa tortish mexanizmini amaldagi holatini puxta egallagan bo'lishi zarur. Buning uchun esa, yuridik shaxslarni soliqqa tortish fanini chuqur o'rganishi kerak.

Yuridik shaxslarni soliqqa tortish fani pul munosabatlarini ifodalovchi soliqlarning mohiyati, davlat byudjetiga tushish nuqtai nazaridan umum davlat (respublika) soliqlari va mahalliy soliqlarga bo'linishi, yuridik shaxslar tushunchasi va ularning soliqlari tarkibi, yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarning byudjet daromadlarini shakllantirish va pul muomalasini mustaxkamlashdagi ahamiyati, yuridik shaxslar soliqlarini byudjetga to'lash tartibi, yuridik shaxslardan olinadigan coliqlar va boshqa majburiy to'lovlarining turlari, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, soliq solishning soddalashtirilgan tartibi, yagona soliq to'lovi, yagona er solig'i, yuridik shaxslardan undiriladigan qo'shilgan qiymat solig'i, yuridik shaxslardan undiriladigan aksiz solig'i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, yuridik shaxslardan olinadigan er solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, er qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar, davlat maqsadli jamg'armalariga to'lanadigan majburiy to'lovlar, yuridik shaxslar tomonidan davlat maqsadli jamg'armalariga to'lanadigan majburiy to'lovlar, soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga soliq solish tartibi, davlat boji va bojxona to'lovlar, soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari, davlat soliq xizmati organlari tizimida yuridik shaxslarga oid axborot-kommunikastiya texnologiyalari, yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarni amaliyatga tatbiq etish uslublari, soliq tizimiga oid boshka harakatlarni o'z ichiga oladi.

Yuridik shaxslarni soliqqa tortish soliq solishning majburiyligi, aniqligi, adolatliliqi, soliq tizimining yagonaligi, soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining oshkoraliqi va soliq to‘lovchining haqligi prezumpsiyasi prinstiplariga asoslanadi.

**Soliq solishning majburiyligi prinstipi-** har bir shaxs soliq qonunchiligidan belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarini to‘lashi shart.

Hech kimming zimmasiga soliq qonunchiligidan nazarda tutilmagan yoki uning normalari buzilgan holda belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarini to‘lashi majburiyatini yuklatishi mumkin emas.

**Soliq solishning aniqligi prinstipi** - soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar aniqliki kerak. Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari har bir soliq to‘lovchi qaysi soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarini, qachon, qancha miqdorda hamda qay tartibda to‘lashi kerakligini aniqlik biladigan tarzda ifodalangan bo‘lishi kerak.

**Soliq solishningadolatliliqi prinstipi**- soliq solish umumiydir.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlarni belgilash ijtimoiy adolat prinstiplariga mos bo‘lishi kerak. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha yakka tartibdagi xususiyatga ega bo‘lgan imtiyozlar berilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar kamsitish xususiyatiga ega bo‘lishi mumkin emas hamda ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy va boshqa shu kabi mezonlardan kelib chiqqan holda qo‘llanilishi mumkin emas.

**Soliq tizimining yagonaligi prinstipi**- soliq tizimi O‘zbekiston Respublikasining butun hududida barcha soliq to‘lovchilarga nisbatan yagonadir.

O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududi doirasida tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) yoki moliiyaviy mablag‘larning erkin muomalada bo‘lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo‘yadigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar belgilanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

**Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining oshkoraliqi prinstipi**- soliq solish masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlarda e’lon qilinishi shart. Barchaning e’tibori uchun rasmiy e’lon qilinmagan normativ-huquqiy hujjatlar kuchga kiritilmagan hujjat sifatida huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydi

va soliq sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga, ulardagi ko‘rsatmalar bajarilmaganligi uchun biron bir sankstiyani qo‘llashga asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin emas.

**Soliq to‘lovchining haqligi prezumpsiyasi prinstipi**-soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlaridagi bartaraf etib bo‘lmaydigan barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar soliq to‘lovchining foydasiga talqin qilinadi.

#### **Takrorlash uchun savollar**

1.«Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fanining maqsidi va vazifasi nimalardan iborat ?

2.«Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fanining predmeti va o‘rganish usullarini tushuntirib bering ?

3.«Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fanining boshqa fanlar bilan qanday bog‘liqligi mavjud ?

## **II bob. YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN FOYDA SOLIG‘I**

### **2.1.Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar**

Soliqlar deganda soliq qonunchiligidagi belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg‘araz xususiyatga ega bo‘lgan, byudjetga yo‘naltiriladigan majburiy pul to‘lovleri tushuniladi.

Boshqa majburiy to‘lovleri deganda soliq qonunchiligidagi belgilangan davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy pul to‘lovleri, bojxona to‘lovleri, shuningdek vakolatlari organlar hamda mansabdar shaxslar tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni to‘lovchilarga nisbatan amalga oshirish uchun, shu jumladan muayyan huquqlarni yoki listenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berish uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan yig‘imlar, davlat boji tushuniladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarga quyidagilar kiradi:

1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i.
2. Qo‘shilgan qiymat solig‘i.
3. Aksiz solig‘i.
4. Er qa’ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to‘lovlar.
5. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.
6. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq
7. Yuridik shaxslardan olinadigan er solig‘i
8. Yagona soliq to‘lovi.
9. Yagona er solig‘i.
- 10.Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat’iy belgilangan soliq.

Yuridik shaxslarning hamma soliqlari naqd pulsiz to‘lanadi. Biroq, ayrim yig‘imlar (davlat va bojxona bojlari) naqd pulli bo‘lishi mumkin. Yuridik shaxslar soliqlarini naqd pulsiz to‘lanishi juda katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Pul o‘tkazishlar tezlashadi, ijtimoiy xarajatlar tejaladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Soliq Kodeksida nazarda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar amal qiladi.

Umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar:

- 1) Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i.

2) Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i.

3) Qo‘shilgan qiymat solig‘i.

4) Aksiz solig‘i.

5) Er qa’ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to‘lovlar.

6) Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar:

1)Mol-mulk solig‘i.

2)Er solig‘i.

Boshqa majburiy to‘lovleri jumlasiga quyidagilar kiradi:

1)Davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy to‘lovlar:

-Yagona ijtimoiy to‘lov.

-Avtotransport yig‘imlar.

2)Davlat boji.

3)Bojxona to‘lovleri.

4)Ayrim turdaggi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdaggi xizmatlarni ko‘rsatish huquqi uchun yig‘im.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to‘lanadigan quyidagi soliqlar qo‘llaniladi:

1) Yagona soliq to‘lovi.

2) Yagona er solig‘i.

3)Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat’iy belgilangan soliq.

Mamlakatimiz soliq qonunchiligidagi muvofiq soliq to‘lovchilar ikki katta guruhga, ya’ni yuridik va jismoniy shaxslar guruhiga bo‘linadi va ularning faoliyat ko‘rsatish xususiyatidan kelib chiqib yana tarkibiy qismlarga ajratish mumkin. Respublikamiz davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda yuridik shaxslar to‘laydigan soliqlar katta ahamiyatga ega.

### **2.2.Soliq munosabatlarining subyektlari**

Soliq to‘lovchi yuridik shaxslar va vakolatlari organlar soliq munosabatlarining subyektlari bo‘lib hisoblanadi.

Yuridik shaxs deb quyidagilar e'tirof etiladi:


O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan, o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, mustaqil balansiga yoki smetasiga ega bo'lgan, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan hamda ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar bo'la oladigan tashkilot.

Chet davlatning qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan chet el tashkiloti.

O'zbekiston Respublikasining, chet davlatning qonun hujjatlariga yoki xalqaro shartnomaga muvofiq tashkil etilgan xalqaro tashkilot.

Notijorat tashkilotlari deganda foyda olishni faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan va olingan daromadlarni o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan yuridik shaxslar tushuniladi.

Notijorat tashkilotlariga byudjet tashkilotlari, shu jumladan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shu jumladan O'zbekiston Respublikasida davlat ro'yxatidan o'tgan xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tashkilotlar kiradi.




## 2.2.1-chizma. Yuridik shaxslarning o'ziga xos xususiyatlari

Soliq to'lovchilar soliq qonunchiligiga muvofiq zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati yuklatilgan yuridik shaxslar va ularning alohida bo'linmalaridir.

Soliq agentlari soliq qonunchiligiga muvofiq zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, soliq to'lovchidan ushlab qolish hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslardir.

Soliq to'lovchining vakillari qonunga yoki ta'sis hujjatiga muvofiq soliq to'lovchining vakili bo'lishga vakolatli shaxslardir.



## 2.2.2-chizma. Vakolatli organlar

Vakolatli organlar quyidagilardir:

1.Davlat soliq xizmati organlari - O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek tumanlar, shaharlar va shahardagi tumanlar davlat soliq inspekstiyalari.

2.Bojxona organlari - O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha boshqarmalari, bojxona komplekslari va bojxona postlari.

3.Moliya organlari - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar

hokimliklarining moliya boshqarmalari, tuman va shahar hokimliklarining moliya bo‘limlari.

4.Boshqa majburiy to‘lovlarni undirish vazifasini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlari.



### 2.2.3-chizma. Soliq munosabatlarining subyektlari

O‘zbekiston Respublikasining rezidenti deb O‘zbekiston Respublikasida davlat ro‘yxatidan o‘tgan yuridik shaxs e’tirof etiladi.

Norezidentning O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasi deganda norezident O‘zbekiston Respublikasi hududida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan, shu jumladan faoliyatni vakolati shaxs orqali amalga oshirayotgan har qanday joy e’tirof etiladi.

### 2.3. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini to‘lovchilar va soliq solish obyekti

Foya solig‘i to‘lovchi yuridik shaxslar quyidagilardir:

O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yoki hosil bo‘lish manbai O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan daromadlarni oladigan O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari.

Quyidagilar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i to‘lovchilar bo‘lmaydi:

1.Notijorat tashkilotlar. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan daromadlar olinganda notijorat tashkilotlar mazkur daromadlarga taalluqli qism bo‘yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini to‘lovchilar bo‘ladi.

2.Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining obyekti quyidagilardir:

O‘zbekiston Respublikasi rezidentlarining, shuningdek O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining foydasi.

### 2.3.1-jadval

#### O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining 2018 yil bevosita soliqlar bo‘yicha ijrosi.(mlrd.so‘m)<sup>3</sup>

Ko‘rsatkichlar		2018- yil
<b>Daromadlar (maqsadli jamg‘armalarsiz) - jami</b>		<b>79 099,1</b>
<b>Bevosita soliqlar</b>		<b>15 656,2</b>
1.1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	3 502,2
1.2	Savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalar uchun yagona soliq to‘lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar	2 108,5
1.3	Yagona soliq to‘lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar, shu jumladan mikrofirmalar va kichik korxonalardan ajratmalar	2 597,9
1.4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	6 422,7
1.5	Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat’iy belgilangan soliq	1 024,8

O‘zbekiston Respublikasi rezidentlarining va O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining ushbu bo‘limga muvofiq chegirmalar qilinmagan holda to‘lov manbaida soliq solinadigan daromadlari.

Soliq solinadigan baza jami daromad bilan soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan chegirib tashlanadigan xaratjatlar o‘rtasidagi farq sifatida, boshqa qonunlarda va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida, alohida hollarda esa

<sup>3</sup> <http://www.mf.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ma'lumotlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida nazarda tutilgan imtiyozlar hamda soliq qonunchiligiga muvofiq soliq solinadigan foydaning kamaytirilishi summalarini inobatga olingan holda hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqib belgilanadi.

2.3.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining 2018-yilda ijrosi bo'yicha daromadlar 79099,1 mlrd.so'm bo'lib, bevosita soliqlar 15656,2 mlrd.so'm, shundan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i 3502,2 mlrd.so'm, savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalar uchun yagona soliq to'lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar 2108,5 mlrd.so'm, yagona soliq to'lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar, shu jumladan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun ajratmalar 2597,9 mlrd.so'm, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 6422,7 mlrd.so'm, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq 1024,8 mlrd.so'mni tashkil etgan.

O'tgan soliq davrlariga tegishli, joriy soliq davriga o'tkazilishi lozim bo'lgan zararlar mavjud bo'lsa, soliq solinadigan baza soliq qonunchiligiga muvofiq taqsimlab o'tkaziladigan zararlar summasiga kamaytiriladi.

#### **2.4. Jami daromadning tarkibi**

Jami daromadga quyidagilar kiradi:

- 1.Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizastiya qilishdan olinadigan daromadlar.
- 2.Boshqa daromadlar.

Soliq to'lovchining qiymati chet el valyutasida ifodalangan daromadlari milliy valyutada olingan daromadlar bilan jamlangan holda, buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda hisobga olinadi.

Quyidagilar soliq to'lovchining daromadi sifatida qaralmaydi:

1) Ustav fondiga (ustav kapitaliga) olingan hissalar, shu jumladan akstiyalarni (ulushlarni) joylashtirish bahosining ularning nominal qiymatidan (dastlabki miqdoridan) ortiq summasi, birgalikdagagi faoliyatni amalga oshirish uchun oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birlashtiriladigan mablag'lar.

2)Muassisalar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilayotganda (chiqarilayotganda), yoki muassis (ishtirokchi) ulushining miqdori kamaytirilganda, shuningdek tugatilayotgan yuridik shaxsnинг mol-mulki uning muassislarini (ishtirokchilarini) o'rtasida taqsimlanayotganda ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa doirasida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar).

3)Oddiy shirkat shartnomasi sheringining (ishtirokchisining) shartnomalarini (ishtirokchilarini) umumiy mulkidagi ulushi qaytarib berilgan yoki bunday mol-mulk bo'lingan taqdirda, hissasi miqdorida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar).

4)Realizastiya qilinayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun boshqa shaxslardan dastlabki haq (bo'nak) tarzida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar).

5)Qonun hujjatlariga muvofiq majburiyatlarni ta'minlash tariqasida garov yoki zakalat tarzida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar) ularga bo'lgan mulk huquqi boshqa shaxsga o'tadigan paytga qadar.

6)Byudjetdan berilgan subsidiyalar.

7)Agar mablag'larni (mol-mulk yoki mulkiy huquqlarni) boshqa shaxsga o'tkazish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida yuz berayotgan bo'lsa, tekin olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar), ishlarni va xizmatlar.

8)Olingan grantlar va insonparvarlik yordami.

10)Notijorat taskilotlar tomonidan ustav faoliyatining ta'minoti va uni amalga oshirish uchun olingan, belgilangan maqsadga ko'ra va (yoki) tekin kelib tushgan mablag'lar.

11)Sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta tovoni (sug'urta summasi) tariqasida olingan mablag'lar.

12)Vositachiga yoki boshqa ishonchli vakilga vositachilik, topshiriq shartnomasi yoki vositachilik xizmatlarini ko'rsatish yuzasidan boshqa shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni bajarish munosabati bilan, shuningdek komitent yoxud

boshqa topshiriq beruvchi uchun vositachi yoki boshqa ishonchli vakil tomonidan qilingan xarajatlarni qoplash hisobiga kelib tushgan mol-mulk (haq to‘lovi bundan mustasno).

13)Ijaraga beruvchi (lizing beruvchi) ijara (lizing) to‘lovining qismi tariqasida oлган moliyaviy ijara (lizing) obyekti qiymatining qoplamasи.

14)Telekommunikasiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining tekin olingen texnik vositalari, shuningdek mazkur vositalardan foydalanishga hamda ularga xizmat ko‘rsatishga doir xizmatlardan olingen daromadlar.

15)Ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyekti muassislaridan (ishtirokchilaridan) uning majburiyatlarini bajarish uchun olingen mablag‘lar. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to‘xtatilgan va faoliyat qayta boshlangan taqdirda, ushbu mablag‘lar jami daromad tarkibiga kiritiladi hamda soliqqa tortildi.

16)Investor va davlat mulkini boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi o‘rtasida tuzilgan shartnomaga binoan investisiya majburiyatları sifatida kiritilayotgan mol-mulk.

O‘zbekiston Respublikasidagi to‘lov manbaida soliq solinadigan dividendlar va foizlar jami daromaddan chegirib tashlanadi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizastiya qilishdan, shu jumladan yordamchi xizmatlar tomonidan realizastiya qilishdan qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i chegirib tashlangan holda olingen tushum tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizastiya qilishdan olinadigan daromaddir.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizastiya qilishdan olinadigan tushum yuklab jo‘natilgan tovarlar (bajarilgan ishlari, ko‘rsatilgan xizmatlar) qiymatidan kelib chiqqan holda tovarlarni jo‘natish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish hollarini tasdiqlovchi hujjatlar asosida belgilanadi.

Vositachilik faoliyatidan daromadlar oladigan yuridik shaxslar uchun tushum deyilganda ko‘rsatilgan xizmatlar uchun olinishi lozim bo‘lgan haq summasi tushuniladi.

Nashriyot va tahririyatlar uchun gazeta va jurnallarni realizastiya qilishdan olingen tushum ularda reklamani joylashtirishdan olingen daromadlar kiritilgan holda aniqlanadi.

Mol-mulkni ijaraga berishdan foizlar, roylati, daromadlar olish imkonini beruvchi mol-mulkni va mulkiy huquqlarni boshqa shaxslarga foydalanishga berish, shuningdek talab qilish huquqidan boshqa shaxsning foydasiga voz kechishdan olingen daromadlar, agar ushbu daromadlar summasi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizastiya qilishdan olingen daromadlarning umumiyligi summasidan ortiq bo‘lsa, xizmatlarni realizastiya qilishdan olingen daromadlar deb e’tirof etiladi. Mazkur norma notijorat tashkilotlarga tatbiq etilmaydi, ular uchun ushbu daromadlar boshqa daromadlar sifatida qaraladi.

Kredit, sug‘urta tashkilotlari, qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchilari uchun soliq qonunchiligidagi ko‘rsatilgan daromadlar xizmatlarni realizastiya qilishdan olingen daromadlar deb e’tirof etiladi.

Uzoq muddatli kontraktlarni bajarishdan olinadigan daromadlar ularning haqiqatda bosqichma-bosqich bajarilishiga taalluqli qismida hisobot davri mobaynida hisobga olinadi.

Uzoq muddatli kontraktning hisobot davri oxirida haqiqatda bajarilganligi kontraktini bajarishga kirishganidan e’tiboran qilingan xarajatlarning kontraktini bajarish uchun ketadigan xarajatlarning umumiyligi summasidagi solishtirma salmog‘ini hisob-kitob qilish asosida belgilanadi.

Hisobot davri oxiridagi daromad kontrakt bo‘yicha qilingan xarajatlarning hisoblangan solishtirma salmog‘i va jami daromad summasining (kontrakt bahosining) hosilasi sifatida aniqlanadi. Mazkur kontrakt bo‘yicha ilgari hisobga olingen daromadlar joriy hisobot davrida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizastiya qilishdan olingen daromadni aniqlashda chegirib tashlanadi.

Qurilish, qurilish-montaj, ta’mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ishlari (xizmatlar) bo‘yicha, shuningdek obyektlarni foydalanishga tayyor qilib qurish chog‘ida shartnomaviy baholardan kelib chiqib haq to‘lash uchun hisob-kitob hujjatlari taqdim etilgan, buyurtmachilar tomonidan bajarilgan

(ko'rsatilgan) va tasdiqlangan ishlarning (xizmatlarning) qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati daromadga qo'shiladi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) tannarxidan yoki tovarlar olingan bahosidan past baholarda (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olgan holda) realizastiya qilinganda, shuningdek tovarlar (ishlar, xizmatlar) bepul topshirilganda soliq solish maqsadlari uchun tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizastiya qilishdan olingan tushum tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tannarxi yoki tovarlar olingan baho asosida (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olgan holda) aniqlanadi. Baholari (tariflari) davlat tomonidan tartibga solinishi nazarda tutilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun realizastiya qilishdan olinadigan tushum belgilangan baholar (tariflar) asosida aniqlanadi.

O'zi ishlab chiqargan tovarlarni jahon bozorida haqiqiy vujudga kelgan narxlar bo'yicha, shu jumladan tannarxidan past narxlar bo'yicha eksport qilish masalalarini ko'rib chiquvchi maxsus vakolatlari organning qarorlari asosida ushbu tovarlarning tannarxidan past narxlar bo'yicha xorijiy valyutaga eksport qilinganda, soliq solish maqsadida tovarlarni realizastiya qilishdan olingan tushum tovarlarni realizastiya qilishning haqiqiy bahosidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizastiya qilishdan olinadigan daromadga quyidagi hollarda tuzatish kiritiladi:

- 1)Tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda.
- 2)Bitim shartlari o'zgarganda.
- 3)Baholar o'zgarganda, sotib oluvchi siylovdan (skidkadan) foydalanganda.
- 4)Bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizastiya qilishdan olinadigan daromadga soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan tuzatishni kiritish bir yillik muddat ichida, kafolat muddati belgilangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha esa, kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

Soliq qonunchiligidagi muvofiq tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizastiya qilishdan olinadigan daromadga tuzatish kiritish soliq qonunchiligidagi ko'rsatilgan hollar yuz bergenligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Bunda tovarni

(ishni, xizmatni) etkazib beruvchi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizastiya qilishdan olinadigan daromadga tuzatish kiritishni soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan tartibda amalga oshiradi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizastiya qilishdan olinadigan daromadga soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan hollarda tuzatish kiritish ko'rsatilgan hollar yuz bergen soliq davrida amalga oshiriladi.

Boshqa daromadlarga tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va realizastiya qilish bilan bog'liq bo'limgan operastiyalardan olinadigan daromadlar kiradi, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1)Soliq to'lovchining soliq qonunchiligidagi muvofiq asosiy vositalari va boshqa mol-mulk chiqib ketishidan olinadigan daromadlar.

2)Soliq qonunchiligidagi muvofiq mol-mulkni operativ ijaraga berishdan olinadigan daromadlar.

3)Soliq qonunchiligidagi muvofiq asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni moliyaviy ijaraga berishdan olinadigan daromadlar.

4)Soliq qonunchiligidagi muvofiq tekin olingan mol-mulk, mulkiy huquqlar, shuningdek ishlar va xizmatlar.

5)Inventarizastiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zaxiralalar hamda boshqa mol-mulk qiymati tariqasidagi daromadlar.

6)Hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar.

7)Soliq qonunchiligidagi muvofiq majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlar.

8)Soliq qonunchiligidagi muvofiq talablardan o'zgan foydasiga voz kechish shartnomasi bo'yicha olingan daromadlar.

9)Soliq qonunchiligidagi muvofiq ilgari chegirib tashlangan xarajatlarning yoki zararlarning o'rnini qoplash tarzidagi daromadlar.

10)Soliq qonunchiligidagi muvofiq xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan olinadigan daromadlar.

11)Soliq qonunchiligidagi muvofiq birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olinadigan daromadlar.

12) Undirib olingen yoki qarzdor tomonidan tan olingen jarimalar va penya, shuningdek qonuniy kuchga kirgan sud hujjati asosida qarzdor tomonidan to‘lanishi lozim bo‘lgan jarimalar va penya.

13) Soliq qonunchiligiga muvofiq kursdagi ijobiy farq.

14) Dividendlar va foizlar.

15) Royalti.

16) Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va realizastiya qilish bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan operastiyalardan olinadigan boshqa daromadlar.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadigan boshqa daromadlar qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi chegirilgan holda aniqlanadi.

Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan asosiy vositalar va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olinadigan foyda asosiy vositalar va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olinadigan daromaddir.

Asosiy vositalar va boshqa mol-mulk obyektlarining chiqib ketishidan olinadigan moliyaviy natijani (foydani yoki zararni) aniqlashda asosiy vositalar va boshqa mol-mulk obyektlarining ilgarigi qayta baholashlardagi ortgan summasining ushbu asosiy vositalar va boshqa mol-mulk obyekti qiymatining ilgarigi qayta baholashlardagi kamayishi summasidan ortgan qismi asosiy vositalar va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olingen daromad tarkibiga kiritiladi.

Ijarा to‘loving summasi mol-mulkni operativ ijaraga berishdan olinadigan daromaddir.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni moliyaviy ijaraga berishdan olinadigan daromad ijaraga beruvchining foizli daromadidir.

Soliq to‘lovchi tekin olgan mol-mulk, mulkiy huquqlar, shuningdek ishlar va xizmatlar soliq to‘lovchining daromadi bo‘ladi.

Mol-mulk, mulkiy huquqlar, ishlar va xizmatlar tekin asosda olinayotganda oluvchi shaxsning daromadlari bozor qiymati bo‘yicha belgilanadi.

Mol-mulkning, mulkiy huquqlarning, ishlarning va xizmatlarning bozor qiymati hujjatlar bilan yoki baholovchi tashkilotning baholash to‘g‘risidagi hisoboti bilan tasdiqlanadi. Hujjatlar bilan tasdiqlash deb quyidagilar e’tirof etiladi:

1.Jo‘natish, etkazib berish yoki topshirish hujjatlari.

2.Etkazib beruvchilarning narxlarga oid ma’lumotlari (prays-varaqlar).

3.Ommaviy axborot vositalaridan olingen ma’lumotlar.

4.Birja ma’lumotlari.

5.Davlat statistikasi organlarining ma’lumotlari.

Qarz beruvchiga foizli daromad to‘lash majburiyatisiz zayom (qaytarib berish sharti bilan moliyaviy yordam) olinayotganda qarz oluvchining daromadi zayomni (qaytarib berish sharti bilan moliyaviy yordamni) olish sanasidagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan qayta moliyalashtirish stavkasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Daromadni aniqlashning xuddi shunday tartibi zayomni (qaytarib berish sharti bilan moliyaviy yordamni) olish sanasidagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan qayta moliyalashtirish stavkasidan past bo‘lgan stavkada foizlar to‘lash sharti bilan berilgan zayomlarga (qaytarib berish sharti bilan moliyaviy yordamga) nisbatan qo‘llaniladi.

Majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlarga quyidagilar kiradi:

1.Fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq da’vo muddati o‘tgan hisobdan chiqarilgan majburiyatlar.

2.Sudning yoki vakolatli davlat organining qaroriga binoan hisobdan chiqarilgan majburiyatlar.

Soliq to‘lovchining byudjet va davlat maqsadli jamg‘armalari oldidagi qarzining qonun hujjatlariga muvofiq hisobdan chiqarilgan summalar daromad tarkibiga kiritilmaydi.

Talablardan o‘zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo‘yicha olinadigan daromadlar asosiy qarz talablari bo‘yicha qarzdor tomonidan to‘langan summalar, shu jumladan qarzdor tomonidan asosiy qarzdan tashqari to‘langan summalar bilan soliq to‘lovchi tomonidan olingen qarz qiymati o‘rtasidagi ijobiy farq tarzida aniqlanadigan daromadlardir.

Qoplash tarzida olinadigan daromadlarga soliq solinadigan bazani aniqlashda ilgari chegirilgan va joriy soliq davrida o‘rnii qoplangan xarajatlar va (yoki) zararlar kiradi.

Qoplash summasi qaysi soliq davrida olingan bo‘lsa, o‘sha soliq davrining daromadi bo‘ladi.

Soliq solinadigan bazani aniqlashda ilgari chegirib tashlanmagan xarajatlarning va (yoki) zararlarning o‘rnini qoplash summasi boshqa daromad tarkibiga kiritilmaydi.

Zaxiralarni tashkil etish xarajatlari soliq solinadigan bazani aniqlashda ilgari chegirib tashlangan shubhali qarzlar (tavakkalchilik operastiyalar) bo‘yicha zaxiralarni qisqargan hollarda, ularning qisqarish summasi boshqa daromadlar tarkibida hisobga olinadi yoki buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq xarajatlarni kamaytiradi.

Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar deganda faoliyati soliq to‘lovchining asosiy faoliyatiga xizmat ko‘rsatishga qaratilgan va mazkur soliq to‘lovchining maqsadi bo‘lgan tovarlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘limgan xo‘jaliklar tushuniladi. Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklarga yordamchi xo‘jaliklar, uy-joy-kommunal xo‘jaligi, ijtimoiy-madaniy soha obyektlari, oshxonalar va bufetlar, o‘quv kombinatlari hamda shunga o‘xshash xo‘jaliklar, o‘z xodimlariga yoki boshqa shaxslarga xizmatlarni realizastiya qilishni amalga oshiruvchi ishlab chiqarishlar va xizmatlar kiradi.

Uy-joy-kommunal xo‘jaligi obyektlariga uy-joy fondi, mehmonxonalar (turistik mehmonxonalar bundan mustasno), boshqa joydan keluvchilar uchun uylar va yotoqxonalar, tashqi obodonlashtirish obyektlari, sun‘iy inshootlar, suv havzalari, plyajlar uchun inshoot hamda jihozlar, shuningdek aholini gaz, issiqlik va elektr bilan ta‘minlash obyektlari, uy-joy-kommunal xo‘jaligi, ijtimoiy-madaniy soha, jismoniy tarbiya va sport obyektlariga texnik xizmat ko‘rsatish hamda ta‘mirlash uchun mo‘ljallangan uchastkalar, stexlar, bazalar, ustaxonalar, garajlar, maxsus mashinalar va mexanizmlar, omborxonalar kiradi.

Ijtimoiy-madaniy soha obyektlariga sog‘liqni saqlash, madaniyat obyektlari, bolalar maktabgacha tarbiya obyektlari, bolalar dam olish oromgochlari, sanatoriylar (profilaktoriylar), dam olish bazalari, pansionatlar, jismoniy tarbiya va sport obyektlari (shu jumladan treklar, otchoparlar, otxonalar, tennis kortlari, golf, badminton o‘yinlari uchun maydonchalar, sog‘lomlashdirish markazlari), aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish sohasining ishlab chiqarishga oid bo‘limgan obyektlari (hammomlar, sauna, kir yuvish, tikish hamda maishiy xizmat ko‘rsatuvchi boshqa ustaxonalar) kiradi.

Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklardan olinadigan daromadlar xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar tomonidan xizmatlarni realizastiya qilishdan olingan (olinadigan) mablag‘lar summasi va xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar faoliyati bilan bog‘liq xarajatlarni summasi o‘rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Valyuta hisobvaraqlari bo‘yicha, shuningdek chet el valyutasidagi operastiyalar bo‘yicha kursdagi ijobiy farq buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi hollarda daromadlar tarkibiga kiritiladi:

1.Chet el valyutasiga bo‘lgan mulk huquqi boshqa shaxsga o‘tayotgan sanada shu chet el valyutasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursdan yuqori bahoda sotilganda.

2.Chet el valyutasiga bo‘lgan mulk huquqi boshqa shaxsga o‘tayotgan sanada shu chet el valyutasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursdan past bahoda sotib olinganda.

3.Chet el valyutasi kursidagi o‘zgarish munosabati bilan balansning valyutaga oid moddalarini tegishli hisobot davri uchun qayta baholanganda.

Baholari chet el valyutasida belgilangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun o‘zaro hisob-kitoblarni milliy valyutada amalga oshiradigan soliq to‘lovchilar uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizastiya qilingan yoki olingan sanadan ushbu tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) haq to‘langan sanagacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursdagi o‘zgarish munosabati bilan yuzaga keluvchi ijobiy farq tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) haq

to‘langan sanadagi jami daromad tarkibiga buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq kiritiladi.

## 2.5. Xarajatlarni guruhlash

Soliq to‘lovchining xarajatlari soliq solinadigan foydani aniqlash paytida chegirib tashlanadi, soliq qonunchiligiga muvofiq chegirib tashlanmaydigan xarajatlar bundan mustasno.

Asoslangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar, soliq qonunchiligidan nazarda tutilgan hollarda esa, qonun hujjatlariga va (yoki) soliq to‘lovchining hisobga olish siyosatiga muvofiq rasmiylashtirilgan zararlar ham soliq to‘lovchining xarajatlari bo‘ladi.

Soliq to‘lovchining xarajatlari haqiqatda qaysi soliq davrida amalga oshirilgan bo‘lsa, o‘sha davrda chegirib tashlanadi. Agar ayni bir xil xarajatlar xarajatlarning bir nechtasida nazarda tutilgan bo‘lsa, soliq solinadigan foydani hisoblashda mazkur xarajatlar faqat bir marta chegirib tashlanadi.

Soliq to‘lovchi sarflagan va qiymati chet el valyutasida ifodalangan xarajatlar qiymati milliy valyutada ifodalangan xarajatlar bilan jamlab hisobga olinadi. Mazkur xarajatlarni qayta hisoblash soliq to‘lovchi tomonidan buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Soliq to‘lovchining xarajatlari chegirib tashlanadigan va chegirib tashlanmaydigan xarajatlarga bo‘linadi.

Chegirib tashlanadigan xarajatlar quyidagilardir:

- 1) Soliq qonunchiligiga muvofiq moddiy xarajatlar.
- 2) Soliq qonunchiligiga muvofiq mehnatga haq to‘lash xarajatlari.
- 3) Soliq qonunchiligiga muvofiq amortizastiya xarajatlar.
- 4) Soliq qonunchiligiga muvofiq boshqa xarajatlar.
- 5) Soliq qonunchiligiga muvofiq kelgusida soliq solinadigan foydadan chegirib tashlanadigan hisobot davridagi xarajatlar.

Quyidagilarga soliq to‘lovchining xarajati sifatida qaralmaydi:

- 1) Vositachilik, topshiriq shartnomasi yoki vositachilik xizmatlarini ko‘rsatish uchun boshqa shartnomaga bo‘yicha majburiyatlar bajarilishi munosabati bilan,

shuningdek komitent yoki boshqa topshiriq beruvchi uchun vositachi va (yoki) boshqa ishonchli vakil tomonidan qilingan xarajatlarga haq to‘lash hisobiga vositachi va (yoki) boshqa ishonchli vakil tomonidan topshirilgan mol-mulk tarzidagi to‘lovlar, agar bunday xarajatlar tuzilgan shartnomalarning shartlariga muvofiq vositachi yoki boshqa ishonchli vakiining yoxud boshqa topshiriq beruvchining xarajatlari tarkibiga kiritilishi lozim bo‘lmasa.

2) Soliq to‘lovchi emitent tomonidan topshirilgan, akstiyadorlar o‘rtasida akstiyadorlar umumiy yig‘ilishi qaroriga binoan o‘zlariga tegishli akstiyalar miqdoriga mutanosib ravishda taqsimlanadigan akstiyalarning qiymati yoxud emitentning ustav fondi (ustav kapitali) ko‘paytirilgan taqqirda akstiyalarini akstiyadorlar o‘rtasida taqsimlashda dastlabki akstiyalar o‘rniga berilgan yangi akstiyalarning nominal qiymati bilan akstiyadorning dastlabki akstiyalarining nominal qiymati o‘rtasidagi farq.

3) Boshqa yuridik shaxslarning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yoki oddiy shirkatga hissa sifatida berilgan mol-mulk, mulkiy huquqlar qiymati.

Moddiy xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- 1) Xomashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar.
- 2) Ishlab chiqarilgan va realizastiya qilinadigan tovarlarni o‘rash va boshqacha tayyorlash uchun, shu jumladan sotuv oldidan tayyorlash uchun, boshqa ishlab chiqarish va xo‘jalik ehtiyojlari uchun materiallar, uskunalar hamda boshqa mol-mulkni ta‘mirlash uchun materiallar va ehtiyyot qismlari.
- 3) Inventar, xo‘jalik anjomlari, amortizastiya qilinadigan mol-mulk bo‘lmagan boshqa mol-mulk.
- 4) Soliq to‘lovchining texnologik, transport, boshqa ishlab chiqarish va xo‘jalik ehtiyojlari uchun sarflanadigan barcha turdagini yoqilg‘i, energiya, shu jumladan soliq to‘lovchining o‘zi tomonidan ishlab chiqarish hamda xo‘jalik ehtiyojlari uchun barcha turdagini energiyani hosil qilish, binolarni isitish, shuningdek energiyani bir shakldan o‘zga shaklga o‘tkazish va uzatish xarajatları.
- 5) Erlarni rekultivastiya qilish va tabiatni muhofaza qilishning boshqa tadbirlari uchun xarajatlar.

6) Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlangan normalar doirasida suv xo‘jaligi tizimlaridan soliq to‘lovchilar tomonidan iste’mol qilinadigan suv uchun to‘lov.

7) Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatli organ yoki soliq to‘lovchi tomonidan tasdiqlangan normalar doirasida ishlab chiqarish va tashish chog‘idagi texnologik yo‘qotishlar.

8) Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatli organ yoki soliq to‘lovchi tomonidan tasdiqlangan tabiiy kamayish normalari doirasida tovar-moddiy zaxiralarni saqlash hamda tashish chog‘idagi yo‘qotishlar va buzilishlar.

Moddiy xarajatlarga kiritiladigan tovar-moddiy zaxiralarning qiymati buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Agar etkazib beruvchidan qabul qilingan qaytariladigan tara qiymati olingan tovar-moddiy zaxiralar narxiga qo‘shilgan bo‘lsa, qaytariladigan tara qiymati ularning ehtimol tutilgan foydalanilishi yoki ularni realizastiya qilish narxi bo‘yicha ularni sotib olish uchun qilingan xarajatlarning umumiyligi summasidan chiqarib tashlanadi. Mahsulot etkazib beruvchidan tovar-moddiy zaxiralar bilan qabul qilingan hamda qaytarilmaydigan tara va o‘rov idishlari qiymati ularni sotib olish xarajatlari summasiga kiritiladi. Tarani qaytariladigan yoki qaytarilmaydigan tara jumlasiga kiritish tovar-moddiy zaxiralarini sotib olish shartnomasi (kontrakti) shartlari bilan belgilanadi.

Moddiy xarajatlar summasi qaytariladigan chiqindilar qiymatiga kamaytiriladi. Qaytariladigan chiqindilar deganda xomashyo (materiallar), yarim tayyor mahsulotlar, issiqlik beruvchi va boshqa turdagilari moddiy resurslarning tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish jarayonida hosil bo‘lgan, boshlang‘ich resurslarning iste’molboplik xususiyatlarini (kimyoviy yoki fizik xossalari) qisman yo‘qotgan va shu tufayli xarajatlar oshib ketgan (mahsulot chiqishi kamayib ketgan) holda foydalaniladigan yoki belgilangan maqsadi bo‘yicha foydalanilmaydigan qoldiqlari tushuniladi.

Tovar-moddiy zaxiralarning texnologiya jarayoniga muvofiq boshqa bo‘linmalarga boshqa turdagilari tovarlarni (ishlar, xizmatlarni) ishlab chiqarish uchun

to‘laqonli xomashyo (materiallar) sifatida o‘tkaziladigan qoldiqlari, shuningdek texnologiya jarayonini amalga oshirish natijasida olinadigan qo‘srimcha (yo‘lakay olingan) mahsulot qaytariladigan chiqindilar jumlasiga kirmaydi.

Qaytariladigan chiqindilar quyidagi tartibda baholanadi:

1.Agar bu chiqindilardan asosiy yoki yordamchi ishlab chiqarish uchun foydalanish mumkin bo‘lsa-yu, lekin bunda xarajatlar oshib ketsa (tayyor mahsulot chiqishi kamayib ketsa), ehtimol tutilgan foydalanish narxida.

2.Agar bu chiqindilar chetga realizastiya qilinsa, realizastiya qilish narxida.

Mehnatga haq to‘lash xarajatlariga quyidagilar kiradi:

1)Haqiqatda bajarilgan ish uchun mehnatga haq to‘lashning qabul qilingan shakllari va tizimlariga muvofiq ishbay narxlar, tarif stavkalari va mansab maoshlaridan kelib chiqqan holda hisoblangan ish haqi.

2)Ilmiy daraja va faxriy unvon uchun ustamalar.

3)Predmeti ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish bo‘lgan fuqarolik-huquqiy tuzsuda tuzilgan shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga to‘lanadigan to‘lovlar.

4)Yuridik shaxsning boshqaruv organi (kuzatuv kengashi yoki boshqa shunga o‘xshash organi) a’zolariga yuridik shaxsning o‘zi tomonidan amalga oshiriladigan to‘lovlar.

5)Rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar:

a)Yillik ish yakunlari bo‘yicha mukofot.

b)Yuridik shaxsning mukofotlash to‘g‘risidagi lokal hujjatlarida nazarda tutilgan to‘lovlar.

v)Kasb mahorati, murabbiylit uchun tarif stavkalari va mansab maoshlariga ustamalar.

g)Ko‘p yil ishlaganlik uchun pul mukofoti va to‘lovlar.

d)Rastionalizatorlik takliflari uchun to‘lovlar.

e)Mehnat natijalari bilan bog‘liq bo‘limgan bir yo‘la beriladigan mukofotlar.

j)Ta’tilga qo‘srimcha haqlar va soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan moddiy yordam.

6) Kompensastiya to‘lovleri (kompensastiya):

a) Qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan tabiiy-iqlim sharoitlari noqulay bo‘lgan joylardagi ishlar bilan bog‘liq qo‘sishimcha to‘lovlar (ish staji uchun ustamalar, baland tog‘li, cho‘l va suvsiz hududlarda ishlaganlik uchun belgilangan koeffisientlar bo‘yicha to‘lovlar).

b) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro‘yxati bo‘yicha og‘ir, zararli, o‘ta zararli mehnat sharoitlarda ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan shunday sharoitlardagi uzlusiz ish staji uchun ish haqiga ustamalar.

v) Texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtida, ish vaqtidan tashqari dam olish kunlarida va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalariga hamda mansab maoshlariga ustamalar va qo‘sishimcha to‘lovlar.

g) Ko‘p smenali rejimda ishlaganlik, shuningdek bir necha kasbda, lavozimda ishlaganlik, xizmat ko‘rsatish doirasasi kengayganligi, bajariladigan ishlar hajmi ortganligi, o‘zining asosiy ishi bilan bir qatorda ishda vaqtincha bo‘lmagan xodimlarning vazifalarini bajarganlik uchun ustamalar.

d) Doimiy ishi yo‘lda kechadigan yoki ko‘chib yurish va harakatlanish xususiyatiga ega bo‘lgan xodimlarning jo‘nab ketish paytidan qaytib kelish paytigacha yo‘ldagi har bir sutka uchun to‘lanadigan ish haqiga ustamalar.

e) Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ishlar vaxta usulida bajarilganda xodimlarning ish haqiga ustamalar.

j) Yuridik shaxs joylashgan erdan (yig‘ilish punktidan) ishlash joyigacha va orqaga qaytish uchun vaxtada ishlash jadvalida nazarda tutilgan, ishlar vaxta usulida bajarilgan taqdirda yo‘lga ketadigan kunlar, shuningdek xodimlar meteorologik sharoitlar sababli va (yoki) transport tashkilotlarining aybi bilan yo‘lda ushlanib qolgan kunlar uchun tarif stavkasi, mansab maoshi miqdorida to‘lanadigan summalar.

z) Ishlar vaxta usulida tashkil qilinganda, ish vaqtি umumlashtirilgan holda hisobga olinayotganda va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda xodimlarga ish vaqtining belgilangan davomiyligidan ortiq ishlaganligi munosabati bilan beriladigan dam olish kunlari (otgullar) uchun to‘lovlar.

i) Er osti ishlarida doimiy band bo‘lgan xodimlarga ularning stvoldan ishslash joyiga borish va u erdan qaytish uchun shaxtada (konda) harakatlanishining me’yoriy vaqtি uchun to‘lanadigan qo‘sishimcha haqlar.

k) Qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida dala ta’minoti.

l) Oziq-ovqat va yo‘l chiptalarining qiymati yoki oziq-ovqat va yo‘l chiptalarining qiymatini qoplash.

7) Ishlanmagan vaqt uchun haq to‘lash:

a) Qonun hujjatlariga muvofiq:

Yillik asosiy (uzaytirilgan asosiy) ta’tilga haq to‘lash, shuningdek undan foydalanimaganda, shu jumladan xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinganda pullik kompensastiya to‘lash.

Noqulay va o‘ziga xos mehnat sharoitlarida, shuningdek og‘ir va noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganligi uchun ayrim tarmoqlarning xodimlariga beriladigan qo‘sishimcha ta’tilga haq to‘lash.

O‘qish bilan bog‘liq ta’tilga va ijodiy ta’tillarga haq to‘lash.

O‘n ikki yoshga to‘lmagan ikki va undan ortiq bolasi yoki o‘n olti yoshga to‘lmagan nogiron bolasi bor ayollarga berilgan qo‘sishimcha ta’tilga haq to‘lash.

b) Asosiy ish joyi bo‘yicha asosiy ish haqi qisman saqlab qolingan holda majburiy ta’tilda bo‘lgan xodimlarga beriladigan to‘lovlar.

v) Donor xodimlarga ko‘rikdan o‘tish, qon topshirish va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun haq to‘lash.

g) O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi muvofiq davlat yoki jamoat vazifalarini bajarganlik uchun mehnatga haq to‘lash.

d) Qishloq xo‘jaligi ishlariga va boshqa ishlarga jalb qilinadigan xodimlarning asosiy ish joyi bo‘yicha saqlab qolinadigan ish haqi.

e) Avvalgi ish joyi bo‘yicha mansab maoshi miqdorlari muayyan bir muddat davomida saqlab qolingan holda boshqa yuridik shaxslardan ishga joylashtirilgan, shuningdek vazifani vaqtincha bajarib turganda xodimlarga maoshdagи farqni to‘lash.

j) Yuridik shaxslarning xodimlariga kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida ishdan ajralgan holda o‘qishi vaqtida asosiy ish joyi bo‘yicha to‘lanadigan ish haqi.

z) Xodimning aybisiz bekor turib qolingga vaqt uchun haq to‘lash.

i) Sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra engilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillarining ta’siridan xoli bo‘lgan kamroq haq to‘lanadigan ishga o‘tkazilganda saqlanadigan avvalgi o‘rtacha oylik ish haqini qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda to‘lash, shuningdek vaqtincha mehnatga qobiliyatizlik nafaqalariga ish haqining haqiqiy miqdorigacha qo‘srimcha haq to‘lash.

k) Majburiy progul vaqtini yoki kam haq to‘lanadigan ishni bajarganlik uchun qonun hujjatlariga muvofiq yoki yuridik shaxsning qaroriga ko‘ra haq to‘lash.

l) O‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslarning imtiyozi soatlariga, onalarga bolani ovqatlantirishi uchun ishda beriladigan tanaffuslarga, shuningdek tibbiy ko‘rikdan o‘tish bilan bog‘liq vaqt uchun haq to‘lash.

m) Yuridik shaxslarning asosiy ishidan ozod qilingan va ozod qilinmagan holda xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun, o‘quvchilar va talabalarning ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish uchun jalg qilinadigan malakali xodimlari mehnatiga haq to‘lash.

n) Oliy o‘quv yurtini tamomlagandan keyin yosh mutaxassislarga ta’til vaqtini uchun yuridik shaxs hisobidan to‘lanadigan nafaqalar.

o) Xodimlarga ta’til uchun mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha to‘langan haq va ular bo‘yicha pullik kompensastiylar.

8) Nogironlarga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan qo‘srimcha to‘lovlar.

Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq soliq to‘lovchi tomonidan hisobga olinadigan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizastiya qilinadigan mol-mulk deb e’tirof etiladi.

Quyidagilar amortizastiya qilinmaydi:

1) Er uchastkalari va tabiatdan foydalanishga doir boshqa obyektlar (suv, er osti boyliklari va boshqa tabiiy resurslar).

2) Mahsuldor chorva mollari.

3) Axborot-kutubxona fondi.

4) Muzey ashyolar.

5) Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda konservastiyalashga o‘tkazilgan asosiy vositalar.

6) Moddiy madaniy meros obyektlari.

7) Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari, yo‘laklar, sayilgohlar, xiyobonlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari tasarrufida bo‘lgan obodonlashtirish inshootlari.

8) Qiymati ilgari to‘liq chegirilgan mol-mulk.

9) Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar tarkibiga o‘tkazilmagan kapital qo‘yilmalar.

Soliq solish maqsadida amortizastiya qilinishi kerak bo‘lgan mol-mulk amortizastiyaning quyidagi eng yuqori normalari bilan guruhlarga taqsimlanadi:

#### 2.5.1-jadval

<b>Guruuhlar tartib raqami</b>	<b>Kichik guruhlar tartib raqami</b>	<b>Asosiy vositalarning nomi</b>	<b>Amortizastiyaning yillik eng yuqori normasi, foizlarda</b>
I		<b>Binolar, imoratlar va inshootlar</b>	
	1	Binolar, imoratlar	3
	2	Neft va gaz quduqlari	
	3	Neft-gaz omborlari	
	4	Kema qatnaydigan kanallar, suv kanallari	
	5	Ko‘priklar	
	6	Dambalar, to‘g‘onlar	
	7	Daryo va dengiz prichal inshootlari	
	8	Korxonalarning temir yo‘llari	
	9	Qirg‘oqni mustahkamlovchi, qirg‘oqni	

		himoyalovchi inshootlar	5	IV	5	Boshqa kuch-quvvat beradigan mashinalar va uskunalar (harakatlanuvchi transportdan tashqari)	8
	10	Rezervuarlar, stisternalar, baklar va boshqa sig‘imlar					
	11	Ichki xo‘jalik va xo‘jaliklararo sug‘orish tarmog‘i					
	12	Yopiq kollektor-drenaj tarmog‘i					
	13	Havo kemalarining uchish-qo‘nish yo‘llari, yo‘laklari, to‘xtash joylari					
	14	Bog‘larning va hayvonot bog‘larining inshootlari					
	15	Sport-sog‘lomlashtirish inshootlari					
	16	Issiqxonalar va parniklar					
	17	Boshqa inshootlar					
II		<b>Uzatish qurilmalari</b>	8		3	Kommutastiyalar va ma’lumotlarni uzatish raqamli elektron uskunalari, raqamli tizimlar uzatish uskunalari, raqamli aloqa o‘lchov texnikasi	15
	1	Elektr uzatish hamda aloqa qurilmalari va liniyalar				4	
	2	Ichki gaz quvurlari va quvurlar				5	
	3	Vodoprovod, kanalizastiya va issiqlik tarmoqlari				6	
	4	Magistral quvurlar				7	
	5	Boshqalar				8	
III		<b>Kuch-quvvat beradigan mashinalar va uskunalar</b>				9	
	1	Issiqlik texnika uskunalari					15
	2	Turbina uskunalari va gaz turbinalari qurilmalari					
	3	Elektr dvigatellari va dizel-generatorlar					
	4	Kompleks qurilmalar					

	10	Ustun-qoziq qoqish mashinalari va uskunalar, maydalash-yanchish, saralash, boyitish uskunalar	
	11	Texnologik jarayonlar uchun barcha turdagи sig‘imlar	
	12	Neft qazib chiqarish va burg‘ulash uskunalar	
	13	Boshqa mashinalar va uskunalar	
<b>V</b>	<b>Harakatlanuvchan transport</b>		
	1	Temir yo‘Ining harakatdagi tarkibi	
	2	Dengiz, daryo kemalari, baliqchilik sanoati kemalari	4
	3	Havo transporti	
	4	Avtomobil transportining harakatdagi tarkibi, ishlab chiqarish transporti	
	5	Engil avtomobillar	20
	6	Sanoat traktorlari	
	7	Kommunal transport	10
	8	Maxsus vaxta vagonlari	
	9	Boshqa transport vositalari	20
<b>VI</b>	<b>Kompyuter, periferiya qurilmalari, ma’lumotlarni qayta ishlash uskunalar</b>		
	1	Kompyuterlar	
	2	Periferiya qurilmalari va ma’lumotlarni qayta ishlash uskunalar	20
	3	Nusxa ko‘chirish-ko‘paytirish texnikasi	
	4	Boshqalar	

<b>Boshqa guruhlarga kiritilmagan asosiy vositalar</b>	
1	Ko‘p yillik dov-daraxtlar
2	Boshqalar

Soliq solish maqsadlari uchun har bir kichik guruh bo‘yicha amortizastiya ajratmalari amortizastiya normasini qo‘llash orqali, soliq qonunchiligidagi belgilangan eng yuqori normadan oshmagan holda hisoblab chiqiladi.

Soliq solish maqsadlari uchun amortizastiyaning soliq qonunchiligidagi belgilanganidan pastroq va soliq to‘lovchining hisob siyosatida mustahkamlab qo‘yilgan normalar bo‘yicha hisoblashga yo‘l qo‘yiladi.

Soliq solinadigan foydaning to‘liq hisoblanmagan amortizastiya summasiga soliq solish maqsadlarida soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan normalarga zid ravishda qayta hisoblash amalga oshirilmaydi.

Foydalanishda bo‘lgan asosiy vositalar obyektlarini oladigan soliq to‘lovchi ushbu asosiy vositalar obyekti bo‘yicha amortizastiya normasini mazkur asosiy vositalar obyektidan avvalgi mulkdorlar tomonidan foydalanilgan yillar (oylar) soniga kamaytirilgan foydalanish muddatini hisobga olgan holda belgilashga haqlidir. Agar mazkur asosiy vositadan avvalgi mulkdorlarda amalda foydalanish muddati ushbu asosiy vositalarning soliq qonunchiligidagi tasniflanishi bilan belgilanadigan foydalanish muddatiga teng yoki undan ortiq bo‘lsa, soliq to‘lovchi texnika xavfsizligi talablarini va boshqa omillarni hisobga olgan holda bu asosiy vositadan unumli foydalanish muddatini mustaqil ravishda, lekin uch yildan kam bo‘lmagan muddatga belgilashga haqlidir. Foydalanishda bo‘lgan asosiy vositalardan foydalanish muddatini aniqlash imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, amortizastiyaning hisoblash yangi asosiy vositalarga bo‘lgani singari amalga oshiriladi.

Nomoddiy aktivlar uchun qilingan xarajatlar soliq to‘lovchi tomonidan, ularning boshlang‘ich qiymati va unumli foydalanilishi muddatidan, lekin soliq to‘lovchining faoliyati muddatidan ortiq bo‘lmagan muddatdan kelib chiqqan holda,

hisoblab chiqilgan normalar bo‘yicha har oyda eskirish tariqasida jami daromaddan chegirib tashlanadi.

Nomoddiy aktivlar obyektidan unumli foydalanish muddatini aniqlash O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjalariiga yoki chet davlatning qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan qonun hujjalariiga muvofiq, shuningdek nomoddiy aktivlardan foydalanishning tegishli sharhnomalar bilan bog‘liq unumli muddatidan kelib chiqqan holda patentning, guvohnomaning amal qilish muddati va intellektual mulk obyektlaridan foydalanish muddatlarining boshqa cheklanishlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Unumli foydalanish muddatini aniqlab bo‘lmaydigan nomoddiy aktivlar bo‘yicha amortizastiya normalari besh yilga, lekin soliq to‘lovchining faoliyat muddatidan ortiq bo‘lмаган muddatga mo‘ljallab belgilanadi.

Boshqa xarajatlarga quydagilar kiradi:

1) Soliq to‘lovchining faoliyatini amalga oshirish uchun o‘zga yuridik yoki jismoniy shaxslar bajargan ishlar va xizmatlar qiymati, bularga quydagilar kiradi:

Mahsulot ishlab chiqarish (tayyorlash) bo‘yicha ayrim operastiyalarini bajarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish, xomashyoga (materiallarga) ishlov berish, belgilangan texnologik jarayonlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish, asosiy vositalarga texnik xizmat ko‘rsatish va boshqa shu kabi ishlar.

O‘zga yuridik va jismoniy shaxslarning transport xizmatlari.

Ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etish uchun yoki soliq to‘lovchining faoliyati bilan bog‘liq boshqa vazifalarni bajarish uchun o‘zga yuridik shaxslar tomonidan xodimlarni (texnik personalni) taqdim etishga doir xizmatlar uchun xarajatlari.

2) Asosiy vositalar va boshqa mol-mulkni ish holatida saqlash xarajatlari (texnik ko‘rik va qarov, o‘rtacha, joriy hamda kapital ta’mirlash xarajatlari). Asosiy vositalarni kapital ta’mirlashni amalga oshirish xarajatlarining bir maromda kiritib borilishini ta’minlash uchun soliq to‘lovchi asosiy vositalarning kelgusi ta’mirlanishi uchun belgilangan tartibda zaxiralalar tashkil etishga haqli.

3) Ijara to‘lovlar, shuningdek ijaraga olingen asosiy vositalarni saqlab turish bilan bog‘liq xarajatlar.

4) Konservastiya qo‘yilgan ishlab chiqarish quvvatlari va obyektlarini saqlash xarajatlari (boshqa manbalar hisobiga qoplanadigan xarajatlardan tashqari).

5) Vakolatli tashkilotlar tomonidan muayyan huquqlar yoki listenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjalarni berishni nazarda tutuvchi hujjalarni bergenlik uchun yig‘imlar, bojlar va boshqa to‘lovlarni to‘lash bo‘yicha xarajatlar, shuningdek tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ekspertizadan o‘tkazish hamda mahsulotni sertifikatlashtirish bilan bog‘liq xarajatlar.

6) Mahsulotni sotish bozorlarini o‘rganish xarajatlari.

7) Inventarni, xo‘jalik anjomlarini va maxsus ish kiyimlarini yuvish, tuzatish hamda dezinfekstiya qilish xarajatlari summasi yoki ularga to‘langan haq.

8) Qat’iy hisobotdagи blanklarni, kvitanstiyalar va boshqa hujjalarni tayyorlash xarajatlari summasi yoki ularni olish uchun to‘langan haq.

9) Tushumni inkassastiya qilish xarajatlari.

10) Reklama uchun xarajatlari.

11) Vakillik xarajatlari Vakillik xarajatlariga soliq to‘lovchining o‘zaro hamkorlik o‘rnatish yoki uni saqlab turish, shuningdek soliq to‘lovchining boshqaruv va nazorat organlari majlislariga kelgan ishtirokchilarni qabul qilish hamda ularga xizmat ko‘rsatish maqsadlarida qiladigan xarajatlari kiradi. Bu xarajatlar mazkur shaxslarning rasmiy qabulini o‘tkazish, transport ta’minoti, ovqatlanishi va turar joyi, soliq to‘lovchining shtatida turmagan tarjimonlar xizmatiga haq to‘lash xarajatlaridir.

12) Kafolatli xizmat muddati belgilangan buyumlarni kafolatli ta’mirlash va ularga kafolatli xizmat ko‘rsatish xarajatlari.

13) Telekommunikastiyalar va pochta xizmatlari uchun to‘lanadigan haq.

14) Xizmat safarlar uchun xarajatlar:

a) Tasdiqlovchi hujjalarni asosida xizmat safarlar joyiga borish va qaytib kelish uchun haqiqatda qilingan xarajatlar, shu jumladan joyni band qilib qo‘yish haqi. Yo‘l hujjalarni bo‘lмаган taqdirda, xarajatlar temir yo‘l transportidagi (yoki agar temir

yo‘l aloqasi bo‘lmasa, shaharlararo avtobusdagi) yo‘l haqi qiymati miqdorida, lekin aviachipta qiymatining 30 foizidan ko‘p bo‘lмаган miqdorda chegirib tashlanadi.

b) Tasdiqlovchi hujjatlar asosida joyni ijaraga olish uchun sarflangan haqiqiy xarajatlar, shu jumladan joyni band qilib qo‘yish xarajatlari.

v) Xizmat safarida bo‘lingan vaqt uchun to‘lanadigan kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar).

g) Qonun hujjatlarida belgilangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan boshqa xarajatlar.

15) Qonunlarga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlariga muvofiq amalga oshiriladigan kompensastiya to‘lovleri.

16) Soliq to‘lovchining faoliyatida talab etiladigan boshqa shaharlik, chet ellik mutaxassislarni ishga taklif qilish bilan bog‘liq xarajatlar.

17) Auditorlik tekshiruvlari bo‘yicha xarajatlar.

18) Maslahat, axborot xizmatlariga, shuningdek buxgalteriya hisobini yuritish va tiklash bo‘yicha xizmatlarga haq to‘lash.

19) Bankning, Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysining va qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchilarining xizmatlariga haq to‘lash.

20) Kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, shuningdek xodimlarning malakasini oshirish xarajatlari.

21) Qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan hamda soliq to‘lovchining xarajatlariga kiritiladigan byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lanadigan soliqlar.

22) Assostiastiyalarga, jamg‘armalarga va boshqa tashkilotlarga, shu jumladan xalqaro tashkilotlarga to‘lanadigan badallar, agar bunday badallarni to‘lash soliq to‘lovchi faoliyatining amalga oshirilishi uchun majburiy shart bo‘lsa yoki O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga binoan amalga oshirilsa.

23) Mehnat sharoitlarini muhofaza qilish va ta‘minlash, texnika xavfsizligi, yong‘inga qarshi va soqchilik muhofazasini hamda texnikaviy foydalanish qoidalariда nazarda tutilgan boshqa maxsus talablarni ta‘minlash xarajatlari.

24) Listenziya bitimlariga ko‘ra huquq egasi bilan shartnoma bo‘yicha elektron-hisoblash mashinalari va ma‘lumotlar bazalari dasturlaridan foydalanish huquqini olish bilan bog‘liq xarajatlar. Mazkur xarajatlarga elektron-hisoblash mashinalari va ma‘lumotlar bazalari uchun dasturlarni yangilashga doir xarajatlar ham kiradi.

25) Intellektual faoliyat natijalariga bo‘lgan huquqlardan va xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositalardan (xususan, ixtirolarga, sanoat namunalari va intellektual mulkning boshqa turlariga bo‘lgan patentlardan yuzaga keladigan huquqlardan) foydalanganlik uchun to‘lovlar.

26) Buxgalteriya hisobotini e’lon qilish, shuningdek boshqa axborotni, agar qonun hujjatlarida ularni e’lon qilishni (oshkor qilishni) amalga oshirish majburiyati soliq to‘lovchining zimmasiga yuklangan bo‘lsa, e’lon qilish va boshqacha tarzda oshkor qilish xarajatlari.

27) Xodimning mehnatda mayib bo‘lishi yoki uning sog‘lig‘iga boshqacha tarzda shikast etkazilishi yoxud xodim oila a’zosining vafoti munosabati bilan beriladigan yoki xodimning vafoti munosabati bilan oila a’zolariga beriladigan moddiy yordam.

29) Qonun hujjatlariga muvofiq qayta tashkil etilishi, xodimlar (shtatlar) sonining qisqarishi munosabati bilan ozod etiladigan xodimlarga to‘lovlar.

30) Tibbiy yordam punktini saqlab turish xarajatlari, xodimlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazganlik va profilaktika tadbirlari uchun tibbiyot muassasalariga to‘lanadigan haq.

31) Sog‘liqni saqlash obyektlari, qariyalari va nogironlar uylari, sog‘lomlashtirish oromgohlari, madaniyat hamda sport obyektlari, ta’lim obyektlari, shuningdek, uy-joy fondi obyektlari ta‘minotiga doir xarajatlar (shu jumladan, amortizastiya ajratmali va barcha turdagи ta‘mirlash ishlарini o‘tkazish xarajatlari).

32) Ixtiyoriy sug‘urta uchun sug‘urta mukofotlari (badallari), yuridik shaxs tomonidan jismoniy shaxslar foydasiga to‘lanadigan sug‘urta mukofotlari (badallari).

33) O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun listenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslarga hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish bo'yicha to'lanadigan sug'urta mukofotlari summalar.

34) Sug'urtaning majburiy turlariga sug'urta mukofotlari (badallari).

35) Atrof muhitni iflosantirganlik va chiqindilarni joylashtirganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida kompensastiya to'lovlari.

36) Faoliyat bilan bog'liq ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlasmalari uchun xarajatlar, bundan asosiy vositalarni sotib olish, ularni o'rnatish hamda kapital tusdagi boshqa xarajatlar mustasno. Loyiha-smeta hujjatlari, bajarilgan ishlar dalolatnomasi va tegishli ilmiy-tadqiqot, loyihalash, izlanish hamda tajriba-konstrukturlik ishlari o'tkazilganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar bunday xarajatlarni chegirmalar jumlasiga kiritish uchun asos bo'ladi.

37) Ishlab chiqarish tusidagi ixtirochilik, rastionalizatorlik, tajriba-ekperimental ishlarini o'tkazish, ixtirochilik va rastionalizatorlik takliflari bo'yicha modellar va namunalarni tayyorlash hamda ularni sinash, ixtirochilik va rastionalizatorlik bo'yicha ko'rgazmalar va ko'riklar, tanlovlardan tashkil etish, ixtirochilik va rastionalizatorlik bo'yicha boshqa tadbirlar, mualliflik haqini to'lash, yangi texnologiyalar yaratish hamda qo'llanilayotgan texnologiyalarni takomillashtirish, yangi turdag'i xomashyo va materiallarni yaratish, ishlab chiqarishni qayta jihozlash xarajatlari.

38) Soliq to'lovchi tomonidan geologik tadqiqotlar va tabiiy resurslarni qazib olish bo'yicha tayyorgarlik ishlari uchun amalga oshirilgan, jami daromaddan keyingi yillar mobaynida bir maromda yiliga 15 foizdan oshmagan miqdorda chegirib tashlanadigan xarajatlar.

39) Qazib oluvchi tarmoqlarda xarajatlarni qoplashning belgilangan muddati mobaynida teng ravishda ishlab chiqarish tannarxiga yoki qazib olingan mahsulotning hajmiga va miqdoriga mutanosib ravishda hisobdan chiqariladigan tayyorgarlik ishlari doir xarajatlar.

40) Zararlar va yo'qotishlar:

a) Bekor qilingan ishlab chiqarish buyurtmalari bo'yicha.

b) Tara bilan bog'liq operastiyalar bo'yicha.

v) Umidziz qarzdorlikni hisobdan chiqarishdan ko'rilgan zararlar, bundan shubhali qarzlar bo'yicha tashkil etilgan zaxira hisobiga hisobdan chiqarish mustasno.

g) Hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi operastiyalar bo'yicha xarajatlar va zararlar.

d) Tabiiy ofatlar (ishlab chiqarish zaxiralari, tayyor mahsulotlar va boshqa moddiy boyliklarning nobud bo'lishi hamda buzilishi, ishlab chiqarishning to'xtashi oqibatidagi yo'qotishlar va boshqalar) tufayli ko'rilgan o'mi qoplanmaydigan yo'qotishlar va zararlar, shu jumladan tabiiy ofatlar oqibatlarini oldini olish yoki ularni bartaraf etish bilan bog'liq xarajatlar.

e) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida mol-mulkni bepul topshirishdan ko'rilgan zararlar, shuningdek telekommunikasiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini bepul topshirishdan hamda ulardan bepul foydalinish va ularga xizmat ko'rsatishdan ko'rilgan zararlar.

j) Uch yildan ortiq foydalanilgan asosiy vositalarni realizastiya qilishdan ko'rilgan zararlar.

z) Asosiy vositalarni har yili amalga oshiriladigan qayta baholash natijasida vujudga keladigan ilgarigi qo'shimcha baholashdan (bahoning arzonlashtirilgan summasidan) olinadigan o'sishdan ortadigan bahoni arzonlashtirish summasi.

i) Yaroqsiz mahsulotdan ko'rilgan yo'qotishlar.

k) Ichki ishlab chiqarish sabablariga ko'ra bekor turib qolishlardan ko'rilgan yo'qotishlar.

l) Tashqi sabablarga ko'ra (yuridik shaxsning aybisiz) bekor turib qolishlardan ko'rilgan, aybdorlar tomonidan kompensastiya qilinmaydigan yo'qotishlar.

m) Qarz summasi bilan mazkur qarzni yuzaga keltirgan realizastiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) tannarxi o'rtasidagi farqdan oshmaydigan summa doirasidagi qarzni talab qilish huquqidan o'zganining foydasiga voz kechishdan ko'rilgan zararlar.

41) Kreditlar (zayomlar) bo'yicha foizlar.

42) Kredit shartnomasida nazarda tutilgan stavkalar doirasida muddati o'tgan va uzaytirilgan kreditlar (zayomlar) bo'yicha foizlar.

43) Valyuta hisobvaraqlari, shuningdek chet el valyutasidagi operastiylar bo'yicha kursdagi salbiy farq, bu farq buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi hollarda jami daromaddan chegirib tashlanadi:

Chet el valyutasi ushbu chet el valyutasiga bo'lgan mulk huquqining o'tish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursdan past narxda sotilganda.

Chet el valyutasi ushbu chet el valyutasiga bo'lgan mulk huquqining o'tish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursdan yuqori narxda sotib olinganda.

Chet el valyutasi kursining o'zgarishi munosabati bilan tegishli hisobot davri uchun balansning valyuta moddalari qayta baholanganda.

Baholari chet el valyutasida belgilangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun o'zaro hisob-kitoblarni milliy valyutada amalga oshiradigan soliq to'lovchilar uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizastiya qilingan yoki olingen sanadan ushbu tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) haq to'langan sanagacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursdagi o'zgarish munosabati bilan yuzaga keluvchi salbiy farq buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) haq to'langan sanadagi jami daromaddan chegirib tashlanadi.

44) O'zining qimmatli qog'ozlarini chiqarish va tarqatish bilan bog'liq xarajatlar.

45) Moliyaviy ijara, shu jumladan lizing bo'yicha ijaraga beruvchining (lizing beruvchining) foizlari daromadi bo'lgan mablag'larni to'lashga doir xarajatlar.

46) Soliq to'lovchi tomonidan chiqarilgan obligastiylar va boshqa qarz qimmatli qog'ozlari bo'yicha foizlar tarzidagi xarajatlar.

47) Favqulodda zararlar.

48) Ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektining muassisilari (ishtirokchilari) tomonidan uning majburiyatlarini bajarish uchun yo'naltiriladigan mablag'lar. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda ushbu mablag'lar chegirib tashlanadigan xarajatlar sifatida qaralmaydi.

49) Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalarini, bolani ikki yoshga to'lguniga qadar parvarishlash nafaqalarini, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan boshqa nafaqalarni to'lash xarajatlari.

50) Xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan ishdan bo'shatish nafaqasi va boshqa to'lovlar shuningdek pensiyaga chiqayotgan mehnat faxriylariga bir yo'la to'lanadigan nafaqalar.

51) Mehnat sharoitlari noqulay bo'lgan ishlarda band bo'lgan xodimlarni mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sut, davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan sho'r suv, shaxsiy himoya va gigiena vositalari bilan ta'minlash xarajatlari.

52) Xodimlarni ish joyiga olib kelish va qaytarib olib ketish xarajatlari.

53) Xodimga xizmat vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal, formalii kiyim-bosh berish xarajatlari yoki ularni pasaytirilgan baholarda sotish munosabati bilan qilingan xarajatlar, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ayrim toifadagi xodimlarni o'z xizmat vazifalarini bajarishi chog'ida oziq-ovqat bilan ta'minlash xarajatlari.

54) Xodim boshqa joyga ishga o'tkazilganda yoxud ko'chib borganda ko'chish, mol-mulkini ko'chirib borish, joy ijarasi (yo'l xarajatlari uchun beriladigan pul) xarajatlari.

55) Mehnatda mayib bo'lganlik, kasb kasalligi yoki sog'liqqa boshqacha shikast etganligi bilan bog'liq zararning o'rmini qoplash bo'yicha to'lovlar.

56) Boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan quyidagi miqdordagi to'lovlar:

Marhum o‘rtacha oylik ish haqining vafot etgan boquvchining qaramog‘ida bo‘lgan va uning vafoti munosabati bilan zararni undirishga haqli bo‘lgan mehnatga qobiliyatsiz shaxslarga to‘g‘ri keladigan ulushi miqdoridagi to‘lovlar.

Boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan zararni undirishga haqli bo‘lgan shaxslarga bir yo‘la to‘lanadigan nafaqa tariqasida marhumming o‘rtacha yillik ish haqining olti baravari miqdoridagi to‘lovlar.

57) Abonent raqamidan foydalanganlik uchun to‘lanadigan haq.

58) Yordamchi xo‘jaliklar tomonidan ishlab chiqariladigan va soliq to‘lovchining umumiy ovqatlanish ehtiyojlari uchun beriladigan tovarlarning narxlardagi farqlar (zararlar).

59) Xo‘jalik boshqaruvi organini saqlab turish uchun ajratmalar.

60) Nodavlat pensiya jamg‘armalariga ajratmalar.

61) Ishonchli boshqaruvchilar xizmatlarining qiymatini to‘lashga doir xarajatlar.

62) Boshqa xarajatlar.

Soliq qonunchiligida boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo‘lsa ular yuzaga kelgan paytda, joriy hisobot davrida soliq solinadigan foydani hisoblab chiqarishda chegirilmaydi, ular keyingi davrlarda, soliq to‘lovchining hisob siyosati bilan belgilangan, lekin o‘n yildan ko‘p bo‘lmagan muddat ichida chegirilishi lozim. Bunday xarajatlarga quyidagilar kiradi:

1) Yangi ishlab chiqarishlar, stexlar, agregatlarni, shuningdek seriyali va ommaviy ishlab chiqariladigan yangi mahsulot turlarini hamda texnologik jarayonlarni o‘zlashtirish xarajatlari.

2) Barcha turdagи asbob-uskunalar va texnik qurilmalarni, ularning o‘rnatalish sifatini tekshirib ko‘rish maqsadida kompleks sinab ko‘rish (ishlab turgan holatida) xarajatlari.

3) Ishchi kuchlari qabul qilish va yangi ishga tushirilgan korxonada ishslash uchun kadrlar tayyorlash bilan bog‘liq xarajatlari.

4) Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjalariга muvofiq hisoblangan amortizastiya summasi bilan soliq

qonunchiligiga muvofiq belgilangan normalar bo‘yicha hisoblangan amortizastiya summasi o‘rtasidagi ijobiy farq.

Soliq qonunchiligida ko‘rsatilgan xarajatlar ular yuzaga kelgan paytda joriy hisobot davrida ham chegirilishi mumkin.

Shubhali qarzlar bo‘yicha zaxira tashkil etish uchun qilingan xarajatlar soliq qonunchiligiga muvofiq umidsiz deb e’tirof etilgan qarzdorlikni hisobdan chiqarilayotganda, hisobdan chiqarilishi lozim bo‘lgan umidsiz qarzdorlik miqdordan oshmaydigan summada chegirib tashlanadi.

Soliq solinadigan foydani aniqlashda chegirilmaydigan xarajatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) Moddiy qimmatliklarning tabiiy kamayishi normalaridagi ortiqcha yo‘qotishlar va buzilishlar.

2) Umumiy ovqatlanish korxonalariga yoki boshqa chet tashkilotlarga joylarni bepul berish xarajatlari, ushbu korxonalar va tashkilotlar uchun kommunal xizmatlar ko‘rsatish qiymatini to‘lash.

3) Soliq to‘lovchining soliq qonunchiligida nazarda utilgan, jismoniy shaxsning moddiy naf tarzidagi daromadlari hisoblanadigan xarajatlari.

4) Dala ta’minoti, xizmat maqsadida xodimning shaxsiy avtotransportdan foydalanganligi uchun qonun hujjalariда belgilangan normalardan ortiqcha to‘langan to‘lovlar.

5) Pensiyalarga qo‘shimcha va ustamalar.

6) Xodimlarga to‘lanadigan moddiy yordam.

7) Badallar, homiylik va xayriya yordami tarzidagi mablag‘lar.

8) Qonun hujjalariда belgilangan normalardan ortiq holda atrof muhitni ifloslantirganlik va chiqindilarni joylashtirganlik uchun kompensastiya to‘lovleri.

9) Kredit shartnomasida muddatli qarzlar uchun nazarda utilgan stavkalardan ortiqcha bo‘lgan, to‘lov muddati o‘tgan hamda uzaytirilgan kreditlar (zayomlar) bo‘yicha foizlar.

10) Loyihalardagi va qurilish-montaj ishlaridagi kamchiliklarni, shuningdek obyekt yonidagi omborgacha tashib keltirilishi chog‘ida yuz bergan buzilishlar va

deformasiyalarni bartaraf etish bo'yicha xarajatlar, korroziyaga qarshi muhofazadagi nuqsonlar tufayli taftish o'tkazish (asbob-uskunalarni qismlarga ajratish) xarajatlari, mazkur xarajatlarni kamchiliklar, buzilishlar yoki zararlar uchun javobgar bo'lgan mahsulot etkazib beruvchi yoki boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar hisobidan o'rmini qoplash mumkin bo'lмаган miqdordagi boshqa shunga o'xshash xarajatlar.

11) Aybdorlari aniqlanmagan o'g'irliliklar va kamomadlardan yoki zarur summalarining o'rmini aybdor taraf hisobidan qoplash mumkin bo'lмаганда ko'rilgan zararlar.

12) Soliq to'lovchining asosiy vositalari chiqib ketishidan (balansdan chiqarlishidan) ko'rilgan (buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan) zararlar.

13) Xo'jalik shartnomalari shartlarini va qonun hujjatlarini buzganlik uchun to'langan yoki tan olingan jarimalar, penya hamda boshqa turdagи sankstiyalar.

14) O'zbekiston Respublikasi norezidenti va boshqa shaxslar uchun to'langan soliqlar.

15) Tekshiruvlar natijalariga ko'ra qo'shimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlari.

16) Soliq to'lovchining tadbirdorlik faoliyatini amalga oshirishi bilan bog'liq bo'lмаган tadbirdorlar (sog'liqni saqlash, sport va madaniyat tadbirdori, dam olishni tashkil etish va hokazo) uchun xarajatlar.

17) Kasaba uyushmasi qo'mitalariga yordam ko'rsatish.

18) Mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lмаган ishlarni (xizmatlarni) bajarish uchun xarajatlar (shaharlar va shaharchalarni obodonlashtirish ishlari, qishloq xo'jaligiga yordam ko'rsatish va boshqa turdagи ishlari).

## **2.6. Kredit tashkilotlarining daromadlariga soliq solishning**

### **o'ziga xos xususiyatlari**

Kredit tashkilotlarining xizmatlarni realizasiya qilishdan olinadigan daromadlariga quyidagilar kiradi:

1) Kredit tashkilotining o'z nomidan va o'z hisobidan pul mablag'larini joylashtirishdan, kreditlar hamda zayomlar berishdan olinadigan foizlar, boshqa foizli

daromadlar. O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida berilgan kreditlar va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlariga muvofiq foizlarni to'lash bo'yicha imtiyozli davr berilgan kreditlar bo'yicha foizli daromadlar kredit shartnomasiga ko'ra olish muddati etib kelmagunicha soliq solinadigan daromad sifatida qaralmaydi.

2) Mijozlarning, shu jumladan vakil banklarning hisobvaraqlarini ochganlik va yuritganlik hamda ularning topshirig'iga binoan hisob-kitoblarni amalga oshirganlik uchun olingan haq, shu jumladan jo'natma, inkasso, akkreditiv va boshqa operastiyalar, bank operastiyalarini amalga oshirish uchun mo'ljallangan to'lov kartalarini hamda boshqa maxsus vositalarni rasmiylashtirganlik va xizmat ko'rsatganlik uchun, hisobvaraqlar bo'yicha ko'chirmalarni hamda boshqa hujjatlarni taqdim etganlik uchun va summalarini qidirganlik uchun vositachilik haqi hamda boshqa pul mukofotlari.

3) Pul mablag'larini inkassastiya qilishdan, veksellardan, to'lov va hisob-kitob hujjatlaridan hamda mijozlarga kassa xizmati ko'rsatishdan olinadigan daromadlar.

4) Naqd pulli va naqd pulsiz shaklda amalga oshiriladigan valyuta operastiyalarini o'tkazishdan, shu jumladan chet el valyutasini sotib olish yoki sotish, jumladan mijozning hisobidan va uning topshirig'i bo'yicha operastiyalarda vositachilik va boshqa mukofotlar, valyuta boyliklari bilan operastiya qilishdan olinadigan daromadlar.

5) Uchinchi shaxslar uchun pul shaklida ijob etilishini nazarda tutuvchi bank kafolatlari, majburiyatlar, avallari va kafilliklari berishga doir operastiyalardan olinadigan pul shaklidagi mukofot.

7) Hujjatlarni va qimmatliklarni saqlash uchun maxsus jihozlangan xonalar va seyflarni ijara berishdan olinadigan daromadlar.

8) Pul mablag'lar, qimmatli qog'ozlar, boshqa boyliklar va bank hujjatlarini etkazib bergenlik, tashiganlik uchun haq.

9) Qimmatbaho metallar hamda qimmatbaho toshlarni tashiganlik va saqlab turganlik uchun haq.

10) Forfeyting va faktoring operastiyalarini amalga oshirishdan olinadigan daromadlar.

12) Kredit tashkilotlari tomonidan o‘z professional faoliyatidan olinadigan boshqa daromadlar.

Balansning valyutaga oid moddalari qayta baholanganda olinadigan daromadlar, shuningdek chet el valyutasining O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizastiya qilish yoki olish sanasidan ushbu tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun haq to‘langan sanagacha bo‘lgan davrda o‘zgarishi munosabati bilan yuzaga kelgan ijobjiy farq soliq qonunchiliga muvofiq boshqa daromadlar sifatida qaraladi.

O‘stirmaslik maqomini olgan kredit bo‘yicha hisoblangan foizlar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibga muvofiq daromadlar hisobvaraqlaridan chiqarib tashlanadi.

Kredit tashkilotlarining chegiriladigan xarajatlariga soliq qonunchiligidan nazarda tutilgan xarajatlardan tashqari quyidagilar kiradi:

1) kredit resurslari uchun to‘lovlar, pul mablag‘lari va qimmatliklarni tashish hamda saqlash xarajatlari.

2) mijozlarning depozit hisobvaraqlari, shu jumladan jismoniy shaxslarning omonatlari bo‘yicha hisoblangan va to‘langan foizlar.

3) O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan normalar doirasida tavakkalchilik operastiyalari bo‘yicha zaxiralarga ajratmalar.

Tijorat banklarining soliq solinadigan foydasidan ular o‘z filiallariga beradigan mol-mulk qiymati chegirib tashlanadi.

## **2.7. Sug‘urta tashkilotlarining daromadlariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari**

Sug‘urta tashkilotlarining xizmatlarni realizastiya qilishdan olinadigan daromadlariga quyidagilar kiradi:

1) Sug‘urta qilish, birgalikda sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari (badallari). Bunda birgalikda sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari (badallari) sug‘urtalovchining

(birgalikda sug‘urta qiluvchining) daromadlari tarkibiga faqat uning birgalikda sug‘urta qilish shartnomasida belgilangan sug‘urta mukofotidagi ulushi miqdorida qo‘shiladi.

2) Avvalgi hisobot davrlarida shakllantirilgan sug‘urtaviy texnik zaxiralarni kamaytirishning (qaytarishning) qayta sug‘urta qiluvchilarning sug‘urta zaxiralaridagi ulushi o‘zgarishi hisobga olingan holdagi summalar.

3) Sug‘urta qilish, birgalikda sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha pul mukofoti, shuningdek qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha tantemalar (foydadan olinadigan haq).

4) Qayta sug‘urta qilishga o‘tkazilgan tavakkalchilik bo‘yicha sug‘urta to‘lovlar ulushining o‘rnini qayta sug‘urta qiluvchilar tomonidan qoplash summalar.

5) Qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha mukofotlar deposiga hisoblangan foizlar summalar.

6) Sug‘urta qildiruvchining (naf oluvchining) etkazilgan zarar uchun javobgar shaxslarga nisbatan talab qilish huquqini realizastiya qilishdan olinadigan, qonun hujjatlariga muvofiq sug‘urtalovchiga o‘tgan daromadlari.

8) Sug‘urta agenti, broker, vositachi xizmatlarni ko‘rsatganlik uchun mukofot.

9) Sug‘urta bozorining professional ishtirokchilariga xizmatlar ko‘rsatganlik uchun sug‘urtalovchi tomonidan olingan pul mukofoti.

10) Sug‘urta xizmatlari ko‘rsatishdan va qo‘srimcha sug‘urta faoliyatidan olingan boshqa daromadlar.

Sug‘urta tashkilotlarining chegiriladigan xarajatlariga quyidagilar kiradi:

1)Qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha to‘langan to‘lov summalar.

2)Avvalgi hisobot davrlarida shakllantirilgan sug‘urta texnik zaxiralar o‘shining qayta sug‘urta qiluvchilarning sug‘urta zaxiralaridagi ulushi o‘zgarishi hisobga olingan holdagi summasi.

3)Sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish majburiyatlari bo‘yicha amalga oshirilgan hamda hisoblangan to‘lov summalar.

4)Fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq o‘tgan yillardagi sug‘urta hodisalari bo‘yicha tugallanmagan to‘lov summalarini, shu jumladan da’vo muddati doirasidagi majburiyatlar summasi.

5)Sug‘urta hodisasi ro‘y beriganligi haqida ma’lum qilingan, lekin zarar miqdori taqdim etilmagan shartnomalar bo‘yicha sug‘urta summalarini.

6)Sug‘urta tashkiloti sug‘urta hodisalari ro‘y berishini bartaraf etish va uning oldini olishga doir tadbirlarni (preventiv tadbirlarni) moliyalashtirishga sarflaydigan mablag‘lar summalarini.

7)Sug‘urta tashkilotlari zaxira fondlarining miqdori sug‘urta tashkilotlari ustav fondining 25 foiziga etguniga qadar mazkur tashkilotlar o‘z daromadlarining 20 foizigacha miqdorida zaxira fondlariga qiladigan ajratmalar summasi.

8)Sug‘urta faoliyati bilan bog‘liq o‘zga yuridik shaxslarning xizmatlariga to‘langan haq.

## **2.8. Qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchilarini**

### **daromadlariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari**

Qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchilarining xizmatlarni realizastiya qilishdan olinadigan daromadlariga quyidagilar kiradi:

1)Qimmatli qog‘ozlarni realizastiya qilishdan olinadigan, quyidagicha aniqlanadigan daromadlar:

- qimmatli qog‘ozlar, bundan qarz qimmatli qog‘ozlari (obligastiyalar, depozit sertifikatlari) mustasno, va ishtirok etish ulushi bo‘yicha realizastiya qilish qiymati va olish qiymati (hissa) o‘rtasidagi ijobjiy farq sifatida.

- qarz qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha realizastiya qilish qiymati bilan realizastiya qilish sanasidagi diskont amortizasiysi va (yoki) mukofot inobatga olingan holda olish qiymati o‘rtasidagi ijobjiy farq sifatida.

2)Qimmatli qog‘ozlar bozorida vositachilik va boshqa xizmatlar ko‘rsatishdan olinadigan daromadlar.

3)Mijozlarning mablag‘laridan foydalanishdan yuzaga keladigan daromadning bir qismi.

4)Depozitar xizmatlar, shu jumladan qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risida axborot taqdim etish, depo hisobvarag‘ini yuritish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishdan olinadigan daromadlar.

5)Qimmatli qog‘ozlar bilan birjada va birjadan tashqarida savdolarni tashkil etish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishdan olinadigan daromadlar.

6)Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan investistiya aktivlarini boshqarish bo‘yicha daromadlar.

7)Qimmatli qog‘ozlar bozorida maslahat xizmatlari ko‘rsatishdan olinadigan daromadlar.

10)Professional faoliyatdan olingan boshqa daromadlar.

Qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchilarining chegiriladigan xarajatlariga quyidagilar kiradi:

1)Tegishli listenziyaga ega bo‘lgan savdoni tashkil etuvchilarga badallar tarzida to‘lanadigan xarajatlar.

2)Professional faoliyatni amalga oshirish munosabati bilan paydo bo‘ladigan savdo qilish joylarini saqlab turish va ularga xizmat ko‘rsatish xarajatlar.

3)Qimmatli qog‘ozlar muomalasi va ularni hisobga olish bilan bog‘liq o‘zaro elektron aloqani tashkil etish hamda olib borish bo‘yicha xarajatlar.

4)Qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchisining faoliyati to‘g‘risidagi axborotni oshkor etish bilan bog‘liq xarajatlar.

5)O‘z mijozlarining topshirig‘iga binoan akstiyadorlik jamiyatlarining boshqaruva organlarida ishtirok etish xarajatlar.

## **2.9. O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining daromadlariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari**

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yuridik shaxs O‘zbekiston Respublikasi norezidentining soliq solinadigan foydasini aniqlashda foyda solig‘ini hisoblab chiqarish maqsadi uchun soliq solinadigan foyda summasi soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan xarajatlar summasining 7 foizidan kam bo‘lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yuridik shaxsning O'zbekiston Respublikasi norezidentining daromadlariga doimiy muassasa faoliyati bilan bog'liq bo'lган barcha turdag'i daromadlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yuridik shaxsning O'zbekiston Respublikasi norezidentining xarajatlariga O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirishdan olingan daromadlari bilan bevosita bog'liq bo'lган, ular O'zbekiston Respublikasida yoki uning tashqarisida qilinganligidan qat'i nazar, barcha turdag'i xarajatlari kiradi.

Yuridik shaxs O'zbekiston Respublikasining norezidenti doimiy muassasaga quyidagilar sifatida taqdim etilgan summalarini doimiy muassasaga chegirishga kiritish huquqiga ega emas:

1) O'zbekiston Respublikasi ushbu norezidentining mol-mulkidan va intellektual mulk obyektlaridan foydalanganlik yoki foydalanish huquqini bergenlik uchun olinadigan roylati, gonorlar, yig'imlar va boshqa to'lovlar.

2) O'zbekiston Respublikasi ushbu norezidentining xizmatlari uchun vositachilik daromadlari.

3) O'zbekiston Respublikasining ushbu norezidenti tomonidan berilgan zayomlar bo'yicha pul mukofotlari.

4) Norezidentning O'zbekiston Respublikasidagi faoliyatidan olinadigan daromadlari bilan bog'liq bo'lмаган xarajatlar.

5) Hujjatlar bilan tasdiqlanmagan xarajatlar.

6) O'zbekiston Respublikasi ushbu norezidentining O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida qilingan boshqaruv va ma'muriy xarajatlari.

O'zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasa alomatlariga javob beradigan faoliyatidan, davlat soliq xizmati organida doimiy muassasa sifatida hisobga qo'yilguniga qadar olingan daromadlariga soliq qonunchiligidagi belgilangan tartibda to'lov manbaida soliq solinadi. Bunda to'lov manbaida soliq agenti tomonidan ushlab qolningan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i u

O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organida doimiy muassasa sifatida hisobga qo'yilganidan keyin O'zbekiston Respublikasi norezidentining soliq majburiyatlarini uzish hisobiga olinishi kerak.

Agar O'zbekiston Respublikasining norezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lмаган faoliyatdan daromad olingan bo'lsa va shu daromaddan O'zbekiston Respublikasida to'lov manbaida haqiqatda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i ushlab qolningan hamda byudjetga o'tkazilgan bo'lsa, ushbu norezidentning doimiy muassasasida ushlab qolningan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisobga olinmaydi.

O'zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lмаган daromadlariga mazkur daromadlarni olish bilan bog'liq xarajatlar chegirib tashlanmagan holda to'lov manbaida soliq solinadi.

Investistiya loyiҳalarini moliyalashtirish uchun jalb qilingan kreditlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi banklari va lizing beruvchilari tomonidan xorijiy moliya institutlariga to'lanadigan daromadlar soliqqa tortilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining to'lov manbaida soliq solinadigan daromadlariga quyidagilar kiradi:

1) Dividendlar va foizlar.

2) Soliq qonunchiligiga muvofiq belgilanadigan, oddiy shirkat shartnomasi asosida birgalikdagi faoliyatda ishtiroy etishdan olinadigan daromadlar.

3) O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan quyidagi mol-mulkni realizastiya qilishdan olinadigan daromadlar:

○ yuridik shaxslarning O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) akstiyalari, ulushlari (paylari).

○ ko'chmas mulk.

To'lov manbaida soliqqa tortiladigan mol-mulkni realizastiya qilishdan olinadigan daromadlar mazkur mol-mulkni realizastiya qilish summasining hujjatlar bilan tasdiqlangan uni olish qiyamatidan oshgan qismi sifatida aniqlanadi. Mol-mulkni olish qiyamatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lмаган taqdirda, yuridik shaxslardan

olinadigan foyda solig‘ini to‘lov manbaida ushlab qolish mol-mulkni realizastiya qilish qiymatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

4) O‘zbekiston Respublikasi norezidentiga tegishli tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi norezidentining o‘zi yoxud O‘zbekiston Respublikasi rezidenti tomonidan vositachilik, topshiriq shartnomasi asosida O‘zbekiston Respublikasi hududida realizastiya qilishdan olinadigan daromadlar. Bunda tovarlarni realizastiya qilishdan olinadigan mazkur daromadlar O‘zbekiston Respublikasi norezidentiga to‘lanadigan summaning olib kirilgan tovarning kontrakt (faktura) qiymatidan oshgan qismi sifatida aniqlanadi.

5) Royalty.

6) Soliq qonunchiligiga muvofiq aniqlanadigan, O‘zbekiston Respublikasi hududida foydalilanidigan mol-mulkni ijaraga yoki ikkilamchi ijaraga topshirishdan olinadigan daromadlar.

7) Tavakkalchiliklarni sug‘urta qilish, birlamchi sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha to‘lanadigan sug‘urta mukofotlari.

8) O‘tkazgichli, radio, optik yoki boshqa elektromagnitli tizimlar orqali belgilar, signallar, matnlar, tasvirlar, tovushlarni uzatganlik, qabul qilganlik va qayta ishlaganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi norezidentlariga haq to‘lanishini nazarda tutuvchi xalqaro aloqa uchun telekommunikastiyalar xizmatlariga to‘lov.

9) Dengiz, daryo va havo kemalaridan, temir yo‘l yoki avtomobil transporti vositalardan xalqaro tashishlarda foydalanishdan olinadigan daromadlar. Ushbu daromadlarga transport vositalardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanishdan, ularni ijaraga berishdan yoki har qanday boshqa shakllarda foydalanishdan, shu jumladan konteynerlardan, konteynerlarni tashish uchun treylerlar va qo‘srimcha uskunalaridan foydalanish, ularni saqlash yoki ijaraga berishdan olinadigan daromadlar (fraxtdan olinadigan daromadlar) kiradi. Ayrim hollarda fraxt (shartnomalar shartlaridan kelib chiqib) yukni ortish, qayta yuklash, tushirish va joylashtirish uchun to‘lovlarini ham o‘z ichiga oladi. Bunda, agar jo‘natish punkti yoki tayin etilgan punkt O‘zbekiston

Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan bo‘lsa, tashish xalqaro tashish deb hisoblanadi.

10) Xalqaro tashishlarda va O‘zbekiston Respublikasi hududidagi tashishlarda transport-ekspeditorlik xizmatlarini ko‘rsatishdan olinadigan daromadlar. Bunda yuk jo‘natuvchidan (yukni qabul qilib oluvchidan) olingan summa bilan yuk tashuvchiga to‘lanishi kerak bo‘lgan, yuk tashuvchining tegishli birlamchi hujjatlari bilan tasdiqlangan summa o‘rtasidagi farq sifatida hisoblangan haq summasi soliq solinadigan daromad hisoblanadi.

11) O‘zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari tomonidan shartnomalar majburiyatlari buzilganligi uchun jarimalar hamda penya.

12) Tekkinga olingan mol-mulk.

13) O‘zbekiston Respublikasining norezidenti tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan olingan boshqa daromadlar.

O‘zbekiston Respublikasi norezidentining O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan oorgan daromadlariga quyidagilar kirmaydi:

○ O‘zbekiston Respublikasi norezidentining, faqat shu norezident nomidan amalga oshiriladigan va faqat tovarlar xarid qilish (olish), shuningdek tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish bilan bog‘liq tashqi savdo operastiyalari (shu jumladan tovar ayirboshlash operastiyalari) bo‘yicha olingan daromadlar.

○ Banklarning O‘zbekiston Respublikasi rezidentlarining vakillik hisobvaraqlarini ochish va yuritish hamda ular bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan bog‘liq xizmatlar ko‘rsatishdan, shuningdek xalqaro to‘lov kartochkalari orqali hisob-kitoblarni amalga oshirishdan olinadigan daromadlar.

Daromadni to‘lash deganda naqd pulli va naqd pulsiz shaklda pulni, qimmatli qog‘ozlarni, ishtiroy etishdagi ulushni, tovarlarni, mol-mulkni berish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish yoki O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan daromadlar to‘lash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi norezidenti oldidagi qarzdorlikni uzish

hisobiga amalga oshiriladigan, daromad oluvchining O‘zbekiston Respublikasi norezidentining qarzi talabini hisobdan chiqarish yoki hisobga olish tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi norezidentining daromadlariga soliq solish mazkur O‘zbekiston Respublikasi norezidenti o‘z daromadlarini uchinchi shaxslar, boshqa davlatlardagi o‘z bo‘linmalari foydasiga va boshqa maqsadlarda tasarruf etishidan qat’i nazar, amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini to‘lov manbaida ushlab qolishni O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi va O‘zbekiston Respublikasining boshqa norezidentiga daromad to‘lovchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari amalga oshirishlari shart.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining summasi daromadni O‘zbekiston Respublikasi norezidentiga to‘lash sanasida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo‘yicha hisoblab chiqariladi.

Sug‘urta badallaridan olingen daromadlar bo‘yicha soliqlarning to‘langan summalarini sug‘urta hodisasi yuz berganda qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

Sug‘urta hodisasi yuz berganda sug‘urta uchun to‘lovga doir xarajatlar to‘lov manbaida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i ushlab qolongan va byudjetga o‘tkazilgan sug‘urtalovchingin O‘zbekiston Respublikasi norezidentining daromadlarini kamaytirish uchun hisobga olinadi. Mazkur qayta hisob-kitobni O‘zbekiston Respublikasi norezidentiga daromadni to‘lagan va to‘lov manbaida soliqni ushlab qolgan yuridik shaxs bajarishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining norezidentiga to‘lov manbaida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i ushlab qolimagan holda daromadni to‘lash soliq qonunchiliga muvofiq doimiy muassasani tashkil etishga olib keladigan faoliyatdan olinadigan daromadlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining norezidenti faoliyatni O‘zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasasi sifatida amalga oshirishi va davlat soliq xizmati organida hisobda turganligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan tasdiqlangan ma’lumotnomaga mavjud bo‘lgan taqdirda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining norezidentiga daromadlarni to‘lash to‘lov manbaida O‘zbekiston Respublikasining norezidenti tomonidan taqdim etilgan, chet davlatning vakolatli organi tomonidan berilgan, O‘zbekiston Respublikasi qaysi davlat bilan soliq solish masalalarini tartibga soluvchi xalqaro shartnomaga ega bo‘lsa, o‘sha davlatda mazkur shaxsning rezidentligi borligi faktini tasdiqlovchi hujjat mavjud bo‘lgan taqdirda ham O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi qoidalariga muvofiq to‘lov manbaida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i ushlab qolimagan yoki yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining pasaytirilgan stavkasi qo‘llanilgan holda amalga oshiriladi.

Daromadlar xorijiy banklarga va xalqaro banklararo telekommunikastiya tizimlariga to‘langan taqdirda, qaysi davlat bilan soliq solish masalalarini tartibga soluvchi xalqaro shartnoma mavjud bo‘lsa, o‘sha davlatda xorijiy bankning yoki xalqaro banklararo telekommunikastiya tizimining doimiy joylashgan eri mavjudligi faktini tasdiqlash, agar ushbu doimiy joylashilgan er hamma foydalanishi mumkin bo‘lgan axborot manbalaridagi ma’lumotlar bilan tasdiqlangan bo‘lsa, talab qilinmaydi.

O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan to‘langan O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari daromadlaridan ushlab qolongan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i byudjetga to‘langan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasining mazkur norezidenti O‘zbekiston Respublikasining tegishli xalqaro shartnomasi qoidalariga muvofiq soliq qonunchiligidagi belgilangan soliq majburiyatlar bo‘yicha da‘vo muddati ichida to‘langan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini byudjetdan qaytarish huquqiga ega. Bunda O‘zbekiston Respublikasining norezidenti O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlariga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan shakldagi soliqni qaytarish uchun ariza.
- Daromadni to‘lash paytida O‘zbekiston Respublikasining mazkur norezidenti O‘zbekiston Respublikasi soliq solish masalalarini tartibga soluvchi xalqaro shartnomaga ega bo‘lgan mamlakatda doimiy joylashgan joyiga

(rezidentligiga) ega bo‘lganligini tasdiqlovchi, tegishli chet davlatning vakolatli organi tomonidan berilgan rasmiy tasdiqnoma.

O‘zbekiston Respublikasining norezidentiga qaysi kontrakt yoki boshqa hujjatga muvofiq daromad to‘langan bo‘lsa, o‘sha kontrakt yoki boshqa hujjatning nusxalari, shuningdek daromadning to‘langanligini va qaytarilishi lozim bo‘lgan, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini ushlab qolingen va byudjetga o‘tkazilganligini tasdiqlovchi to‘lov hujjatlarining nusxalari.

Soliq qonunchiligidagi ko‘rsatilgan tasdiqlovchi hujjatlar chet tilida tuzilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organi ularning notarial tartibda tasdiqlangan davlat tilidagi tarjimasini talab etishga haqli. Bunda hujjatlarni taqdim etish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, ular konsullik orqali legallashtirilgan yoki apostil qo‘yilgan holda amalga oshiriladi.

Ortiqcha hisoblangan va to‘langan soliqni qaytarish O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan qaytarish to‘g‘risida chiqarilgan qaror asosida, ariza berilgan kundan e’tiboran o‘n besh ish kuni ichida soliq qonunchiligidagi belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Soliq qonunchiligi qoidalarini qo‘llash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi norezidenti mazkur shaxsning rezidentligini tasdiqlovchi hujjatda ko‘rsatilgan vaqt davri mobaynida O‘zbekiston Respublikasi tomonidan qaysi davlat bilan soliq solish masalalarini tartibga soluvchi xalqaro shartnomaga tuzilgan bo‘lsa, o‘sha davlatning rezidenti deb e’tirof etiladi. Agar rezidentlikni tasdiqlovchi hujjatda rezidentlik vaqtining davri ko‘rsatilmagan bo‘lsa, ushbu hujjat berilgan kalendar yil davomida O‘zbekiston Respublikasi norezidenti O‘zbekiston Respublikasi tomonidan qaysi davlat bilan soliq solish masalalarini tartibga soluvchi xalqaro shartnomaga tuzilgan bo‘lsa, o‘sha davlatning rezidenti deb e’tirof etiladi.

Soliq qonunchiligidagi ko‘rsatilgan mol-mulk bir yuridik shaxs O‘zbekiston Respublikasi norezidenti tomonidan boshqa yuridik shaxsga O‘zbekiston Respublikasi norezidentiga, jismoniy shaxsga O‘zbekiston Respublikasi norezidentiga yoki rezidentiga realizastiya qilingan taqdirda qo‘llaniladi.

Yuridik shaxs O‘zbekiston Respublikasi norezidenti tomonidan mol-mulkni realizastiya qilishdan olingan daromadlar bo‘yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini ushlab qolish va to‘lash majburiyati soliq agenti deb e’tirof etiladigan daromadni to‘lash manbaiga (mol-mulkni sotib oluvchining zimmasiga) yuklatiladi.

Mol-mulkni realizastiya qiluvchi yuridik shaxs O‘zbekiston Respublikasi norezidenti soliq agentiga mol-mulkni olish qiyamatini tasdiqlovchi hujjatlarning ko‘chirma nusxalarini taqdim etishi shart. Taqdim etilgan hujjatlar asosida soliq agenti yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i summasini soliq qonunchiligidagi muvofiq aniqlanadigan soliq solinadigan bazadan va soliq qonunchiligidagi belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqaradi hamda ushlab qoladi.

Soliq agenti olinayotgan mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqi ro‘yxatdan o‘tkazilguniga qadar O‘zbekiston Respublikasi norezidentining mol-mulkni realizastiya qilishdan olgan daromadlari bo‘yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i hisob-kitobini:

- yuridik shaxsning O‘zbekiston Respublikasi rezidentining ustav kapitalidagi akstiyalari, ulushlari (paylari) realizastiya qilinganda ushbu yuridik shaxs ro‘yxatdan o‘tkazilgan joydagisi davlat soliq xizmati organiga.

- ko‘chmas mulk realizastiya qilinganda ko‘chmas mulk joylashgan erdagiga davlat soliq xizmati organiga O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shakl bo‘yicha, mustaqil ravishda yoki vakolatli shaxs orqali taqdim etishi shart.

O‘zbekiston Respublikasi norezidentining mol-mulkni realizastiya qilishdan olingan daromadlari bo‘yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i hisob-kitobi O‘zbekiston Respublikasi norezidenti qaysi valyutada daromad olayotgan bo‘lsa, o‘sha valyutada tuziladi. Hisob-kitobga mol-mulk oldi-sotdi shartnomasining ko‘chirma nusxasi va sotuvchi tomonidan taqdim etilgan mol-mulkni olish qiyamatini tasdiqlovchi hujjatlarning ko‘chirma nusxalarini ilova qilinadi. Agar mol-mulkni olish qiyamti hisob-kitob tuzilgan valyutada ifodalanmagan bo‘lsa, u holda ushbu qiyamat mol-mulkni olish sanasida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo‘yicha hisob-kitob tuzilgan valyutada qayta hisoblab chiqariladi. Davlat soliq

xizmati organlari hisob-kitob taqdim etilgan sanadan e'tiboran uch ish kuni ichida soliq agenti yoki uning vakolatli shaxsi nomiga yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining hisob-kitob taqdim etilgan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha hisoblangan milliy valyutadagi summasi ko'rsatilgan to'lov xabarnomasini yozib beradi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining summasi olingan mol-mulkka bo'lган mulk huquqi ro'yxatdan o'tkazilguniga qadar byudjetga to'lanishi lozim.

Davlat soliq xizmati organlari yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'langanligi faktini tasdiqlovchi hujjat asosida soliq agentiga yoki uning vakolatli shaxsiga olingan mol-mulkka bo'lган mulk huquqini ro'yxatdan o'tkazuvchi organiga taqdim etiladigan soliq to'langanligi to'g'risida ma'lumotnoma beradi.

Olinadigan mol-mulkka bo'lган mulk huquqini ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar mulk huquqini soliq to'langanligi to'g'risidagi ma'lumotnoma taqdim etilgan taqdirdagina ro'yxatdan o'tkazishni amalga oshiradi.

Akstiyalar qimmatli qog'ozlarning birja bozori va uyushgan birjadan tashqari bozorida realizastiya qilinganda O'zbekiston Respublikasi qimmatli qog'ozlari bozoridagi hisob-kitob-kliring palatasi soliq agenti deb e'tirof etiladi.

Akstiyalarning oldi-sotdisi bo'yicha amalga oshirilgan bitimlarga doir savdo yakunlari reestri asosida soliq agenti hisob-kitob-kliring operastiyalarini amalga oshirish vaqtida sotuvchining pul mablag'laridan realizastiya qilingan akstiyalarning qiymati va soliq qonunchiligidagi belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini ushlab qoladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi sotuvchining hisobiga akstiyalar qiymatini to'lash hisobidan pul mablag'larini o'tkazish bilan bir vaqtida to'lov valyutasida byudjetga o'tkaziladi. Soliq agenti bitim summasi va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining ushlab qolangan summasi to'g'risida akstiyalarini sotuvchining talabiga ko'ra ma'lumotnoma berishi shart.

Soliq agenti yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobini taqdim etish muddatlarida soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston

Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shakl bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i ushlab qolangan akstiyalar oldi-sotdisi bo'yicha bitimlar reestrini taqdim etadi.

Akstiyalarni olish qiymatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lganda sotuvchi ortiqcha to'langan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini qaytarish to'g'risidagi arizani soliq agentining soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etish huquqiga ega. Arizaga akstiyalarni realizastiya qilish va olish qiymatini tasdiqlovchi hujjatlarning ko'chirma nusxalari hamda soliq agenti tomonidan berilgan bitim summasi va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining ushlab qolangan summasi to'g'risidagi ma'lumotnomaning ko'chirma nusxasi ilova qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining daromadlari bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining ortiqcha to'langan summasini qaytarish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

## **2.10. Dividendlar va foizlar tarzidagi daromadlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari**

Dividendlar va foizlarga to'lov manbaida soliq solinadi.

Davlat obligastiyalari va davlatning boshqa qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lган yuridik shaxslarning xalqaro obligastiyalari bo'yicha daromadlar soliqqa tortishdan ozod etiladi.

O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lган kredit tashkilotlariga to'lanadigan foizlarga to'lov manbaida soliq solinmaydi, soliq qonunchiligidagi belgilangan tartibda kredit tashkilotida soliq solinadi. Xuddi shunday tartib mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) berishda ijaraga beruvchiga (lizing beruvchiga) to'lanadigan foizli daromadlarga ham tatbiq etiladi.

Soliq qonunchiligidagi belgilangan tartibda aniqlanadigan, oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olinadigan daromad

boshqa daromadlar tarkibida jami daromadga kiritiladi va unga ushbu bo‘limga muvofiq yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i solinishi lozim.

Oddiy shirkat shartnomasining amal qilishi tugatilganda va mol-mulk ushbu shartnoma sheriklariga qaytarilganda:

○ Oddiy shirkat shartnomasi sherigi yoki uning huquqiy vorisi tomonidan qo‘yilma doirasida olingan mol-mulk va mulkiy huquqlar tarzidagi tushumlar, uning ulushi shartnoma sheriklarining umumiy mulkidagi mol-mulkdan ajratilgan yoki bunday mol-mulk bo‘lingan taqdirda, oddiy shirkat shergining daromadlari tarkibiga kiritilmaydi.

○ Qaytarilayotgan mol-mulk qiymati bilan bu mol-mulkning ilgari oddiy shirkat shartnomasi bo‘yicha topshirilgan qiymati o‘rtasidagi salbiy farq soliq solish maqsadlari uchun zarar deb e’tirof etilmaydi va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini hisoblab chiqarishda soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi.

## **2.11. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bo‘yicha imtiyozlar va soliq stavkalari**

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini to‘lashdan ichki ishlar organlari huzuridagi qo‘riqlash bo‘linmalari ozod qilinadi.

Yuridik shaxslarning quyidagi foydasi yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini to‘lashdan ozod qilinadi:

1) Protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun inventarlar ishlab chiqarishdan, shuningdek nogironlarga ortopedik protezlash xizmati ko‘rsatishdan, nogironlar uchun mo‘ljallangan protez-ortopediya buyumlari va inventarlarni ta’mirlash hamda ularga xizmat ko‘rsatishdan olingan foydasi.

2) Shahar yo‘lovchilar transportida (taksidan, shu jumladan yo‘nalishli taksidan tashqari) yo‘lovchilarni tashish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishdan olingan foydasi.

3) Moddiy madaniy meros obyektlarini ta’mirlash hamda qayta tiklash ishlarini amalga oshirishdan olingan foydasi.

4) Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘lardan foydalanishdan olingan foydasi.

5) Fond birjasida emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni realizastiya qilishdan olingan foydasi.

Ishlovchilari umumiy sonining 3 foizidan ko‘prog‘ini nogironlar tashkil etgan yuridik shaxslar uchun yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i summasi soliq qonunchiligida belgilangan normadan ortiq ishga joylashtirilgan nogironlarning har bir foiziga yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining summasi bir foiz kamaytiriladigan hisob-kitob asosida kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarning soliq solinadigan foydasi quyidagi summaga kamaytiriladi:

1) Ekologiya, sog‘lomlashtirish va xayriya jamg‘armalariga, madaniyat, sog‘liqni saqlash, mehnat organlari, jismoniy tarbiya va sport muassasalariga, ta’lim muassasalariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga beriladigan badallar, homiylik va xayriya tariqasidagi mablag‘lar summasiga, biroq soliq solinadigan foydaning ikki foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda.

2) Ishlab chiqarishni modernizastiyalashga, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga, yangi texnologik jihoz xarid qilishga, ishlab chiqarishni yangi qurilish shaklida kengaytirishga, ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalilaniladigan binolar va inshootlarni rekonstrukstiya qilishga, shuningdek ushbu maqsadlar uchun olingan kreditlarni uzishga, lizing obyekti qiymatining o‘rnini qoplashga yo‘naltiriladigan mablag‘lar summasiga, tegishli soliq davrida hisoblangan amortizastiyani chegirib tashlagan holda, biroq soliq solinadigan foydaning 30 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda. Soliq solinadigan foydani kamaytirish yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan xarajatlar qilingan soliq davridan e’tiboran, texnologik jihoz bo‘yicha esa u foydalanishga topshirilgan paytdan e’tiboran besh yil ichida amalga oshiriladi. Yangi texnologik jihoz xarid qilingan (import qilingan) paytdan e’tiboran uch yil ichida realizastiya qilingan yoki tekinga berilgan taqdirda, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini to‘lash bo‘yicha majburiyatlar tiklangan holda, mazkur imtiyozning amal qilishi imtiyoz qo‘llanilgan butun davr uchun bekor qilinadi. Ushbu imtiyoz

tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi soliq to‘lovchilar tomonidan qo‘llaniladi.

3) Yosh oilalar toifasiga kiruvchi xodimlarga ipoteka kreditlari badallari to‘lashga va mulk sifatida uy-joy olishga tekin yo‘naltiriladigan mablag‘lar summasiga, biroq soliq solinadigan bazaning 10 foizidan oshmagan miqdorda.

4) Diniy va jamoat birlashmalarining, xayriya jamg‘armalarining mulkida bo‘lgan korxonalar foydasidan shu birlashmalar va jamg‘armalarining ustavda belgilangan faoliyatini amalga oshirish uchun yo‘naltiriladigan ajratmalari summasiga.

5) Qo‘srimcha foya solig‘ini to‘lovchilar uchun sof qo‘srimcha foya summasiga.

Soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan, chegirilishi lozim bo‘lgan xarajatlarning jami daromaddan oshib ketishi zarar deb e’tirof etiladi.

Soliq to‘lovchi ko‘rilgan zararlarni ushbu zarar ko‘rilgan soliq davridan keyingi besh yil ichida kelgusiga taqsimlab o‘tkazishni amalga oshirishga haqlidir.

O‘tgan soliq davrida yoki o‘tgan soliq davrlarida soliq qonunchiligidagi muvofiq hisoblab chiqarilgan zarari bo‘lgan yuridik shaxslardan olinadigan foya solig‘ining to‘lovchilari joriy soliq davrining soliq solinadigan foydasini ko‘rilgan zararning to‘liq summasiga yoki bu summaning bir qismiga kamaytirishga haqlidir.

Taqsimlab o‘tkazilayotgan zararning har bir navbatdagi soliq davrida hisobga olinadigan jami summasi joriy soliq davrining soliq qonunchiligidagi muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydaning 50 foizidan oshmasligi kerak.

Yuridik shaxslardan olinadigan foya solig‘i stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

### 2.11.1-jadval

#### **Yuridik shaxslardan olinadigan foya solig‘i stavkalari**

T/r	To‘lovchilar	Soliq solinadigan bazaga nisbatan soliq stavkalari, foizda
1.	Yuridik shaxslar	12
2.	Tijorat banklari	20

3. Yuridik shaxslar:  
Ilement (klinker) ishlab chiqarishni amalga oshiruvchilar.  
Polietilen granulalar ishlab chiqarishni amalga oshiruvchilar.  
Asosiy faoliyat turi mobil aloqa xizmatlari ko‘rsatishdan iborat bo‘lganlar

20

O‘zbekiston Respublikasi rezidentlariga dividendlar va foizlar tarzida to‘lanadigan daromadlarga 5 foizli stavka bo‘yicha soliq solinadi.

O‘zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasa bilan bog‘liq bo‘lmagan va to‘lov manbaida soliq solinadigan daromadlariga quyidagi stavkalar bo‘yicha soliq solinadi:

1) Dividendlar va foizlarga 10 foiz.

2) Sug‘urta qilish, birgalikda sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlariga 10 foiz.

3) Xalqaro aloqa uchun telekommunikastiyalar, xalqaro tashishlarga (fraxtdan olinadigan daromadlarga) 6 foiz.

4) O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining doimiy muassasa bilan bog‘liq bo‘lmagan daromadlariga 20 foiz.

Soliq solinadigan foya taqsimlab o‘tkazilishi kerak bo‘lgan zarar summasi miqdoriga faqat yil yakunlari bo‘yicha kamaytirilishi mumkin.

Birdan ortiq kalendar yilda ko‘rilgan zararlar ular ko‘rilgan ketma-ketlikda taqsimlab o‘tkaziladi.

Soliq to‘lovchining yuridik shaxslardan olinadigan foya solig‘ini to‘lashdan ozod qilingan soliq davrida ko‘rgan zararlari keyingi soliq davrlariga taqsimlab o‘tkazilishi mumkin emas.

Soliq to‘lovchi qayta tashkil etilishi munosabati bilan faoliyatini tugatgan taqdirda, soliq to‘lovchi-huquqiy voris soliq solinadigan foydani qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning qayta tashkil etish paytigacha ko‘rgan zararlari summasiga soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan tartibda va shartlarda kamaytirishga haqli.

## **2.12. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini hisoblash va to‘lash tartibi**

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini hisoblash soliq qonunchiligiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Kalendar yil soliq davridir. Yilning choragi hisobot davridir.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining hisob-kitobi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari doimiy muassasa joylashgan joydagi davlat soliq xizmati organiga O‘zbekiston Respublikasidagi faoliyatining xususiyati haqidagi hisobotni, shuningdek yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining hisob-kitobini chet el investisiyalari ishtirokidagi korxonalar uchun yillik moliyaviy hisobotni topshirish uchun belgilangan muddatlarda taqdim etadi. Faoliyat kalendar yil tugashidan avval tugatilgan taqdirda, bu hujjatlar faoliyat tugatilganidan keyin bir oydan kechiktirmsandan taqdim etilishi shart.

Hisobot davri mobaynida soliq to‘lovchilar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini joriy to‘lovlarini kiritish orqali to‘laydilar.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bo‘yicha joriy to‘lovarning summasini aniqlash uchun soliq to‘lovchilar joriy hisobot davri bиринчи oyining 10-kunigacha davlat soliq xizmati organiga joriy hisobot davri uchun taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining belgilangan stavkasidan kelib chiqib hisoblangan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining summasi haqida ma’lumotnomaga taqdim etadilar.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bo‘yicha joriy to‘lovlar har oyning 10-kunidan kechiktirmay soliq qonunchiligiga muvofiq hisoblab chiqarilgan yil choragi bo‘yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i summasining uchdan bir qismi miqdorida to‘lanadi.

Hisobot davrida taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foyda eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan kam miqdorni tashkil etadigan soliq to‘lovchilar joriy to‘lovlarini to‘lamaydi.

Taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i summasi hisobot davri uchun byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i summasiga nisbatan 10 foizdan ko‘proq kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to‘lovlarini yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining haqiqiy summasidan kelib chiqib penya hisoblagan holda qayta hisoblashga haqli.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini to‘lash hisob-kitoblarni topshirish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasasi yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini, shuningdek sof foydadan olinadigan soliqni joriy to‘lovlarini to‘lamasdan yiliga bir marta, hisob-kitobni taqdim etish muddatidan keyin bir oy ichida to‘laydi.

Yuridik shaxslardan to‘lov manbaida olinadigan foyda solig‘i belgilangan stavkalarni chegirmalarni amalga oshirmsandan to‘lanadigan daromad summasiga nisbatan qo‘llash orqali hisoblab chiqariladi.

Yuridik shaxslardan to‘lov manbaida olinadigan foyda solig‘ini yuridik shaxslar quyidagilarni to‘lash paytida ushlab qolishi shart:

- Dividendlar va foizlarni.
- O‘zbekiston Respublikasi norezidentlariga daromadlarni.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining summasi to‘lov manbaida ushlab qolinmagan yoki O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomaga qoidalarining g‘ayriqonuniy tarzda qo‘llanilishi mazkur soliq ushlab qolinmasligiga yoxud to‘liq ushlab qolinmasligiga sabab bo‘lgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi rezidenti yoki O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi norezidenti yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining ushlab qolinmagan summasini va u bilan bog‘liq penya summasini qonun hujjatlariga muvofiq byudjetga kiritishi shart.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini O‘zbekiston Respublikasi norezidentlariga dividendlar, foizlar va to‘lovlarni to‘lash sanasidan kechiktirmay byudjetga o‘tkazishi. Banklar O‘zbekiston Respublikasining norezidentlariga amalga oshirilgan to‘lovlar bo‘yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini to‘lov amalga oshirilgan oydan keyingi oyning beshinchi kunidan kechiktirmay byudjetga o‘tkazadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i hisob-kitobini davlat soliq xizmati organlariga to‘lov amalga oshirilgan hisobot davri tugagandan keyin yigirma besh kundan kechiktirmay taqdim etishi.

Davlat soliq xizmati organlariga O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shakldagi, bu shaxslarning soliq to‘lovchining identifikasiya raqami, ularning nomi, daromadining umumiyligi summasi va soliq davri uchun ushlab qolongan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining umumiyligi summasi ko‘rsatilgan ma’lumotnomani soliq davri tugaganidan keyin o‘ttiz kun ichida taqdim etishi.

Daromad oluvchi shaxslarga ularning talabiga binoan, daromad summasi va soliq davri uchun ushlab qolongan soliqning umumiyligi summasi haqida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda ma’lumotnomani taqdim etishi shart.

Yuridik shaxslar O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida olingan daromad qilingan xarajatlar hamda O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida to‘langan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i chegirib tashlanguniga qadar to‘liq miqdorda soliq to‘lovchining jami daromadiga qo‘shiladi. Soliq solinadigan bazani aniqlashda O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida foyda olish munosabati bilan qilingan hamda hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar ushbu Kodeksda belgilangan tartibda va miqdorlarda chegiriladi.

O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida to‘langan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining umumiyligi summasi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro

shartnomalariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini to‘lash paytida hisobga olinadi.

O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida to‘langan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining summasini hisobga olish uchun chet davlat vakolatlari organizining to‘lov xabarnomasi, ma’lumotnomasi yoki O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i to‘langanligini tasdiqlovchi boshqa hujjat asos bo‘ladi.

#### **Takrorlash uchun savollar**

1. Yuridik shaxs tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?
2. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarni qanday turlari mavjud?
3. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishning qanday asosiy prinstiplari mavjud?
4. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig‘ini to‘lovchilar bo‘lib kimlar hisoblanadi ?
5. Rezidentlar kimlar hisoblanadi?
6. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig‘ida soliq solish obyekti nima hisoblanadi ?
7. Jami daromad tarkibiga nimalar kiradi ?
8. Royalti nimani anglatadi?
9. Soliq solinadigan foydani belgilashda jami daromaddan qanday chegirmalar amalga oshiriladi?
10. Yuridik shaxslarning foydasiga solinadigan soliq bo‘yicha qanday soliq stavkalari mavjud?
11. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig‘i bo‘yicha qanday imtiyozlar mavjud ?
12. Norezidentlar hamda chet ellik yuridik shaxslarning foydasiga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
13. Norezidentlar kimlar hisoblanadi?
14. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig‘ini hisobga olish tartibi qanday?

### **III bob. SOLIQ SOLISHNING SODDALASHTIRILGAN TARTIBI**

#### **3.1. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibining soliq amaliyotiga tatbiq etilishi**

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi soliq to‘lovchilarning ayrim toifalar uchun qo‘llaniladi va yagona soliq to‘lovi, yagona er solig‘ini hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat’iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish hamda to‘lashning maxsus qoidalari qo‘llanilishini, shuningdek mazkur soliqlar bo‘yicha soliq hisoboti taqdim etilishini nazarda tutadi.

Qat’iy belgilangan soliqni to‘lash belgilangan faoliyat turlarini amalgalashiruvchi yagona soliq to‘lovi to‘lovchilar va yagona er solig‘ini to‘lovchilar ushbu faoliyat turlari bo‘yicha alohida-alohida hisob yuritishlari hamda soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan tartibda qat’iy belgilangan soliq to‘lashlari shart.

Soliq qonunchiligidagi ko‘rsatilgan soliqlar soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan jami umumbelgilangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning o‘rniga to‘lanadi.

Soliq davri mobaynida, soliq solish tartibi o‘zgargan taqdirda, soliq to‘lovchi bu haqda soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organini O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan shaklda yozma ravishda xabardor etadi. Bunda o‘tgan davr uchun soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni o‘sha davrda amal qilgan soliq solish tartibidan kelib chiqqan holda to‘lash bo‘yicha majburiyatlar soliq to‘lovchilarda saqlanib qoladi.

#### **3.2. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibining rivojlantish bosqichlari**

Yagona soliq to‘lovi kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida turli soliq va yig‘imlar o‘rniga soddalashtirilgan tartibda to‘lanuvchi yagona soliq turi. Soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimi- bu shunday soliqqa tortish tizimi bo‘lib, unda kichik biznes subyektlarini rag‘batlantirish maqsadi qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15- preldagi “Kichik korxonalar uchun ixchamlashtirilgan soliqqa tortish tizimiga o‘tishni qo‘llash to‘g‘risida”gi 159-sonli qarori qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998- yil 10- oktyabrdagi “Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona er solig‘ini joriy etish

to‘g‘risida”gi PF-2086 sonli farmoni qabul qilindi.

1998- yildan 2005- yil 1- iyulgacha kichik korxonalar va mikrofirmalar yagona soliq va byudjetdan tashqari fondlarga ajratmalarni to‘lar edi.

2005- yil 1- iyuldan boshlab amaldagi yagona soliq va byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi, Respublika yo‘l jamg‘armasi va Maktab ta’limini rivojlantirish jamg‘armasiga majburiy ajratmalar o‘rniga yagona soliq to‘lovi joriy qilindi.

Kichik biznes subyektlari uchun soddalashtirilgan soliq tizimini qo‘llashning huquqiy asoslari bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998- yil 15- apreldagi “Kichik korxonalar uchun ixchamlashtirilgan soliqqa tortish tizimiga o‘tishni qo‘llash to‘g‘risida”gi 159-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 10-oktyabrdagi “Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona er solig‘ini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-2086-sonli Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005- yil 20- iyundagi “Mikrofirmalar va kichik korxonalar rivojlantirishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-3620-sonli Farmoni hisoblanadi.

#### **3.3. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibining iqtisodiy ahamiyati**

Kichik biznesni rivojlantirish iqtisodiy taraqqiyot barqarorligini, ko‘p jihatidan iqtisodiy o‘sish su’ratlarini belgilash bilan birga aholining ma’lum qismining bandligini kafolatlaydi, shuningdek, bozor mexanizmiga tez moslashuvchanlik xarakteri orqali zarur iste’mol tovarlari va xizmatlari bilan tez boyitadi, ayni paytda tashqi bozorga ham raqobotbardosh mahsulotlar chiqarish imkoniyatiga ega ekanligi, uning fan va texnika yutuqlarini tez o‘zlashtirish qobiliyatiga, xo‘jalik tuzilmalarining qayishqoqligi va tez o‘zgarayotgan sharoitlarga moslashuvchanligini oshiradi.

Kichik biznesning o‘ziga xos bir qator xususiyatlari va afzalliklari mavjud bo‘lib, bozor kon‘yukturasiga oson moslashuvchanligi, yangi ish o‘rinlari yaratish orqali, ishsizlikni oldin olish, yirik biznes subyektlari uchun samarasiz sohalarda faoliyat ko‘rsatishda qulayligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar assortimentini ko‘paytirish imkoniyatiga ega ekanligi, kichik korxonalar faoliyatini rivojlantirish uchun ko‘p miqdorda aylanma mablag‘lar talab etilmasligidadir.

Mamlakatimizda kichik biznesni rivojlantirishda davlatning katta kafolatlari va yordami tufayli iqtisodiyotda katta imkoniyatlarini ishga solish mumkin. Ularga davlat yordamini berish, kafolatlardan tashqari soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimiga o'tishga ruxsat berishlik, ularni tashkil qilish va moliya xo'jalik faoliyatini boshqarishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Kichik biznes subyektlarini soliqlar vositasida rag'batlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri-bu barcha soliq to'lovchilar uchun soliqqa tortish shartlarini yagonalashtirish, adresli asoslanmagan imtiyozlarni bekor qilish va soliq yukini kamaytirishdir.

Soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimining ahamiyati kattadir. Bular birinchidan, tovarlar va xizmatlar oshishi imkonini beradi.

Ikkinchidan, yangi ish o'rnlari vujudga keladi.

Uchinchidan, korxonalar faoliyatini tashkil qilishni soddalashtiradi.

To'rtinchidan, soliq hisobini yuritish oddiylashtiriladi.

Kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lashga o'tishlik ixtiyoriydir. Bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998- yil 15- aprel 159-son "Kichik korxonalar uchun ixchamlashtirilgan soliqqa tortish tizimiga o'tishni qo'llash" to'g'risidagi qaroriga muvofiq byudjetga soliq to'lovlar ixchamlashtirildi va kichik biznes subyektlari uchun yagona soliq to'lash uchun joriy etildi.

#### **3.4. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo'llash o'ziga xos xususiyatlari**

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun qo'llaniladi va yagona soliq to'lovini, yagona er solig'ini hamda tadbirdorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish hamda to'lashning maxsus qoidalari qo'llanilishini, shuningdek mazkur soliqlar bo'yicha soliq hisoboti taqdim etilishini nazarda tutadi.

Yagona soliq to'ovi, yagona yer solig'i va tadbirdorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq soliq qonunchiligidida nazarda tutilgan jami umumbelgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarining o'mniga to'lanadi.

Soliq davri mobaynida soliq solish tartibi o'zgargan taqdirda, soliq to'lovchi bu haqda soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda yozma ravishda xabardor etadi. Bunda o'tgan davr uchun soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini o'sha davrda amal qilgan soliq solish tartibidan kelib chiqqan holda to'lash bo'yicha majburiyatlar soliq to'lovchilarda saqlanib qoladi.

Qurilishi tugallanmagan obyektlar va foydalanimayotgan ishlab chiqarish maydonlarining mulkdorlari bo'lgan, soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo'llaydigan yuridik shaxslar investistiya loyihasi amalga oshirilmaganligi to'g'risida xulosani berishga haqli bo'lgan vakolatlari organning xulosasi chiqarilganidan keyingi oydan e'tiboran umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tadi.

O'ziga nisbatan soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan soliq to'lovchilar uchun to'lov manbaida soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlar ushlab qolish majburiyatları hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga quyidagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini to'lash majburiyatları saqlanib qoladi:

1.Soliq qonunchiligidida nazarda tutilgan tartibda to'lov manbaida undiriladigan foyda solig'i.

2.Soliq qonunchiligidida nazarda tutilgan tartibda O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan bajariladigan (ko'rsatiladigan) ishlar (xizmatlar) bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i.

Qurilishi moliyalashtirishning markazlashtirilgan manbalarini jalb etgan holda amalga oshirilayotgan obyektlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i.

3.Aksiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarishda solinadigan aksiz solig'i.

4.Er qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar.

5.Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.

6.Yuridik shaxslardan olinadigan er solig'i.

7.Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq.

8.Bojxona to'lovlar.

9.Yagona ijtimoiy to'lov.

10.Davlat bojlari.

11.Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im.

12.Avtotransport vositalarini olganlik va vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im.

#### **Takrorlash uchun savollar**

- 1.Soddalashtirilgan soliq tizimining iqtisodiy ahamiyatini tushuntirib bering?
- 2.Soliq solishning soddalashtirilgan tartibining soliq amaliyotiga tatbiq etilishini tushuntirib bering?
- 3.Soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo'llash o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
- 4.Soddalashtirilgan soliq tizimining rivojlanish bosqichlari nimalardan iborat?

#### **IV bob. YAGONA SOLIQ TO'LOVI**

##### **4.1. Yagona soliq to'lovini to'lovchilar va soliq solish obyekti**

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar quyidagilardir:

1. Soliq davrida olingan yalpi tushumi bir milliard so'mdan oshmagan yuridik shaxslar.

2. Oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherk (ishtirokchi) soliq davrida oddiy shirkat faoliyatidan olingan yalpi tushumi bir milliard so'mdan oshmagan yakka tartibdagi tadbirkor.

3.Soliq davrida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizastiya qilishdan olingan tushumi belgilangan miqdordan oshgan, lekin bir milliard so'mgacha bo'lган yakka tartibdagi tadbirkorlar.

4.Soliq davrida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizastiya qilishdan olingan tushumi bir milliard so'mdan oshmagan:

- Meva-sabzavot mahsulotlari eksportini amalga oshiruvchi.
- Elektron tijorat subyektlarining milliy reestriga kiritilgan yakka tartibdagi tadbirkorlar.

5.Soliq davrida olingan yalpi tushumi bir milliard so'mdan oshmagan oilaviy korxonalar.

6.Notijorat tashkilotlar daromadlarining soliq davrida tadbirkorlik faoliyatidan olingan qismi bo'yicha, soliq davrida tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlari bir milliard so'mdan oshmasligi sharti bilan.

Vositachilik, topshiriq shartnomasi bo'yicha hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar yillik aylanmaning (tushumming) belgilangan chegaraviy miqdorini tovar aylanmasidan (bitim summalaridan) kelib chiqqan holda hisoblab chiqaradi.

Yagona soliq to'lovi:

○ Aksiz solig'i to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarishni va er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni kavlab olishni amalga oshiruvchi.

○ Aksiz solig'iga tortiladigan mobil aloqa xizmatlari ko'rsatuvchi.

○ Soliq qonunchiligiga muvofiq yagona er soliq'i to'lash nazarda tutilgan faoliyat doirasidagi.

○ Mahsulot taqsimotiga oid bitimlarning ishtirokchilari bo'lган yuridik shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Soliq qonunchiligida ko'rsatilgan soliq to'lovchilar yagona soliq to'lovini to'lashni nazarda tutadigan soliq solishning soddalashtirilgan tartibini yoki umumbelgilangan soliqlar to'lashni tanlashga haqlidi.

Yagona soliq to'lovini to'lashga o'tish uchun soliq to'lovchilar yagona soliq to'lovini to'lashga o'tishi to'g'risida soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda, yagona soliq to'lovini to'lashga o'tilayotgan joriy hisobot davri birinchi oyining 10-sanasidan kechiktirmay xabardor qiladi.

Yangi tuzilayotgan yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran tadbirkorlik faoliyati subyektini davlat ro'yxatidan o'tkazish chog'ida tanlangan soliq solish tartibini ko'rsatish orqali yagona soliq to'lovini to'lash tartibini tanlash huquqiga ega.

Soliq to'lovchilar yagona soliq to'lovini to'lashdan ixtiyoriy ravishda voz kechgan taqdirda, hisobot davri tugaganidan so'ng o'n kun ichida davlat soliq xizmati organlariga taqdim qilinadigan yozma bildirish asosida keyingi hisobot davridan boshlab umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tadi.

Soliq davrida olingen yalpi tushumi bir milliard so'mdan oshgan yagona soliq to'lovini to'lovchilar belgilangan chegaraviy miqdor oshib ketgan oydan keyingi oyning boshidan boshlab umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tadi.

Turli soliq solish obyektlari va yagona soliq to'lovi stavkalari belgilangan bir necha faoliyat turlari bilan shug'ullanadigan yagona soliq to'lovini to'lovchilar shu faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari hamda soliq to'lovchilarning tegishli toifalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha yagona soliq to'lovini to'lashlari kerak.

Umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tgan yagona soliq to'lovini to'lovchilar kamida o'n ikki oydan so'ng yagona soliq to'lovini to'lashga qayta o'tishga haqlidir.

Soliq qonunchiligida ko'rsatilgan soliq to'lovchilar, agar joriy soliq davri yakunlariga olingen yalpi tushumi belgilangan chegaraviy miqdordan oshmasa, keyingi soliq davridan boshlab yagona soliq to'lovini to'lashga qayta o'tishga haqlidir.

Yagona soliq to'lovini to'lashdan umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tgan soliq to'lovchilar umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tgan birinchi chorak uchun foyda solig'i bo'yicha joriy to'lovlarini to'lashdan ozod qilinadi.

Agar yagona soliq to'lovini to'lovchilar soliq qonunchiligiga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan oborotni amalga oshirsa, qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy asosda to'lashi mumkin. Yuridik shaxslar qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga o'tish uchun hisobot davri boshlanishidan kamida bir oy oldin, yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar esa o'z faoliyatini amalga oshirishni boshlaguniga qadar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga yozma bildirish taqdim etadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashni yagona soliq to'lovini to'lovchilar tomonidan rad etish soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda, keyingi soliq davri boshlanguniga qadar bir oydan kechiktirmay taqdim etiladigan yozma bildirish asosida, faqat navbatdagi soliq davrining boshidan e'tiboran amalga oshirilishi mumkin.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash soliq qonunchiligida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Yalpi tushum soliq solish obyekti.

Soliq solish maqsadida yalpi tushum tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

1.Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qo'shilgan qiymat solig'ini va aksiz solig'ini chegirgan holda realizastiya qilishdan tushgan tushum.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizastiya qilishdan tushgan tushum deganda quyidagilar tushuniladi:

○ qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun o'z kuchlari bilan bajarilgan, tegishinchaligida.

qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarni realizastiya qilishdan tushgan tushum. Bunda, agar yuqorida qayd etilgan ishlarni materiallar bilan ta'minlash majburiyati shartnomaga binoan buyurtmachining zimmasida bo'lsa, ushbu materiallarga bo'lgan mulk huquqi buyurtmachining o'zida saqlanib qolgan taqdirda, o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlarni realizastiya qilishdan olinadigan tushum bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi qiymati sifatida belgilanadi.

- savdo va umumiyy ovqatlanish korxonalari uchun tovar oboroti.
- mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) beruvchi yuridik shaxslar uchun moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi.
- vositachilik va topshiriq shartnomalari hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan yuridik shaxslar uchun ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq summasi.
- lotereya o'yinlarini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun o'yin chiptalarini ularda ko'rsatilgan narx bo'yicha tarqatishdan tushgan tushum.

tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) tannarxidan yoki olish bahosidan past baholarda (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olgan holda) realizastiya qiluvchi, shuningdek tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) tekin beruvchi yuridik shaxslar uchun tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tannarxi yoki ularni olish bahosi (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olgan holda). Bunda baholari (tariflari) davlat tomonidan tartibga solinishi nazarda tutilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun realizastiya qilishdan olinadigan tushum belgilangan baholardan (tariflardan) kelib chiqqan holda aniqlanadi. O'zi ishlab chiqargan tovarlarni jahon bozorida haqiqiy vujudga kelgan narxlar bo'yicha, shu jumladan tannarxidan past narxlar bo'yicha eksport qilish masalalarini ko'rib chiquvchi maxsus vakolatli organning qarorlari asosida ushbu tovarlarning tannarxidan past narxlar bo'yicha xorijiy valyutaga eksport qilinganda, soliq solish maqsadida tovarlarni realizastiya qilishdan olingan tushum tovarlarni realizastiya qilishning haqiqiy bahosidan kelib

chiqqan holda aniqlanadi. Ushbu norma ekologiya, sog'lomlashtirish hamda xayriya jamg'armalariga, madaniyat, sog'lijni saqlash, mehnat, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport, ta'lim muassasalariga bepul beriladigan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) nisbatan tatbiq etilmaydi.

## 2. Soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan boshqa daromadlar.

Uzoq muddatli kontraktlarni bajarishda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizastiya qilishdan tushadigan tushum soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan tartibda hisobot davri mobaynida uzoq muddatli kontraktlarni haqiqatda bosqichma-bosqich ijro etishga oid qismida hisobga olinadi.

Quyidagilarga soliq solish obyekti sifatida qaralmaydi:

1.Ustav fondiga (ustav kapitaliga) olingan hissalar, shu jumladan akstiyalarni (ulushlarni) joylashtirish bahosining ularning nominal qiymatidan (dastlabki miqdoridan) ortiq summasi, oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birgalikdagagi faoliyatni amalga oshirish uchun birlashtiriladigan mablag'lar.

2.Muassislar (ishtiroychilar) tarkibidan chiqilayotganda (chiqarilayotganda), shuningdek tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassislar (ishtiroychilari) o'rtasida taqsimlanayotganda ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissalar doirasida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar).

3.Shartnomalar (ishtiroychilari) umumiy mulkidagi hissasi qaytarib berilgan yoki bunday mol-mulk bo'lingan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasi shergi (ishtiroychisi) tomonidan hissasi miqdorida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar).

4.Realizastiya qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun oldindan haq to'lash (bo'nak) tariqasida boshqa shaxslardan olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar).

5.Mulk huquqi ularga o'tgan paytga qadar majburiyatlarni qonun hujjalari muvofiq ta'minlash sifatida garov yoki zakalat tarzida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar).

6.Byudjetdan berilgan subsidiyalar.

7.Agar mablag'lni (mol-mulkni yoki mulkiy huquqlarni) o'tkazish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida amalga oshirilsa, tekin olingen mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar), ishlar va xizmatlar.

8.Olingen grantlar va insonparvarlik yordami.

9.Notijorat tashkilotlar tomonidan ustav faoliyatining ta'minoti va ushbu faoliyatni amalga oshirish uchun olingen, belgilangan maqsadga ko'ra va tekin kelib tushgan mablag'lar.

10.Sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta tovoni (sug'urta summasi) tariqasida olingen mablag'lar.

11.Vositachiga yoki boshqa ishonchli vakilga vositachilik, topshiriq shartnomasi yoki vositachilik xizmatlarini ko'rsatishga oid boshqa shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish munosabati bilan, shuningdek komitent yoxud boshqa topshiriq beruvchi uchun vositachi yoki boshqa ishonchli vakil tomonidan qilingan xarajatlarni qoplash hisobiga kelib tushgan mol-mulk.

12.Obyekt qiymatining ijara beruvchi (lizing beruvchi) tomonidan olingen ijara (lizing) to'lovining bir qismi tarzida qoplanishi.

13.Telekommunikastiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining tekin olingen texnik vositalari, shuningdek mazkur vositalardan foydalanishga va ularga xizmat ko'rsatishga doir xizmatlar.

14.Ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektining muassislaridan (ishtiroychilaridan) uning majburiyatlarini bajarish uchun olingen mablag'lar. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili tugatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda ushbu mablag'lar soliq solish obyektiga kiritiladi va ularga soliq solinishi lozim.

15.Investor bilan davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq investistiya majburiyatları sifatida kiritilayotgan mol-mulk.

Balansning valyuta moddalarini qayta baholash chog'ida kursdagi ijobiy va salbiy farqlar o'rtasidagi saldo soliq solish obyekti hisoblanadi. Salbiy kurs farqi

summasi ijobiy kurs farqi summasidan ortiq bo'lган taqdirda oshib ketgan summa yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarishda soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi.

Soliq qonunchiliga muvofiq quyidagilar chegirib tashlangan holda hisoblab chiqarilgan yalpi tushum soliq solinadigan bazadir:

1.Davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar.

2.To'lov manbaida soliq solinadigan dividendlar va foizlar tariqasida olingen daromadlar.

3.Hisobot yilda aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar. Mazkur daromadlarga ular qaysi davrda paydo bo'lган bo'lsa, o'sha davrdagi qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha o'tkazilgan hisob-kitoblar inobatga olingen holda soliq solinishi kerak.

4.Ko'p oborotli qaytariladigan taraning qiymati, agar uning qiymati tovarlarni (ishlar va xizmatlarni) realizastiya qilishdan olingen tushumning tarkibiga ilgari kiritilgan bo'lsa.

5.Mahsulot etkazib beruvchilarning siylovi (skidka) tariqasida va asosiy vositalarni tugatishda ularning ilgari qayta baholashlardagi qiymatining kamayishi summasidan ortgan qismi hisobiga olingen boshqa daromadlar.

Soliq solinadigan baza soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan chegirmalardan tashqari quyidagilar uchun kamaytiriladi:

○ lotereya o'yinlarini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun yutuq (mukofot) fondining summasiga, biroq tarqatilgan chiptalarga chiqqan yutuqlarning (mukofotlarning) umumiyligi summasidan ortiq bo'lмаган miqdoriga.

○ brokerlik tashkilotlari uchun bitim summasidan birjaga o'tkaziladigan vositachilik yig'imi summasiga.

○ vositachilik, topshiriq shartnomasi bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun realizastiya qilingan tovar ulushida tovarlarni import qilishda to'langan bojxona to'lovlar summasiga.

○ turistik faoliyat subyektlari uchun turistik xizmatlarni onlayn-bronlashtirish va sotish bo'yicha dasturiy mahsulotlarni hamda axborot tizimlarini joriy etishga yo'naltirilgan mablag'lar summasiga.

○ kalendar yil mobaynida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizastiya qilishdan olingan belgilangan eng yuqori chegaraviy miqdordan oshganligi sababli yagona soliq to'lovini to'lashga o'tganda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy belgilangan soliqni to'lash davrida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizastiya qilishdan olingan tushum summasiga.

Soliq qonunchiligiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan baza quyidagilarga yo'naltirilgan mablag'lar summasiga kamaytiriladi:

○ yangi texnologik asbob-uskunalar olishga, sifatni boshqarish tizimlarini joriy etishga, mahsulotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini sertifikatlashtirishdan o'tkazishga, laboratoriya testlari va sinovlarini o'tkazish uchun komplekslar olishga, biroq soliq solinadigan bazaning ko'pi bilan 25 foiziga. Soliq solinadigan bazani kamaytirish yuqorida ko'rsatilgan xarajatlar amalga oshirilgan soliq davridan boshlab, texnologik asbob-uskuna bo'yicha esa u foydalanishga topshirilgan paytdan boshlab besh yil ichida amalga oshiriladi.

○ yosh oilalar jumlasidan bo'lgan xodimlarga ipoteka kreditlari bo'yicha badallar to'lashga va mulk qilib uy-joy olishga tekin yo'naltirilgan mablag'lar summasiga, lekin soliq solinadigan bazaning ko'pi bilan 10 foiziga.

Soliq to'lovchida yalpi tushumga tuzatish kiritish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- 1.Tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda.
- 2.Bitim shartlari o'zgarganda.
- 3.Baholar o'zgarganda, sotib oluvchi siyovdan (skidkadan) foydalanganda.
- 4.Bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

Soliq qonunchiligida nazarda tutilgan yalpi tushumga tuzatish kiritish bir yillik muddat doirasida, kafolat muddati belgilangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha esa kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

Soliq qonunchiligiga muvofiq yalpi tushumga tuzatish kiritish tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda, bitim shartlari o'zgarganda, baholar o'zgarganda, sotib oluvchi siyovdan (skidkadan) foydalanganda, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlardan voz kechilgan hollar yuz berganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Bunda tovari (ishni, xizmatni) etkazib beruvchi yalpi tushumga tuzatish kiritishni soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Tovarlar (ishlarni, xizmatlarni) realizastiya qilishdan olinadigan daromadga tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda, bitim shartlari o'zgarganda, baholar o'zgarganda, sotib oluvchi siyovdan (skidkadan) foydalanganda, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlardan voz kechilgan hollarda tuzatish kiritish ko'rsatilgan hollar yuz bergan soliq davrida amalga oshiriladi.

#### **4.2. Yagona soliq to'lovi stavkalari va belgilangan imtiyozlar**

Yagona soliq to'lovini to'lashdan nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilarini» assostiastiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiyligi sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etadigan yuridik shaxslar ozod qilinadi.

Savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati hamda lotereyalar tashkil etish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslarga soliq imtiyozlari tatbiq etilmaydi. Soliq imtiyozini olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo'lgan xodimlar kiritiladi.

Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari yagona er solig'i to'lovchilar, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari reestriga kiritilgan kundan boshlab qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish bilan bog'liq bo'limgan boshqa daromad turlari bo'yicha yagona soliq to'lovini to'lashdan besh yil muddatga ozod etiladi.

**4.2.1-jadval**  
**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 26- dekabrdagi  
 “O'zbekiston Respublikasining 2019- yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari  
 proqnozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet  
 mo'ljallari to'g'risida”gi PQ-4086-son qaroriga muvofiq yagona soliq to'lovi  
 stavkalari<sup>4</sup>**

Nº	To'lovchilar	Soliq stavkalari, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalari	4
2.	Bojaxona rasmiylashtiruvni bo'yicha xizmatlarni ko'rsatadigan yuridik shaxslar (bojaxona brokerlari)	5
3.	Lombardlar	25
4.	Gastrol-konsert faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shu jumladan, norezidentlarni) jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oladigan korxonalar	5
5.	Tayyorlov tashkilotlari, brokerlik idoralari shuningdek vositachilik, topshiriq va boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan korxonalar	25
6.	Qimmatli qog'ozlar bozorida brokerlik faoliyatini amalga oshiradigan korxonalar	13
7.	Asosiy faoliyati mol-mulkni ijara berishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar	30
8.	Umumiy ovqatlanish korxonalari  quyidagi joylarda joylashgan:  aholisi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	8

boshqa aholi punktlarida	6
borish qiyin bo'lgan va tog'li yerlarda	4
ulardan:	
umumiy ta'lim maktablari, mакtab-internatlar, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy o'quv yurtlariga xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashgan umumiy ovqatlanish korxonalari	75%
CHakana savdo sohasidagi soliq to'lovchilar:	
9.1 quyidagi joylarda joylashgan: aholisi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	4
boshqa aholi punktlarida	2
borish qiyin bo'lgan va tog'li yerlarda	1
9.2 Joylashgan joyidan qat'i nazar:	
alkogolli mahsulot, tamaki mahsuloti, benzin, dizel yoqilg'i va suyultirilgan gaz realizatsiyasidan tovar oboroti bo'yicha	4
10. Ulgurji, shuningdek ulgurji-chakana savdo bilan shug'ullanuvchi savdo korxonalari	4
11. Ulgurji va chakana dorixona tashkilotlari, quyidagi joylarda joylashgan: aholisi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	3
boshqa aholi punktlarida	2
borish qiyin bo'lgan va tog'li yerlarda	1
12. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlovchi va qadoqlovchi tayyorlov tashkilotlari	4% tovar aylanmasidan yoki 25% yalpi daromaddan

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 26- dekabrdagi “O'zbekiston Respublikasining 2019- yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari proqnozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida”gi PQ-4086-son qarori

#### **4.3. Yagona soliq to‘lovini hisoblash va uni to‘lash tartibi**

Yagona soliq to‘lovi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Kalendar yil soliq davridir.Yil choragi hisobot davridir.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilar uchun yagona soliq to‘lovi summasi byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasiga, lekin yagona soliq to‘lovi summasining 50 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorga kamaytiriladi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini ixtiyoriy ravishda to‘lashga kalendar yil boshidan e’tiboran o‘tmagan to‘lovchilar yagona soliq to‘lovi summasini qo‘shilgan qiymat solig‘i hisoblab chiqarilgan hisobot davriga to‘g‘ri keladigan summaga kamaytiradi.

Yagona soliq to‘lovining hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Yagona soliq to‘lovi quyidagicha to‘lanadi:

- Mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay.
- Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to‘lovchilar tomonidan har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

Yuridik shaxslar O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida olingan tushum soliq to‘lovchining yalpi tushumiga to‘liq miqdorda qo‘shiladi.

O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida to‘langan foyda solig‘ining summasi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq yuridik shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasida yagona soliq to‘lovini to‘lash chog‘ida hisobga olinadi.

To‘lov xabarnomasi, chet davlat soliq organining ma’lumotnomasi yoki chet elda soliq to‘langanligi faktini tasdiqlovchi boshqa hujjat chet elda to‘langan foyda solig‘ining summasini hisobga olish uchun asos bo‘ladi.

#### **Takrorlash uchun savollar**

- 1.Yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar va soliq solish obyektini tushuntirib bering?
- 2.Yagona soliq to‘lovi to‘lovchilari tarkibiga kiritilish mezoni nimalardan iborat?
- 3.Yagona soliq to‘lovi stavkalari va belgilangan imtiyozlar nimalardan iborat?
- 4.Yagona soliq to‘lovini hisoblash va uni to‘lash tartibini tushuntiring?

## V bob. YAGONA YER SOLIG‘I

### 5.1. Yagona yer solig‘i to‘lovchilar va soliq solish obyekti

Yagona yer solig‘ini to‘lovchilar quyidagilardir:

- qishloq xo‘jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar.
- qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba-ekspyerimental xo‘jaliklari va ta’lim muassasalarining o‘quv-tajriba xo‘jaliklari.

Bir vaqtning o‘zida quyidagi shartlarga javob byeradigan yuridik shaxslar soliq solish maqsadida qishloq xo‘jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar jumlasiga kiradi:

- yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini etishtirish va o‘zi etishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishlash yoxud yer uchastkalaridan foydalangan holda faqat qishloq xo‘jaligi mahsulotini etishtirish asosiy faoliyat turi bo‘lgan yuridik shaxslar.

- qishloq xo‘jaligini yuritish uchun mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan o‘zlariga belgilangan tartibda byerilgan yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik shaxslar.

- qishloq xo‘jaligi mahsulotini etishtirish va o‘zi etishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishlash ulushi realizastiya qilish yoki qayta ishlash uchun olingan qishloq xo‘jaligi mahsulotini o‘z ichiga oluvchi qishloq xo‘jaligi mahsulotini etishtirish va qayta ishlash umumiy hajmida kamida 50 foizni tashkil etadigan yuridik shaxslar.

Soliq qonunchiligida nazarda tutilgan shartlarga javob byeradigan yangidan tashkil etilgan qishloq xo‘jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan e‘tiboran yagona yer solig‘ini to‘lovchilar bo‘ladi.

Quyidagilar yagona yer solig‘ini to‘lovchilar sifatida qaralmaydi:

- o‘rmon va ovchilik xo‘jaliklari.
- yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari.

Yagona yer solig‘ini to‘lash tartibini qo‘llash uchun soliq to‘lovchi har yili joriy soliq davrining 1 fevraliga qadar soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga o‘tgan soliq davrida qishloq xo‘jaligi mahsulotini etishtirish va

qayta ishlashning umumiy hajmida qishloq xo‘jaligi mahsulotining o‘zi etishtirgan va qayta ishlagan ulushi ko‘rsatilgan ma’lumotnomani taqdim etadi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotini etishtirish va qayta ishlashning umumiy hajmida qishloq xo‘jaligi mahsulotining o‘zi etishtirgan va qayta ishlagan ulushini aniqlashda soliq qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa daromadlar hisobga olinmaydi.

Agar o‘tgan soliq davri yakunlari bo‘yicha yagona yer solig‘i to‘lovchi soliq qonunchiligida belgilangan shartlarga javob byermasa, soliq to‘lovchi joriy soliq davrining boshidan boshlab soliq qonunchiligida nazarda tutilgan soliqlarni to‘lashga o‘tishi kyerak.

Yagona yer solig‘ini to‘lashdan umumbelgilangan soliqlarni to‘lashga o‘tgan soliq to‘lovchi umumbelgilangan soliqlarni to‘lashga o‘tgan soliq davrining birinchi choragi soliq qonunchiligida nazarda tutilgan yuridik shaxslardan olinadigan foya solig‘i bo‘yicha joriy to‘lovlarini to‘lashdan ozod qilinadi.

Soliq qonunchiligida nazarda tutilgan soliqlarni to‘lashga o‘tgan yagona yer solig‘ini to‘lovchi soliq qonunchiligida nazarda tutilgan tartibga muvofiq faqat navbatdagi soliq davri boshidan boshlab yana yagona yer solig‘ini to‘lashga o‘tishga haqlidir.

Soliq qonunchiligida belgilangan shartlarga javob byeradigan qishloq xo‘jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar, shuningdek qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba-ekspyerimental xo‘jaliklari va ta’lim muassasalarining o‘quv-tajriba xo‘jaliklari faoliyatning yagona yer solig‘ini to‘lash tatbiq etiladigan qismi bo‘yicha soliq solishning boshqacha tartibini tanlash huquqiga ega emas.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotini etishtirish va qayta ishlash bilan bog‘liq bo‘lмаган faoliyat turlarini amalga oshirishda yagona yer solig‘i to‘lovchi mazkur faoliyat turlari bo‘yicha alohida-alohida hisob yuritishi va soliq qonunchiligida nazarda tutilgan soliqlarni to‘lashi shart.

Yagona yer solig‘ini to‘lovchilar uchun soliq qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa daromadlarga soliq solinmaydi. Dividendlar va foizlar, birgalikdagi faoliyatdan olingan daromadlar soliqqa tortiladi.

Birgalikdagi faoliyatdan olinadigan daromadlarga yagona yer solig'i to'lovchida dividendlarga soliq solish uchun belgilangan stavkalar bo'yicha soliq solinadi.

Yer uchastkalari obyektlari va maydonlaridan samarasiz foydalanilganligi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda aniqlangan taqdirda, yagona yer solig'ini to'lovchilar ushbu yer uchastkalari obyektlari va maydonlari bo'yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini soliq qonunchiligidagi belgilangan tartibda to'laydi.

Yer uchastkalari ijaraga (shu jumladan ichki xo'jalik pudratiga) byerilganida yagona yer solig'ini to'lash majburiyati ijaraga byeruvchining zimmasida saqlanib qoladi.

Qonun hujjatlariga muvofiq qishloq xo'jaligini yuritish uchun egalik qilishga, foydalanishga yoki ijaraga byerilgan yer uchastkasi soliq solish obyektiidir.

Soliq solinadigan yer uchastkalarining qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan normativ qiymati soliq solinadigan bazadir.

Egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi yil mobaynida vujudga kelgan yer uchastkalari uchun soliq solinadigan baza yer uchastkalariga bo'lgan huquq vujudga kelgan oydan keyingi oydan boshlab hisoblab chiqariladi. Yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan boshlab kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarda yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozga bo'lgan huquqlar vujudga kelganda soliq solinadigan baza bu huquq vujudga kelgan oydan boshlab kamaytiriladi. Yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozga bo'lgan huquq tugatilgan taqdirda, soliq solinadigan baza bu huquq tugatilgan oydan keyingi oydan boshlab ko'paytiriladi.

## 5.2. Yagona yer solig'i stavkasi va soliq imtiyozlari

Yagona yer solig'i stavkasi qishloq xo'jaligi ekinlarining normativ qiymatiga nisbatan 0,95 foiz miqdorda belgilanadi.

Yagona yer solig'ini to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

- ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektlari yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili tugatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

- yuridik shaxslar, yer uchastkasining qaysi qismida tomchilatib sug'orishdan foydalanilayotgan bo'lsa, o'sha qismida tomchilatib sug'orish tizimi joriy qilingan oydan boshlab besh yil muddatga.

Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar yagona yer solig'i to'lovchilarga soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan yer solig'i bo'yicha imtiyozlar ham tatbiq etiladi.

## 5.3. Yagona yer solig'ini hisoblash va to'lash tartibi

Yagona yer solig'ini summasi yer uchastkalarining normativ qiymati va yagona yer solig'ining belgilangan stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Kalendar yil soliq davridir. Yagona yer solig'ining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga joriy soliq davriming 1- mayigacha taqdim etiladi.

Yil davomida byerilgan yer uchastkalari uchun yagona yer solig'i yer uchastkasi byerilganidan keyingi oydan boshlab to'lanadi. Yer uchastkasi olib qo'yilgan (kamaytirilgan) taqdirda, yagona yer solig'ini to'lash yer uchastkasi olib qo'yilgan (kamaytirilgan) oydan boshlab to'xtatiladi (kamaytiriladi).

Yer uchastkasining tarkibi va maydoni yil davomida o'zgargan, shuningdek yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquq vujudga kelgan (tugatilgan) taqdirda, soliq to'lovchilar davlat soliq xizmati organlariga hisobot yilining 1 dekabrigacha yagona yer solig'ining aniqlik kiritilgan hisob-kitobini taqdim etishlari shart.

Yagona yer solig'ini to'lash quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

- hisobot yilining 1 sentyabrigacha yillik soliq summasining foizi.

o hisobot yilining 1 dekabrigacha soliqning qolgan summasi.

#### **Takrorlash uchun savollar**

- 1.Yagona yer solig‘i to‘lovchilari tarkibini tushuntirib byering?
- 2.Yagona yer solig‘ini to‘lash tartibini qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
- 3.Yagona yer solig‘i solish obyekti va soliq solinadigan bazani aniqlash tartibi nimalardan iborat?
- 4.Yagona yer solig‘i bo‘yicha byeriladigan imtiozlar aytib byering?
- 5.Yer uchastkalarining normativ qiymati va yagona yer solig‘ining belgilangan stavkasini tushintiring?
- 6.Yagona yer solig‘i bo‘yicha soliq hisob-kitoblarini taqdim etish qanday?
- 7.Yagona yer solig‘i hisoblashda miqdoriy usullarni qo‘llashni tushuntirib byering?

#### **VI bob. YURIDIK SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN**

##### **QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘I**

###### **6.1. Qo‘shilgan qiyamat solig‘ining davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda tutgan o‘rnri**

O‘zbekiston Respublikasida qo‘shilgan qiyamat solig‘i 1992- yilda joriy etilgan bo‘lib, bu soliqni huquqiy tartibga soluvchi soliq qonunchiligi hujjati bo‘lib 1991- yil 15- fevralda qabul qilingan «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida»gi qonun va unga muvofiq ishlab chiqilgan 1992- yil 30- martdagи «Qo‘shilgan qiyamat solig‘ini hisoblash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi» yo‘riqnomasi hisoblanadi. Soliq qonunchiligiga muvofiq 1992- yilda dastlab qo‘shilgan qiyamat solig‘i stavkasi 30 % miqdorida belgilangan.

Qo‘shilgan qiyamat solig‘ining obyektiv zarurligini davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish bilan ifodalash mumkin.Mamlakatimizda xil mulk shakllarining paydo bo‘lishi bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning ular faoliyatiga aralashuvi faqat qonun yo‘li bilan ya’ni soliqlar jumladan, qo‘shilgan qiyamat solig‘i orqali bo‘ladi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida davlatning yangi vazifalari paydo bo‘ladi. Bu vazifalarga mamlakatimizda kam ta’minlanganlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish, bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini (sanoatda, qishloq xo‘jaligidagi, moliya tizimida) tashkil qilish kiradi. Davlat kuchli ijtimoiy chora tadbirlarini amalga oshirish uchun nafaqaxo‘rlar, talabalar, ko‘p bolali onalar va boshqlarni ko‘proq mablag‘ bilan ta’minlash zarurligini anglab cheklangan tovarlar bahosidagi farqni byudjet hisobidan qoplaydi va ularga boshqa xarajatlarini davlat hisobidan amalga oshiradi, kam ta’minlanganlarga moddiy yordamlar tashkil etadi.

Shuningdek, mamlakatimiz jamiyat a’zolari osoyishtaligini saqlash maqsadida o‘zining mudofaa qobiliyatini saqlab va mustahkamlashga, harbiy texnikaga ham mablag‘lar sarflaydi. Davlat fuqarolar xavfsizligini ta’minlash, mamlakatda tartib intizom o‘rnatish, uni boshqarish funkstiyalarini bajarish uchun ham ko‘plab mablag‘ yo‘naltirishga majbur. Bunday xarajatlarni amalga oshirishning majburiyligi ular

uchun manba bo‘lgan soliqlarni, jumladan qo‘shilgan qiymat solig‘ini obyektiv zarur qilib qo‘yadi.

#### 6.1.1-jadval

**O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining  
2018- yilda bilvosita soliqlar bo‘yicha ijrosi. (mlrd.so‘m)<sup>5</sup>**

Ko‘rsatkichlar	2018 yil
<b>Daromadlar (maqsadli jamg‘armalarsiz) - jami</b>	<b>79 099,1</b>
<b>Bilvosita soliqlar</b>	<b>41 280,4</b>
1 Qo‘shilgan qiymat solig‘i	27 876,5
2 Aksiz solig‘i	9 702,2
3 Bojxona boji	1 826,4
4 Benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz iste’mol qilganlik uchun soliq	1 543,9
5 Abonent raqamlaridan foydalanganlik uchun to‘lov	331,3

6.1.1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining 2018- yilda ijrosi bo‘yicha daromadlar 79099,1 mlrd.so‘m bo‘lib, bilvosita soliqlar 41280,4 mlrd.so‘m, shundan qo‘shilgan qiymat solig‘i 27876,5 mlrd.so‘m, aksiz solig‘i 9702,2 mlrd.so‘m, bojxona boji 1826,4 mlrd.so‘m, benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz iste’mol qilganlik uchun soliq 1543,9 mlrd.so‘m, abonent raqamlaridan foydalanganlik uchun to‘lov 331,3 mlrd.so‘mni tashkil etgan.

Bozor munosabatlarida davlat ham uning boshqaruvchisi, ham asosiy ishtirokchisi bo‘ladi. Bu yerda davlat ishtiroki uning jamiyat uchun o‘ta zarur bo‘lgan mamlakat xavfsizligini ta’minlash, tartib intizom o‘rnatish, ta’lim tarbiyaviy tadbirlar, sog‘liqni saqlashni ta’minlash, mamlakatni boshqarish, dunyo hamdo‘stligi mamlakatlari bilan har xil aloqalarni o‘rnatish, bozor iqtisodiyoti infratuzilmalarini

tashkil etish va rivojlantirish kabi chora tadbirlarni amalga oshirishda o‘z ifodasini topadi.

#### 6.2. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining rivojlanish bosqichlari

Davlat byudjetining daromadlarini shakllantirishda qo‘shilgan qiymat solig‘idan foydalanish 1919- yilda vujudga kelgan. Qo‘shilgan qiymat solig‘i ilk bor Germaniyada 1919- yilda *Vilgelm fon Simens* tomonidan «Veredelte Umsatzteuer» nemischa mukammallahgan aylanma soliq nomi bilan joriy etilib, bu soliq turi qo‘shilgan qiymat solig‘i nomi bilan franstuz iqtisodchisi M.Lore tomonidan 1954- yilda taklif qilingan va 1960- yilda Kot-d-Ivuar Respublikasida joriy etildi va Franziya soliq tizimiga soliq turi sifatida kiritilgan.

Dunyo mamlakatlarida qo‘shilgan qiymat solig‘i undirish tartibi dastlab 1954- yilda franstuz iqtisodchisi M.Lore tomonidan tavsiya etilgan, bu soliq turi bilan bog‘liq fikrlar XX asrning boshlarida vujudga kelgan va jahonning 48 dan ortiq mamlakatlarida joriy etilgan.

Mustaqil Davlatlar Xamdo‘stligi davlatlarida 1992 yildan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘i joriy etilgan.

#### 6.3. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchilar va soliq solish obyekti

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchilar bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

1.Soliq solinadigan oborotlarga ega bo‘lgan yuridik shaxslar.

2.Soliq qonunchiligiga muvofiq zimmasiga O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan amalga oshirilayotgan soliq solinadigan oborotlar uchun qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lash bo‘yicha majburiyat yuklatiladigan yuridik shaxslar.

3.Tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar, o‘z ehtiyojlari uchun bojsiz olib kirish normalari doirasida tovarlar olib kiruvchi jismoniy shaxslar bundan mustasno.

4.Oddiy shirkat soliq solinadigan oborotlarni amalga oshirayotganda zimmasiga uning ishlarini yuritish yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) yuridik shaxs.

Quyidagilar qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilar hisoblanmaydi:

<sup>5</sup> <http://www.mf.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ma’lumotlari

notijorat tashkilotlar. Tadbirkorlik faoliyati doirasida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizastiya qilish oborotini hamda soliq qonunchiligidagi ko'rsatilgan oborotlarni amalga oshirganda notijorat tashkilotlar ushbu oborotlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar bo'ladi.

Soliq qonunchiliga muvofiq soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar bo'lgan yuridik shaxslar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yilning navbatdagi choragi boshlanguniga qadar bir oydan kechiktirmasdan, yangi tashkil etilayotgan yagona soliq to'lovini to'lovchilar bo'lgan yuridik shaxslar esa faoliyat boshlanguniga qadar taqdim etiladigan yozma bildirishga asosan ixtiyoriy asosda qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashi mumkin.

Soliq solish obyekti quyidagilardir:

- soliq solinadigan oborot.
- soliq solinadigan import.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizastiya qilish oboroti deb quyidagilar e'tirof etiladi:

1.Mol-mulkka bo'lgan mulk huquqini o'tkazish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan:

- tovari va boshqa mol-mulkni jo'natish (sotish).
- ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'shilgan hissa.
- mol-mulkni bepul berish (ishlarni bepul bajarish, xizmatlarni bepul ko'rsatish), shu jumladan yuridik shaxs xodimlariga ularning mazkur yuridik shaxsdiri faoliyati bilan bog'liq bo'lmasagan shaxsiy ehtiyojlar uchun mol-mulkni bepul berish (ishlarni bepul bajarish, xizmatlarni bepul ko'rsatish).

○ qonun hujjalarda nazarda tutilgan hollarda boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) almashtirish uchun mol-mulkni berish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish).

○ qonun hujjalarda nazarda tutilgan hollarda xodimga ish haqi hisobiga yoki muassisiga (ishtirokchiga) dividendlar to'lash hisobiga mol-mulk berish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish).

○ garov bilan ta'minlangan majburiyatlar bajarilmagan taqdirda, garovga qo'yuvchi tomonidan garov narsasini berish.

- zayom shartnomalari asosida tovar-moddiy zaxiralarni berish.

2.Bitta yuridik shaxsning bir tarkibiy bo'linmasi tomonidan boshqa tarkibiy bo'linmasiga, agar tarkibiy bo'linmalar soliq qonunchiliga muvofiq mustaqil soliq to'lovchilar bo'lsa, mol-mulkni berish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish.

3.Mol-mulkni moliya ijarasiga (shu jumladan lizingga) berish.

4.To'lovni bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan tovari jo'natish.

5.Mol-mulkni operativ ijaraaga berish.

6.Intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqni o'tkazish yoki ulardan foydalanish huquqini berish.

7.Yuridik shaxslardan olinadigan foya solig'ini hisoblab chiqarishda soliq qonunchiliga muvofiq xarajatlari chegirilmaydigan soliq to'lovchining o'z ehtiyojlari uchun o'zi ishlab chiqargan tovarlarni berish, o'z kuchi bilan ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish.

Quyidagilar tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizastiya qilish oboroti bo'lmaydi:

1.Soliq to'lovchining xarajatlari sifatida qaraladigan, uning o'z ehtiyojlari uchun tovarlarni berish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish.

2.Bitta yuridik shaxsning bir tarkibiy bo'linmasi tomonidan boshqa tarkibiy bo'linmasiga ishlab chiqarish ehtiyojlari (zavod ichki oboroti) uchun, agar tarkibiy bo'linmalar soliq qonunchiliga muvofiq mustaqil soliq to'lovchilar bo'lmasa, mol-mulk berilishi, ishlarni bajarilishi, xizmatlar ko'rsatilishi.

3.Soliq to'lovchining o'z ehtiyojlari uchun o'z kuchi bilan qurilish, montaj, qurilish-montaj ishlarni bajarishi.

4.Qaytariladigan tarani jo'natish. Qaytariladigan tara mahsulot solib jo'natilgan, qiymati ushbu mahsulot qonunchiliga kiritilmaydigan hamda shu mahsulotni etkazib

berish uchun tuzilgan shartnomada (kontraktda) belgilangan shartlarda va muddatlarda mahsulot etkazib beruvchiga qaytarilishi lozim bo‘lgan taradir. Agar tara belgilangan muddatda qaytarilmasa, bunday tarani berish soliq solinadigan oborotga kiritiladi.

5.Yuridik shaxsnинг ishtirokchisi (muassisasi) muassisalar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqqanda (chiqb ketganda), shu jumladan tugatilganlik (bankrotlik) yoki qayta tashkil etilganlik munosabati bilan chiqqanda (chiqb ketganda) unga dastlabki hissa doirasida mol-mulkni berish, shuningdek oddiy shirkat shartnomasi bo‘yicha sherikka (ishtirokchiga) uning mazkur shartnoma bo‘yicha sheriklari (ishtirokchilar) umumiylar bo‘lgan ulushi qaytarilayotganda yoki bunday mol-mulk taqsimlanganda mol-mulkni berish.

6.Asosiy vositalarni, nomoddiy aktivlarni va tugallanmagan qurilish obyektlarini bepul asosda berish.

7.Banklar va sug‘urta tashkilotlari tomonidan mol-mulkni o‘z filiallariga berish.

8.Oddiy shirkat shartnomasi bo‘yicha sherikning (ishtirokchining) ulushi sifatida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni), boshqa mol-mulk va mulkiy huquqlarni berish.

9.Tovarlarni va boshqa mol-mulkni qayta ishslash asosida berish.

10.Ishonchli boshqaruv shartnomasi asosida mol-mulkni mulkdordan ishonchli boshqaruvchiga berish.

11.Ishonchli boshqaruv shartnomasi tugatilgan taqdirda, mol-mulkni mulkdorga berish.

12.Obyekt qiymatini ijara beruvchi (lizingga beruvchi) oladigan ijara (lizing) to‘lovining bir qismi tarzida qoplash.

13.Tovarlardan foydalanishning kafolatli muddati davrida ularni ta’mirlash va ularga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha qo‘srimcha haq olmasdan ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish.

Soliq to‘lovchining tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizastiya qilish oboroti soliq solinadigan oborotdir.

Soliq to‘lovchining tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) quyidagi realizastiya qilish oborotlari soliq solinmaydigan oborotdir:

Soliq qonunchiligiga muvofiq qo‘silgan qiymat solig‘idan ozod qilingan oborot.

Realizastiya qilingan joyi O‘zbekiston Respublikasi bo‘limgan oborot.

O‘zbekiston Respublikasi norezidenti tomonidan O‘zbekiston Respublikasi rezidenti uchun bajariladigan ishlarni, ko‘rsatiladigan xizmatlar mazkur ishlarni, xizmatlarni oluvchining soliq solinadigan oborotiga soliq qonunchiligiga belgilangan tartibda kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar soliq solinadigan importdir.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizastiya qilish oborotlariga, agar ularni realizastiya qilish joyi O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘lsa, qo‘silgan qiymat solig‘i solinadi.

Quyidagi shartlar yoxud ulardan biri mavjud bo‘lgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi hududi tovarlarni realizastiya qilish joyi deb e’tirof etiladi:

- tovar O‘zbekiston Respublikasi hududida turgan bo‘lsa va bitim natijasida O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqarilmaydigan bo‘lsa.

- jo‘natish yoki tashish boshlangan paytda tovar O‘zbekiston Respublikasi hududida turgan bo‘lsa.

Quyidagi hollarda O‘zbekiston Respublikasi hududi ishlarni, xizmatlarni realizastiya qilish joyi deb e’tirof etiladi, agar:

1.Ishlar, xizmatlar O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lsa. Bunday ishlarni, xizmatlar jumlasiga, xususan, qurilish, montaj, qurilish-montaj, ishga tushirish-sozlash, ta’mirlash, restavrasiya qilish, ko‘kalamzorlashtirish ishlarni, shuningdek ko‘chmas mulkni ijara berish kiradi.

2.Ishlar, xizmatlar O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan ko‘char mulk bilan bog‘liq bo‘lsa. Bunday ishlarga, xizmatlarga montaj qilish, sozlash, yig‘ish, qayta ishslash, ishlov berish, ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish kiradi.

3.Xizmatlar haqiqatda O‘zbekiston Respublikasi hududida turizm, madaniyat, san’at, ta’lim, jismoniy tarbiya va sport sohasida ko‘rsatilayotgan bo‘lsa.

4.Ishlarni, xizmatlarni sotib oluvchi faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirayotgan bo‘lsa. Ishlarni (xizmatlarni) sotib oluvchi yuridik shaxs davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi asosida, bunday asos bo‘lmagan taqdirda esa, yuridik shaxsning ta’sis hujjatlarida ko‘rsatilgan joy, yuridik shaxsning doimiy faoliyat ko‘rsatadigan ijro etuvchi organi joylashgan er, agar ishlar (xizmatlar) muayyan doimiy muassasa orqali bajarilgan (ko‘rsatilgan) bo‘lsa, ushbu doimiy muassasa joylashgan er asosida O‘zbekiston Respublikasining hududida haqiqatda hozir bo‘lib turgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining hududi sotib oluvchining faoliyati amalga oshiriladigan joy hisoblanadi. Soliq qonunchiligi qoidalari quyidagi hollarda qo‘llaniladi:

- intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquq o‘tkazilgan yoki ulardan foydalanish huquqi berilganda.
- maslahat berish, auditorlik, yuridik (advokatlik), buxgalterlik, reklama, injiniring xizmatlari, shuningdek axborotga ishlov berish xizmatlari ko‘rsatilganda. Injiniring xizmatlari jumlasiga mahsulotni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va realizastiya qilish jarayoniga tayyorgarlik, sanoat, qishloq xo‘jaligi va boshqa obyektlar qurilishi hamda ulardan foydalanilishga tayyorgarlik bo‘yicha muhandislik-maslahat berish yo‘snidagi xizmatlar, loyihalash oldi va loyihalash xizmatlari (texnik-iqtisodiy asoslarni, loyiha-konstrukturlik echimlarini tayyorlash va boshqa shunga o‘xshash xizmatlar) kiradi. Axborotga ishlov berish xizmatlari jumlasiga axborot massivlarini to‘plash va umumlashtirish, tizimlashtirish hamda bu axborotga ishlov berish natijalarini foydalanuvchilar tasarrufiga taqdim etish xizmatlari kiradi.
- xodimlar berish agar xodimlar sotib oluvchi o‘z faoliyatini amalga oshirayotgan joyda ishlayotgan bo‘lsa.
- ko‘char mulk ijaraga berilganda, transport vositalari bundan mustasno.
- tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) olish bo‘yicha vositachi (ishonchli vakil), shuningdek xizmatlarni amalga oshirish uchun shartnomaning (kontraktning) asosiy ishtirokchisi nomidan jalb etuvchi shaxs xizmatlari ko‘rsatilganda.

- aloqa xizmatlari ko‘rsatilganda.

5.Ishlarni bajarayotgan, xizmatlarni ko‘rsatayotgan shaxsning tadbirkorlik yoki har qanday boshqa faoliyati O‘zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilsa. Ishlarni bajarayotgan, xizmatlar ko‘rsatayotgan yuridik shaxs davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi asosida, bunday asos bo‘lmagan taqdirda esa, yuridik shaxsning ta’sis hujjatlarida ko‘rsatilgan joy, yuridik shaxsning doimiy faoliyat ko‘rsatadigan ijro etuvchi organi joylashgan er, agar ishlar (xizmatlar) bu doimiy muassasa orqali bajarilgan bo‘lsa, mazkur doimiy muassasa joylashgan er asosida O‘zbekiston Respublikasi hududida haqiqatda hozir bo‘lib turgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining hududi ushbu faoliyat amalga oshiriladigan joy hisoblanadi.

Agar ishlarni, xizmatlarni realizastiya qilish boshqa asosiy ishlarni, xizmatlarni realizastiya qilishga nisbatan yordamchi xususiyatga ega bo‘lsa, asosiy ishlar, xizmatlar realizastiya qilingan joy yordamchi realizastiya qilish joyi sifatida e’tirof etiladi.

Tovarlar jo‘natilgan (berilgan) kun tovarlarni realizastiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanadir.

Agar tovarlarni jo‘natish amalga oshirilmasa, tovarga bo‘lgan mulk huquqi oluvchiga o‘tkazilgan kun realizastiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanadir.

Garovga qo‘yilgan mol-mulk (tovar) garovga qo‘yuvchi tomonidan topshirilganda garov narsasiga bo‘lgan mulk huquqi o‘tkazilgan sana garovga qo‘yuvchi uchun realizastiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanadir.

Yuridik shaxsning xodimlariga ularning mazkur yuridik shaxsdagи faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan shaxsiy ehtiyojlari uchun ish haqi hisobiga, shu jumladan bepul tovarlar berilganda, ishlar bajarilganda, xizmatlar ko‘rsatilganda tovar berilgan, ishlar bajarilgan, xizmatlar ko‘rsatilgan hamda hisobvaraq-faktura va ishlar bajarilgani, xizmatlar ko‘rsatilgani faktini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar rasmiylashtirilgan kun oborot amalga oshirilgan sanadir.

Tara shartnomada nazarda tutilgan muddatda qaytarilmasa, bu tarani qaytarish uchun belgilangan sana qaytarilishi lozim bo‘lgan taraning realizastiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanadir.

Ishlarni, xizmatlarni realizastiya qilish oboroti amalga oshirilgan sana quyidagi shartlardan biri bajarilganda boshlanadi:

hisobvaraq-faktura yozib berilganda.

Ishlar bajarilganligi, xizmatlar ko'rsatilganligi faktini tasdiqlovchi hujjatlar rasmiylashtirilganda. Soliq qonunchiligi qoidalari boshlanishi bir hisobot davriga, tamomlanishi esa boshqa hisobot davriga to'g'ri keladigan ishlarga, xizmatlarga nisbatan ham qo'llaniladi.

Ishlar, xizmatlar doimiy (uzluksiz) asosda realizastiya qilingan taqdirda, hisobvaraq-faktura yozilgan sana ishlarni, xizmatlarni realizastiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanadir.

Shartnomaning (kontraktning) amal qilishi davrida ishlarni, xizmatlarni oluvchi ularning natijalaridan o'z ishlab chiqarish faoliyatida doimiy asosda foydalanishi mumkin bo'lgan taqdirda, doimiy (uzluksiz) asosda realizastiya qilish ishlarni bajarilganligini, xizmatlar ko'rsatilganligini anglatadi.

Ishlar, xizmatlar O'zbekiston Respublikasi norezidentidan olingen taqdirda, ishlarni, xizmatlarni olingenligi to'g'risidagi hujjat rasmiylashtirilgan sana oborot amalga oshirilgan sanadir.

Soliq solinadigan baza realizastiya qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda belgilanadi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) tannarxidan yoki tovarlar olingen narxdan (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlar hisobga olingen holda) past narxlarda realizastiya qilingan taqdirda, soliq to'lovchiga o'z ehtiyojlari uchun soliq qonunchiligiga muvofiq tovarlar berilganda (ishlar bajarilganda, xizmatlar ko'rsatilganda), shuningdek tovarlar (ishlar, xizmatlar) bepul berilganda soliq solish maqsadlari uchun soliq solinadigan baza tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tannarxidan yoki tovarlar olingen narxdan (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlar hisobga olingen holda) kelib chiqib belgilanadi.

O'zi ishlab chiqargan tovarlarni jahon bozorida haqiqiy vujudga kelgan narxlar bo'yicha, shu jumladan tannarxidan past narxlar bo'yicha eksport qilish masalalarini

ko'rib chiquvchi maxsus vakolatli organning qarorlari asosida ushbu tovarlarning tannarxidan past narxlar bo'yicha xorijiy valyutaga eksport qilinganda, soliq solinadigan baza soliq solish maqsadida tovarlarni realizastiya qilishning haqiqiy narxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Tovarlar qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallardan tayyorlangan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda ularni qayta ishlash xizmatlarining qiymati asosida, aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha esa, ularni qayta ishlash xizmatlari qiymati asosida, soliq qonunchiligiga muvofiq hisoblab chiqarilgan aksiz solig'ini hisobga olgan holda belgilanadi.

Qurilish, qurilish-montaj va ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ishlarni, xizmatlar bo'yicha, shuningdek obyektlarni foydalanishga tayyor holda qurishda shartnomaviy narxlardan kelib chiqqan holda hisob-kitob hujjatlari haq to'lash uchun taqdim etilgan, bajarilgan va buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan ishlarning, xizmatlarning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati soliq solinadigan bazadir. Agar shartnomaga binoan bu ishlarni materiallar bilan ta'minlash majburiyati buyurtmachining zimmasida bo'lsa, ushbu materiallarga bo'lgan mulk huquqi buyurtmachining o'zida saqlanib qolgan taqdirda, bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi qiymati soliq solinadigan bazadir.

Import qilingan tovarlar realizastiya qilinganda, soliq solinadigan baza realizastiya qilinayotgan tovarlarning qo'shilgan qiymat solig'ini kiritilmagan qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bunda soliq solinadigan baza mazkur tovar import qilinganda qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish uchun qabul qilingan qiymatdan past bo'lishi mumkin emas.

Aksiz to'lanadigan tovarlar (xizmatlar) bo'yicha soliq solinadigan bazaga aksiz solig'ining summasi kiritiladi.

Asosiy vositalarni, nomoddiy aktivlarni va qurilishi tugallanmagan obyektlarni realizastiya qilish chog'ida soliq solinadigan baza ularni realizastiya qilish qiymati asosida, biroq ularning qoldiq (balans) qiymatidan kam bo'lмаган, qo'shilgan qiymat solig'ini kiritilmagan holda aniqlanadi.

Mol-mulkni moliyaviy ijaraga, shu jumladan lizingga berish chog'ida soliq solinadigan baza chiqib ketayotgan aktiv qiymati asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda aniqlanadi. Bunda chiqib ketayotgan aktivning qiymati shunday summa sifatida belgilanadiki, unga ko'ra moliyaviy ijara ijaraga beruvchining buxgalteriya hisobida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan aktiv sifatida tan olinadi.

Kredit tashkiloti tomonidan garov bilan ta'minlangan majburiyatni qoplash hisobiga olingan mol-mulk realizastiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini o'z ichiga oladigan, realizastiya qilish narxi bilan qarzni qoplash hisobiga mazkur garov mol-mulki olingan qarz summasi o'rtasidagi ijobjiy farq sifatida aniqlanadi.

Baholari (tariflari) davlat tomonidan tartibga solinishi nazarda tutilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizastiya qilinganda, soliq solinadigan baza belgilangan baholardan (tariflardan) kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq qonunchiligiga muvofiq realizastiya qilishda soliq solinmaydigan oborotlar hisoblanuvchi chiptalar, abonentlar, yo'llanmalar (joysiz davolanish uchun berilgan hujjatlar) va xizmatlar olishga huquq beruvchi boshqa hujjatlar mazkur xizmatlarni ko'rsatmaydigan yuridik shaxslar tomonidan o'z xodimlari va ularning oila a'zolari uchun realizastiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini o'z ichiga oladigan, realizastiya qilish bahosi va ularni olish bahosi o'rtasidagi ijobjiy farq sifatida aniqlanadi.

Soliq qonunchiligiga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisobga olish nazarda tutilmagan mol-mulk realizastiya qilingan taqdirda (mazkur mol-mulk qo'shilgan qiymat solig'i bilan olinganligi yoki olinmaganligidan qat'i nazar), soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini o'z ichiga oladigan, uni realizastiya qilish (chiqib ketish) qiymati bilan balans qiymati o'rtasidagi ijobjiy farq sifatida aniqlanadi.

Transport ekspedistiysi shartnomasi bo'yicha xizmatlar ko'rsatilgan taqdirda, ekspeditoring soliq solinadigan bazasi qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z

ichiga oladigan, ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq tariqasida olinishi lozim bo'lgan summadan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Vositachilik shartnomasi, topshiriq yoki vositachilik xizmatlari ko'rsatish bo'yicha boshqa shartnomasi asosida o'zga shaxsning manfaatlarini ko'zlab xizmatlar ko'rsatilgan taqdirda, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan, ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq (foiz) tariqasida olinishi lozim bo'lgan summadan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Vositachilik, topshiriq shartnomasiga binoan komitent yoki topshiriq beruvchi O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan taqdirda, soliq solinadigan baza realizastiya qilinayotgan tovarlarning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bunda soliq solinadigan baza mazkur tovar import qilinganida qo'shilgan qiymat solig'inii hisoblab chiqarish uchun qabul qilingan qiymatdan past bo'lishi mumkin emas.

Garovga qo'yuvchi garov mol-mulkini garov bilan ta'minlangan majburiyatni bajarish hisobiga topshirgan taqdirda, garovga qo'yuvchining soliq solinadigan oboroti miqdori garovga oluvchi tomonidan realizastiya qilingan mol-mulk qiymatidan kelib chiqqan, biroq qo'shilgan qiymat solig'inii qo'shmagan holda mazkur garovga qo'yilgan mol-mulkka olingan zayom mablag'lari summasidan kam bo'lмаган miqdorda belgilanadi.

Qaytariladigan tara soliq solinadigan oborotga kiritilgan taqdirda, tara belgilangan muddatda qaytarilmasa, soliq solinadigan baza mazkur taraning qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan garov qiymati asosida belgilanadi.

Keyinchalik realizastiya qilish uchun yuridik shaxslar tomonidan davlat rezervidan olingan, narxlari davlat tomonidan tartibga solinishi belgilangan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza realizastiya qilish narxi va davlat rezervidan olingan narx o'rtasidagi ijobjiy farq sifatida aniqlanadi.

Benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizastiya qilinganda soliq solinadigan baza ularni realizastiya qilish qiymati asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'i hamda

benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni yakuniy iste’molchiga realizastiya qilish chog‘ida to‘lanadigan aksiz solig‘i kiritilmagan holda aniqlanadi.

Soliq to‘lovchining soliq solinadigan bazasiga quyidagi hollarda tuzatish kiritiladi:

- 1.Tovarlar to‘liq yoki qisman qaytarilganda.
- 2.Bitim shartlari o‘zgarganda.
- 3.Narxlar o‘zgarganda, sotib oluvchi siylovdan (skidkadan) foydalanganda.
- 4.Bajarilgan ishlardan, ko‘rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

Soliq solinadigan bazaga soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan tuzatishni kiritish bir yillik muddat ichida, kafolat muddati belgilangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha esa, kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

Soliq qonunchiligidagi muvofiq soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish qo‘sishimcha hisobvaraqt-faktura yoki tovarlar to‘liq yoki qisman qaytarilganda, bitim shartlari o‘zgarganda,narxlar o‘zgarganda, sotib oluvchi siylovdan (skidkadan) foydalanganda, bajarilgan ishlardan, ko‘rsatilgan xizmatlardan voz kechilgan hollar yuz bergenligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Soliq solinadigan bazaga tovarlar to‘liq yoki qisman qaytarilganda, bitim shartlari o‘zgarganda,narxlar o‘zgarganda, sotib oluvchi siylovdan (skidkadan) foydalanganda, bajarilgan ishlardan, ko‘rsatilgan xizmatlardan voz kechilgan hollarda tuzatish kiritish ko‘rsatilgan hollar yuz bergen soliq davrida amalga oshiriladi.

Tovarlarni import qilishda soliq solinadigan bazaga tovarlarning bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan bojxona qiymati, shuningdek O‘zbekiston Respublikasiga tovarlarni import qilishda to‘lanishi lozim bo‘lgan aksiz solig‘ining, bojxona bojlarining summalarini kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi norezidenti tomonidan taqdim etilgan ishlar, xizmatlar, agar ularning realizastiya qilish joyi O‘zbekiston Respublikasi bo‘lsa va soliq qonunchiligidagi muvofiq ularga qo‘shilgan qiymat solig‘i solinishi kerak bo‘lsa, ishlarni, xizmatlarni oluvchi O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchisining soliq solinadigan oborotidir.

Ishlar, xizmatlarni oluvchida soliq solinadigan baza soliq qonunchiligidagi ko‘rsatilgan O‘zbekiston Respublikasi norezidentiga to‘lanishi lozim bo‘lgan summadan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromad bo‘yicha to‘lov manbaida ushlab qolinishi lozim bo‘lgan soliq summasi chegirib tashlanmagan holda belgilanadi.

Soliq qonunchiligidagi muvofiq byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan qo‘shilgan qiymat solig‘ining summasi belgilangan stavka va soliq solinadigan bazadan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Olingan ishlar, xizmatlar uchun haq to‘lash chet el valyutasida amalga oshirilgan taqdirda, soliq solinadigan oborot bu oborot amalga oshirilgan sanadagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo‘yicha milliy valyutada qayta hisoblab chiqiladi.

Soliq qonunchiligidagi binoan qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘langanligini tasdiqlovchi to‘lov hujjati soliq qonunchiligidagi muvofiq soliq summasini hisobga olish huquqini beradi.

#### **6.4. Qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi va soliq imtiyozlari**

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarining stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkalari quyidagilardan iborat:

-20%li qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi

-Nol darajali qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizastiya qilish aylanmasiga 20 foizli stavka bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadi.

Tovarlarni chet el valyutasida eksportga realizastiya qilish (qimmatbaho metallar bundan mustasno) oborotiga nol darajali stavka bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lashning soddalashtirilgan tartibiga o‘tgan soliq to‘lovchilar uchun qo‘shilgan qiymat solig‘ining farqlangan stavkalari quyidagi miqdordorda belgilanadi:

### 6.3.1-jadval

T/r	To‘lovchilar	Soliq stavkalari soliq solinadigan bazaga nisbatan foizda
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi yuridik shaxslar.	7
2.	Qurilish tashkilotlari	8
3.	Chakana, ulgurji, shuningdek ulgurji-chakana savdoni amalga oshiradigan savdo korxonalar	6
4.	Umumiy ovqatlanish, mehmonxona xo‘jaligi korxonalar	10
5.	Kasbiy xizmatlar ko‘rsatadigan yuridik shaxslar (auditorlik xizmatlari, soliq maslahati xizmatlari, konsalting xizmatlari, brokerlik xizmatlari va boshqalar)	15
6.	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini, realizastiya qiladigan yuridik shaxslar o‘zining ishlab chiqarish mahsulotlari bundan mustasno	4

Qo‘silgan qiymat solig‘ining turli farqlangan stavkalari belgilangan bir necha faoliyat turlari bilan shug‘ullanadigan qo‘silgan qiymat solig‘i to‘lovchilar ushbu faoliyat turlari bo‘yicha alohida-alohida hisob yuritish hamda soliq to‘lovchilarning tegishli toifalari uchun belgilangan stavkalari bo‘yicha qo‘silgan qiymat solig‘ini to‘lashi kerak.

Qo‘silgan qiymat solig‘idan quyidagi realizastiya qilish oborotlari ozod etiladi:

1.Yuridik va jismoniy shaxslarga muayyan huquqlar berilganda davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan ko‘rsatiladigan, davlat boji, patent boji, yig‘im yoki boshqa to‘lovlar undiriladigan xizmatlar.

2.Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni tarbiyalashga doir xizmatlar.

3.Bemorlar va keksalarni parvarish qilishga doir xizmatlar.

4.Dafn etish byurolari va qabristonlarning marosim xizmatlari, diniy ashyolarni realizastiya qilish, diniy tashkilotlar hamda birlashmalarning udumlar va marosimlar o‘tkazishga doir xizmatlari.

5.Protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun mo‘ljallangan inventarlar, shu jumladan ularni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizastiya qilinayotgan buyumlar va inventarlar, shuningdek nogironlarga ko‘rsatilayotgan ortopedik protezlash xizmatlari, protez-ortopediya buyumlari va nogironlar uchun mo‘ljallangan inventarlarini ta’mirlash hamda ulardan foydalanishga doir ishlar bo‘yicha xizmatlar.

6.Davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalarining mazkur muassasalar tomonidan realizastiya qilinadigan mahsulotlari.

7.Pochta markalari (kollekstiya qilinadiganlardan tashqari), markali otkritkalar, konvertlar.

8.Aloqa tashkilotlarining pensiya va nafaqalar to‘lash bo‘yicha xizmatlari.

9.Byudjet mablag‘lari hisobidan bajariladigan ilmiy-tadqiqot va innovastiya ishlari. Ushbu imtiyozni olish uchun tegishli moliya organining byudjetdan mablag‘lar ajratish to‘g‘risidagi xulosasi asosdir.

10.Shahar yo‘lovchilar transportining xizmatlari (taksidan, shu jumladan yo‘nalishli taksidan tashqari), shuningdek temir yo‘l va umumiy foydalanishdagi avtomobil transportida (taksidan, shu jumladan yo‘nalishli taksidan tashqari) shahar atrofidagi yo‘nalishlarda yo‘lovchilar tashish xizmatlari. Shahar yo‘lovchilar transportining xizmatlari jumlasiga yo‘lovchilar tashish bo‘yicha avtomobil va elektr transporti bilan shahar doirasida muayyan yo‘nalishlar bo‘yicha qatnov jadvaliga binoan ko‘rsatiladigan xizmatlar kiradi. Soliq qonunchiligining qoidalari yuridik va jismoniy shaxslarning buyurtmalariga ko‘ra shahar yo‘lovchilar tashish transportida xodimlarni ishdan va ishga tashish bo‘yicha xizmatlarga, tadbirlar o‘tkazish uchun tashish bo‘yicha xizmatlarga, shu jumladan shahar tashqarisiga tashishga ham tatbiq etiladi.

11.Oliy, o‘rtalik, o‘rtalik maxsus, kasb-hunar o‘quv yurtlarida, shuningdek kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarda ta’lim berishning haq evaziga o‘qitishga doir qismi bo‘yicha xizmatlar.

12.Tibbiy xizmatlar va veterinariya xizmatlari, dori vositalari, veterinariya dori vositalari, tibbiyat va veterinariya uchun mo‘ljallangan buyumlar, shu jumladan ularni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizastiya qilinayotgan shunday vositalar va buyumlar. Soliq qonunchiligi qoidalarini qo‘llash maqsadlarida:

- tibbiy xizmatlar jumlasiga tibbiy yordam xizmatlari va sanitariya xizmati ko‘rsatish, diagnostika, profilaktika va davolash xizmatlari, gomeopatik, stomatologik xizmatlar, tish protezlari tayyorlash bo‘limlari va kabinetlari, narkologiya ambulatoriyalari, haydovchilarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish komissiyalari, dezinfekstiya stanstiyalari, sanitariya va epidemiyaga qarshi kurash yo‘nalishidagi laboratoriylar hamda bo‘linmalar, boshqa tibbiy hamda tibbiy-sanitariya yo‘nalishidagi muassasalar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar kiradi.

- veterinariya xizmatlari jumlasiga hayvonlarning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish, hayvonlar kasallikkleri paydo bo‘lishining, tarqalishining oldini olish hamda bu kasallikkarni tugatish, aholini hayvonlar va odam uchun umumiyo bo‘lgan kasallikkardan muhofaza qilish, O‘zbekiston Respublikasi hududini hayvonlarning yuqumli kasallikkleri olib kirilishidan muhofaza qilish, hayvonlarga veterinariya xizmati ko‘rsatilishini amalga oshirish, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi hududida veterinar osoyishtalikni, davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarning veterinariya, veterinariya-sanitariya xavfsizligini ta‘minlash kiradi.

13.Havo kemalariga xizmat ko‘rsatish yuzasidan bevosita O‘zbekiston Respublikasi aeroportlarida va O‘zbekiston Respublikasining havo bo‘shlig‘ida amalga oshiriladigan xizmatlar, shu jumladan aeronavigastiya xizmati.

14.Sanatoriylar, shifoxonalar, profilaktoriylar, kurortlar, pansionatlar, dam olish uylari va zonalari, bolalar dam olish oromgohlari hamda boshqa dam olish tashkilotlari tomonidan ularning asosiy faoliyati doirasida ko‘rsatiladigan xizmatlar ular yuridik shaxslarning tarkibiy bo‘linmalari tomonidan ko‘rsatilishidan qat‘i nazar sanatoriylar va sog‘lomlashtirish xizmatlari jumlasiga kiradi.

Turistik-ekskursiya xizmatlari jumlasiga safar tarkibida nazarda tutilgan turistik xizmatlar ko‘rsatish uchun yo‘llanmaning (vaucherning) qiymatiga kiritilgan barcha turistik-ekskursiya xizmatlari kiradi. Barcha turistik-ekskursiya xizmatlari turistik xizmatlar ko‘rsatish shartnomasida belgilangan transportda xizmat ko‘rsatishdan, yashab turishga, ovqatlanishga doir xizmatlardan, ekskursiya xizmati, madaniy, sport dasturlarini tashkil etish xizmatlari va boshqa xizmatlardan iborat bo‘ladi.

Jismoniy tarbiya va sport muassasalarining xizmatlari jumlasiga sport inshootlarida sport musobaqlari, bayramlari, sport-tomosha tadbirlari, sport inshootlarida o‘tkaziladigan kalendar va match uchrashuvlari, sport turlari bo‘yicha o‘quv guruhlari hamda komandalarida, sog‘lomlashtirish, umumjismoniy tayyorgarlik, sog‘lomlashtirish yo‘nalishidagi, chiniqish, suzish, sog‘lomlashtirish maqsadidagi yugurish va yurish, atletika, ritmika va davolash gimnastikasi maktablari hamda klublarda jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari o‘tkazish bo‘yicha, sport inshootlariga qatnovchilarga biletlarning (abonnementlarning) qiymatida nazarda tutilgan sport-texnika asbob-uskunalarini, trenajyorlarni, inventarlarni, sport ust-boshlarini berib turish bo‘yicha xizmatlar hamda boshqa xizmatlar kiradi.

15.Bosma mahsulotlar. Bosma mahsulotlar jumlasiga milliy valyuta (kupyura), kitob mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarining davriy bosma nashrlari, daftarlari hamda rasm va chizmachilik albomlari taalluqlidir.

16.O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo‘yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan qarzlar (kreditlar) yuridik shaxslar oladigan, shuningdek grantlar hisobiga olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar).

17.Uy-joy fondini saqlash va ta‘mirlash yuzasidan aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar. Uy-joy fondini saqlash va ta‘mirlash yuzasidan ko‘rsatiladigan xizmatlar jumlasiga lift xo‘jaliklari, umumiyo foydalanishdagi antennalarni o‘rnatish hamda ularni tasarruf etish bo‘yicha xo‘jaliklar, er resurslari va davlat kadastro, uy-joy fondidan foydalanish, uni saqlash va ta‘mirlash boshqarmalari hamda bo‘limlarining bevosita aholi tomonidan haq to‘lanadigan xizmatlari, shu jumladan ushbu xizmatlarga xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari orqali haq to‘lash kiradi.

18. Davlat tilini va davlat tilida ish yuritishni o‘rgatish xizmatlari.

19.O‘zi etishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsuloti va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan ro‘yxat bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan oziq-ovqat mahsulotlari.

20.Ichki ishlar organlari huzuridagi qo‘riqlov bo‘linmalari xizmatlari.

21.Byudjet mablag‘lari hisobidan bajariladigan er-kadastr, er tuzish, tuproq va geobotanika ishlari.

22.Davlat rezervining tovar-moddiy zaxiralari, ular yangilanayotganda.

23.Telkomunikastiylar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnika vositalari, shuningdek mazkur vositalardan foydalanishga va ularga xizmat ko‘rsatishga doir xizmatlar.

24.Investor va davlat mulkini boshqarish bo‘yicha vakolatlari davlat organi o‘rtasida tuzilgan shartnomaga binoan investistiya majburiyatları sifatida topshirilayotgan mol-mulk.

25.Davlat mulkini ijara berish bo‘yicha xizmatlar.

26.Ommaviy axborot vositalarini va kitob mahsulotlarini etkazib berish xizmatlari.

27.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko‘ra tijorat banklari tomonidan o‘z mablag‘lari hisobidan qurilayotgan ko‘chmas mulk obyektlari.

Qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1.Kreditlar, zayomlar bo‘yicha foizlarni hisoblab chiqarish va undirish, kreditlar, zayomlar berish, kafilliklar (kafolatlar), shu jumladan bank kafolatlari berish.

2.Depozitlar qabul qilish, yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan vakil banklarda hisobvaraqlarini ochish va yuritish.

3.To‘lovlar, o‘tkazmalar, qarz majburiyatları, cheklar va to‘lov vositalari bilan bog‘liq operastiyalar, inkasso bo‘yicha operastiyalar.

4.Milliy valyuta va chet el valyutasi bilan bog‘liq operastiyalar.

5.Yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan investistiya vositachilarining qimmatli qog‘ozlar depo-hisobvaraqlarini ochish hamda yuritish.

6.Qimmatli qog‘ozlar (akstiyalar, obligastiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar) bilan bog‘liq operastiyalar. Qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operastiyalar jumlasiga qimmatli qog‘ozlarni saqlash, qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqni hisobga olish, qimmatli qog‘ozlarni o‘tkazish hamda qimmatli qog‘ozlar reestrini yuritish bo‘yicha operastiyalar, qimmatli qog‘ozlar savdosini tashkil etish bo‘yicha operastiyalar kiradi.

7.Qimmatli qog‘ozlarni, yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarni (paylarni) realizastiya qilish.

8.Kliring operastiyalari.

9.Akkreditivlar ochish va ularga xizmat ko‘rsatish.

10.Pul mablag‘larini konvertastiya qilish bo‘yicha operastiyalar.

11.Chet el valyutasi bilan ayrboshlash operastiyalarini tashkil etish.

12.Kassa operastiyalari (banknot va tangalarni qabul qilib olish, berish, qayta hisoblab chiqish, maydalab berish, almashtirish, saralash va saqlash).

13. Moliyaviy ijara (lizing) shartnomasining ijara beruvchining (lizingga beruvchining) foiz tariqasidagi daromadiga tegishli qismi bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish.

14. Forfeyting va faktoring operastiyalari.

15. Lombard operastiyalari (garovga qo‘yilgan mol-mulkka qisqa muddatli kreditlar berish).

16.Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larining oboroti.

17. Mijozlarning hisob raqamlariga banklar tomonidan elektron masofali xizmat ko‘rsatish bo‘yicha xizmatlar.

Sug‘urta qilish, birgalikda sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish xizmatlari bo‘yicha sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari tomonidan amalga oshiriladigan sug‘urta qilish bo‘yicha xizmatlar bu xizmatlar natijasida:

1.Sug‘urta bozorining professional ishtirokchisi quyidagilarni olsa, qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadi:

- a) Sug‘urta qilish, birlgilikda sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari.
- b) Qayta sug‘urta qilishga topshirilgan shartnomalar bo‘yicha vositachilik haqi va tantemalar.
- v) Sug‘urta agenti, sug‘urta va qayta sug‘urta brokeri, syurveyer hamda sug‘urta bozorining boshqa professional ishtirokchilarining xizmatlari uchun vositachilik haqi.
- g) Qayta sug‘urta qilishga topshirilgan shartnomalar bo‘yicha sug‘urta to‘lovlar ulushining qayta sug‘urtalovchilar tomonidan to‘lanadigan to‘lovini.
- d) Sug‘urta qilish, birlgilikda sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha uchinchi shaxslardan subrogastiya (regress) tartibida talab qilish bo‘yicha daromadlar.
- e) Sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari (aktuariylar, ajasterlar, syurveyerlar, assistans xizmatlari va shu singarilar) ko‘rsatgan xizmatlardan olinadigan daromadlar.
- j) Qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha depo mukofotlariga hisoblangan hamda qayta sug‘urta qildiruvchi tomonidan qayta sug‘urtalovchiga o‘tkazilgan foizlar.
- z) Hayotni sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha sug‘urta qildiruvchilar taqdim etgan zayomlardan olinadigan daromadlar.
- i) Sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) investisiya faoliyatidan olinadigan daromadlar, shu jumladan sug‘urta rezervlari va sug‘urta fondlari mablag‘larini investistiyalashdan olinadigan daromadlar.
- k) Sug‘urta qilish, birlgilikda sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha franshizlarni qoplashdan olinadigan daromadlar.
- l) Qonun hujjalari muvofiq sug‘urtalovchiga o‘tgan, sug‘urta qildiruvchining (naf oluvchining) etkazilgan zarar uchun javobgar shaxslardan talab qilish huquqini realizastiya qilishdan olinadigan daromadlar.
- m) Qayta sug‘urta qilish shartnomalari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, ular bo‘yicha sug‘urta mukofotlarining qaytarib berilgan qismi summalari.
- n) Bevosita sug‘urta faoliyatini amalga oshirishdan olinadigan boshqa daromadlar.
2. Sug‘urta qildiruvchi (naf oluvchi) quyidagilarni olsa, qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadi:
- a) Sug‘urta to‘lovi (sug‘urta tovon).
- b) Preventiv tadbirlar o‘tkazish uchun beriladigan mablag‘lar.
- v) Sug‘urta qilish shartnomasi zararsiz amal qilishi uchun sug‘urtalovchi to‘laydigan mablag‘lar.
- g) Sug‘urta qilish shartnomasiga muvofiq boshqa mablag‘lar.
- Quyidagi tovarlarni import qilish qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadi:
1. Jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni bojsiz olib kirishning bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjalarda tasdiqlangan normalari doirasida olib kirilayotgan tovarlar.
2. Chet el diplomatik vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalar rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek ushbu vakolatxonalarning diplomatik va ma’muriy-texnik xodimlari, shu jumladan ularning o‘zлari bilan birga yashayotgan oila a’zolari shaxsiy foydalanishi uchun mo‘ljallangan tovarlar.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda insonparvarlik yordami tariqasida olib kirilayotgan tovarlar.
4. Davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan xayriya yordami maqsadida, shu jumladan texnik ko‘mak ko‘rsatish maqsadida olib kirilayotgan tovarlar.
5. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo‘yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan qarzlar (kreditlar) mablag‘lari, shuningdek grantlar hisobiga yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan tovarlar.
6. Dori vositalari, veterinariya dori vositalari, tibbiyot va veterinariya uchun mo‘ljallangan buyumlar, shuningdek dori vositalari, veterinariya dori vositalari, tibbiyot va veterinariyaga mo‘ljallangan buyumlar ishlab chiqarish uchun qonun hujjalarda belgilanadigan ro‘yxat bo‘yicha olib kiriladigan xomashyo. Mazkur imtiyoz olib kirilayotgan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan

tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha O'zbekiston Respublikasida ham ishlab chiqarilayotgan tayyor dori vositalariga, veterinariya dori vositalariga, tibbiyot va veterinariya uchun mo'ljallangan buyumlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

7.O'zbekiston Respublikasi hududiga qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha olib kirilayotgan texnologik asbob-uskunalar, shuningdek butlovchi buyumlar va ehtiyoj qismlar, agar ularni etkazib berish texnologik asbob-uskunalarini etkazib berish kontrakti shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa. Import qilingan texnologik asbob-uskunalar olib kirilgan paytdan e'tiboran uch yil mobaynida eksportga realizastiya qilingan yoki tekin berilgan taqdirda, mazkur imtiyozning amal qilishi qo'shilgan qiymat solig'i to'lash bo'yicha majburiyatlar tiklangan holda bekor qilinadi.

8.Investor bilan davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtaida tuzilgan shartnomaga muvofiq investistiya majburiyatlari sifatida olib kiriladigan mol-mulk.

9.Vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdig'i mavjud bo'lgan taqdirda, telekommunikastiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirdari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirdari tizimining texnik vositalari.

10.Qonun hujjatlarida belgilanadigan ro'yxat bo'yicha yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan yog'och-taxta materiallari va yog'och.

Tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq olib chiqish tovarlar eksportidir.

Soliq qonunchiligiga muvofiq tovarlarning eksport qilinganligi tasdiqlanmagan taqdirda, mazkur tovarlarni realizastiya qilish oborotiga belgilangan stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

Tovarlarning eksport qilinganligini tasdiqlovchi hujjatlar quyidagilardir:

- kontrakt (kontraktning belgilangan tartibda tasdiqlangan ko'chirma nusxasi).
- tovarlarni eksport qilish rejimiga chiqarishni amalga oshiruvchi bojxona organining belgi qo'yilgan bojxona yuk deklarastiyasi.

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan o'tkazish punktida joylashgan bojxona organining tovarlar tayin etilgan mamlakatga jo'natilganligini tasdiqlovchi qayd belgisi qo'yilgan tovarga ilova qilinadigan hujjatlar.

Tovarlar eksportga vositachi (ishonchli vakil) orqali vositachilik (topshiriq shartnomasi bo'yicha realizastiya qilinganda eksportni tasdiqlash uchun komitent (topshiriq beruvchi) tomonidan quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

○ soliq to'lovchi bilan vositachi yoki ishonchli vakil o'rtasidagi vositachilik shartnomasi yoki topshiriq shartnomasi (shartnomaning ko'chirma nusxasi).

○ soliq to'lovchining topshirig'iga ko'ra (vositachilik shartnomasi yoki topshiriq shartnomasiga muvofiq) eksportga tovarlar etkazib berishni amalga oshirayotgan shaxsning tovarlarni O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan tashqariga etkazib berish uchun chet ellik shaxs bilan tuzilgan kontrakti (kontraktning belgilangan tartibda tasdiqlangan ko'chirma nusxasi).

○ tovarlarni eksport rejimiga chiqarishni amalga oshiruvchi bojxona organining belgisi qo'yilgan bojxona yuk deklarastiyasining ko'chirma nusxasi.

Soliq qonunchiligidagi ko'rsatilgan hujjatlar belgilangan tartibda tekshiruv o'tkazilayotganda nazorat qiluvchi organlarga ularning talabiga binoan taqdim etiladi.

Chet el tarafi o'zarolik prinzipiga amal qilgan taqdirda, chet el diplomatik vakolatxonalar hamda ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarning rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek bu vakolatxonalar diplomatik va ma'muriy-texnik xodimlarining, shu jumladan ular bilan birga yashayotgan oila a'zolarining, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasalar hamda O'zbekiston Respublikasida doimiy yashayotgan bo'lmasalar, shaxsiy foydalanishi uchun realizastiya qilinayotgan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Diplomatik korpusga xizmat ko'rsatish byurosi tomonidan keyinchalik chet el diplomatik vakolatxonalarini va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga realizastiya qilish uchun olinayotgan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizastiya qilishda nol darajali stavka qo'llanilishi tatbiq etiladigan O'zbekiston Respublikasida akkreditastiya qilingan chet el diplomatik vakolatxonalarining va diplomatik vakolatxonalariga tenglashtirilgan xalqaro tashkilotlarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Bojxona to'g'risidagi qonun hujjalari muvofiq, «bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha bajarilgan ishlarga (ko'rsatilgan xizmatlarga), agar qayta ishlash mahsulotlari O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tashqariga olib chiqiladigan bo'lsa, nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

«Bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha bajarilgan ishlarga (ko'rsatilgan xizmatlarga), agar keyinchalik qayta ishlash mahsulotlari bojxona to'g'risidagi qonun hujjalari muvofiq «erkin muomalaga chiqarish» rejimiga joylashtiriladigan bo'lsa, belgilangan stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

Xalqaro yo'nalishda tashishlar bo'yicha ko'rsatiladigan quyidagi xizmatlarni realizastiya qilish oborotiga nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi:

- tranzit yuklarni O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab tashish. Tranzit yuklarni tashish jumlasiga yukning tranzitini amalga oshirish uchun chet ellik shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri tuzilgan shartnomalar yoki xalqaro (idoralararo) transport bitimlari hamda bojxona organlarining mazkur tranzit yuklar haqiqatda olib kirilganligi va olib chiqilganligi to'g'risida belgilari mavjud bo'lgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi hududi orqali chet el tranzit yuklarini tashish va ularga xizmat ko'rsatishga doir xizmatlar kiradi.

- yo'lovchilar, bagajlar, yuklar va pochtani xalqaro yo'nalishda tashish. Agar jo'natish punkti yoki tayin etilgan punkt O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan bo'lsa, tashishlar yagona xalqaro tashish hujjalari asosida rasmiylashtirilgan taqdirda, xalqaro yo'nalishlarda tashish hisoblanadi.

Suv ta'minoti, kanalizastiya, sanitariya tozalash, issiqlik ta'minoti bo'yicha aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarga, shu jumladan xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari aholi nomidan oladigan, shuningdek idoraviy uy-joy fondi uylarida yashayotgan aholi uchun O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining bo'limlari tomonidan olinadigan ana shunday xizmatlarga nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

Byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasini aniqlashda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) oluvchi haqiqatda olingan va soliq to'lovchi tomonidan ishlab chiqarilgan hamda o'z ehtiyojlari uchun foydalanilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan (to'langan) qo'shilgan qiymat solig'inining summasini hisobga olish huquqiga ega, agar bunda quyidagi shartlar bajarilsa:

1.Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) oluvchi soliq qonunchiligidagi muvofiq qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi bo'lsa.

2.Tovarlardan (ishlardan, xizmatlardan) soliq solinadigan oborotlar, shu jumladan nol darajali stavka qo'llaniladigan oborotlar maqsadida foydalanilsa.

3.Olingan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) etkazib beruvchi tomonidan yozilgan hisobvaraq-faktura yoki soliq qonunchiligidagi muvofiq taqdim etiladigan qo'shilgan qiymat solig'i alohida ajratib ko'rsatilgan boshqa hujjat mavjud bo'lsa.

4.Tovarlar import qilinganda qo'shilgan qiymat solig'i byudjetga to'langan bo'lsa. Agar import qilingan tovarlar bo'yicha soliqni byudjetga to'lashdan ozod etish tarzida bo'shagan mablag'larni aniq maqsadlarga yo'naltirish sharti bilan imtiyoz berilgan bo'lsa ham qo'shilgan qiymat solig'i hisobga olinadi.

5.Soliq qonunchiligidagi nazarda utilgan hollarda qo'shilgan qiymat solig'i byudjetga to'langan bo'lsa.

6.Nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan tovarlar eksportida chet ellik sotib oluvchi (to'lovchi) tomonidan eksport qilinayotgan tovarlar uchun haq to'langanligini tasdiqlovchi bank hujjatidan ko'chirma mavjud bo'lsa.

Mol-mulk ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'yilma sifatida olinganda oluvchi etkazib beruvchi tomonidan to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasini soliq qonunchiligidagi ko'rsatilgan shartlarga rioxha qilgan holda hisobga olish huquqiga ega.

Nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan tovarlarni eksportga realizastiya qilish oboroti maqsadida foydalaniladigan, haqiqatda olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan (to'langan) qo'shilgan qiymat solig'i tovarlar eksportidan soliq to'lovchining O'zbekiston Respublikasidagi bank hisobvarag'iga kelib tushgan valyuta tushumining ulushida hisobga olinadi. Tovar vositachilik, topshiriq shartnomasi bo'yicha vositachi, ishonchli vakil orqali eksportga realizastiya qilingan taqdirda, qo'shilgan qiymat solig'i vositachining, ishonchli vakilning yoki soliq to'lovchining hisobvarag'iga kelib tushgan valyuta tushumining summasi ulushida hisobga olinadi.

Tovarlardan foydalanishning kafolatli muddati davrida ularni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha qo'shimcha haq olmasdan ishlar bajarilganda, xizmatlar ko'rsatilganda moddiy resurslar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan (to'langan) qo'shilgan qiymat solig'i summasi, shu jumladan ehtiyoj qismlar va detallar qiymati soliq qonunchiligidan ko'rsatilgan shartlarga rioya etilgan taqdirda hisobga olinadi.

Tovar vositachilik, topshiriq shartnomasi bo'yicha olingan taqdirda, komitent, topshiriq beruvchi O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishda to'langan qo'shilgan qiymat solig'i hisobot davrida realizastiya qilingan tovarlar ulushida hisobga olinadi.

Umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tilganda, shu jumladan belgilangan yillik aylanmaning (olingan tushumning) eng ko'p miqdordan oshgan va qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy to'lashga o'tilgan taqdirda, yuridik shaxs tovar-moddiy zaxiralarning qoldiqlari, uzoq muddatli aktivlar bo'yicha, shuningdek soliq qonunchiligidan belgilangan talablarni hisobga olni lozim bo'lgan paytdan e'tiboran qo'shilgan qiymat solig'i summasini hisobga olish huquqiga ega bo'ladi. Shunday tartib imtiyozlar bekor qilinganda, qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash bo'yicha majburiyat yuzaga kelgan soliq to'lovchilarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchida soliq solinadigan va solinmaydigan oborotlar, shu jumladan qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan oborotlar mayjud

bo'lgan taqdirda, qo'shilgan qiymat solig'i soliq qonunchiligidan nazarda tutilgan tartibda hisobga olinadi.

Soliq qonunchiligin qo'llash maqsadida mol-mulkni ijara berishga, intellektual mulk obyektlaridan foydalanish huquqini berishga xizmatlar sifatida qaraladi.

Tadbirkorlik faoliyati doirasida foydalaniladigan ko'chmas mulk sotib olinganda, barpo etilganda, ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida olinganda, oluvchi qo'shilgan qiymat solig'i summasini 36 kalendar oy davomida teng ulushlarda hisobga olish huquqiga ega bo'ladi.

Asosiy vositalar, bundan ko'chmas mulk mustasno, va nomoddiy aktivlar sotib olinganda, ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida olinganda, oluvchi qo'shilgan qiymat solig'i summasini 12 oy davomida teng ulushlarda hisobga olish huquqiga ega bo'ladi.

Qurilishi tugallanmagan obyekt sotib olinganda (barpo etilganda) soliq to'lovchi qo'shilgan qiymat solig'i summasini soliq qonunchiligidan nazarda tutilgan tartibda, uni foydalanishga topshirgan paytdan e'tiboran hisobga olish huquqiga ega bo'ladi.

Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va qurilishi tugallanmagan obyektlar davr tugaguniga qadar realizastiya qilingan taqdirda, hisobga olinishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ining qolgan summasi to'liq hisobga olinadi.

Mol-mulkni moliyaviy ijara, shu jumladan lizingga berishda hisobga kiritiladigan qo'shilgan qiymat solig'ining summasi to'liq hisobga olinadi.

Quyidagilar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasi hisobga olinmaydi:

1.2019 yilning 1 yanvariga qadar sotib olingan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va qurilishi tugallanmagan obyektlar bo'yicha. tadbirkorlik faoliyati doirasida foydalanilmaydigan yoki soliq solinmaydigan aylanma maqsadida foydalaniladigan, sotib olinadigan ko'chmas mulk bo'yicha.

2.Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lman yuridik shaxslar tomonidan, shuningdek soliq qonunchiligidan muvofiq qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar tomonidan foydalanish uchun olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha.

3. O‘zbekiston Respublikasi hududi realizastiya qilish joyi deb e’tirof etilmaydigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha.

4. Tekinga olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha.

5. Soliq qonunchiligiga muvofiq chegirib tashlanmaydigan xarajatlarni amalga oshirish maqsadida olingan mol-mulk bo‘yicha.

Ilgari hisobga olingan qo‘silgan qiymat solig‘i quyidagi hollarda hisobga olishdan chiqarib tashlanishi kerak:

○ Soliq qonunchiligiga muvofiq qo‘silgan qiymat solig‘idan ozod qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish uchun yuridik shaxslar tomonidan foydalanimayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha.

○ Belgilangan qoidalarga rioya etilmagan taqdirda.

○ Qonun hujjatlariga muvofiq vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan normalardan, bunday normalar mavjud bo‘lmaganda esa soliq to‘lovchi tomonidan tasdiqlangan normalardan ortiqcha moddiy resurslar bo‘yicha yo‘qotishlar va buzilishlar.

○ Issiq suv ta’minoti (hisobga olish asboblari mavjud bo‘lmagan taqdirda) va markaziy isitish uchun tasdiqlangan iste’mol normalaridan ortiq miqdorda aholiga etkazib beriladigan issiqlik energiyasi bo‘yicha.

Qo‘silgan qiymat solig‘i to‘lovchi soliq solishning soddalashtirilgan tartibiga (qo‘silgan qiymat solig‘i to‘lamaydiganlar toifasiga) o‘tganda ilgari hisobga olingan tovar-moddiy zaxiralar qoldiqlari, uzoq muddatli aktivlar, shuningdek tayyor mahsulot qoldiqlari bo‘yicha hisobga olishga kiritilgan qo‘silgan qiymat solig‘i summasiga tuzatish kiritiladi. Qo‘silgan qiymat solig‘ini to‘lash bo‘yicha imtiyoz berilganligi munosabati bilan soliq solinmaydigan oborotlar yuzaga kelgan soliq to‘lovchilarga ham tuzatish kiritishning shunga o‘xshash tartibi tatbiq etiladi.

Soliq qonunchilida ko‘rsatilgan hollarda olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymati o‘zgarganda sotib oluvchi ilgari hisobga olingan qo‘silgan qiymat solig‘i summasiga tegishli tarzda tuzatish kiritadi.

Soliq solinmaydigan oborot uchun foydalanimayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha mahsulot etkazib beruvchilarga va import bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan

(to‘langan) qo‘silgan qiymat solig‘i hisobga olinmaydi, balki ushbu tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymatida hisobga olinadi.

Soliq solinadigan va soliq solinmaydigan oborot mavjud bo‘lganda soliq solinadigan oborotga, shu jumladan nol darajali stavka bo‘yicha soliq solinadigan oborotga, shuningdek yuridik shaxsning o‘z ehtiyojlari uchun (xarajatlar sifatida qaraladigan) oborotga to‘g‘ri keladigan qo‘silgan qiymat solig‘i summasi hisobga olinadi.

Hisobga olinadigan summa qo‘silgan qiymat solig‘i to‘lovchining tanloviga binoan alohida-alohida va mutanosib usulda aniqlanadi.

Hisobga olinadigan qo‘silgan qiymat solig‘i summasini aniqlashning tanlangan usuli kalendar yil mobaynida o‘zgartirilishi mumkin emas.

Mutanosib usul qo‘llanilganda hisobga olinadigan qo‘silgan qiymat solig‘i summasi soliq solinadigan oborotning umumiyligi oborot summasidagi ulushidan kelib chiqib aniqlanadi.

Alohiba-alohiba usul qo‘llanilganda qo‘silgan qiymat solig‘i to‘lovchi soliq solinadigan va soliq solinmaydigan oborot maqsadlarida foydalinish uchun olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yuzasidan xarajatlar hamda qo‘silgan qiymat solig‘i summalarini bo‘yicha alohiba-alohiba hisob yuritadi. Bunda alohiba-alohiba hisobni yuritish imkonni bo‘lmagan umumiyligi xarajatlar bo‘yicha xarajatlarni taqsimlash mutanosib usulda amalga oshiriladi.

Hisobvaraqtura qat’iy hisobot hujjati bo‘lib, unda quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi:

1.Hisobvaraqturaning tartib raqami va yozib berilgan sanasi.

2.Hisobvaraqtura ilova qilinadigan tovar jo‘natish hujjatlarining yoki shartnomaning raqami va sanasi.

3.Soliq to‘lovchining va tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotib oluvchining nomi, joylashgan eri (pochta manzili) hamda identifikasiya raqami.

4.Realizastiya qilingan tovarlarning, bajarilgan ishlarning, ko‘rsatilgan xizmatlarning nomi va o‘lchov birliklari (ularni ko‘rsatishning imkoniyati bo‘lsa).

5.O'lchov birligidan (ularni ko'rsatishning imkoniyati bo'lsa) kelib chiqqan holda realizastiya qilingan tovarlarning, bajarilgan ishlarning, ko'rsatilgan xizmatlarning hisobvaraq-faktura bo'yicha soni (hajmi).

6.Shartnoma (kontrakt) bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olmagan holda, qo'shilgan qiymat solig'ini o'z ichiga oladigan davlat tomonidan tartibga solinadigan narxlar (tariflar) qo'llanilgan taqdirda esa, soliq summasini hisobga olgan holda o'lchov birligiga to'g'ri keladigan narx (tarif).

7.Realizastiya qilinayotgan tovarlar, bajarilayotgan ishlar, ko'rsatilayotgan xizmatlar jami sonining (hajmining) qo'shilgan qiymat solig'isiz qiymati.

8.Aksiz to'lanadigan tovarlar (xizmatlar) bo'yicha aksiz solig'ining stavkasi va summasi.

9.Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) sotib oluvchisiga taqdim etilayotgan qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi va summasi.

10.Realizastiya qilingan tovarlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar jami sonining (hajmining) aksiz to'lanadigan tovarlar (xizmatlar) bo'yicha aksiz solig'i va qo'shilgan qiymat solig'i hisobga olingan holdagi qiymati.

Hisobvaraq-faktura qog'ozdagi shaklda yoki elektron hujjat tarzida tuzilishi mumkin.

Qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan oborotni va qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan oborotni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar, shuningdek qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lmanan yuridik shaxslar tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) oluvchi shaxsga hisobvaraq-faktura taqdim etishlari shart, quyidagi hollar bundan mustasno:

1.Yo'lovchilar tashishni yo'l chiptalari bilan rasmiylashtirish.

2.Tovarlar (ishlar, xizmatlar) aholiga naqd pulda realizastiya qilingan hollarda sotib oluvchiga fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasi cheki, terminal cheki, kvitanstiya berish.

3.Tovarlarning eksport-import tarzida etkazib berilishini rasmiylashtirish.

4.Qabul qilib olish-topshirish dalolatnomasi rasmiylashtiriladigan moliyaviy ijara (shu jumladan lizing) shartnomasi bo'yicha mol-mulkni topshirish. Bunda

tegishli hujjatlar (moliyaviy ijara shartnomasining tarkibiy qismi bo'lgan ijara (lizing) to'lovlari jadvali. hisobvaraq. ijaraga (lizingga) oluvchiga ijara (lizing) to'lovlarini to'lash uchun yuborilgan yozma bildirish va shu kabilar) bilan rasmiylashtirilgan har bir ijara (lizing) to'loviga ham hisobvaraq-faktura yozilmaydi.

5.Bank operastiyalarini mijozning shaxsiy hisobvarag'idan ko'chirma berish orqali rasmiylashtirish.

6.Sug'urta xizmatlarini topshiriq shartnomasi va sug'urta polisi orqali rasmiylashtirish.

7.Soliq qonunchiligidan ko'rsatilgan ma'lumotlar mavjud bo'lgan taqdirda, ishlarni (xizmatlarni) haqiqatda mazkur ishlar bajarilganligini (xizmatlar ko'rsatilganligini) tasdiqlovchi hujjatlar bilan rasmiylashtirish.

Soliq qonunchiligidan ko'rsatilgan hujjatlar hisobvaraq-faktura o'mini bosadigan hujjatlardir. Bunda qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) etkazib berilgan taqdirda, ushu hujjatlarda qo'shilgan qiymat solig'i summasi albatta ajratib ko'rsatilishi kerak.

Kelgusida tovarlarni etkazib berish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish uchun oldindan to'langan haq (bo'nak) yozilgan hisobvaraq hisobvaraq-faktura bo'lmaydi.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lmanan, shuningdek qo'shilgan qiymat solig'i to'lashdan ozod qilingan oborotni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar hisobvaraq-fakturada qo'shilgan qiymat solig'i summasini ko'rsatmaydilar hamda «qo'shilgan qiymat solig'isiz» degan shtamp bosadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi uchun hisobvaraq-faktura qo'shilgan qiymat solig'ini soliq qonunchiliga muvofiq hisobga olish uchun asos bo'ladi.

Hisobvaraq-faktura tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizastiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanada yoziladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan elektr energiyasi, suv, gaz, aloqa xizmatlari, kommunal xizmatlar, temir yo'lda tashishlar, transport-ekspeditorlik xizmati, bank operastiyalari, shuningdek tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) uzluksiz etkazib berishni amalga oshirayotgan soliq to'lovchilar oyning oxirgi kunida bir marta hisobvaraq-faktura yozadi.

Hisobvaraqturada tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati va qo'shilgan qiymat solig'i summasi milliy valyutada ko'rsatiladi.

Tuzilgan shartnomalarning shartlariga binoan tovarlariga, ishlari va xizmatlariga narxlar (tariflar) chet el valyutasida belgilanadigan yuridik shaxslar hisobvaraqturalarini chet el valyutasida yozib, ayni bir vaqtda uni hisobvaraqturalarini yozib berilgan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha qayta hisoblagan holda milliy valyutada ifodalaydi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) etkazib beruvchi soliq solinadigan bazaga uni ko'paytirishga (kamaytirishga) qaratilgan tuzatish kiritgan taqdirda, mazkur tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) oluvchi tomonidan tasdiqlanadigan qo'shimcha hisobvaraqturalarini tuziladi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) etkazib beruvchi qo'shimcha hisobvaraqturada quyidagi ma'lumotlarni ko'rsatishi kerak:

1. Qo'shimcha hisobvaraqturuning raqami va tuzilgan sanasi.
2. Hisobvaraqturani to'ldirishda zarur bo'lgan rekvizitlar.
3. Tuzatish kiritilayotgan hisobvaraqturuning raqami va sanasi..
- 4.Qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olmagan holda soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish miqdori (salbiy yoki ijobjiy).
- 5.Qo'shilgan qiymat solig'i summasiga tuzatish kiritish miqdori (salbiy yoki ijobjiy).

Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar o'zлari oлgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobvaraqturalarining, shuningdek realizastiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha taqdim etilgan hisobvaraqturalarining reestrini yuritishi shart. Bunda olingen tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobvaraqturalar reestriga faqat qo'shilgan qiymat solig'i ajratib ko'rsatilgan hisobvaraqturalar kiritiladi.

Hisobvaraqturuning shakli, uni to'ldirish tartibi, shuningdek kelib tushgan va taqdim etilgan hisobvaraqturalar reestrini yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

## 6.5. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash tartibi

Soliq solinadigan oborotlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i soliq solinadigan baza va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Kalendar yil soliq davridir. Yil oyi hisobot davridir.

Byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i soliq solinadigan oborot bo'yicha hisoblab chiqarilgan soliq summasi bilan soliq qonunchiliga muvofiq hisobga olinadigan soliq summasi o'rtaсидagi farq sifatida aniqlanadi.

Tovarlarni import qilish bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ining summasi soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Soliq to'lovchilar qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitobi bilan bir vaqtda soliq davri mobaynida olingen tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobvaraqturalar reestrini taqdim etadi. Soliq to'lovchilar qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitobi bilan bir vaqtda soliq davri mobaynida olingen va realizastiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobvaraqturalar reestrlarini taqdim etadi.

«Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash har oyda keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash bojxonada to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Soliq davri davomida yalpi tushumi uch milliard so'mdan oshmaydigan yuridik shaxslar, shu jumladan yagona soliq to'lovi to'lovchilari hisoblangan yuridik shaxslar qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lashning belgilangan soddalashtirilgan tartibini tanlash huquqiga ega.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lashning soddalashtirilgan tartibiga o'tish uchun soliq qonunchiligidagi ko'rsatilgan soliq to'lovchilar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga qo'shilgan qiymat

solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lashning soddalashtirilgan tartibiga o‘tish to‘g‘risida yozma xabarnomani quyidagi muddatlarda taqdim etadi:

○ o‘tgan yil yakunlari bo‘yicha yalpi tushumi uch milliard so‘mdan oshmagan yuridik shaxslar joriy yilning 1 fevralidan kechiktirmsandan.

○ soliq davri davomida yalpi tushumi bir milliard so‘mdan oshgan yuridik shaxslar yalpi tushumi bir milliard so‘mdan oshgan oydan keyingi oyning 15-sanasidan kechiktirmsandan.

○ ixtiyoriy ravishda qo‘silgan qiymat solig‘ini to‘lash istagini bildirgan yuridik shaxslar hisobot davri boshlanishidan bir oy oldin, yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar esa, o‘z faoliyatini amalga oshirishni boshlagunga qadar.

Soliq to‘lovchilar qo‘silgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lashning soddalashtirilgan tartibiga:

○ o‘tgan yil yakunlari bo‘yicha yalpi tushumi uch milliard so‘mdan oshmagan yuridik shaxslar hisobot yilining boshidan.

○ soliq davri davomida yalpi tushumi bir milliard so‘mdan oshgan yuridik shaxslar yalpi tushumi bir milliard so‘mdan oshgan oydan keyingi oyning boshidan.

○ ixtiyoriy ravishda qo‘silgan qiymat solig‘ini to‘lash istagini bildirgan yuridik shaxslar hisobot davrining boshidan, yangi tashkil etilganlar esa, faoliyatini boshlagandan o‘tadi.

Qo‘silgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lashning soddalashtirilgan tartibidan ixtiyoriy ravishda voz kechilganda soliq to‘lovchilar soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan qo‘silgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lashning umumbelgilangan tartibiga hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga qo‘silgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lashning umumbelgilangan tartibiga o‘tish to‘g‘risida yozma xabarnoma taqdim etilgan oydan keyingi oyning boshidan o‘tadi.

Soliq davri davomida yalpi tushumi uch milliard so‘mdan oshgan, qo‘silgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lashning soddalashtirilgan tartibini qo‘llayotgan soliq to‘lovchilar, yalpi tushumi belgilangan me’yoriy miqdordan

oshgan oydan keyingi oyning boshidan qo‘silgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lashning umumbelgilangan tartibiga o‘tadi.

Qo‘silgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lashning umumbelgilangan tartibiga o‘tilganda yuridik shaxs ushbu tartibga o‘tilgan paytdan e’tiboran tovar-moddiy zaxirasi, uzoq muddatli aktivlar qoldiqlari, shuningdek tayyor mahsulot qoldiqlari bo‘yicha qo‘silgan qiymat solig‘i summasini soliq qonunchiliga belgilangan talablarni inobatga olgan holda hisobga olish huquqiga ega bo‘ladi.

Qo‘silgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lashning umumbelgilangan tartibini qo‘llayotgan yoki ushbu tartibga o‘tgan soliq to‘lovchilar qo‘silgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lashning soddalashtirilgan tartibiga o‘tishga haqli emas.

Qo‘silgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lashning soddalashtirilgan tartibini qo‘llayotgan soliq to‘lovchilar soliq qonunchiligidagi, boshqa qonun hujjatlarida va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarida, alohida hollarda esa O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida belgilagan imtiyozlarni qo‘llash huquqiga ega.

Qo‘silgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lashning soddalashtirilgan tartibini qo‘llayotgan soliq to‘lovchilar tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotib oluvchiga taqdim etilayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qo‘silgan qiymat solig‘i stavkasi va summasini ko‘rsatgan holda hisobvaraq-faktura taqdim etishi shart.

Qo‘silgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lashning soddalashtirilgan tartibini qo‘llayotgan soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan hisobvaraq-faktura qo‘silgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lashning umumbelgilangan tartibini qo‘llayotgan soliq to‘lovchi uchun soliq qonunchiliga muvofiq qo‘silgan qiymat solig‘ini hisobga olish uchun asos bo‘ladi.

Qo‘silgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lashning soddalashtirilgan tartibi doirasida kalendar yil soliq davri hisoblanadi.

Qo‘silgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lashning soddalashtirilgan tartibi doirasida hisobot davri bir oy hisoblanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lashning soddalashtirilgan tartibi doirasida quyidagilar soliq solish obyekti hisoblanadi:

1.Soliq qonunchiligidan belgilangan tartibda aniqlanadigan soliq solinadigan oborot. Nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan oborot qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lashning soddalashtirilgan tartibi doirasida soliq solinmaydigan oborot hisoblanadi.

2.Soliq qonunchiligidan belgilangan tartibda aniqlanadigan soliq solinadigan import.

Realizastiya qilish oboroti amalga oshirilgan sana soliq qonunchiligidan belgilangan tartibda aniqlanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lashning soddalashtirilgan tartibi doirasida soliq solinadigan baza realizastiya qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmasdan belgilanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lashning soddalashtirilgan tartibi doirasida soliq to'lovchining soliq solinadigan bazasiga tuzatish kiritish soliq qonunchiligidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lashning soddalashtirilgan tartibi doirasida qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Soliq to'lovchilar qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitobi bilan bir vaqtida soliq davri mobaynida realizastiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobvaraqt-fakturalar reestrini taqdim etadi. Hisobvaraqt-faktura shakli, uni to'ldirish tartibi, shuningdek hisobvaraqt-fakturalar reestrini yuritish shakli va tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash soliq qonunchiligidan muvofiq soliq hisob-kitobini taqdim etish kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash bojxona to'g'risidagi qonun hujjalarda belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchining boshqa soliqlar bo'yicha qarzi mavjud bo'lмаган taqdirda, qo'shilgan qiymat solig'ining ortiqcha to'langan summasi soliq qonunchiligiga muvofiq soliq to'lovchiga qaytariladi.

Hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasining hisobot davri uchun hisoblab chiqarilgan soliq summasidan ortgan summasi qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha kelgusi to'lovlar hisobiga o'tkaziladi.

Hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasining soliq davri yakunlariga ko'ra hisoblangan soliq summasidan ortiqchaligi saqlanib qolgan taqdirda, ushbu ortiqcha summa keyingi soliq davriga o'tkaziladi va qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha kelgusi to'lovlar hisobiga o'tkaziladi.

Nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan oborot hisobidan hosil bo'lган qo'shilgan qiymat solig'ining ortiqcha summasi quyidagi ketma-ketlikda qaytariladi:

- soliq qonunchiligidan muvofiq to'lanishi lozim bo'lган qo'shilgan qiymat solig'ining summasi qoplanadi.
- soliq to'lovchining boshqa soliqlar bo'yicha mavjud soliq qarzi qoplanadi.
- soliq to'lovchining bank hisobvarag'iga pul mablag'lari o'tkaziladi.

Soliq qonunchiligidan muvofiq to'lanishi lozim bo'lган qo'shilgan qiymat solig'i summasini qoplash yoki soliq to'lovchining boshqa soliqlar bo'yicha mavjud soliq qarzini qoplash soliq qonunchiligidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Soliq qonunchiligidan muvofiq qaytarilgandan keyin saqlanib qolgan nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan oborot hisobidan hosil bo'lган qo'shilgan qiymat solig'ining ortiqcha summasi soliq to'lovchining yozma arizasi asosida uning bank hisobvarag'iga, agar mazkur ariza ortiqcha summa hosil bo'lган hisobot davri tugaganidan keyin o'n ikki oydan kechiktirilmagan muddatda taqdim etilgan bo'lsa belgilangan tartibda qaytarilishi mumkin.

Qo'shilgan qiymat solig'i summasini pul mablag'larini bank hisobvarag'iga o'tkazish yo'li bilan soliq to'lovchiga qaytarish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchi qo'shilgan qiymat solig'i summasini qaytarish uchun soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagi hujjatlarni qog'ozdagi shaklda uch nusxada ilova etgan holda yoki soliq to'lovchining shaxsiy kabinetini orqali elektron hujjat tarzida taqdim etadi:

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha yuridik shaxs qarzlarining solishtiruv dalolatnomasi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzlarining solishtiruv dalolatnomasi hisobot oyidan keyingi oyning 15-kuniga qadar tuziladi va bir kalendar oy mobaynida amal qiladi.
- qo'shilgan qiymat solig'inинг hisob-kitobi.
- agar yuridik shaxsga ilgari qo'shilgan qiymat solig'i qaytarib berilgan bo'lsa, qaytarilgan summalar va qaytarib berish sanasi to'g'risidagi ma'lumotlar.

Soliq to'lovchilar soliq qonunchiligidan ko'rsatilgan hujjatlarga qo'shimcha ravishda quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

1.Tovarlarni eksport qilishni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar soliq qonunchiligiga muvofiq hujjatlarning ko'chirma nusxalarini, shuningdek chet el valyutasida realizastiya qilingan tovarlar uchun tushum soliq to'lovchining O'zbekiston Respublikasidagi bank hisobvarag'iga kelib tushganligini tasdiqlovchi bank hujjatidan ko'chirmalarni.

2.Tovarlar eksportini vositachilik, topshiriq shartnomasi bo'yicha vositachi, ishonchli vakil orqali amalga oshirayotgan yuridik shaxslar soliq qonunchiligiga muvofiq hujjatlarning ko'chirma nusxalarini, shuningdek chet el valyutasida realizastiya qilingan tovarlar uchun tushum vositachining, ishonchli vakilning yoki soliq to'lovchining O'zbekiston Respublikasidagi bank hisobvarag'iga kelib tushganligini tasdiqlovchi bank hujjatidan ko'chirmalarni yoki ularning ko'chirma nusxalarini.

3.Chet el diplomatik vakolatxonalari hamda ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga rasmiy foydalanish uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizastiya qilayotgan yuridik shaxslar belgilangan shaklda rasmiylashtirilgan hisobvaraqlar fakturalarning nusxalarini.

4.«Bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha ishlar bajarayotgan, xizmatlar ko'rsatayotgan, shuningdek chet el yuklarini O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tashish (tranzit tashish) bo'yicha xizmatlar ko'rsatayotgan yuridik shaxslar:

- ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish uchun tuzilgan kontraktning nusxasini.
- bajarilgan ishlarga, ko'rsatilgan xizmatlarga chet elliq sotib oluvchi (to'lovchi) tomonidan haq to'langanligini tasdiqlovchi bank ko'chirmasi nusxasini.
- ishlarni (xizmatlarni) sotuvchi va sotib oluvchi tomonidan imzolangan ishlar bajarilganligini (xizmatlar ko'rsatilganligini) tasdiqlovchi hujjat nusxasini.

5.Aholiga suv ta'minoti, kanalizastiya, issiqlik ta'minoti bo'yicha xizmatlar ko'rsatayotgan yuridik shaxslar nol darajali stavka qo'llanganligini tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalarini.

Qo'shilgan qiymat solig'i summasini qaytarish to'g'risidagi yozma arizani ko'rib chiqish, qaytarilishi lozim bo'lgan ortiqcha summani aniqlash va mablag'larni soliq to'lovchining hisobvarag'iga soliq qonunchiligiga muvofiq o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Davlat byudjetini daromadlarini shakllantirishda qo'shilgan qiymat solig'i bilan to'ldirish g'oyasi qachon vujudga kelgan?
2. Qo'shilgan qiymat solig'i ilk bor qaerda va kim tomonidan qanday nom bilan joriy etilgan?
3. Bu soliq turi ilk bor qo'shilgan qiymat solig'i nomi bilan kim tomonidan qachon taklif qilingan?
4. Qo'shilgan qiymat solig'i ilk bor qachon va qaysi mamlakat soliq tizimiga soliq turi sifatida kiritilgan?
5. O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i qachon joriy etilgan?
6. Mustaqil Davlatlar Xamdo'stligi davlatlarida qachondan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i joriy etilgan?
7. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar bo'lib kimlar hisoblanadi?

8. Qo'shilgan qiymat solig'i nimani ifodalaydi?
9. Qo'shilgan qiymat solig'i solish obyektiga nimalar kiradi?
10. Soliq solinadigan aylanma qanday aniqlanadi?

**VII bob. YURIDIK SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN AKSIZ  
SOLIG'I**

**7.1. Aksiz solig'i va uning soliq tizimida tutgan o'rni**

Aksiz solig'ining asosiy vazifasi mablag' yig'ishdan iborat, ya'ni u fiskal funkstiyani to'liq bajaradi. Bozor iqtisodiyoti jarayonlari rivojlanib borgan sari aksiz solig'i fiskal funkstiya bilan bir qatorda boshqa vazifalarni ham bajara boshlaydi. Davlat iqtisodiyotni tartibga solish va ichki milliy bozorni rivojlantirishda hamda himoyalashda asosan aksiz solig'iga tayanadi. Davlat aksiz solig'i orqali mamlakat hududiga ayrim tovarlarni ko'proq olib kirish yoki olib chiqish va buning aksini ifodalovchi vazifalarni bajarishi mumkin.

Iqtisodiy mohiyatiga qarab soliqlar bevosita va bilvosita soliqlarga bo'linadi. Bilvosita soliqlarni huquqiy to'lovchilari mahsulot (ish, xizmat)ni yuklab yuboruvchilar hisoblanadi. Lekin soliq og'irligini haqiqatan ham byudjetga to'lovchilari tovar ish, xizmatni iste'mol qiluvchilardir, ya'ni egri soliqlarning barchasi bevosita iste'molchilar zimmasiga tushadi. Bu soliqlar tovar (ish, xizmat) qiymati ustiga qo'shimcha ravishda qo'yiladi

Bilvosita soliqlar, xususan aksizlar soliq tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Dastlab soliq tizimi vujudga kelishida to'g'ri, ya'ni bevosita soliqlar shakllanib, keyinchalik davlatning vazifalari kengayib borgandan so'ng bilvosita soliqlar, xususan aksiz solig'i paydo bo'ldi va amaliyotga kiritildi.

Aksizlar- tovarlar uchun qo'yiladigan bilvosita soliqlarning bir turi bo'lib, qo'shilgan qiymat solig'idan farqli ma'lum bir chegaralangan tur va guruhdagи mahsulotlarning narxiga qo'shiladi. «Aksiz» so'zi franstuz tilidan kelib chiqqan bo'lib, chopib tashlash ma'nosini bildiradi.<sup>6</sup>

Bu yerda ushbu to'lovning o'ziga xos xususiyatlari kelib chiqadi. Aksizlar tovar narxiga qo'shiladi va davlatga uning qiymatidan bir qismini olishga yoki kesib olishga imkon beradi. Ustiga qo'yilgan qo'shimcha narx mahsulot ishlab chiqarishning unumdorligini yoki biron bir alohida xususiyatlarini bildirmaydi, balki

---

<sup>6</sup> Завалишина И.А. Солиқлар: назария ва амалиёт.-Т.: «Иктиносидиёт ва хукук дунёси», 2005.-160-бет.

aksiz tvarlarini ishlab chiqarish va realizastiya qilishning alohida sharoitlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Bilvosita soliqlar xususan, aksiz solig'i davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy soliqlardan hisoblanadi. Davlat byudjeti daromadlari tarkibida eng yuqori soliq tushumlari ushbu soliqlardan tashkil topadi.

Bilvosita soliqlar tarkibida ikkinchi o'rinni aksiz solig'i egallaydi. Aksiz-bu ayrim tovarlarning narxiga yoki tarifiga kiritiladigan va xaridor tomonidan to'lanadigan, muayyan tovarlarni ishlab chiqarish yoki sotish uchun belgilangan bilvosita soliqdir.

Aksizni keng va tor ma'noda talqin qilish mumkin. Tor ma'noda bu tushuncha ostida, alohida tovarlarga aksizlar yoki individual aksizlar tushuniladi. Keng ma'noda esa aksiz tushunchasi individual aksizlarni ham, universal aksizlarni ham qamrab oladi. Ular o'rtasidagi farqi, uni undirish usuli hisoblanishi va amal qilish sohasiga bog'liq. Bizga ma'lumki, tarixda dastlab individual aksizlar paydo bo'lgan. Ular kiritish va undirish tartibi iqtisodiyotning rivojlanish darajasiga bog'liq bo'lib, soliqning bu turi alohida tovarlardan qat'iy belgilangan stavkalar asosida undirilgan. Universal aksizlar esa keng qamrovga ega bo'lib, barcha holatlarda tovarlar, xizmatlar, ishlar realizastiysi aylanmasi uni undirish obyekti bo'lib hisoblanadi. Universal aksizlarga oborotdan soliqlar, sotishdan olingan soliqlar, qo'shilgan qiymat soliqlari kiritilgan. Individual aksizlar chegaralangan ma'lum tovarlarga belgilangan va narxga kiritilib iste'molchi tomonidan to'langan.

Hozirgi vaqtida soliq tizimida aksizlar davlat moliyaviy resurslarining shakllanib borishi uchun muhim rol o'ynaydi. Alohida tovarlardan aksiz solig'ini undirish zarurligi ulardan byudjetni to'ldirishning qo'shimcha manbai sifatida foydalanishdan tashqari, alohida iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish zarurligi bilan ham bog'liqdir. Ular jumlasiga:

1.Atrof muhit holatiga va inson salomatligiga zarar keltiradigan tovarlar iste'molini cheklash ya'ni alkogol va tamaki mahsulotlari, avtomobil benzini.

2.Yuqori daromad olinadigan aholi iste'moli daromadlarini qayta taqsimlashga bo'lgan ehtiyoj.

3.Davlat monopoliyasida bo'lgan( neft, gaz) mahsulot ishlab chiqarish va realizastiyanan kelgan yuqori daromadni qayta taqsimlashga bo'lgan ehtiyoj kabilarni kiritish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga asosan, 1999- yildan boshlab, aksiz solig'iga tortiladigan tovarlar ro'yxati e'lon qilindi. Bu ro'yxat aksiz solig'iga tortish nazariyasiga ko'proq mos keladi. Aksizlar asosan atrof-muhitga va inson salomatligiga zarar keltiradigan hamda zebu-ziyat buyumlaridan undirila boshlandi. Ushbu yondashuvga asosan, gilamlar, billur buyumlar, markali vinolar, tabiiy teridan tikilgan kiyimlar aksiz solig'ini undiriladigan tovarlar ro'yxatidan chiqariladi. Shu bilan birgalikda ba'zi buyumlar, ichimlik va etil spirtining barcha turlari, aroq, vino mahsulotlari, konyak, shampans vinosi va boshqa alkogolli ichimliklar, zargarlik buyumlari, engil avtomashinalar, avtomobil benzini va moddiy xomashyoning ba'zi turlari aksiz solig'iga tortila boshlandi. Shu bilan bir qatorda eksportga chiqariladigan tovarlardan aksiz solig'ini undirilmaydigan bo'ldi, chunki ularidan ustama to'lov sifatida bojaxona to'lovlar undiriladi.

## **7.2. Yuridik shaxslardan undiriladigan aksiz solig'ini to'lovchilar va soliq solish obyekti**

Aksiz solig'ini to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar quyidagilardir:

- O'zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig'ini solinadigan tovarlarni (aksiz to'lanadigan tovarlarni) ishlab chiqaruvchilar.
- O'zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig'ini solinadigan (aksiz to'lanadigan xizmatlar) mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchilar.
- Benzin, dizel yoqilg'isini yakuniy iste'molchilarga realizastiya qilishni, shu jumladan avtomobilarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali realizastiya qilishni, shuningdek gazni avtomobilarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali realizastiya qilishni amalgga oshiruvchilar.

Yakuniy iste'molchilar deganda o'z ehtiyojlari uchun benzin, dizel yoqilg'isi hamda gaz oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasining bojaxona hududiga aksiz to'lanadigan tovarlarni import qiluvchilar.

Oddiy shirkat aksiz to‘lanadigan tovar ishlab chiqargan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasining oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan sherigi (ishtirokchisi).

Aksiz to‘lanadigan tovarlarning ayrim turlari bo‘yicha aksiz to‘lanadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi bo‘limgan shaxs O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan aksiz solig‘ini to‘lovchi etib belgilanishi mumkin.

Quyidagi operastiyalar aksiz solig‘i solinadigan obyektdir:

1.Aksiz to‘lanadigan tovarlarni realizastiya qilish, shu jumladan:

- tovari sotish (jo‘natish).
- garov bilan ta’milangan majburiyat bajarilmagan taqdirda, garovga qo‘ylgan aksiz to‘lanadigan tovarlarni garovga qo‘yuvchi tomonidan topshirish.
- aksiz to‘lanadigan tovarlarni bepul topshirish.
- aksiz to‘lanadigan tovarlarni ish beruvchi tomonidan ish haqi hisobiga yollangan xodimga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda topshirish yoki hisoblangan dividendlar hisobiga yuridik shaxsning muassisiga (ishtirokchisiga) topshirish.
- aksiz to‘lanadigan tovarlarni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) ayrboshlash uchun topshirish.

2.Aksiz to‘lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa yoki pay badali tariqasida yoxud oddiy shirkat shartnomasi bo‘yicha sherikning (ishtirokchining) hissasi sifatida topshirish.

3.Aksiz to‘lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ishtirokchisiga (muassisiga) u yuridik shaxs tarkibidan chiqqan (chiqib ketgan) taqdirda yoki yuridik shaxs qayta tashkil etilganligi, tugatilganligi (bankrotligi) munosabati bilan topshirish, shuningdek oddiy shirkat shartnomasi doirasida ishlab chiqarilgan aksiz to‘lanadigan tovarlarni mazkur shartnomaga sherigiga (ishtirokchisiga) uning shartnomasi ishtirokchilari umumiyligi mol-mulkdan ulushi ajratib berilgan yoki bunday mol-mulk taqsimlangan taqdirda topshirish.

4.Aksiz to‘lanadigan tovarlarni ulush qo‘sish asosida qayta ishlashga topshirish, shuningdek ulush qo‘sish asosida xomashyo va materiallarni, shu

jumladan aksiz to‘lanadigan xomashyo va materiallarni qayta ishlash mahsuli bo‘lgan aksiz to‘lanadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi tomonidan qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallarning mulkdoriga topshirish.

5.Ishlab chiqarilgan va qazib olingan aksiz to‘lanadigan tovarlarni o‘z ehtiyojlari uchun topshirish.

6.Aksiz to‘lanadigan tovarlarni O‘zbekiston Respublikasining bojaxona hududiga import qilish.

7.Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni yakuniy iste’molchilarga realizastiya qilish yoki ulardan o‘z ehtiyojlari uchun foydalanish, bundan ixtisoslashtirilgan gaz ta’minoti korxonalari orqali aholiga maishiy ehtiyojlar uchun realizastiya qilinadigan suyultirilgan gaz mustasno.

8.Aksiz to‘lanadigan xizmatlar ko‘rsatish.

Quyidagilarga aksiz solig‘i solinmaydi:

1.Aksiz to‘lanadigan tovarlarni ularning ishlab chiqaruvchilari tomonidan eksportga realizastiya qilishga.

2.Keyinchalik O‘zbekiston Respublikasining bojaxona hududidan olib chiqib ketilishi sharti bilan «bojaxona hududida qayta ishlash» bojaxona rejimiga joylashtirilgan tovarlardan ishlab chiqarilgan qayta ishlash mahsuli bo‘lgan aksiz to‘lanadigan tovarlarni topshirishga.

3.O‘zbekiston Respublikasining bojaxona hududiga:

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda insonparvarlik yordami sifatida.

- davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan xayriya yordami maqsadida, shu jumladan texnik ko‘mak ko‘rsatish maqsadida.

- O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo‘yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan zayomlar (kreditlar) mablag‘lari hisobiga, shuningdek grantlar hisobiga yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan, aksiz to‘lanadigan tovarlarni import qilishga.

4.Aksiz to‘lanadigan tovarlarni O‘zbekiston Respublikasining bojaxona hududiga aksiz solig‘i solinmaydigan tovarlarni olib kirish normalari doirasida

jismoniy shaxslar tomonidan import qilishga. O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz solig‘i solinmaydigan tovarlarni jismoniy shaxslar tomonidan olib kirish normalarining eng yuqori chegarasi qonun hujjatlarida belgilanadi.

5.Vakolatli davlat organining yozma tasdig‘i mavjud bo‘lgan taqdirda, telekommunikastiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo‘yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimi texnik vositalarini import qilishga.

Aksiz to‘lanadigan tovarlar (xizmatlar) oluvchiga jo‘natilgan (topshirilgan) kun, aksiz to‘lanadigan tovarlarga (xizmatlarga) doir soliq solinadigan operastiyalar amalga oshirilgan sanadir.

Garovga qo‘yilgan aksiz to‘lanadigan tovarlar garovga qo‘yuvchi tomonidan topshirilgan taqdirda, garov narsasiga bo‘lgan mulk huquqi o‘tgan sana garovga qo‘yuvchi uchun realizastiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanadir.

Import qilinayotgan aksiz to‘lanadigan tovarlar bojxona rasmiylashtiruvidan o‘tkazilgan sana ularga doir operastiya amalga oshirilgan sanadir.

Aksiz solig‘ining stavkalari mutlaq summada (qat‘iy) belgilangan aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha soliq solinadigan baza aksiz to‘lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmi asosida aniqlanadi.

Aksiz solig‘ining stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan ishlab chiqarilayotgan aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha realizastiya qilingan aksiz to‘lanadigan tovarlarning aksiz solig‘i hamda qo‘shilgan qiymat solig‘i kiritilmagan qiymati soliq solinadigan bazadir.

Ish haqi hisobiga, hisoblab chiqarilgan dividendlar hisobiga, bepul yoki boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) ayrboshlash uchun beriladigan aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha, shuningdek tovarlar tannarxidan past narxlarda realizastiya qilingan taqdirda soliq to‘lovchi tovarlarni topshirish paytida uning haqiqiy tannarxidan kam bo‘lmagan darajada belgilaydigan narx asosida hisoblangan qiymat soliq solinadigan bazadir.

Qayta ishslashga berilgan xomashyo va materiallardan ishlab chiqarilgan aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha soliq solinadigan baza aksiz to‘lanadigan tovarlarni

ishlab chiqarishga doir ishlar qiymatini hamda qayta ishslashga berilgan xomashyo va materiallar qiymatini o‘z ichiga oladi.

Qat‘iy va advalor stavkalardan tashkil topgan aralash stavkalar belgilangan, aksiz solig‘i to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha soliq solinadigan baza aksiz to‘lanadigan tovarlarning natura holidagi hajmidan hamda realizastiya qilingan, aksiz to‘lanadigan tovarlarning aksiz solig‘i va qo‘shilgan qiymat solig‘i kiritilmagan qiymatidan kelib chiqib aniqlanadi.

Aksiz solig‘ining stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan import qilinayotgan aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha soliq solinadigan baza bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan bojxona qiymati asosida belgilanadi.

Aksiz solig‘ini, qo‘shilgan qiymat solig‘ini va mobil aloqa xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar (aloqa kompaniyalari) tomonidan to‘lanadigan abonent raqamidan foydalanganlik uchun to‘lovni o‘z ichiga olmaydigan, aksiz to‘langan holda ko‘rsatilgan xizmatlarning qiymati aksiz to‘lanadigan xizmatlar bo‘yicha soliq solish bazasi hisoblanadi.

Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste‘molchilarga realizastiya qilish chog‘ida realizastiya qilingan hamda shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalilanigan benzin, dizel yoqilg‘isi va gazning natural holida ifodalangan hajmi soliq solinadigan baza hisoblanadi.

Soliq solinadigan bazaga quyidagi hollarda soliq to‘lovchida tuzatish kiritiladi:

- tovarlar to‘liq yoki qisman qaytarilganda.
- bitim shartlari o‘zgartirilganda.
- baholar o‘zgarganda, sotib oluvchi siylovdan (skidkadan) foydalanganda.

Soliq solinadigan bazaga soliq qonunchiligidagi nazarda utilgan tuzatishni kiritish bir yillik muddat doirasida, kafolat muddati belgilangan tovarlar bo‘yicha esa kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

Soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish soliq qonunchiligiga muvofiq yangi hisobvaraqt-faktura yoki tovarlar to‘liq yoki qisman qaytarilganda, bitim shartlari o‘zgartirilganda, baholar o‘zgarganda, sotib oluvchi siylovdan (skidkadan)

foydalangan hol yuz bergenligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizastiya qilishdan olinadigan daromadga tovarlar to‘liq yoki qisman qaytarilganda, bitim shartlari o‘zgartirilganda, baholar o‘zgarganda, sotib oluvchi siylovdan (skidkadan) foydalangan hollarda tuzatish kiritish ko‘rsatilgan hollar yuz bergen soliq davrida amalga oshiriladi.

Aksiz to‘lanadigan tovarlar eksportini tasdiqlovchi hujjatlar quyidagilardir:

- eksport qilinadigan aksiz to‘lanadigan tovarlarni etkazib berish uchun tuzilgan kontrakt.

- tovarlarni eksport rejimida chiqarishni amalga oshiruvchi bojxona organining belgisi qo‘yilgan bojxona yuk deklarasiyasi.

- O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidagi o‘tkazish punktida joyleshgan bojxona organining tovarlar tayinlangan mamlakatga jo‘natilganligini tasdiqlovchi belgisi qo‘yilgan tovarga ilova qilinadigan hujjatlar.

### **7.3. Aksiz solig‘i stavkalari va hisoblash tartibi**

Aksiz to‘lanadigan tovarlar va xizmatlar ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi.

Aksiz solig‘i stavkalari tovarning yoki xizmatning qiymatiga nisbatan foizlarda (advalor), naturada ifodalangan o‘lchov birligiga nisbatan mutlaq summada (qat’iy), shuningdek advalor va qat’iy stavkalardan tashkil topgan aralash stavkada belgilanadi.

Aksiz solig‘ini hisoblab chiqarish aniqlanadigan soliq solinadigan bazadan va aksiz solig‘ining belgilangan stavkalaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni yakuniy iste‘molchilarga realizastiya qilishda aksiz solig‘i summasi realizastiya qilinadigan benzinning, dizel yoqilg‘isining va gazning narxida hisobga olinadi. Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazdan shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalilanilda aksiz solig‘ining hisoblangan summasi soliq to‘lovchining xarajatlari jumlasiga kiritiladi.

Yil oyi soliq davridir. Aksiz solig‘ining hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga har oyda soliq davridan keyingi oyning

10-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi, bundan avtomobilarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari orqali benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni realizastiya qilish hollari mustasno. Avtomobilarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari orqali benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizastiya qilinganda hisob-kitob avtomobilarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari joylashgan erdag‘i davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi.

Aksiz solig‘ini to‘lash hisob-kitoblarni topshirish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Import qilinadigan tovarlar bo‘yicha aksiz solig‘ini to‘lash bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Aksiz markalari bilan tamg‘alanishi lozim bo‘lgan import qilinadigan aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha aksiz solig‘i aksiz markalari olinguniga qadar to‘lanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqariladigan, shuningdek uning bojxona hududiga import qilinadigan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda aksiz markalari bilan tamg‘alanishi shart.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Aksiz tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?
- 2.O‘zbekiston Respublikasida aksiz solig‘i qachon joriy etilgan?
- 3.Aksiz solig‘ini to‘lovchilar bo‘lib kimlar hisoblanadi?
- 4.Aksiz solig‘i solish obyektiga nimalar kiradi?
- 5.Aksiz solig‘i bo‘yicha qanday soliq imtiyozlari mavjud?
- 6.Aksiz solig‘i stavkalari va hisoblash tartibi qanday?
- 7.Aksiz solig‘i summasi byudjetga qanday muddatlarda to‘lanadi?
- 8.Aksiz solig‘ini respublika byudjetiga o‘tkazish tartibi qanday?

## VIII bob. YURIDIK SHAXSLARNING MOL-MULKIGA

### SOLINADIGAN SOLIQ

#### 8.1.Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni

##### to'lovchilar va soliq solish obyekti

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilar quyidagilardir:

O'zbekiston Respublikasi hududida soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar O'zbekiston Respublikasining rezidentlari.

O'zbekiston Respublikasi hududida o'z mulkida ko'chmas mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar O'zbekiston Respublikasining norezidentlari. Agar ko'chmas mulk mulkdorining joylashgan erini aniqlash imkonи bo'lmasa, bu mol-mulk qaysi shaxsning egaligida va foydalanishida bo'lsa, shu shaxs soliq to'lovchidir.

Quyidagilar yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilar bo'lmaydi:

- notijorat tashkilotlar. Notijorat tashkilotlar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirgan taqdirda tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan mol-mulk bo'yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilar bo'ladi.

- yagona yer solig'ini to'lovchilar

Quyidagi mol-mulk soliq solish obyekti:

1.Ko'chmas mulk, shu jumladan moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo'yicha olingan ko'chmas mulk.

2.Tugallanmagan qurilish obyektlari. Tugallanmagan qurilish obyektlari jumlasiga ushbu qurilish obyektiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda qurilishi tugallanmagan obyektlar, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo'lsa, ushbu obyektlarning qurilishiga vakolatlil organning ruxsati olingan oydan e'tiboran yigirma to'rt oy ichida qurilishi tugallanmagan obyektlar kiradi.

3.Belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar. Belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar jumlasiga montaj qilinishi talab

etiladigan hamda rekonstrukstiya va modernizastiya qilinayotgan obyektlarda loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan muddatlarga muvofiq kapital qo'yilmalar hisobiga ishga tushiriladigan asbob-uskunalar kiradi. Loyiha-smeta hujjatlarida asbob-uskunalarini ishga tushirish muddatlari bo'lmanaq taqdirda, buyurtmachi sifatida ish ko'rayotgan yuridik shaxsning rahbari tomonidan tasdiqlangan muddatlar soliq solish obyektni belgilash uchun qabul qilinadi, lekin bu muddatlar asbob-uskunalar montaj qilishga topshirilgan paytdan e'tiboran bir yildan ko'p bo'lmasligi kerak.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ O'zbekiston Respublikasining norezidenti tomonidan mulk qilib olingan (realizastiya qilingan) ko'chmas mulk obyekti to'g'risidagi ma'lumotlarni ushbu obyektlar joylashgan erdag'i davlat soliq xizmati organiga ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin o'n kun ichida ma'lum qilishi shart.

Qonun hujjatlariga muvofiq mulk qilib olingan er uchastkalari soliq solish obyekti sifatida qaralmaydi.

Soliq solinadigan baza quyidagilardir:

- ko'chmas mulk bo'yicha o'rtacha yillik qoldiq qiymati. Ko'chmas mulkning qoldiq qiymati ushbu mol-mulkning boshlang'ich (tiklanish) qiymati bilan soliq to'lovchining hisob siyosatida belgilangan usullardan foydalanilgan holda hisoblab chiqilgan amortizastiya hajmi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

- normativ (belgilangan) muddatda tugallanmagan qurilish obyektlari va ishga tushirilmagan asbob-uskunalar bo'yicha tugallanmagan qurilishning va o'rnatilmagan asbob-uskunalarining o'rtacha yillik qiymati.

O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining ko'chmas mulk obyektlariga nisbatan ushbu mol-mulkning o'rtacha yillik qiymati soliq solinadigan bazadir.

### 8.1.1-jadval

#### O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti tizimida resurs soliqlarini tutgan o‘rnini. (mlrd. so‘m)<sup>7</sup>

Ko‘rsatkichlar	2014-y.	2015-y.	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y. (prognoz)
Daromadlar	30160,8	36184,9	40505,8	44469,6	62229,5	102627,6
Resurs to‘lovlar va mulk solig‘i	4521,4	5741,8	5806,5	6 049,5	9 714,5	16906,0
1. Mol-mulk solig‘i	1135,0	1716,7	1874,0	1 988,8	2 158,9	1851,1
2. Yer solig‘i	665,2	929,6	873,5	1 102,5	1 266,6	1834,3
3. Yer osti boyliklaridan foydalanganlik soliq	2595,8	2931,8	2874,6	2 746,3	6 203,1	12952,1
4. Suv resurslaridan foydalanganlik soliq	125,4	163,7	184,4	211,9	85,9	268,5

8.1.1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2018- yil 26- dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2019- yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo‘ljallari to‘g‘risida”gi PQ-4086-sonli qaroriga muvofiq 2019- yilda davlat byudjetining daromadlar qismida resurs soliqlari 16906,0 mlrd.so‘m rejalashtirilgan bo‘lib, shundan mol-mulk solig‘i 1851,1 mlrd.so‘m, yer solig‘i 1834,3 mlrd.so‘m, yer osti boyliklaridan foydalanganlik soliq 12952,1 mlrd.so‘m va suv resurslaridan foydalanganlik soliq 268,5 mlrd.so‘mdan iborat.

Soliq solish obyektlarining o‘rtacha yillik qoldiq qiymati (o‘rtacha yillik qiymat) soliq davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko‘ra soliq solish

obyektlarining qoldiq qiymatlarini (o‘rtacha yillik qiymatlarini) qo‘sishdan olingan summaning o‘n ikkidan bir qismi sifatida ortib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining ko‘chmas mulk obyektlari bo‘yicha soliq solinadigan baza mazkur obyektlarga bo‘lgan mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlarda ko‘rsatilgan qiymat asosida aniqlanadi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lovchi tomonidan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lash nazarda tutilmagan faoliyat turlari amalga oshirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza soliq solinadigan va soliq solinmaydigan mol-mulk hisobini alohida-alohida yuritish asosida aniqlanadi. Alohida-alohida hisob yuritish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, soliq solinadigan baza faoliyatdan olinadigan sof tushumning umumiy hajmida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lash nazarda tutilgan sof tushumning solishtirma salmog‘idan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

### 8.2. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalari va soliq imtiyozlari

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisoblab chiqarilayotganda soliq solinadigan baza quyidagilarning o‘rtacha yillik qoldiq qiymatiga (o‘rtacha yillik qiymatiga) kamaytiriladi:

1.Kommunal xo‘jaligi obyektlarining. Kommunal xo‘jaligi obyektlariga quyidagilar kiradi: vodoprovod tarmoqlari (suv chiqarish inshootlari bilan), kanalizastiya tarmoqlari (tozalash inshootlari bilan), gaz va issiqlikni taqsimlash tarmoqlari (ulardagi inshootlar bilan), kommunal-maishiy ehtiyojlar uchun qozonxonalar (shu jumladan asbob-uskunalar).

2.Madaniyat va san’at, ta’lim, sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta’minot sohasiga kiradigan ijtimoiy-madaniy soha obyektlarining.

3.Sug‘orish va kollektor-drenaj tarmoqlari obyektlarining.

4.Tabiatni muhofaza qilish va sanitariya-tozalash maqsadlari, yong‘in xavfsizligi uchun foydalilaniladigan obyektlarning. Obyektlarni tabiatni muhofaza qilish, sanitariya-tozalash maqsadlari va yong‘in xavfsizligi uchun foydalilaniladigan

<sup>7</sup> <http://www.mf.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ma’lumotlari

obyektlarga kiritish tegishli ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish yoki davlat yong'in nazorati organining ma'lumotnomasi asosida amalga oshiriladi.

5.Umumiyl foydalanishdagi temir yo'llar va avtomobil yo'llari, magistral truboprovodlar, aloqa va elektr uzatish liniyalarining, shuningdek ushbu obyektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlarning.

6.Konservastiya qilinishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan ko'chmas mulk va tugallanmagan qurilish obyektlarning.

7.Soliq to'lovchining balansida bo'lgan hamda tadbirkorlik faoliyatida foydalanilmayotgan, fuqaro muhofazasi va safarbarlik ahamiyatiga molik obyektlarning.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqdan quyidagilar ozod qilinadi:

1.Sog'lijni saqlash, jismoniy tarbiya hamda ijtimoiy ta'minot, ta'lim, madaniyat va san'at tashkilotlari.

2.Uy-joy-kommunal xo'jaligi va boshqa umumfuqarovi ahamiyatga molik shahar xo'jaligi korxonalari. Uy-joy-kommunal va boshqa umumfuqarovi ahamiyatga molik shahar xo'jaliklari jumlasiga uy-joy fondini bevosita boshqarish, saqlash hamda undan foydalanishni amalga oshiruvchi tashkilotlar, sanitariya tozalash va yig'ishtirish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, shaharlar hamda shaharchalarni tashqi yoritish, vodoprovod suv olish inshootlaridan, taqsimlanadigan tarmoqlardan (tozalovchi inshootlari bilan) foydalanish va suvni taqsimlash, kanalizastiya tarmoqlaridan foydalanish (tozalash inshootlari bilan), gaz taqsimlanadigan tarmoqlardan foydalanish hamda gazni taqsimlash, qozonxona, issiqlik taqsimlanadigan tarmoqlardan foydalanish va kommunal-maishiy ehtiyojlarga hamda aholiga issiqlikni taqsimlashni bevosita amalga oshiruvchi tashkilotlar, xizmat binolarining xo'jalik boshqarmalari, o't o'chirish komandalari, uy-joy-kommunal xo'jaligining xo'jalik boshqarmalari, uy-joy-kommunal xo'jaligi va shahar xo'jaligining umumfuqarovi ahamiyatga molik boshqa korxonalari kiradi.

3.Yangi tashkil etilgan korxonalar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran ikki yil mobaynida. Mazkur imtiyoz qayta tashkil etilgan yuridik shaxslar negizida tashkil etilgan korxonalarga, shuningdek boshqa korxonalar hududida shu korxonalardan ijaraga olingen asbob-uskunalaridan foydalangan holda o'z faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi.

4.Ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektlarini yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

Yuridik shaxslar davlat mulki obyektlarini sotib oluvchilar uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi davlat mulki obyektlariga to'g'ri keladigan soliq summasiga kamaytirilib, bo'shagan mablag'lar xususiyashtirilgan obyektlarni modernizastiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, ularni rivojlantirishga maqsadli tarzda yo'naltiriladi. Ushbu imtiyoz oldi-sotdi shartnomasi imzolangan paytdan e'tiboran 12 oy mobaynida qo'llaniladi.

Soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan imtiyozlar normativ muddatda tugallanmagan qurilish obyektlariga, bo'sh turgan binolarga, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlarga, shuningdek qaysi foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari bo'yicha ulardan samarasiz foydalilanayotganligi yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xulosa chiqarilgan bo'lsa, o'sha obyektlarga nisbatan qo'llanilmaydi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi soliq solinadigan bazaning 2 foizi miqdorida belgilanadi.

Normativ muddatlarda belgilanmagan jihozlar va normativ muddatda tugallanmagan qurilish obyektlariga mol-mulk solig'i ikki karra oshirilgan stavkada to'lanadi.

Normativ muddatda tugallanmagan qurilish obyektlari, bo'sh turgan binolar, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar bo'yicha, shuningdek foydalanilmayotgan

ishlab chiqarish maydonlari bo'yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq ushbu maydonlardan samarasiz foydalaniyatganligi yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda chiqarilgan xulosa asosida, oshirilgan stavkalar bo'yicha to'lanadi.

### **8.3. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblash va to'lash tartibi**

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblash hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda soliq to'lovchi O'zbekiston Respublikasining rezidenti tomonidan amalga oshiriladi. Kalendar yil soliq davridir.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga yilda bir marta, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi. Agar ko'chmas mulk soliq to'lovchining soliq bo'yicha hisobga olish joyida joylashmagan bo'lsa, hisob-kitob ko'chmas mulk joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi.

Soliq davri mobaynida soliq to'lovchilar yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha joriy to'lovlar to'laydilar.

$$O'yQQ = (n_1 + n_2 + \dots + n_{12}) / 12$$

Bu erda:

O'yQQ - o'rtacha yillik qoldiq qiymat.

n - oyning oxirgi kuniga soliq solish obyektlari qoldiq qiymati.

Misol: "Sharq" AJ asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatini aniqlash uchun har oylik qoldiq qiymatlarini qo'shish va 12 ga bo'lish bilan hisoblab chiqariladi.

$$O'yQQ = (4\ 996\ 775,3 + 4\ 829\ 465,1 + 4\ 685\ 754,3 + 5\ 986\ 897,9 + 5\ 830\ 108,4 + 5\ 986\ 897,9 + 5\ 830\ 108,4 + 5\ 679\ 532,0 + 5\ 543\ 424,8 + 5\ 374\ 546,7 + 5\ 208\ 344,8 + 4\ 714\ 466,3) / 12 = 5\ 229\ 183,6 \text{ ming so'm}$$

Mol-mulk solig'i quyidagi formula asosida hisoblab chiqariladi:

MmS= SSBx SS

Bu yerda:

MmS – mol-mulk solig'i;

SSB – soliq solinadigan baza;

SS – soliq stavkasi.

Misol: "Sharq" AJ mol-mulk solig'ini asosiy vositalarining o'rtacha yillik qiymatini soliq stavkasiga ko'paytirish yo'li bilan hisoblab chiqaradi.

$$MmS = 5\ 229\ 183,6 \text{ ming so'm} \times 2\% = 104\ 583,672 \text{ ming so'm}$$

Joriy to'lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to'lovchilar joriy soliq davringin 10 yanvarigacha, yangi tashkil qilinganlari esa davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay, davlat soliq xizmati organlariga mo'ljallanayotgan soliq solinadigan bazadan (tegishli yil uchun mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatidan (o'rtacha yillik qiymatidan) va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davri uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etadilar. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha majburiyatlarini soliq davrida yuzaga kelgan soliq to'lovchilar yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani soliq majburiyati yuzaga kelgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay taqdim etadilar.

Joriy to'lovlar quyidagicha to'lanadi:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq yillik summasining o'rtidan bir qismi miqdorida yilning har choragi uchinchi oyining 25-kunidan kechiktirmay.

- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq yillik summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida har oyning 10-kunidan kechiktirmay.

Soliq davri mobaynida mo'ljallanayotgan soliq solinadigan baza o'zgargan taqdirda soliq to'lovchi yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi to'g'risida aniqlashtirilgan ma'lumotnomasi taqdim etishga haqli. Bunda soliq

davrining qolgan qismi uchun joriy to‘lovlarga yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning o‘zgarish summasiga teng ulushlarda tuzatish kiritiladi.

Soliq davrida to‘lanishi lozim bo‘lgan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi joriy to‘lovlar hisobga olingan holda, hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay byudjetga o‘tkaziladi.

Soliq davrida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha joriy to‘lovlar summasi hisob-kitobga ko‘ra byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasiga nisbatan 10 foizdan ortiq kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to‘lovlarni yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya hisoblagan holda qaytadan hisoblab chiqadi.

O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organning ma’lumotlari asosida davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan yilda bir marta, soliq hisoboti davridan keyingi yilning 15 fevralidan kechiktirmay to‘lanishi kerak.

### Takrorlash uchun savollar

1. O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimida mol-mulk solig‘ini tutgan o‘rnini va o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

2. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni undirishni qanday usullari mavjud?

3. Soliqqa tortish maqsadida mol-mulk tushunchasi va mol-mulk solig‘ini to‘lovchilari tarkibi tushuntirib bering?

4. Mol-mulk bo‘yicha soliqqa tortiladigan obyekt va soliq solinadigan bazaga nimalar kiradi?

5. Yuridik shaxslarning mol- mulkiga solinadigan soliq stavkalarini belgilash tartibi qanday amalga oshiriladi?

6. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha qanday soliq imtiyozlari mavjud?

7. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblash va byudjetga o‘tkazish tartibi qanday?

## IX bob. YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG‘I

### 9.1. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini soliq to‘lovchilar va soliq solish obyekti

Yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun byudjetga to‘lovlar yer solig‘i yoki yer uchun ijara haqi tariqasida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyyati organlari tomonidan ijara byerilgan yer uchastkalari uchun to‘lanadigan ijara haqi yer solig‘iga tenglashtiriladi. Yer uchastkalarini ijara olgan yuridik shaxslarga yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i stavkalari, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar, soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi tatbiq etiladi.

Yuridik shaxslar mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida foydalaniladigan yer uchastkalari uchun yer solig‘i to‘laydilar.

Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari yer solig‘ini to‘lovchilaridir.

Ko‘chmas mulk ijara byerilgan taqdirda, ijara byeruvchi yer solig‘ini to‘lovchi bo‘ladi.

Yer uchastkasidan bir nechta yuridik shaxs birgalikda foydalangan taqdirda, har bir yuridik shaxs yer uchastkasining foydalanilayotgan maydonidagi o‘z ulushi uchun yer solig‘ini to‘lovchidir.

Quyidagilar yer solig‘ini to‘lovchilar bo‘lmaydi:

- notijorat tashkilotlar. Notijorat tashkilotlar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirgan taqdirda tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan yer uchastkalari bo‘yicha yer solig‘i to‘lovchilar bo‘ladi.
- yagona yer solig‘ini to‘lovchilar

Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo‘lgan yer uchastkalari soliq solish obyektiidir.

Quyidagilarga soliq solish obyekti sifatida qaralmaydi:

о аholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari. Aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

о maydonlar, ko‘chalar, tor ko‘chalar, yo‘llar, sug‘orish tarmog‘i, sohil bo‘yi yerlari va boshqa shu kabi yerlar.

о aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalilaniladigan yerlar (daraxtzorlar, bog‘lar, sayilgohlar, xiyobonlar, shuningdek ariq tarmoqlari egallagan yerlar).

о kommunal-maishiy ahamiyatga molik yerlar (dafn etish joylari, maishiy chiqindilarni yig‘ish, qaytadan ortish va saralash joylari, shuningdek chiqindilarni zararsizlantirish hamda utilizastiya qilish joylari va boshqa shu kabi joylar).

о zaxira yerlar.

Yer uchastkasining soliq qonunchiligiga muvofiq soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holdagi umumiy maydoni soliq solinadigan bazadir.

Qaysi yer uchastkalariga bo‘lgan mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi yil mobaynida soliq to‘lovchiga o‘tgan bo‘lsa, o‘sha yer uchastkalari uchun soliq solinadigan baza yer uchastkalariga tegishli huquq vujudga kelganidan keyingi oydan e’tiboran hisoblab chiqariladi. Yer uchastkasining maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan e’tiboran kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarda yer solig‘i bo‘yicha imtiyoz huquqlari vujudga kelgan taqdirda, soliq solinadigan baza ushbu huquq vujudga kelgan oydan e’tiboran kamaytiriladi. Yer solig‘i bo‘yicha imtiyoz huquqi bekor qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza ushbu huquq bekor qilinganidan keyingi oydan e’tiboran hisoblab chiqariladi (ko‘paytiriladi).

### 9.1.1-jadval

#### O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining 2018- yilda resurs to‘lovlarini va mulk solig‘i bo‘yicha ijrosi.(mlrd.so‘m)<sup>8</sup>

Ko‘rsatkichlar		2018 yil
Daromadlar (maqsadli jamg‘armalarsiz) - jami		79 099,1
Resurs to‘lovlarini va mulk solig‘i		12 663,4
1	Mol-mulk solig‘i	2 606,1
2	Yer solig‘i	1 504,2
3	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq	8 424,7
4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	128,4

9.1.1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining 2018- yilda ijrosi bo‘yicha daromadlar 79099,1 mlrd.so‘m bo‘lib, resurs to‘lovlarini va mulk solig‘i 12663,4 mlrd.so‘m, shundan mol-mulk solig‘i 2606,1 mlrd.so‘m, yer solig‘i 1504,2 mlrd.so‘m, yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq 8424,7 mlrd.so‘m, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq 128,4 mlrd.so‘mni tashkil etgan.

Yer solig‘ini to‘lovchi yer solig‘ini to‘lash nazarda tutilmagan faoliyat turlarini amalga oshirganda, soliq solinadigan baza soliq solinadigan va soliq solinmaydigan yer uchastkalari bo‘yicha alohida-alohida hisob yuritish asosida aniqlanadi. Alohida-alohida hisob yuritish imkoniyati bo‘limganda, soliq solinadigan baza olinadigan sof tushumning umumiy hajmida yer solig‘ini to‘lash nazarda utilgan faoliyatdan olinadigan sof tushumning solishtirma salmog‘idan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

#### 9.2. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i stavkalari va soliq imtiyozlari

Yer solig‘i to‘lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

1.Madaniyat, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish tashkilotlari o‘z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda foydalananidan yer uchastkalari uchun.

<sup>8</sup> <http://www.mf.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ma’lumotlari

2.Nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg‘armasi va «O‘zbekiston chyernobilchilar» assostiastiyasi mulkida bo‘lgan, ishlovchilar umumiylar sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil qilgan yuridik shaxslar.

Soliq imtiyozlari savdo, vositachilik, ta’minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslarga tatbiq etilmaydi.

Mazkur imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiylar soniga shtatda bo‘lgan xodimlar kiritiladi.

3.Ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektlari yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to‘g‘risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e’tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to‘xtatilgan va faoliyat qaytadan boshlangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo‘llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo‘llanilgan butun davr uchun to‘liq miqdorda undiriladi.

Soliq solinmaydigan yer uchastkalari jumlasiga quyidagi yerlar kiradi:

1.Bog‘dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining umumiylar foydalanishdagi (kirish yo‘llari, sug‘orish ariqlari, kollektorlar va umumiylar foydalanishdagi boshqa yerlar), jamoa garajlarining yerlari.

2.Davlat qo‘riqxonalarining, kompleks (landshaft) buyurtma qo‘riqxonalarining, tabiat bog‘larining, davlat tabiat yodgorliklarining, buyurtma qo‘riqxonalarning, tabiiy pitomniklarning, davlat biosfyera rezyervatlarining, milliy bog‘larning yerlari, yuqorida ko‘rsatilgan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning xo‘jalik faoliyatini yuritilayotgan yerlari bundan mustasno.

3.Sog‘lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar tegishli muassasalar va tashkilotlarga belgilangan tartibda doimiy foydalanishga byerilgan, profilaktika va davalash ishlarini tashkil etish uchun qulay tabiiy shifobaxsh omillarga ega bo‘lgan yer uchastkalari.

4.Rekreastiya ahamiyatiga molik yerlar aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun tegishli muassasalar hamda tashkilotlarga byerilgan yerlar.

5.Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga byerilgan moddiy madaniy myeros obyektlari, xotira bog‘lari egallagan yerlar.

6.Suv fondi yerlari. Suv fondi yerlari jumlasiga suv havzalari (daryolar, ko‘llar, suv omborlari va boshqa shu kabilar), gidrotexnika va boshqa suv xo‘jaligi inshootlari egallagan yerlar, shuningdek suv xo‘jaligi ehtiyojlari uchun yuridik shaxslarga belgilangan tartibda byerilgan suv havzalari hamda boshqa suv obyektlari sohillari bo‘ylab ajratilgan mintaqasi yerlari kiradi.

7.Elektr uzatish liniyalari, ularning podstanstiyalari va inshootlari egallagan yerlar.

8.Umum davlat aloqa liniyalari (havo va kabelli aloqa liniyalari, tirkakli liniyalari va radiofikastiyalar, yer osti kabelli liniyalari, ularni bildiruvchi signallari va harakatsiz belgililar, radiorele aloqa liniyalari, kabelli telefon kanalizastiyalari, yer ustidagi va yer ostidagi xizmat ko‘rsatilmaydigan kuchaytirgich punktlari, taqsimlagich shkaflar, yerga ulash konturi qutilari hamda boshqa aloqa inshootlari) egallagan yerlar.

9.Madaniyat, ta’lim va sog‘liqni saqlash obyektlari egallagan yerlar.

10.Umumiylar foydalanishdagi avtomobil yo‘llari egallagan yerlar.

11.Umumiylar foydalanishdagi temir yo‘llar, shu jumladan tuproq ko‘tarmasi, sun‘iy inshootlar, liniya-yo‘l binolari, temir yo‘l aloqasi hamda elektr ta’minoti qurilmalari, inshootlar va yo‘l qurilmalaridan iborat temir yo‘llar stanstiyalari hamda saralash joylari, shuningdek belgilangan tartibda temir yo‘l transporti korxonalarini, muassasalarini va tashkilotlariga doimiy yoki vaqtinchalik foydalanishga byerilgan ihota daraxtzorlari egallagan yerlar.

12.Shahar elektr transporti yo‘llari va metropoliten liniyalari, shu jumladan jamoat transporti bekatlari va metropoliten stanstiyalari hamda ularning inshootlari egallagan yerlar.

13.Sport va jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish majmualari, onalar va bolalarning dam olishi hamda sog‘lomlashtirish joylari, dam olish uylari hamda o‘quv-mashq bazalari egallagan yerlar.

14.Aholi punktlarining suv ta'minoti va kanalizastiya inshootlari: magistral suv quvurlari, vodoprovod tarmoqlari, kanalizastiya kollektorlari va ularning inshootlari, nasos stanstiylari, suv olish va tozalash inshootlari, vodoprovod va kanalizastiya tarmoqlaridagi kuzatish quduqlari va dyukyerlari, suv bosimi hosil qiladigan minoralar hamda shunga o'xshash inshootlar egallagan yerlar.

15.Magistral neft va gaz quvurlari, shu jumladan kompressor, nasos stanstiylari, yong'inga qarshi va avariyyaga qarshi stanstiylar, truboprovodlarni katodli himoyalash stanstiylari ularni tarmoqqa ulash uzellari bilan, truboprovodlarni tozalash qurilmalari hamda shunga o'xshash inshootlar egallagan yerlar.

16.Magistral issiqlik trassalari, shu jumladan nasos (ko'paytiruvchi, kamaytiruvchi, aralashtiruvchi, drenaj) stanstiylari, issiq suv ta'minotining issiqlikni hisobga olish va nazorat qilish asboblari, isitkichlari, stirkulyastiya nasoslari hamda shunga o'xshash inshootlar egallagan yerlar.

17.Samolyotlarning uchish-qo'nish maydonlari, yerda boshqarish yo'lkalari va to'xtash joylari, fuqaro aviastiyasi ayeroportlarining radionavigastiya va elektr-yoritish uskunlari egallagan yerlar.

18.O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlariga kiritilgan obyektlar qurilishi uchun ajratilgan yerlar, normativ qurilish muddati davrida.

19.Konsyervastiyaga qo'yilishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilingan obyektlar egallagan yerlar, ularning konsyervastiyasi davrida.

20.Gidrometeorologiya va gidrogeologiya stanstiylari hamda postlari egallagan yerlar.

21.Yuridik shaxs balansida bo'lgan va xo'jalik faoliyatida foydalanimaydigan fuqaro muhofazasi hamda safarbarlik ahamiyatiga molik alohida joylashgan obyektlar egallagan yerlar.

22.Ihota o'rmon daraxtzorlari egallagan yerlar. Ihota o'rmon daraxtzorlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- o'rmonlarning daryolar, ko'llar, suv omborlari va boshqa suv obyektlari sohillari bo'ylab o'tgan taqiqlangan mintaqalari.
- o'rmonlarning ovlanadigan qimmatli baliqlar uvildiriq sochadigan joylarni muhofaza qiluvchi taqiqlangan mintaqalari.
- yeroziyadan saqlaydigan o'rmonlar.
- o'rmonlarning temir yo'llari va avtomobil yo'llari yoqalab o'tgan ihota mintaqalari.
- cho'l va chala cho'l zonalaridagi o'rmonlar.
- shahar o'rmonlari va o'rmon-bog'lari. shaharlar, boshqa aholi punktlari va sanoat markazlarining ko'kalamzorlashtirilgan zonalari atrofidagi o'rmonlar.
- suv ta'minoti manbalarini sanitariya jihatidan muhofaza qilish zonalaridagi o'rmonlar.
- kurort tabiiy hududlarni sanitariya jihatidan muhofaza qilish tegrasidagi o'rmonlar.
- alohida qimmatga ega bo'lgan o'rmonlar. ilmiy yoki tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan o'rmonlar.

23.Qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun yangi o'zlashtirilayotgan yerlar, ularni o'zlashtirish ishlari bajariladigan davrda va ular o'zlashtirilgan vaqtidan e'tiboran besh yil mobaynida.

24.Meliorastiya ishlari amalga oshirilayotgan mavjud sug'oriladigan yerlar, ishlar boshlanganidan e'tiboran besh yil muddatga.

25.Yangi barpo etilayotgan bog'lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yerlar, daraxtlarning qator oralaridan qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanimishidan qat'i nazar, uch yil muddatga. Kuzda o'tkazilgan yangi ko'chatlar uchun byeriladigan imtiyoz muddatini hisoblab chiqarish keyingi yilning 1 yanvaridan e'tiboran boshlanadi, bahorda o'tkazilgan ko'chatlar uchun esa joriy soliq davrining 1 yanvaridan e'tiboran boshlanadi.

26.Ilmiy tashkilotlarning qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik va o'rmon fondidagi yerlari, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda o'quv yurtlariga qarashli tajriba, eksperimental va o'quv-tajriba

## 9.2.1-jadval

xo‘jaliklarining bevosita ilmiy hamda o‘quv maqsadlari uchun foydalaniladigan yerlari. Soliq qonunchiliga muvofiq ilmiy tajribalar, eksperimental ishlar, yangi navlarning selekstiyasi o‘tkazilishi uchun hamda mavzulari tasdiqlangan boshqa ilmiy va o‘quv maqsadlari uchun foydalaniladigan ekinlar hamda daraxtzorlar egallagan yer uchastkalari soliq to‘lashdan ozod qilinadi.

Yuridik shaxslar davlat mulki obyektlarini sotib oluvchilar uchun yer solig‘i summasi davlat mulki obyektlariga to‘g‘ri keladigan soliq summasiga kamaytirilib, bo‘shagan mablag‘lar xususiylashtirilgan obyektlarni modyernizastiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, ularni rivojlantirishga maqsadli tarzda yo‘naltiriladi. Ushbu imtiyoz oldi-sotdi shartnomasi imzolangan paytdan e’tiboran 12 oy mobaynida qo‘llaniladi.

Belgilangan maqsadda bevosita foydalanilmayotgan yer uchastkalariga imtiyozlar tatbiq etilmaydi.

Yer uchastkasi mulkdorining, yer egasi, yerdan foydalanuvchi yoki ijarchining aybi bilan qishloq xo‘jaligi yerlarining sifati yomonlashgan (bonitet balli pasaygan) taqdirda, yer solig‘i yarning sifati yomonlashguniga qadar belgilangan stavkalar bo‘yicha yuridik shaxslar tomonidan to‘lanadi.

Shaharlar va shaharchalarning ma’muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo‘jaligi ahamiyatiga molik yerlar uchun yer solig‘i qishloq xo‘jaligi yerlari uchun belgilangan stavkalarning ikki baravari miqdorida to‘lanadi.

Normativ muddatda tugallanmagan qurilish obyektlari, bo‘sh turgan binolar, yashash uchun mo‘ljallanmagan inshootlar, shuningdek foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari joylashgan yer uchastkalari bo‘yicha yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i ulardan samarasiz foydalanilayotganligi yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda chiqarilgan xulosa asosida, oshirilgan stavkalar bo‘yicha to‘lanadi.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognosi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo‘ljallari to‘g‘risida”gi PQ-4086-son Qarorining 16-ilovasiga muvofiq Toshkent shahrida yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun yyer solig‘i stavkalari<sup>9</sup>**

Zona	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 ga uchun, so‘mda	Yakka tartibda uy-joy qurishga byeriladigan yyerlar uchun fuqarolardan undiriladigan yer solig‘ining bazaviy stavkalari, 1 kv.m uchun, so‘mda
1	157 410 563	902,1
2	125 928 450	766,1
3	94 446 338	629,6
4	62 964 225	493,2
5	31 482 113	356,8

Yer solig‘i stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 26- dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2019- yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognosi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo‘ljallari to‘g‘risida”gi PQ-4086-son Qarorining 16-ilovasiga muvofiq tasdiqlandi.

<sup>9</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 26- dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2019- yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognosi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo‘ljallari to‘g‘risida”gi PQ-4086-son Qarori

9.2.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rshimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrdagi PQ-4086сон qaroriga muvofiq Andijon shahar bo'yicha yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i stavkalari 1 ga uchun 24992279 so'm, yakka tartibda uy-joy qurishga byeriladigan yerlar uchun fuqarolardan undiriladigan yer solig'ining bazaviy stavkalari 1kv.m uchun 225 so'm miqdorida belgilangan.

### 9.2.2-jadval

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari proqnozi va Davlat byudjeti parametrлари hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida"gi PQ-4086-son qaroriga muvofiq shaharlar va shaharchalarda yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun yer solig'i stavkalari<sup>10</sup>**

Shahar, viloyat	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i stavkalari, 1 ga uchun, so'mda	Yakka tartibda uy-joy qurishga byeriladigan yerlar uchun fuqarolardan undiriladigan yer solig'ining bazaviy stavkalari, 1 kv.m uchun, so'mda
Oqtosh	14977223	133,6
Olmaliq	20849653	190,7
Angren	20849653	190,7
Andijon	24992279	225
Asaka	14977223	133,6
Ohangaron	14949882	133,6
Bekobod	14949882	133,6
Byeruniy	15905651	145
Buxoro	20212285	185,2

<sup>10</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2019 -yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari proqnozi va Davlat byudjeti parametrлари hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida"gi PQ-4086-son Qarori

### 9.3. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini hisoblash va to'lash tartibi

Yer solig'i har bir soliq davrining 1 yanvariga bo'lgan holatga ko'ra hisoblab chiqariladi va yer solig'ining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilining 10 yanvariga qadar taqdim etiladi. Kalendar yil soliq davridir.

Yer solig'ini hisoblash soliq qonunchiligiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan yer solig'i summasi quyidagi tartibda aniqlanadi:

$$ES = SSB \times SS \times K$$

Bu yerda:

ES – yer solig'i summasi.

SSB – soliq solinadigan baza (*yer maydoni, hektar*).

SS – soliq stavkasi.

K – tuzatuvchi va yer maydonini markazlarga yaqin joylashuviga qarab qo'llaniladigan koeffisient.

Misol: "Sharq" AJ yer solig'i summasini umumiylaymaydonni soliq stavkasiga ko'paytirish orqali hisoblab chiqaradi.

$$ES = 1,2 \text{ hektar} \times 24992279 \text{ so'm} = 29990734,8 \text{ so'm}$$

Soliq solinadigan bazada soliq davri mobaynida o'zgarish bo'lganda yuridik shaxslar bir oylik muddat ichida davlat soliq xizmati organiga yer solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini taqdim etishi shart.

Soliq davri mobaynida qishloq xo'jaligi ekinlarining umumiylaymaydonida va tarkibida o'zgarishlar yuz byergan yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalarini yer solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini davlat soliq xizmati organiga joriy yilning 1 dekabriga qadar taqdim etadi.

Yer solig'ini to'lash:

- o mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan yer solig'i yillik summasining to'rtadan bir qismi miqdorida, har chorak birinchi oyining 10-sanasigacha.

- o mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan yer solig'i yillik summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida, har oyning 10-sanasigacha.

Soliq davri mobaynida yer solig'i to'lashning belgilangan muddatidan keyin majburiyatlar yuzaga kelganda, ushbu summani to'lash majburiyatlar yuzaga kelgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Yagona yer solig'i to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan yer solig'ini to'lash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- o hisobot yilining 1 sentyabriga qadar yillik soliq summasining 30 foizi.
- o hisobot yilining 1 dekabriga qadar soliqning qolgan summasi.

#### **Takrorlash uchun savollar**

1. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilar kimlar va soliq solish obyekti nimalardan iborat?
2. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha imtiyozlar va soliq stavkasini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari qanday?
3. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini hisoblash va to'lash tartibi qanday amalga oshiriladi?
4. Yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun byudjetga qanday to'lovlar to'lanadi?

#### **X bob. SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ**

##### **10.1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar va soliq solish obyekti**

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar O'zbekiston Respublikasi hududida suvdan foydalanishni yoki suv iste'molini amalga oshiruvchi quyidagi shaxslardir:

- o yuridik shaxslar O'zbekiston Respublikasi rezidentlari.
- o faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari.
- o tadbirkorlik faoliyati uchun suvdan foydalanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar.
- o yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari.
- o Aholi punktlarining suv ta'minoti uchun suv etkazib byerishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faqat o'z ehtiyojlariga ishlataladigan suv uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchidir.

Quyidagilar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar bo'lmaydi:

- o notijorat tashkilotlar. Notijorat tashkilotlar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirgan taqdirda tadbirkorlik faoliyatida foydalilaniladigan suv hajmlari bo'yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar bo'ladi.
- o yagona yer solig'ini to'lovchilar.

Yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalilaniladigan suv resurslari soliq solish obyektidir.

Suv resurslarining yer usti manbalariga quyidagilar kiradi: daryolar, ko'llar, suv omborlari, turli xil kanallar va hovuzlar, yer ustidagi boshqa suv havzalari hamda suv manbalari.

Suv resurslarining yer osti manbalariga artezian quduqlari va skvajinalar, vyertikal va gorizontal drenaj tarmoqlari hamda boshqa inshootlar yordamida chiqazib olinadigan suvlar kiradi.

Foydalanilgan suvning hajmi soliq qonunchiligiga muvofiq soliqqa tortilmaydigan suv hajmi chegirilgan holda soliq solinadigan baza hisoblanadi.

Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan olingen suv hajmi suvdan foydalishning buxgaltyeriya hisobga olish hujjalarda aks ettirilgan suv o'lchagich asboblarining ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi.

Suvdan o'lchagich asboblarsiz foydalanilgan taqdirda, uning hajmi suv obyektlaridan suv olish limitlaridan, suv iste'molining texnologik va sanitariya normalaridan, ekinlar hamda dov-daraxtlarni sug'orish normalaridan yoki ma'lumotlarning to'g'riligini ta'minlovchi boshqa usullardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to'lovchilar yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalanilgan suv resurslari hajmlarining alohida-alohida hisobini yuritadi. Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan suv keladigan vodoprovod tarmog'idagi suvdan foydalanilgan taqdirda, soliq solinadigan baza manbaning har bir turi bo'yicha alohida-alohida aniqlanadi. Suv etkazib byeruvchi yuridik shaxslar vodoprovod tarmog'iga suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan keladigan suv hajmlarining nisbati to'g'risidagi ma'lumotlarni davlat soliq xizmati organlariga joriy soliq davrining 15 yanvariga qadar taqdim etishlari kyerak. Davlat soliq xizmati organlari besh kun ichida ushbu ma'lumotlarni soliq to'lovchilar e'tiboriga etkazishi lozim.

Soliq to'lovchi issiq suv hamda bug' hosil qilinishi bo'yicha soliq solinadigan bazani ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun o'zi foydalangan suv resurslari hajmidan kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Binolarning bir qismi, alohida joylar ijaraga topshirilganda soliq solinadigan baza suv etkazib byeruvchi yuridik shaxs bilan shartnomaga tuzgan ijaraga byeruvchi tomonidan aniqlanadi.

Binolarning bir qismini, alohida joylarni ijaraga olgan va suv etkazib byeruvchi yuridik shaxs bilan shartnomaga tuzgan yuridik shaxslar soliq solinadigan bazani mustaqil ravishda aniqlaydi.

Soliq to'lovchilar yuridik shaxslar bilan suv etkazib byerilishi yuzasidan solishtirib ko'rish jarayonida olingen suvning hajmini aniqlashtirishda suv hajmi farqini solishtiruv amalga oshirilgan davrdagi hisob-kitoblarda aks ettiradi.

Yuridik shaxslarning hududida ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajaruvchi soliq to'lovchilar bu ishlarni bajarish jarayonida foydalilanligi suv uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lamaydi. Ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajarayotganda foydalilanligi suv hajmi uchun bu ishlar qaysi yuridik shaxslar uchun bajarilayotgan bo'lsa, o'sha yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'laydi. Qurilish ishlari yangi qurilish maydonida bajarilgan taqdirda, qurilishda foydalilanligi suv hajmi uchun qurilish tashkiloti suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'laydi.

Yagona yer solig'i to'lovchilari bo'lmagan qishloq xo'jaligi korxonalari soliq solinadigan bazani soliq davrida bir gektar sug'oriladigan yerlarni sug'orish uchun sarflanadigan suvning butun xo'jalik bo'yicha o'rtacha hajmidan kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari uchun soliq solinadigan baza soliq qonunchiligiga muvofiq davlat soliq xizmati organlari tomonidan aniqlanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchi suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash nazarda tutilmagan faoliyat turlarini amalga oshirgan taqdirda, soliq solinadigan baza soliq solinadigan va soliq solinmaydigan suv resurslarining hajmi hisobini alohida-alohida yuritish asosida aniqlanadi. Alohida-alohida hisob yuritish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, soliq solinadigan baza faoliyatdan olinadigan sof tushumning umumiyligi hajmida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lash nazarda tutilgan sof tushumning solishtirma salmog'idan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

## **10.2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari va soliq imtiyozlari**

Yuridik shaxslardan olinadigan resurs soliqlari stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasining

2019- yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida"gi PQ-4086-son qarorida tasdiqlangan.

#### 10.2.1-jadval

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 26- dekabrdagi O'zbekiston Respublikasining 2019- yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida"gi PQ-4086-son qarori muvofiq suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari<sup>11</sup>**

№	To'lovchilar	1 kub metr uchun stavka (so'm)	
		Yer osti suv resurslari manbalari	Yer osti suv resurslari manbalari
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalarini, dehqon xo'jaliklari (yuridik va jismoniy shaxslar), shuningdek tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida suv resurslaridan foydalanadigan jismoniy shaxslar	120	150
2.	Sanoat korxonalarini	360	430
3.	Avtotransport vositalarini yuvishga ixtisoslashtirilgan korxonalarga	1200	1500
4.	Elektrstanstiyalari	30	50
5.	Kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarini	60	80
6.	Alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqaruvchi korxonalar:		
	- alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqarish uchun foydalanadigan suv hajmi bo'yicha	19 040	19 040
	- boshqa maqsadlarda	120	150

10.2.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 26- dekabrdagi PQ-4086-son qarori muvofiq suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalariga yer osti suv resurslari manbalari 120 so'm va yer osti suv resurslari manbalari 150 so'm, sanoat korxonalariga yer osti suv resurslari manbalari 360 so'm va yer osti suv resurslari manbalari 430 so'm, avtotransport vositalarini yuvishga ixtisoslashtirilgan korxonalarga yer osti suv resurslari manbalari 1200 so'm va yer osti suv resurslari manbalari 1500 so'm, elektrstanstiyalarga yer osti suv resurslari manbalari 30 so'm va yer osti suv resurslari manbalari 50 so'm, kommunal xizmat ko'rsatish korxonalariga yer osti suv resurslari manbalari 60 so'm va yer osti suv resurslari manbalari 80 so'm, alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqaruvchi korxonalarga yer osti suv resurslari manbalari 19040 so'm va yer osti suv resurslari 19040 so'm miqdorida belgilangan.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan quyidagilar ozod qilinadi:

1.Suv uchun byudjetga soliq o'tkazgan yuridik shaxslardan suv olgan iste'molchilar.

2.Birlamchi foydalanilgan suv uchun to'lov amalga oshirilgan suvdan ikkilamchi foydalanuvchi suv iste'molchilar.

3.Ixtiyoriy tugatilayotgan yuridik shaxslar tadbirkorlik subyektlari yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy ravishda tugatish qonun hujjalari belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qaytadan boshlangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarishda soliq solinadigan baza quyidagi hajmlarga kamaytiriladi:

1.Sog'liqni saqlash muassasalarida davolash maqsadida foydalanadigan yer osti minyeral suvlari hajmiga.

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 -yil 26- dekabrdagi O'zbekiston Respublikasining 2019- yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida"gi PQ-4086-son qarori

Savdo tarmog‘ida realizastiya qilish uchun foydalanilgan suv hajmiga tatbiq etilmaydi.

2.Atrof muhitga zararli ta’sir ko‘rsatishining oldini olish maqsadida chiqazib olinadigan yer osti suvlari hajmiga.

Ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmiga tatbiq etilmaydi.

3.Shaxtadan suvlarni qochirish uchun, foydali qazilmalarni qazib olish vaqtida chiqazib olingan va qatlampagi bosimni saqlab turish uchun yer qa’riga qaytarib quyiladigan yer osti suvlari hajmiga.

Ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmiga tatbiq etilmaydi.

4.Gidroelektr stanstiylari gidravlik turbinalarining harakati uchun foydalaniladigan suv hajmiga.

5.Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan sho‘rlangan yerlarni yuvish uchun foydalaniladigan suv hajmiga.

6.Issiqlik elektr stanstiylari va issiqlik elektr markazlari tomonidan qayta quyiladigan suv hajmiga.

### **10.3.Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va to‘lash tartibi**

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Kalendar yil soliq davridir.

Soliq solinadigan baza quyidagicha hisoblab chiqariladi:

SSB=SRH-SSBK

Bu yerda:

SSB – soliq solish bazasi;

SRH – suv resurslari hajmi (kub metr);

SSBK – soliq solinadigan bazani kamaytirish.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi soliq solinadigan baza va belgilangan stavkalardan kelib chiqib quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

SrfuS = SSB x SS

Bu yerda:

SrfuS – suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

SSB – soliq solish bazasi (suv hajmi, m<sup>3</sup>);

SS – 1 kub m uchun belgilangan soliq stavkasi.

Misol: “Sharq” AJ suv resurslaridan foydalanganligi uchun soliq summasini yil davomida iste’mol qilgan suv hajmini soliq stavkasiga ko‘paytirish bilan hisoblab chiqaradi.

SrfuS = 5 000 kub metr (shundan, 3600 m<sup>3</sup> yer usti, 1 400 m<sup>3</sup> yer osti) x

360 so‘m (yer usti), 430 so‘m (yer osti) = 1296000 so‘m, 602 000 so‘m = 1898000 so‘m.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi suvdan foydalanish yoki suv iste’moli joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagilar tomonidan yiliga bir marta taqdirmi etiladi:

○ yuridik shaxslar tomonidan yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda.

○ yagona yer solig‘ini to‘lashga o‘tmagan qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan joriy soliq davrining 15 dekabrigacha.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari, shuningdek yakka tartibdagagi tadbirkorlar tomonidan soliq davridan keyingi yilning 25 yanvarigacha.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lash to‘g‘risidagi to‘lov xabarnomasi yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklariga davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq davridan keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay topshiriladi.

Soliq davri mobaynida soliq to‘lovchilar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha joriy to‘lovlarni to‘laydilar.

Joriy to‘lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to‘lovchilar joriy soliq davrining 25 yanvarigacha, yangi tashkil qilinganlari esa davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e’tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay, suvdan foydalanish yoki suv iste’moli joyidagi davlat soliq xizmati organlariga mo‘ljallanayotgan soliq solinadigan bazadan (foydalaniladigan suv hajmidan) va suv resurslaridan foydalanganlik uchun belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi to‘g‘risidagi ma’lumotnomani taqdim etadilar. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha majburiyatlar soliq davri mobaynida yuzaga kelgan soliq to‘lovchilar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi to‘g‘risidagi ma’lumotnomani soliq majburiyati yuzaga kelgan sanadan e’tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay taqdim etadilar.

Joriy to‘lovlar quyidagicha to‘lanadi:

- soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan ko‘pni tashkil etadigan yuridik shaxslar tomonidan har oyning 25-kunidan kechiktirmay suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq yillik summasining o‘n ikkidan bir qismi miqdorida.

- soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan kammi tashkil etadigan mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan yuridik shaxslar, shuningdek mikrofirmalar, kichik korxonalar va yakka tartibdagи tadbirkorlar tomonidan yilning har choragi uchinchi oyining 25-kunidan kechiktirmay suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq yillik summasining to‘rtidan bir qismi miqdorida.

Soliq davri mobaynida mo‘ljallanayotgan soliq solinadigan baza o‘zgargan taqdirda, soliq to‘lovchi suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi to‘g‘risida aniqlashtirilgan ma’lumotnomasi taqdim etishga haqli. Bunda soliq davrining qolgan qismi uchun joriy to‘lovlarga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning o‘zgarish summasiga teng ulushlarda tuzatish kiritiladi.

Soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lash joriy to‘lovlar hisobga olingan holda soliq to‘lovchilar tomonidan, suvdan foydalanish yoki suv iste’moli joyida, hisob-kitob taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha joriy to‘lovlar summasi hisob-kitobga ko‘ra byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasiga nisbatan 10 foizdan ortiq miqdorga kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to‘lovlarni suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya hisoblagan holda qaytadan hisoblab chiqadi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari tomonidan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lash yiliga bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1 mayigacha amalga oshiriladi.

#### Takrorlash uchun savollar

1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lovchilar kimlar hisoblanadi?
2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq solish obyektiga nimalar kiradi?
3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha qanday soliq stavkalar mavjud?
4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash tartibi qanday?
5. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha qanday imtiyozlar mavjud?
6. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lash muddatlari qanday?

## **XI bob. YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHILAR UCHUN SOLIQLAR VA MAXSUS TO'LOVLAR**

### **11.1. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlarini to'lovchilar va soliq solish obyekti**

O'zbekiston Respublikasi hududida konlarni aniqlash va qidirish, foydali qazilmalarni kavlab olish, minyeral xomashyodan va texnogen minyeral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olishni amalga oshirayotgan, shuningdek foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar soliq solish maqsadida yer qa'ridan foydalanuvchilardir.

Yer qa'ridan foydalanuvchilar quyidagi soliqlar va maxsus to'lovlarini to'laydilar:

- Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq.
- Qo'shimcha foyda solig'i.
- Bonus (imzoli va tijoratbop topilma bonuslar).

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar quyidagilardir:

- Yer qa'ridan foydali qazilmalarni kavlab olayotgan, minyeral xomashyodan va texnogen minyeral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olayotgan yer qa'ridan foydalanuvchilar.
- Foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yer qa'ridan foydalanuvchilar.

Kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning hajmi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solish obyektidir. Tayyor mahsulotlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi belgilangan va realizastiya qilish yoki topshirish, shu jumladan bepul byerish, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish maqsadida o'z iste'moli va boshqa ehtiyojlari uchun mo'ljallangan foydali qazilma (foydali komponent) tayyor mahsulot deb e'tirof etiladi.

Soliq solish obyekti tayyor mahsulotning har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi.

Uglevodorodlar uchun soliq solish obyekti quyidagilardir:

- sanoat yo'sinida dastlabki qayta ishlovdan o'tkazilgan kavlab olingan uglevodorodlar, shu jumladan qo'shilib chiqadigan foydali qazilmalar va foydali komponentlar.

- uglevodorodlarni qayta ishslash jarayonida ajratib olingan, lekin oldingi kavlab olinganda va qayta ishlanganda qayta ishlanadigan foydali qazilmalar tarkibida tayyor mahsulot sifatida soliq solinmagan foydali komponentlar.

Qatlamdagi bosimni saqlab turish va uglevodorodlarni tugal texnologik jarayon doirasida ajratib olish uchun mahsulor qatlama qayta haydab kiritiladigan tabiiy gaz hajmi soliq solish obyekti bo'lmaydi.

Ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar, shu jumladan texnogen minyeral hosilalardan ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar uchun soliq solish obyektidir.

Quyidagilar qattiq foydali qazilmalar bo'yicha soliq solish obyektidir:

- kavlab olingan (shu jumladan qo'shilib chiqadigan) foydali qazilmalar.
- foydali qazilmalardan, minyeral xomashyodan, texnogen minyeral hosilalardan ajratib olingan foydali komponentlar.

Soliq to'lovchilarga byerilgan yer uchastkalari doirasida kavlab olingan hamda o'zining xo'jalik va ro'zg'or ehtiyojlari uchun foydalilanigan keng tarqalgan foydali qazilmalar soliq solish obyekti bo'lmaydi.

Keng tarqalgan foydali qazilmalar ro'yxati qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish uchun kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot hajmining hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizastiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymati soliq solinadigan bazadir.

Hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizastiya qilish bahosi har bir kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot bo'yicha alohida, pulda ifodalangan

realizastiya qilish hajmlarini (qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini chegirgan holda) naturada ifodalangan realizastiya qilish hajmiga bo'lislis orqali aniqlanadi.

Hisobot davrida tayyor mahsulot realizastiya qilinmagan bo'lsa, soliq solinadigan baza realizastiya qilish amalga oshirilgan oxirgi hisobot davrida tayyor mahsulotni realizastiya qilishning o'rtacha olingan bahosidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Tayyor mahsulot umuman realizastiya qilinmagan taqdirda, soliq solinadigan baza hisobot davrida mazkur foydali qazilmalarini kavlab olishning (ajratib olishning) ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Bunda soliq to'lovchi realizastiya qilish amalga oshirilgan o'sha hisobot davrida hisoblangan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasiga hisobot davrida tarkib topgan o'rtacha olingan bahodan kelib chiqqan holda keyingi tuzatishni kiritishi shart.

Tayyor mahsulot tannarxidan past bahoda realizastiya qilingan yoki topshirilgan taqdirda o'rtacha olingan bahoni hisob-kitob qilish uchun tannarx qabul qilinadi, lekin u deklarastiya qilinayotgan baholardan yuqori bo'lmasligi kyerak.

Tayyor mahsulot (tayyor mahsulotning bir qismi) boshqa tayyor mahsulotni ishlab chiqarish uchun xomashyo bo'lgan yoki tayyor mahsulot (qayta ishlab hosil qilingan mahsulot) o'zining ishlab chiqarish yoki xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalilanilgan hollarda bunday mahsulot uchun soliq solinadigan baza kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

## **11.2. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqlar va maxsus to'lovlarini hisoblash va to'lash tartibi**

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

2019 yil 1 yanvardan boshlab yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari quyidagicha belgilangan.

### **11.2.1-jadval**

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 26- dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2019- yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari proqnozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida"gi PQ-4086-son qaroriga muvofiq yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari<sup>12</sup>**

Soliq solinadigan obyekt nomi	Soliq solinadigan bazaga nisbatan soliq stavkasi, foizda
Asosiy va qo'shimcha foydali qazilmalar kavlab olish uchun	
Enyergiya manbalari:	
Tabiiy gaz	30,0
Utilizastiya qilingan tabiiy gaz	9,0*
Yer ostidan kavlab olingan gaz	2,6
Nostabil gaz kondensati	20,0
Neft	20,0
Ko'mir	4,0
Rangli va noyob metallar:	
Tozalangan mis	15
Molibdenli sanoat mahsuloti	4,0
Konstantratlangan qo'rg'oshin	4,0
Metall rux	10
Volfram konstantrati	10,4
Uran	10,0

11.2.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 -yil 26- dekabrdagi PQ-4086-son qarori muvofiq yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari tabiiy gazga 30 foiz, neftga 20

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 26 -dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2019 -yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari proqnozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida"gi PQ-4086-son qarori

foiz, tozalangan misga 15 foiz, konstantratlangan qo'rg'oshinga 4 foiz, uranga 10 foiz miqdorida belgilangan.

### 11.2.2-jadval

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 26- dekabrdagi “O'zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari proqnozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida”gi PQ-4086-son qaroriga muvofiq yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari<sup>13</sup>**

Soliq solinadigan obyekt nomi	Soliq solinadigan bazaga nisbatan soliq stavkasi, foizda
Asosiy va qo'shimcha foydali qazilmalar kavlab olish uchun	
Asl metallar:	
Oltin	25
Kumush	25
Qimmatbaho, yarim qimmatbaho va zeb-ziynat uchun toshlar xomashyosi	24,0
Qora metallar:	
Temir	4,0
Kon-kimyo xomashyosi:	
Tosh tuz (ovqatga ishlatalidigan)	3,5 (tonna/5000 so'm)
Kaliy tuzi	3,5
Natriy sulfat	3,5
Fosforitlar (grafitlarga)	5,0
Karbonat xomashyosi (ohaktoshlar, dolomitlar)	3,5
Glaukonit	3,5
Minyeral pigmentlar	4,8

11.2.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 26- dekabrdagi PQ-4086-son qarori muvofiq yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari oltinga 25 foiz, kumushga 25 foiz, qimmatbaho, yarim qimmatbaho va zeb-ziynat uchun toshlar xomashyosiga 24 foiz, temirga 4 foiz, tosh tuzga 3,5 foiz miqdorida belgilangan.

### 11.2.3-jadval

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 26- dekabrdagi “O'zbekiston Respublikasining 2019- yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari proqnozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida”gi PQ-4086-son qaroriga muvofiq yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari<sup>14</sup>**

Soliq solinadigan obyekt nomi	Soliq solinadigan bazaga nisbatan soliq stavkasi, foizda
Asosiy va qo'shimcha foydali qazilmalar kavlab olish uchun	
Kon-ruda xomashyosi:	
Plavik shpatli konstentrat	21,2
Tabiiy grafit	8,0
Ikkilamchi boyitilmagan kulrang kaolin	7,9
Kvarst-dala shpati xomashyosi	6,5
Shisha xomashyosi	3,0
Bentonithi loy	4,8
Talk va talk toshi	4,0
Talkomagnezit	4,0
Minyeral bo'yoqlar	5,7
Vollostanit	4,0

<sup>13</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 26- dekabrdagi “O'zbekiston Respublikasining 2019- yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari proqnozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida”gi PQ-4086-son qarori

<sup>14</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 26- dekabrdagi “O'zbekiston Respublikasining 2019- yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari proqnozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida”gi PQ-4086-son qarori

Asbest	4,0
Minyeral tola ishlab chiqarish uchun bazalt	4,0
Barit konstentrati	4,0
Metallurgiya uchun noruda xomashyo:	
O'tga chidamli, qiyin yeruvchan, qoliplash gilmoyasi	4,0
Ohaktoshlar, dolomitlar	5,0 (tonna/5000 so'm)
Kvarst va kvarsttilar	6,5
Qoliplash qumlari	4,0
Vyermikulit	4,0

11.2.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rshimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 26- dekabrdagi PQ-4086-son qarori muvofiq yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari plavik shpatli konstentratga 21,2 foiz, shisha xomashyosiga 3 foiz, bentonitli loyga 4,8 foiz, asbestga 4 foiz, kvarst va kvarsttilarga 6,5 foiz miqdorida belgilangan.

#### 11.2.4-jadval

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 26- dekabrdagi  
“O'zbekiston Respublikasining 2019- yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari  
prognozi va Davlat byudjeti parametrлари hamda 2020-2021 yillarga byudjet  
mo'ljallari to'g'risida”gi PQ-4086-son qaroriga muvofiq yer qa'ridan  
foydalanganlik uchun soliq stavkalari<sup>15</sup>**

Soliq solinadigan obyekt nomi	Soliq solinadigan bazaga nisbatan soliq stavkasi, foizda
Asosiy va qo'shimcha foydali qazilmalar kavlab olish uchun	
Noruda qurilish matyeriallari:	
Цемент xomashyosi	10(tonna/45000 so'm)

Tabiiy bezaktoshdan bloklar	5
Marmar ushog'i	5(tonna/10000 so'm)
Gips toshi, ganch	5
Kyeramzit xomashyosi	5
G'isht-chyerepista xomashyosi (qumoqsimon, lyossimon jinslar, zichlovchi sifatida lyosslar, qumlar va boshqalar)	5(tonna/4000 so'm)
Gips va angidrit	5,0(tonna/4000 so'm)
Arralanadigan, xarsangtosh va shag'al uchun toshlar	5(tonna/4000 so'm)
Qurilish qumlari	5,0(tonna/5000 so'm)
Tosh-shag'al aralashmasi, shag'al aralashmasi, mayda toshlar, shag'al	5,0
Qumtoshlar	5
Chig'anoq	5
Slanestlar	5
Boshqa keng tarqalgan foydali qazilmalar (myergellar, argelitlar, amvriltilar va boshqalar)	5
2.Texnogen minyeral hosilalardan ajratib olingan foydali qazilmalar	Asosiy foydali qazilma boyligini kavlab olganlik uchun stavkaning 30 foizi

11.2.4-jadval ma'lumotlaridan ko'rshimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 26- dekabrdagi PQ-4086-son qarori muvofiq yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari stement xomashyosiga 10 foiz, marmar ushog'i 5 foiz, gips va angidritga 5 foiz, qumtoshlarga 5 foiz, chig'anoqga 5 foiz miqdorida belgilangan.

Kalendar yil soliq davridir.

Hisobot davri quyidagilardir:

- yuridik shaxslar uchun yil choragi.

<sup>15</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 26- dekabrdagi “O'zbekiston Respublikasining 2019- yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrлари hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida”gi PQ-4086-son qarori

- jismoniy shaxslar uchun kalendar yil.

Foydali qazilmalarning alohida turlari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stawkadan kelib chiqqan holda belgilanadi, lekin u yer qa'ridan foydalanganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan soliq summasidan past bo'lmasligi kyerak.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

- yuridik shaxslar tomonidan ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda.
- jismoniy shaxslar tomonidan yiliga bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq to'lash har oyda keyingi oyning 25-sanasidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

### **11.3. Qo'shimcha foyda solig'ini to'lovchilar va soliq solish obyekti**

Qo'shimcha foyda solig'i to'lovchilar quyidagilardir:

- ayrim foydali qazilmalarni (foydali komponentlarni) kavlab olishni (ajratib olishni) amalga oshiruvchi yer qa'ridan foydalanuvchilar.
- foydali qazilmalardan ishlab chiqariladigan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar.

Ayrim turdag'i mahsulotlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan boshqa shaxslar qo'shimcha foyda solig'i to'lovchisi etib belgilanishi mumkin.

Mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yer qa'ridan foydalanuvchilar qo'shimcha foyda solig'ini to'lovchilar bo'lmaydi.

Realizastiya qilishdan olingan sof tushum bilan qonun hujjatlarida belgilangan hisob-kitob bahosi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadigan daromadning bir qismi (qo'shimcha foyda) qo'shimcha foyda solig'ini solish obyektidir.

Qo'shimcha foyda summasi bilan qo'shimcha foyda qismiga to'g'ri keladigan sof tushumdan hisoblab chiqarilgan soliq summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadigan sof qo'shimcha foyda soliq solinadigan bazadir.

#### **11.3.1-jadval**

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 26- dekabrdagi “O'zbekiston Respublikasining 2019- yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari proqnozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida”gi PQ-4086-son qaroriga muvofiq ayrim turdag'i mahsulotlar bo'yicha qo'shimcha foyda solig'i stawkalari<sup>16</sup>**

Mahsulot nomi	Soliq solinadigan bazaning miqdori (QQS va aksiz solig'isiz)	Soliq stavkasi
Tabiiy gaz*	so'mdagi ekvivalentda «kesish narxi»gacha 1 000 kub m uchun 160 AQSh dollaridan yuqori	50 foiz

Qo'shimcha foyda solig'ini to'lovchilar soliq to'langandan so'ng qo'shimcha foydaning ular ixtiyorida qoladigan qismini to'liq hajmda maxsus ochiladigan investistiya hisobvaraqlariga o'tkazadilar. Ko'rsatilgan investistiya hisobvaraqlaridan mablag'lar faqat O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda belgilangan tartibda amalga oshirish uchun ma'qullangan investistiya loyihalarni moliyalashtirish, investistiya loyihalarni amalga oshirishga jalb etilgan kreditlarga xizmat ko'rsatish, shuningdek asosiy ishlab chiqarishni modyernizastiyash va texnik qayta jihozlashga sarflanadi.

<sup>16</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 -yil 26 -dekabrdagi “O'zbekiston Respublikasining 2019- yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari proqnozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida”gi PQ-4086-son qarori

11.3.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rshimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 26- dekabrdagi PQ-4086-son qaroriga muvofiq ayrim turdag'i mahsulotlar bo'yicha qo'shimcha foyda solig'i stavkalari tabiiy gazga 50 foiz miqdorida belgilangan.

Qo'shimcha foyda solig'i solinadigan foydali qazilmalar va mahsulot turlari ro'yxati, shuningdek soliqni hisoblab chiqarish hamda to'lash tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

#### 11.4. Bonuslar

Bonus yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan bir martalik to'lovdir.

Yer qa'ridan foydalanuvchi quyidagi turdag'i bonuslarni to'laydi:

- imzoli bonus.
- tijoratbop topilma bonusi.
- Davlat boshqaruvi organlari bonuslar to'lamaydi.

Imzoli bonus yer qa'ridan foydalanuvchining tegishli listenziya asosida foydali qazilmalarni aniqlash va qidirish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun bir martalik qat'iy belgilangan to'lovdir.

Imzoli bonus listenziya olingan kundan e'tiboran soliq to'lovchi tomonidan o'ttiz kundan kechiktirmay byudjetga to'lanadi va bu haqda soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yozma shaklda xabar qilinadi.

11.4.1 -jadval ma'lumotlaridan ko'rshimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 26- dekabrdagi PQ-4086-son qaroriga muvofiq imzolanadigan bonus stavkalari uglevodorodlar konlarini qidirish va razvedka qilish huquqiga eng kam ish haqining 10000 karrali miqdorlarda, oltin qidirish va razvedka qilish huquqiga eng kam ish haqining 10000 karrali miqdorlarda, qimmatbaho, noyob va asl metallar konlarini qidirish va razvedka qilish huquqiga eng kam ish haqining 1000 karrali miqdorlarda, rudali foydali qazilmalar konlarini qidirish va razvedka qilish huquqiga eng kam ish haqining 500 karrali miqdorlarda, noruda foydali qazilmalar konlarini qidirish va razvedka qilish huquqiga eng kam ish haqining 100 karrali miqdorlarda belgilangan.

#### 11.4.1-jadval

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 26-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2019 -yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari progozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida"gi PQ-4086-son qaroriga muvofiq imzolanadigan bonus stavkalari<sup>17</sup>

Nº	Foydali qazilmalarni razvedka qilish va qidirish huquqi	Bonusning eng kam stavkasi (eng kam ish haqiga nisbatan karrali miqdorlarda)
1.	Uglevodorodlar konlarini qidirish va razvedka qilish huquqi	10 000
2.	Oltin qidirish va razvedka qilish huquqi	10 000
3.	Qimmatbaho (oltindan tashqari), noyob va asl metallar konlarini qidirish va razvedka qilish huquqi	1 000
4.	Rudali foydali qazilmalar konlarini qidirish va razvedka qilish huquqi	500
5.	Noruda foydali qazilmalar konlarini qidirish va razvedka qilish huquqi	100

#### 11.4.2-jadval

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 26- dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2019 -yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari progozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida"gi PQ-4086-son qaroriga muvofiq tijoratbop topilma bonusi stavkasi<sup>18</sup>

Foydali qazilmalarni qazib olish huquqi	Stavkasi, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da
Uglevodorodlar, qimmatbaho va noyob metallar, rudali va noruda foydali qazilmalar qazib olish huquqi	0,1

<sup>17</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 26- dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2019 -yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari progozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida"gi PQ-4086-son qarori

<sup>18</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 26- dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2019 -yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari progozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida"gi PQ-4086-son qarori

11.4.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 26- dekabrdagi PQ-4086-son qaroriga muvofiq tijoratbop topilma bonusi stavkasi uglevodorodlar, qimmatbaho va noyob metallar, rudali va noruda foydali qazilmalarni qazib olish huquqi 0,1 foiz miqdorida belgilangan.

Tijoratbop topilma bonusi tegishli listenziyada ko'rsatilgan yer qa'ri uchastkasida foydali qazilma konlarining har bir tijoratbop topilmasi uchun, shu jumladan dastlabki belgilangan ajratib olinayotgan zaxiralarni ko'paytirishga olib keluvchi konlarni qo'shimcha qidirish o'tkazish chog'idagi foydali qazilmalar topilmasi uchun to'lanadigan to'lovdir. Tijoratbop topilma bonusi, agar avval mazkur kon bo'yicha tijoratbop topilma bonusi to'lanmagan bo'lsa, foydali qazilmalarni kavlab olish huquqini olishda yer qa'ridan foydalanuvchilar tomonidan ham to'lanadi.

Foydali qazilma konlarni keyinchalik ularni kavlab olishni nazarda tutmaydigan qidirish o'tkazishda tijoratbop topilma bonusi to'lanmaydi.

Vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlangan konda foydali qazilmalarning qazib olinadigan zaxiralari hajmi soliq solish obyektiidir.

Foydali qazilmalar zaxiralaring qazib olinadigan hajmining qiymati soliq solinadigan bazadir. Foydali qazilmalar zaxiralaring qazib olinadigan hajmining qiymati quyidagicha hisoblab chiqiladi:

- Tovar bozorlarida ustun mavgeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning davlat reestriga kiritilgan yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun foydali qazilmaning mazkur turi uchun tasdiqlangan deklarastiya qilingan narxi bo'yicha.

- boshqa yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xalqaro birjada belgilangan birja narxi bo'yicha, jahon bozorida narx mavjud bo'lmanaq taqdirda esa, foydali qazilmalar zaxiralaring qazib olinadigan hajmining qiymati belgilangan tartibda kelishilgan tegishli konni sanoat yo'sinida o'zlashtirish bo'yicha texnik-iqtisodiy asoslarda nazarda tutilgan kavlab olishning ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqib, uni 20 foiz oshirgan holda.

Foydali qazilmalar zaxiralaring qazib olinadigan hajmining qiymatini aniqlash va tijoratbop topilma bonusini to'lash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanganadi.

Tijoratbop topilma bonusining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga foydali qazilmalarni kavlab olish uchun yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqini byeradigan listenziya olingan kundan e'tiboran yigirma besh kundan kechiktirmay soliq to'lovchi tomonidan taqdim etiladi.

Tijoratbop topilma bonusini to'lash foydali qazilmalarni kavlab olish uchun yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqini byeradigan listenziya olingan kundan e'tiboran to'qson kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

## 11.5. Mahsulot taqsimatiga oid bitim doirasida amalga

### oshiriladigan faoliyatga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

Mahsulot taqsimatiga oid bitim shartnomaga bo'lib, bu shartnomaga muvofiq O'zbekiston Respublikasi haq olish asosida hamda muayyan muddatga chet ellik investorga bitimda ko'rsatilgan yer qa'ri uchastkasida konlarni aniqlash, qidirish va foydali qazilmalarni kavlab olish uchun mutlaq huquqlar byeradi.

Mahsulot taqsimatiga oid bitim quyidagilarni nazarda tutadi:

- hisob-kitob yuritish va hisobot byerish tartibini.
- soliq solish va boshqa to'lovlarini to'lash shartlarini.
- chet ellik investoring ulushini olib chiqib ketish tartibini.

Chet ellik investor mahsulot taqsimatiga oid bitimlar to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarni istisno etganda mahsulot taqsimatiga oid bitimning amal qilish muddati mobaynida quyidagilarni to'laydi:

- 1) Foya solig'i.
- 2) Yer solig'i.
- 3) Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.
- 4) Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar, bundan qo'shimcha foya solig'i mustasno.
- 5) Yagona ijtimoiy to'lov.
- 6) Aksiz solig'i.

O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari uchun belgilangan stavkalar bo‘yicha undiriladi. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq va aksiz solig‘i O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari uchun belgilangan stavkalar bo‘yicha undiriladi.

Chet ellik investorga soliq solish quyidagi xususiyatlar inobatga olingan holda amalgalashiriladi:

1.Foya solig‘i mahsulot taqsimotiga oid bitim bo‘yicha ishlarni bajarish chog‘ida olingan daromad bo‘yicha va faoliyatning boshqa turlari bo‘yicha olingan daromad bo‘yicha alohida-alohida to‘lanadi. Mahsulot taqsimotiga oid bitim bo‘yicha ishlarni bajarish chog‘ida olingan daromadlar yuzasidan foya solig‘i solish obyekti bitim shartlariga binoan chet ellik investorga tegishli bo‘lgan, chegirmalar qilinmagan holda foydaga qolgan mahsulotning qiymatidir.

2.Chet ellik investor yer qa’ridan foydalanuvchilar uchun quyidagi soliqlar va maxsus to‘lovlar to‘laydi:

- mahsulot taqsimotiga oid bitim tuzilganda va muayyan natijaga yerishilganda, bitim shartlariga muvofiq belgilangan bonuslar.

- minyeral xomashyoni kavlab olish hajmiga yoki ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga nisbatan foizli nisbatda mahsulot taqsimotiga oid bitim shartlariga muvofiq belgilanadigan va pul shaklida yoki kavlab olingan minyeral xomashyoning bir qismi tarzida to‘lanadigan yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq.

3.Atrof muhitni ifloslantirganlik uchun kompensastiya to‘lovlar qonun hujjatlariga muvofiq to‘lanadi.

4.Investorlarga va mahsulot taqsimotiga oid bitim bo‘yicha ishlarni bajarishda ishtirok etayotgan opyeratorlarga yuridik shaxslar O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan byeriladigan tovarlarga (bajariladigan ishlarga, ko‘rsatiladigan xizmatlarga) nol darajali stavka bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadi.

5.Mahsulot taqsimotiga oid bitim bo‘yicha ishlarni bajarishga mo‘ljallangan va loyiha hujjatlariga muvofiq chet ellik investor tomonidan yoki mahsulot taqsimotiga oid bitim bo‘yicha ishlarni bajarishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslar tomonidan olib kiriladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar), shuningdek chet ellik investor tomonidan

olib chiqiladigan, mazkur bitimga muvofiq unga tegishli bo‘lgan mahsulot bojxona to‘lovlarini solishdan ozod qilinadi. Olib kirilgan moddiy-texnika resurslaridan belgilangan maqsadga nomuvofiq foydalanilganda, shu jumladan ular o‘zga shaxsga byerilgan taqdirda, byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan barcha bojxona to‘lovlar bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda undirib olinadi.

Agar yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmasagan yuridik shaxslar birlashmasi investor sifatida ish yuritayotgan bo‘lsa, bunday birlashmaning ishtirokchilaridan biri yoki mahsulot taqsimotiga oid bitim bo‘yicha ishlarni bajaruvchi opyerator soliq majburiyatlarining bajaruvchisi bo‘ladi. Bunda listenziya olgan investor bir oylik muddatda davlat soliq xizmati organini mazkur birlashmadan soliq majburiyatini bajaruvchi bo‘lib qatnashadigan ishtirokchi to‘g‘risida yozma ravishda xabardor etishi shart.

#### **Takrorlash uchun savollar**

1. Soliqli tortish maqsadida yer qa’ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to‘lovlar tushunchasi qanday ma’noni anglatadi va maxsus to‘lovlar nimalar kiradi?
2. Yer qa’ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to‘lovlar to‘lovchilar kimlar hisoblanadi?
3. Yer qa’ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to‘lovlar soliqli tortish obyektlariga nimalar kiradi?
4. Yer qa’ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to‘lovlar bo‘yicha qanday soliq stavkalari mavjud?
5. Yer qa’ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to‘lovlar hisoblash hisoblash tartibi qanday?
6. Yer qa’ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to‘lovlar bo‘yicha qanday imtiyozlar mavjud?
7. Yer qa’ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to‘lovlar to‘lash muddatlarini qanday?

**XII bob. YURIDIK SHAXSLAR TOMONIDAN DAVLAT MAQSADLI  
JAMG‘ARMALARIGA TO‘LANADIGAN MAJBURIY TO‘LOVLAR**

**12.1. Yagona ijtimoiy to‘lovni to‘lovchilar va soliq solish obyekti**

Yagona ijtimoiy to‘lovni to‘lovchilar quyidagilardan iborat:

- O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar.
- O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa, chet ellik yuridik shaxslarning vakolatxonalari va filiallari orqali amalgga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi nerezidentlari.
- Soliq qonunchiligidagi belgilangan tartibga muvofiq yagona ijtimoiy to‘lovni to‘laydigan ayrim toifadagi jismoniy shaxslar.

Soliq qonunchiligidagi ko‘rsatilgan ish haqi tarzidagi daromadlar yagona ijtimoiy to‘loving soliq solish obyekti. Bunda O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslar uchun yagona ijtimoiy to‘loving soliq solish obyekti ularning O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga ishslash uchun yuborilguniga qadar oxirgi ish joyi bo‘yicha olingan, O‘zbekiston Respublikasida byudjet muassasalari xodimlari uchun ish haqi oshirilishi hisobga olingan holda qayta hisoblanadigan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida ishslash uchun chet ellik xodimlarni berish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish shartnomasiga muvofiq yuridik shaxs O‘zbekiston Respublikasi nerezidentiga to‘lanadigan chet ellik xodimlarning daromadlari ham yagona ijtimoiy to‘loving soliq solish obyekti.

Yagona ijtimoiy to‘lovni hisoblab chiqarish uchun soliq solinadigan baza soliq qonunchiligidagi muvofiq to‘lanadigan daromadlar summasi sifatida belgilanadi.

Soliq qonunchiligidagi ko‘rsatilgan daromadlar bo‘yicha yagona ijtimoiy to‘lovni hisoblab chiqarish uchun soliq solinadigan baza chet ellik xodimlarga to‘lanadigan daromadlar summasi sifatida aniqlanadi, biroq bu summa O‘zbekiston Respublikasi hududida ishslash uchun chet ellik xodimlarni berish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish

shartnomasiga doir xarajatlar umumiyligi summasining 90 foizidan kam bo‘lmasligi lozim.

**12.2.Yagona ijtimoiy to‘lov stavkalari va imtiyozlar**

Yagona ijtimoiy to‘lov quyidagilarga nisbatan hisoblanmaydi:

- 1.Mehnatda mayib bo‘lganlik yoki sog‘liqqa boshqacha shikast etganlik bilan bog‘liq zararning o‘rnini qoplash bo‘yicha quyidagi miqdordagi to‘lovlar:

- jabrlanuvchi mehnatda mayib bo‘lganiga qadar olgan o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan foiz hisobidagi, uning kasbga oid mehnat qobiliyatini yo‘qtoganlik darajasiga muvofiq belgilanadigan har oylik to‘lovlar (voyaga etmagan shaxs mehnatda mayib bo‘lib qolgan taqdirda, zararning o‘rni uning ish haqi (daromadi) miqdoridan kelib chiqqan holda, lekin qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining besh baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda qoplanadi).

- maxsus tibbiy parvarishga muhtoj jabrlanuvchilarga qo‘sishimcha xarajatlar uchun oyiga eng kam ish haqining ikki baravari miqdoridagi to‘lovlar.

- jabrlanuvchining maishiy parvarishi uchun qo‘sishimcha xarajatlar tariqasida har oyda eng kam ish haqining ellik foizi miqdoridagi to‘lovlar.

- xodimning sog‘lig‘iga shikast etkazilganligi munosabati bilan ish beruvchi tomonidan bir yo‘la to‘lanadigan nafaqa tariqasida jabrlanuvchining yillik o‘rtacha ish haqi miqdoridagi to‘lovlar miqdorlardan ortiqcha olingan summalarga.

- 2.Quyidagi grant mablag‘lari hisobiga olinadigan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlarga:

- davlatlar, davlatlarning hukumatlari, xalqaro va chet el hukumatga qarashli tashkilotlar tomonidan berilgan grant mablag‘lari.

- O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilanadigan ro‘yxatga kiritilgan xalqaro va chet el nohukumat tashkilotlari tomonidan berilgan grant mablag‘lari.

- O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doirasida berilgan grant mablag‘lari.

- 3.Akstiyadorlik jamiatlarining boshqaruva xodimlari sifatida jalb qilingan chet ellik xodimlarining mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlariga.

4.Paxta yig‘im-terimi bo‘yicha qishloq xo‘jaligi ishlariga jalb qilingan jismoniy shaxslar tomonidan bu ishlarni bajarganlik uchun olinadigan daromadlarga.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida yagona ijtimoiy to‘lov stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

#### **12.2.1-jadval**

T/r	To‘lovchilar	Soliq solinadigan bazaga nisbatan soliq stavkalari, foizda
1.	Byudjet tashkilotlari va davlat korxonalari, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ko‘proq bo‘lgan yuridik shaxslar. qaysi yuridik shaxs ustav fondining (ustav kapitalining) 50 foizi va undan ko‘proq qismi davlat ulushi 50 foiz va undan ko‘proq bo‘lgan yuridik shaxsga tegishli bo‘lsa, o‘scha yuridik shaxslar hamda ularning tarkibiy tuzilmalari	25
2.	Boshqa to‘lovchilar	12

#### **12.3.Yagona ijtimoiy to‘lovni hisoblash va to‘lash tartibi**

Yagona ijtimoiy to‘lov soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda har oyda hisoblab chiqariladi.

Kalendar yil soliq davridir.Yil oyi hisobot davridir.

Yagona ijtimoiy to‘lov ish beruvchining va ayrim toifadagi jismoniy shaxslarning mablag‘lari hisobidan to‘lanadi.

Yagona ijtimoiy to‘loving hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to‘lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi. O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan yil yakunlari bo‘yicha

yagona ijtimoiy to‘lovga doir hisob-kitob hisobot yilidan keyingi yilning 25 martiga qadar taqdim etiladi.

Yagona ijtimoiy to‘lovni to‘lash har oyda, hisob-kitoblarni taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Yagona ijtimoiy to‘lov soliq to‘lovchining kalendar oyda ishlagan kunlari sonidan qat’i nazar majburiy tartibda quyidagicha to‘lanadi:

1.Yakka tartibdagи tadbirkorlar tomonidan oyiga eng kam ish haqidan kam bo‘lmagan miqdorda.

2.Yakka tartibdagи tadbirkorlar bilan mehnat munosabatlarda bo‘lgan jismoniy shaxslar tomonidan oyiga eng kam ish haqining 50 foizi miqdorida.

3.Yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshiruvchi oila a’zolari tomonidan:

- yakka tartibdagи tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tgan oila a’zosi tomonidan oyiga eng kam ish haqidan kam bo‘lmagan miqdorda.

- oilaning boshqa a’zolari tomonidan o’n sakkiz yoshga to‘lmaganlardan tashqari oyiga eng kam ish haqining 50 foizi miqdorida.

4.Qishloq joylarda ro‘yxatdan o‘tgan va faoliyatini amalga oshirayotgan hunarmandchilik subyektlari «Hunarmand» uyushmasining a’zolari tomonidan o‘z faoliyatining dastlabki ikki yili mobaynida oyiga eng kam ish haqining 50 foizi miqdorida.

5.«Usta-shogird» maktabi o‘quvchilari tomonidan ularning 25 yoshga to‘lguniga qadar bo‘lgan ish davrida yiliga eng kam oylik ish haqining 2,5 baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda. Belgilangan miqdordagi yagona ijtimoiy to‘loving to‘lanishi mehnat stajini hisoblab chiqarishda bir yil deb hisobga olinadi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklarining a’zolari, shuningdek maydoni to‘rt sotixdan kam bo‘lmagan dehqon xo‘jaligida, tomorqa erida band bo‘lgan yoki ushbu maydonda qoramol yoxud 50 boshdan kam bo‘lmagan parranda parvarishlayotgan jismoniy shaxslar yiliga eng kam oylik ish haqining kamida bir baravari miqdorida yagona ijtimoiy to‘lov to‘laydi. Bunda dehqon xo‘jaligi rahbari yagona ijtimoiy to‘lovni majburiy tartibda

to‘laydi, boshqa a’zolari va ko‘rsatilgan jismoniy shaxslar esa ixtiyoriy asosda to‘laydi. Belgilangan miqdordagi yagona ijtimoiy to‘lovning to‘lanishi dehqon xo‘jaligi a’zosining va jismoniy shaxsning mehnat stajini hisoblab chiqarishda bir yil deb hisobga olinadi.

Yoshga doir pensiya va nafaqa oluvchi hunarmandchilik subyektlari «Hunarmand» uyushmasining a’zolari yagona ijtimoiy to‘lovni to‘lashdan ozod etiladi, yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo‘lgan boshqa shaxslar, shuningdek I va II guruh nogironi bo‘lgan shaxslar uchun esa yagona ijtimoiy to‘lovning miqdori uning belgilangan eng kam miqdorining kamida 50 foizini tashkil etishi kerak. Mazkur imtiyozlar pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma’lumotnomasi asosida beriladi. Imtiyozga bo‘lgan huquq kalendar yil davomida vujudga kelgan yoki bekor bo‘lgan taqdirda, yagona ijtimoiy to‘lovni qayta hisob-kitob qilish ushbu huquq vujudga kelgan yoki bekor bo‘lgan oydan e’tiboran amalga oshiriladi.

Yagona ijtimoiy to‘lovni to‘lash quyidagicha amalga oshiriladi:

- yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan tomonidan har oyda, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 25-kunidan kechiktirmay.
- yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklarining a’zolari tomonidan hisobot yilining 1 oktyabrigacha. Bunda yagona ijtimoiy to‘lovning miqdori to‘lov kuniga belgilangan eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yangi ro‘yxatdan o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshiruvchi oila a’zolari tomonidan yagona ijtimoiy to‘lovni to‘lash ular yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan oydan keyingi oydan boshlab amalga oshiriladi.

Yagona ijtimoiy to‘lovni to‘lash majburiyati quyidagilarning:

- yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshirayotgan oila a’zolari uchun oilaviy tadbirkorlik subyekti

nomidan ish yuritadigan, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tgan oila a’zosining.

- yakka tartibdagi tadbirkorning xodimlari uchun ushbu xodimlar bilan mehnat shartnomasini tuzgan yakka tartibdagi tadbirkorning zimmasiga yuklatiladi.

To‘lov topshiriqnomasida (kirim orderida) soliq to‘lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, identifikasiya raqami va to‘lov to‘lanayotgan davr albatta ko‘rsatilishi shart. Bunda oila a’zolari — oilaviy tadbirkorlik ishtirokchilari va xodim yollagan yakka tartibdagi tadbirkorlar bo‘yicha to‘lov topshiriqnomasi (kirim orderi) har bir oila a’zosi uchun va yakka tartibdagi tadbirkorning har bir yollangan xodimi uchun alohida-alohida yoziladi. Agar to‘lov topshiriqnomasida (kirim orderida) davr ko‘rsatilmagan bo‘lsa, to‘lov u amalga oshirilayotgan oy (dehqon xo‘jaliklari a’zolari uchun yil) uchun to‘langan deb hisoblanadi.

Qonun hujjaligiga muvofiq yagona ijtimoiy to‘lovni hisoblash va ushlab qolish majburiyati zimmasiga yuklatilmagan ish beruvchidan daromadlar oluvchi jismoniy shaxslar yagona ijtimoiy to‘lovni jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklarastiyyada ko‘rsatilgan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar summasidan kelib chiqqan holda, yagona ijtimoiy to‘lovni to‘lash haqida jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklarastiyyani taqdim etish bilan bir vaqtida beriladigan ariza asosida ixtiyoriy ravishda to‘laydi.

Soliq qonunchiligidida ko‘rsatilgan shaxslar tomonidan yagona ijtimoiy to‘lovni to‘lash jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklarastiyya ma’lumotlari bo‘yicha davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqariladigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lash muddatlarida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlarining, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslarning yagona ijtimoiy to‘lovni to‘lash bo‘yicha majburiyati O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining zimmasiga yuklatiladi. Yagona ijtimoiy to‘lovni to‘lash har oyda, hisob-kitoblarni taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan olingen har bir yollangan xodim uchun belgilangan tartibda berilgan hisobga olish kartochkalari yakka tartibdagi tadbirkor o‘z faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimiga yagona ijtimoiy to‘lovni hisoblashni to‘xtatish turish uchun asos bo‘ladi.

Agar faoliyatini to‘xtatgan yakka tartibdagi tadbirkor yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimi uchun hisobga olish kartochkasini davlat soliq xizmati organiga belgilangan muddatlarda taqdim etmasa, yakka tartibdagi tadbirkorning majburiyatlari bo‘yicha yagona ijtimoiy to‘lovni hisoblash to‘xtatilmaydi.

#### **12.4. Avtotransport yig‘imlarini to‘lovchilar va soliq solish obyekti**

Avtotransport yig‘imlarini jumlasiga quyidagilar kiradi.

- avtotransport vositalarini olganlik va O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig‘im.
- chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o‘tganligi uchun yig‘im.

Avtotransport vositalarini oluvchi O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirishni amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari avtotransport vositalarini olganlik va O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig‘im to‘lovchilardir.

Chet davlatlar avtotransport vositalarining egalari yoki foydalanuvchilari ushbu vositalarning O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o‘tganligi uchun yig‘im to‘lovchilardir.

Yig‘imlar uchun soliq solish obyekti quyidagilardir:

- avtotransport vositalarini olish va O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish.
- chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va uning hududi orqali tranzit tarzida o‘tish.

Soliq solinadigan baza quyidagilardir:

- olingen va O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kiriladigan avtotransport vositalari dvigatelining ot kuchidagi quvvati yoki avtotransport vositalarining qiymati.

- O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganida yoki uning hududi orqali tranzit tarzida o‘tganida chet davlatlarning avtotransport vositalari.

#### **12.5. Avtotransport yig‘imlari stavkalarini va imtiyozlari**

Avtotransport vositalarini olish va O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig‘imni to‘lashdan quyidagilar ozod qilinadilar:

- 1) Ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan qo‘l bilan boshqarishga moslashtirilgan engil avtomobilni va motoaravachani oluvchi barcha guruhlardagi nogironlar.
- 2) Yaqin qarindoshlaridan hadya shartnomasi yoki meros asosida avtomobillar va motoaravachalar oluvchi fuqarolar.
- 3) Faoliyatining asosiy turi yo‘lovchilar tashish bo‘lgan, qonun hujjatlariga muvofiq yo‘lovchilar tashish uchun belgilangan namunadagi listenziyaga ega bo‘lgan avtotransport korxonalari yo‘lovchilar tashishni amalga oshiruvchi transport vositalari bo‘yicha.
- 4) Yuridik shaxslar qirq tonnadan ortiq yuk ko‘taradigan, olingen kon avtosamosvallari bo‘yicha.
- 5) Homiylik (beg‘araz) yordami sifatida avtomobilarni olgan (sotib olgan) bolalar uylari, ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar, nogiron bolalar uchun markazlar, qariyalar va kichik yoshdagи nogironlar uchun internat-uylar, shuningdek byudjet hisobidan moliyalashtiriladigan tibbiyot muassasalari.
- 6) Yuridik shaxslar avtotransport vositalarini bitta tizim (davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi) ichida balansdan balansga bepul o‘tkazishda.
- 7) Qayta tashkil etish natijasida avtotransport vositasini olgan huquqiy voris.
- 8) Avtotransport vositalarini yuridik shaxslarga lizingga berish uchun oluvchi lizing beruvchilar.

## **12.6. Avtotransport yig‘imlarini hisoblash va to‘lash tartibi**

Avtotransport vositalarini olganlik va O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig‘im ular O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilayotganda, qayta ro‘yxatdan o‘tkazilayotganda quyidagi hollarda undiriladi:

- 1) Avtotransport vositalari oldi-sotdi, almashtirish, hadya, bepul berish shartnomasi asosida, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa bitimlar asosida mulk qilib olinganda.
- 2) Avtotransport vositalari yuridik shaxsnинг ustav fondiga (ustav kapitaliga) yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda dividendlar sifatida olinganda.
- 3) Avtotransport vositalari lizingga berish uchun olinganda. Yig‘im taraflarning yozma kelishuviga ko‘ra lizing beruvchidan yoki lizing oluvchidan undiriladi. Lizing beruvchi O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan taqdirda, yig‘im lizing oluvchidan undiriladi. Lizing shartnomasi muddati tugaganidan so‘ng mazkur lizing (ikkilamchi lizing) shartnomasi predmeti bo‘lgan avtotransport vositasi qayta ro‘yxatdan o‘tkazilayotganida takroran yig‘im undirilmaydi.
- 4) Avtotransport vositalari O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirilganda.

Avtotransport vositalarini olish va O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig‘im to‘langanligi to‘g‘risidagi hujjat taqdim etilmagan holda avtotransport vositalarini ro‘yxatdan o‘tkazish, qayta ro‘yxatdan o‘tkazish yoki texnik ko‘rikdan o‘tkazish amalga oshirilmaydi.

Chet davlatlar avtotransport vositalari O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o‘tganligi uchun yig‘im chet davlatning avtotransport vositasi O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirayotganida undiriladi.

### **Takrorlash uchun savollar**

- 1.Yagona ijtimoiy to‘lovni to‘lovchilar va soliq solish obyektini tushuntirib bering?
- 2.Yagona ijtimoiy to‘lov stavkalari va imtiyozlari nimalardan iborat?

3.Yagona ijtimoiy to‘lovni hisoblash va to‘lash qanday amalga oshiriladi?

- 4.Avtotransport yig‘imlarini to‘lovchilar va soliq solish obyektini tushuntirib bering?
- 5.Avtotransport yig‘imlari stavkalari va imtiyozlarini tushuntiring?
- 6.Avtotransport yig‘imlarini hisoblash va to‘lash qanday amalga oshiriladi?

### XIII bob. DAVLAT BOJI VA BOJXONA TO‘LOVLARI

#### 13.1. Davlat boji va bojxona to‘lovlarini undirish obyekti va to‘lovchilar

##### tarkibi

Davlat boji yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik va bunday harakatlar uchun vakolatli muassasalar va mansabdor shaxslar tomonidan hujjatlar bergenlik uchun olinadigan majburiy to‘lovdir.

Yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirilishi va hujjatlar berilishi xususida vakolatli muassasalar va mansabdor shaxslarga murojaat qilayotgan yuridik va jismoniy shaxslar davlat bojini to‘lovchilardir.

Davlat boji quyidagilardan undiriladi:

- fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarga beriladigan da’vo arizalaridan, davlat boshqaruvi organlarining, ma’muriy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo‘lgan boshqa organlarning, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan berilgan arizalardan (shikoyatlardan), alohida tartibda yuritiladigan ishlarga doir arizalardan, fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarning hal qiluv qarorlari, ish yuritishni tugatish to‘g‘risidagi, da’voni ko‘rmasdan qoldirish to‘g‘risidagi, sud jarimalarini solish to‘g‘risidagi ajrimlar ustidan beriladigan apellyastiya, kassastiya shikoyatlaridan va nazorat tartibidagi shikoyatlardan, hakamlik sudining hal qiluv qarorlari yuzasidan nizolashish haqidagi arizalardan, hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini majburiy iじro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi arizalardan, hakamlik sudining hal qiluv qarorlari yuzasidan nizolashish haqidagi, hakamlik sudining hal qiluv qarorlari yuzasidan fuqarolik ishlari bo‘yicha sud ajrimlari ustidan beriladigan apellyastiya, kassastiya shikoyatlaridan va nazorat tartibidagi shikoyatlardan, chet davlat sudining hamda chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish haqidagi arizalardan, chet davlat sudining hamda chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to‘g‘risidagi ishlar yuzasidan fuqarolik ishlari bo‘yicha sud ajrimlari ustidan beriladigan apellyastiya, kassastiya shikoyatlaridan va nazorat tartibidagi shikoyatlardan,

shuningdek fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan hujjatlarning dublikatlari va ko‘chirma nusxalarini bergenlik uchun.

- iqtisodiy sudlarga beriladigan da’vo arizalaridan, tashkilotlarni va fuqarolarni bankrot deb topish to‘g‘risidagi arizalardan, nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxs sifatida ishga kirishish haqidagi arizalardan, iqtisodiyot sohasida yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning huquqlari yuzaga kelishi, o‘zgarishi yoki bekor bo‘lishi uchun ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni aniqlash to‘g‘risidagi arizalardan, iqtisodiy sudning hal qiluv qarorlari, ish yuritishni tugatish haqidagi, da’voni ko‘rmasdan qoldirish to‘g‘risidagi, sud jarimalarini solish haqidagi ajrimlar ustidan beriladigan apellyastiya, kassastiya va nazorat shikoyatlaridan, hakamlik sudining hal qiluv qarorlari yuzasidan nizolashish to‘g‘risidagi, hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini majburiy iじro etish uchun ijro varaqasi berish haqidagi arizalardan, hakamlik sudining hal qiluv qarorlari yuzasidan nizolashish to‘g‘risidagi, hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini majburiy iじro etish uchun ijro varaqasi berish haqidagi ishlar bo‘yicha iqtisodiy sud ajrimlari ustidan beriladigan apellyastiya, kassastiya va nazorat shikoyatlaridan, chet davlat sudining yoki arbitrajining hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to‘g‘risidagi arizalardan, chet davlat sudining yoki arbitrajining hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish haqidagi ishlar bo‘yicha sud ajrimlari ustidan beriladigan apellyastiya, kassastiya va nazorat shikoyatlaridan, shuningdek iqtisodiy sudlar tomonidan hujjatlarning dublikatlari va ko‘chirma nusxalarini bergenlik uchun.

- ma’muriy sudlarga beriladigan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar yuzasidan nizolashish to‘g‘risidagi arizalardan, davlat boshqaruvi organlarining, ma’muriy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo‘lgan boshqa organlarning, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to‘g‘risidagi, saylov komissiyalarining harakatlari (qarorlari) yuzasidan nizolashish haqidagi, notarial harakatni sodir etishni, fuqarolik holati dalolatnomalarining yozuvlarini qayd etishni rad etganlik yuzasidan nizolashish yoxud notariusning yoki fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi mansabdor shaxsining harakatlari

(harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to‘g‘risidagi, davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni rad etganlik yoxud belgilangan muddatda davlat ro‘yxatidan o‘tkazishdan bo‘yin tovlaganlik ustidan beriladigan shikoyatlardan, ma’muriy sudlarning hal qiluv qarorlari, ish yuritishni tugatish to‘g‘risidagi, da’voni ko‘rmasdan qoldirish haqidagi, sud jarimalarini solish to‘g‘risidagi ajrimlar ustidan beriladigan apellyastiya, kassastiya va nazorat shikoyatlaridan, shuningdek ma’muriy sudlar tomonidan hujjatlarning dublikatlari va ko‘chirma nuxxalarini berganlik uchun.

- notariuslar va O‘zbekiston Respublikasining konsullari tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirganlik uchun.

- fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etganlik uchun, shuningdek fuqarolarga fuqarolik holati dalolatnomalari qayd etilganligi to‘g‘risida takroriy guvohnoma bergenlik uchun hamda fuqarolik holati dalolatnomalari yozuviga o‘zgartishlar, qo‘sishchalar, tuzatishlar kiritilishi va uning qayta tiklanishi munosabati bilan guvohnoma bergenlik uchun.

- chet eldan O‘zbekiston Respublikasiga kelish huquqini beruvchi hujjatlarni, O‘zbekiston Respublikasiga taklif qilish to‘g‘risida hujjatlarni bergenlik uchun. yashash guvohnomasini bergenlik yoki uning muddatini uzaytirganlik uchun. respublika hududiga kelish va respublika hududidan chet elga chiqish huquqini beradigan chet el pasportiga yoki uning o‘rnini bosuvchi hujjatga viza bergenlik uchun, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish va O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish to‘g‘risida beriladigan arizalardan.

- O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi pasportini yoki uning o‘rnini bosuvchi hujjatlarni, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga chet elga chiqish huquqi uchun hujjatlar bergenlik uchun.

- O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini turar joyga qayd etganlik va ro‘yxatdan chiqarganlik, turgan joyi bo‘yicha hisobga olganlik uchun, shuningdek chet davlatlar fuqarolarini hamda fuqaroligi bo‘limgan shaxslarni turar joyga qayd etganlik va ro‘yxatdan chiqarganlik uchun.

- yuridik shaxslarni va yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazganlik uchun.

- faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirishga listenziya bergenlik uchun.
- ov qilish huquqiga ega ekanligi to‘g‘risida ruxsatnoma bergenlik uchun.

Qo‘silgan qiymat solig‘i to‘lovchilar quyidagilardir:

- tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar, o‘z ehtiyojlari uchun bojsiz olib kirish normalari doirasida tovarlar olib kiruvchi jismoniy shaxslar bundan mustasno.

Quyidagilar qo‘silgan qiymat solig‘i to‘lovchilar hisoblanmaydi:

- notijorat tashkilotlar.
- soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

Yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar bo‘lgan yuridik shaxslar soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yilning navbatdagi choragi boshlanguniga qadar bir oydan kechiktirmsandan, yangi tashkil etilayotgan yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar bo‘lgan yuridik shaxslar esa faoliyat boshlanguniga qadar taqdim etiladigan yozma bildirishga asosan ixtiyoriy asosda qo‘silgan qiymat solig‘ini to‘lashi mumkin.

Alovida toifadagi soliq to‘lovchilar uchun qo‘silgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lashning soddalashtirilgan tartibi 2021 yil 1 yanvargacha bo‘lgan davrga belgilanadi.

Soliq solish obyekti quyidagilardir:

- soliq solinadigan import.

Qo‘silgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lashning soddalashtirilgan tartibi doirasida quyidagilar soliq solish obyekti hisoblanadi:

- Soliq qonunchilida belgilangan tartibda aniqlanadigan soliq solinadigan import.

O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar soliq solinadigan importdir. Import qilingan tovarlar realizastiya qilinganda, soliq solinadigan baza realizastiya qilinayotgan tovarlarning qo‘silgan qiymat solig‘i kiritilmagan qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bunda soliq solinadigan baza mazkur tovar import qilinganda qo‘silgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish uchun qabul qilingan qiymatdan past bo‘lishi mumkin emas.

Aksiz to‘lanadigan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha soliq solinadigan bazaga aksiz solig‘ining summasi kiritiladi.

Baholari (tariflari) davlat tomonidan tartibga solinishi nazarda tutilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizastiya qilinganda, soliq solinadigan baza belgilangan baholardan (tariflardan) kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Transport ekspedistiyasi shartnomasi bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatilgan taqdirda, ekspeditoring soliq solinadigan bazasi qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini ham o‘z ichiga oladigan, ko‘rsatilgan xizmatlar uchun haq tariqasida olinishi lozim bo‘lgan summadan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Vositachilik shartnomasi, topshiriq yoki vositachilik xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha boshqa shartnoma asosida o‘zga shaxsning manfaatlarini ko‘zlab xizmatlar ko‘rsatilgan taqdirda, qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha soliq solinadigan baza qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini ham o‘z ichiga oladigan, ko‘rsatilgan xizmatlar uchun haq (foiz) tariqasida olinishi lozim bo‘lgan summadan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Vositachilik, topshiriq shartnomasiga binoan komitent yoki topshiriq beruvchi O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan taqdirda, soliq solinadigan baza realizastiya qilinayotgan tovarlarning qo‘shilgan qiymat solig‘i kiritilmagan qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bunda soliq solinadigan baza mazkur tovar import qilinganida qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish uchun qabul qilingan qiymatdan past bo‘lishi mumkin emas.

Tovarlarni import qilishda soliq solinadigan bazaga tovarlarning bojxona to‘g‘risidagi gonun hujjaliga muvofiq belgilanadigan bojxona qiymati, shuningdek O‘zbekiston Respublikasiga tovarlarni import qilishda to‘lanishi lozim bo‘lgan aksiz solig‘ining, bojxona bojlarining summalari kiradi.

Aksiz solig‘i to‘lovchi yuridik va jismoniy shaxslar quyidagilardir:

- O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz to‘lanadigan tovarlarni import qiluvchilar.

Aksiz to‘lanadigan tovarlarning ayrim turlari bo‘yicha aksiz to‘lanadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi bo‘lмаган shaxs O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan aksiz solig‘ini to‘lovchi etib belgilanishi mumkin.

Quyidagi operastiyalar aksiz solig‘i solinadigan obyektdir:

- aksiz to‘lanadigan tovarlarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilish.

Quyidagilarga aksiz solig‘i solinmaydi:

1) Aksiz to‘lanadigan tovarlarni ularning ishlab chiqaruvchilari tomonidan eksportga realizastiya qilishga.

2) Keyinchalik O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqib ketilishi sharti bilan «bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlardan ishlab chiqarilgan qayta ishlash mahsuli bo‘lgan aksiz to‘lanadigan tovarlarni topshirishga.

3) O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda insonparvarlik yordami sifatida.

Davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan xayriya yordami maqsadida, shu jumladan texnik ko‘mak ko‘rsatish maqsadida.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo‘yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan zayomlar (kreditlar) mablag‘lari hisobiga, shuningdek grantlar hisobiga yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan, aksiz to‘lanadigan tovarlarni import qilishga.

4) aksiz to‘lanadigan tovarlarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz solig‘i solinmaydigan tovarlarni olib kirish normalari doirasida jismoniy shaxslar tomonidan import qilishga. O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz solig‘i solinmaydigan tovarlarni jismoniy shaxslar tomonidan olib kirish normalarining eng yuqori chegarasi qonun hujjalarda belgilanadi.

5) vakolatli davlat organining yozma tasdig‘i mavjud bo‘lgan taqdirda, telekommunikastiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik

vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor qidiruv tadbirlari tizimi texnik vositalarini import qilishga.

### **13.2. Davlat boji va bojxona to'lovlar stavrakalari va soliq imtiyozlari**

Tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o'tishda quyidagi bojxona to'lovlarini to'lanadi:

- Bojxona boji.
- Qo'shilgan qiymat solig'i.
- Aksiz solig'i.
- Bojxona yig'imlari.

Bojxona bojlarining va soliqlarning stavrakalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

Import bojxona bojlari stavrakalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi "O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada tartibga solish hamda bojxona-tarif jihatdan tartibga solish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to 'g'risida"gi PQ-3818-son qarorida belgilangan.

Bojxona bojlariga import, eksport, alohida (maxsus, antidemping va kompensastiya) va mavsumiy bojxona bojlari kiradi.

Import bojxona boji tovar bojxona hududiga olib kirilayotganda to'lanadi.

Eksport bojxona boji tovar bojxona hududidan olib chiqilayotganda to'lanadi.

Alohida (maxsus, antidemping va kompensastiya) bojxona bojlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida qo'llaniladi.

Mavsumiy bojxona bojlari tovarlarni bojxona hududiga olib kirish va bojxona hududidan olib chiqishni tezkor tartibga solib turish uchun qo'llaniladi. Bunda boj tarifida nazarda tutilgan bojxona bojlarining stavrakalari qo'llanilmaydi. Mavsumiy bojxona bojlarining amal qilish muddati ular belgilangan paytdan e'tiboran olti oydan oshmasligi kerak.

Bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlarga soliq va bojxona to 'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i solinadi.

Bojxona organlari tomonidan quyidagi harakatlar yoki tartib-taomillar bajarilganligi uchun bojxona yig'imlari undiriladi:

- Bojxona rasmiylashtiruvi.
- Bojxona rasmiylashtiruvi uchun belgilangan joylardan tashqaridagi va bojxona organlarining ish vaqtidan tashqari vaqtidagi bojxona rasmiylashtiruvi.
- Tovarlarni bojxona organi egaligidagi bojxona omborida saqlash.
- Transport vositasini bojxona hamrohligida kuzatib borish.
- Dastlabki qarorni qabul qilish.
- Tovarlarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlashga, tovarlarni bojxona hududida qayta ishlashga ruxsatnomalar berish.
- Intellektual mulk obyektlarini intellektual mulk obyektlarining bojxona reestriga kiritish.
- Yuridik shaxslar tomonidan olib kiriladigan naqd chet el valyutasining bojxona rasmiylashtiruvi.

Bojxona yig'imlarning stavrakalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Davlat bojining stavrakalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Boj tarifi bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasiga muvofiq tizimlashtirilgan tovarlarga nisbatan qo'llaniladigan bojxona bojlari stavrakalining jamlanmasidir.

Tashqi savdo siyosatini amalga oshirishda tovarlarning ayrim turlari uchun tarif kvotalari joriy etilishi mumkin.

Tarif kvotasi muayyan davrda tovarning muayyan miqdorini olib kirish va olib chiqishda bojxona bojining boj tarifiga muvofiq qo'llaniladigan stavrakaliga nisbatan pastroq bojxona boji stavrakalari qo'llanilishini nazarda tutuvchi, tovarlarni bojxona hududiga olib kirish va undan olib chiqishda boj tarifini tartibga soluvchi choradir.

### 13.2.1-jadval

**Ko‘chmas mol-mulkni boshqa shaxsga o‘tkazish bilan bog‘liq shartnomalarni tasdiqlaganlik uchun davlat boji quyidagi miqdorlari<sup>19</sup>**

Ko‘chmas mol-mulk joylashgan joy	Ko‘chmas mol-mulkning umumiyligining maydoniga qarab:		
	100 kv.m gacha bo‘lganda	100 kv.m dan 200 kv.m. gacha bo‘lganda	200 kv.m va undan ortiq bo‘lganda
Toshkent, Nukus shaharlari va viloyat markazlari	eng kam oylik ish haqining 1 baravari miqdorida	eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida	eng kam oylik ish haqining 3 baravari miqdorida
Boshqa aholi punktlari	eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida	eng kam oylik ish haqining 1 baravari miqdorida	eng kam oylik ish haqining 1,5 baravari miqdorida

13.2.1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, ko‘chmas mol-mulk Toshkent, Nukus shaharlari va viloyat markazlari bo‘lganda ko‘chmas mol-mulkning umumiyligining maydoniga qarab eng kam oylik ish haqining 1 baravari miqdorida 3 baravari miqdorigacha belgilangan.

### 13.2.2-jadval

**Garov, ipoteka va lizing shartnomalarini tasdiqlaganlik hamda ularga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritganlik uchun davlat boji quyidagi miqdorlari<sup>20</sup>**

Bitim ishtirokchilari (taraflari)	Shartnoma summasiga qarab:		
	Eng kam oylik ish haqining 1000 baravarigacha	Eng kam oylik ish haqining 1000 baravaridan 5000 baravarigacha	Eng kam oylik ish haqining 5000 baravari va undan ortiq bo‘lganda
Jismoniy shaxslar uchun	eng kam oylik ish haqining 1 baravari miqdorida	eng kam oylik ish haqining 1,5 baravari miqdorida	eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida
Yuridik shaxslar uchun	eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida	eng kam oylik ish haqining 3 baravari miqdorida	eng kam oylik ish haqining 4 baravari miqdorida

13.2.2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, bitim ishtirokchilari shartnoma summasiga qarab eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida 4 baravari miqdorigacha belgilangan. Belgilangan miqdordan (kvotadan) ortiq miqdorda bojxona hududiga olib kiriladigan va bu hududdan olib chiqiladigan tovarlarga bojxona bojining boj tarifiga muvofiq stavkasi qo’llaniladi.

Tarif kvotalari, ularni tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari o‘rtasida taqsimlash usullari va tartibi qonun hujjalarda belgilanadi.

<sup>19</sup> <http://www.mf.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ma’lumotlari

<sup>20</sup> <http://www.mf.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ma’lumotlari

### 13.2.3-jadval

#### Qarz shartnomalarini tasdiqlaganlik uchun davlat boji quyidagi miqdorlari<sup>21</sup>

Shartnoma summasiga qarab:		
Eng kam oylik ish haqining 100 baravarigacha	Eng kam oylik ish haqining 100 baravaridan 300 baravarigacha	Eng kam oylik ish haqining 300 baravari va undan ortiq bo'lganda
eng kam oylik ish haqining 25 foizi miqdorida	eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida	eng kam oylik ish haqining 1 baravari miqdorida

13.2.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, qarz shartnomalarini tasdiqlaganlik uchun davlat boji shartnoma summasiga qarab eng kam oylik ish haqining 25 foizi miqdoridan 1 baravari miqdorigacha belgilangan.

### 13.2.4-jadval

#### Avtomototransport vositalarini boshqa shaxsga o'tkazish shartnomalarini tasdiqlaganlik uchun davlat boji miqdorlari<sup>22</sup>

Transport vositasining dvigatel quvvati bo'yicha	Ishlab chiqarilgan muddatiga qarab:		
	3 yilgacha bo'lganda	3 yildan 7 yilgacha bo'lganda	7 yil va undan ortiq bo'lganda
60 ot kuchigacha bo'lganda	eng kam oylik ish haqining 4 baravari miqdorida	eng kam oylik ish haqining 3 baravari miqdorida	eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida
60 ot kuchidan 110 ot kuchigacha	eng kam oylik ish haqining	eng kam oylik ish haqining	eng kam oylik ish haqining

bo'lganda	6 baravari miqdorida	4 baravari miqdorida	3 baravari miqdorida
110 ot kuchidan yuqori bo'lganda	eng kam oylik ish haqining 10 baravari miqdorida	eng kam oylik ish haqining 8 baravari miqdorida	eng kam oylik ish haqining 5 baravari miqdorida
Bitta mototransport, motokolyaska, motoqayiq uchun	eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida	eng kam oylik ish haqining 25 foizi miqdorida	eng kam oylik ish haqining 10 foizi miqdorida

13.2.4-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, avtomototransport vositalarini boshqa shaxsga o'tkazish shartnomalarini tasdiqlaganlik uchun davlat boji ishlab chiqarilgan muddatiga qarab eng kam oylik ish haqining 4 baravari miqdoridan 2 baravari miqdorigacha belgilangan.

Iqtisodiy sudlarda davlat bojini to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) arizachi va javobgar qonun hujjalardan belgilangan muddatlarda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va (yoki) o'z ustav fondini (ustav kapitalini) shakllantirmagan korxonalarni tugatishga doir ishlar bo'yicha.

2) da'vogarlar o'rmon daraxtlarini o'zboshimchalik bilan kesish hamda o'rmonidan foydalanish, o'rmonni qo'riqlash va muhofaza qilish tartibi va shartlarini boshqacha tarzda buzish tufayli o'rmon fondiga etkazilgan zararni undirish to'g'risidagi, o'rmon xo'jaligi daromadi summalarini (shu jumladan, o'rmon daraxtlarini o'sib turgan joyida sotish qoidalarini buzganlik uchun zarar va neustoykani, shuningdek o'zboshimchalik bilan o'rmon daraxtlarini kesganlik, pichan o'rganlik va mollarni o'tlatganlik uchun jarimalarni) undirish to'g'risidagi ishlar bo'yicha.

3) O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi va uning hududiy boshqarmalari palata a'zolarining manfaatlarini, shuningdek o'z manfaatlarini ko'zlab qilingan da'volar yuzasidan.

<sup>21</sup> <http://www.mf.uz> – O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ma'lumotlari

<sup>22</sup> <http://www.mf.uz> – O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ma'lumotlari

4) Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha hududiy kengashlar fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari manfaatlarini ko‘zlab qilingan da’volar bo‘yicha.

5) Nogironlarning jamoat birlashmalari, shuningdek ularning muassasalarini, o‘quv-ishlab chiqarish korxonalari va birlashmalari barcha da’volar bo‘yicha.

6) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining hududiy bo‘linmalari «Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risidagi»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq pensiyalarini to‘lashga ketgan mablag‘larni tashkilotlardan undirib olish bo‘yicha da’volar, shu jumladan regress da’volar yuzasidan.

7) Sug‘urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish organi majburiy sug‘urta operastiyalari bilan bog‘liq barcha ishlar bo‘yicha.

8) O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi huzuridagi Agrosanoat majmui va oziq-ovqat xavfsizligi ta’minlanishi ustidan nazorat qilish inspekstiyasi hamda ularning joylardagi organlari suv to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik tufayli davlatga etkazilgan zararning o‘rnini qoplash uchun mablag‘larni davlat daromadiga undirish to‘g‘risidagi da’volar bo‘yicha.

9) O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi va uning joylardagi organlari atrof-muhitni ifloslantirganlik, tabiatdan o‘zboshimchalik bilan foydalanganlik va tabiiy resurslardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilishning tartib va shartlarini boshqacha tarzda buzganlik tufayli tabiiy obyektlarga va komplekslarga etkazilgan zararning o‘rmini qoplash to‘g‘risidagi da’volar bo‘yicha.

10) O‘zbekiston Respublikasining Xususiyashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi hamda uning hududiy organlari qo‘mita vakolatlariga muvofiq sudlarga beriladigan da’volar va arizalar yuzasidan.

11) Qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi investorlarning, qimmatli qog‘ozlar egalarining hamda davlatning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadidagi da’volar bo‘yicha.

12) Davlat soliq xizmati organlari, moliya va bojxona organlari barcha ishlar hamda hujjatlar bo‘yicha, shuningdek alohida yuritiladigan ishlar bo‘yicha sudga arizalar berganlik uchun.

13) Prokuratura organlari davlatning, yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab qilingan da’volar hamda beriladigan arizalar yuzasidan.

14) Adliya organlari davlatning, yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab qilingan da’volar hamda beriladigan arizalar yuzasidan.

15) Undiruvchi yoki davlat ijrochisi qonunda nazarda tutilgan taqdirda, qarzdorni yoki uning mol-mulkini qidirish bo‘yicha xarajatlarning o‘rnini qarz dor tomonidan qoplash to‘g‘risidagi da’volar yuzasidan.

16) Xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan hukumatlararo kelishuvlar asosida berilgan kreditlar bo‘yicha asosiy qarzdor sifatida qatnashuvchi davlat organlari va tashkilotlari subzayom oluvchilardan paydo bo‘lgan qarz dorliklarni undirish to‘g‘risidagi da’volar yuzasidan.

17) Davlat ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) etkazib berish shartnomalari bo‘yicha sotib oluvchi hisoblangan davlat organlari va tashkilotlari etkazib beruvchilar (pudratchilar) tomonidan shartnoma majburiyatlarining bajarilmaganligi bilan bog‘liq da’volar yuzasidan.

18) O‘zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligi intellektual mulk obyektlariga nisbatan huquq egalarining huquqlarini himoya qilishni ko‘zlab qilinadigan da’volar yuzasidan.

19) O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa er egalari kengashi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va tumanlar fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa er egalari kengashlari fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa er egalarining manfaatlarini ko‘zlab qilingan da’volar yuzasidan.

20) Arizachi va javobgar huquqiy ta’sir choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha.

21) Xorijiy investisiyalar ishtirokidagi akstiyadorlik jamiyatlari ularning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilganligi to‘g‘risidagi da‘volar yuzasidan.

22) Tadbirkorlik subyektlari hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risida ariza berganda.

23) O‘zbekiston Respublikasi Er resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo‘mitasi, uning joylardagi organlari er to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilganligi bilan bog‘liq da‘volar bo‘yicha.

Ma‘muriy sudlarda davlat bojini to‘lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) Tadbirkorlik subyektlari tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzayotgan davlat boshqaruvi organlarining, ma‘muriy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo‘lgan boshqa organlarning, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, ular mansabdar shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga murojaat qilganda.

2) O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi va uning hududiy boshqarmalari davlat boshqaruvi organlarining, ma‘muriy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo‘lgan boshqa organlarning, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, ular mansabdar shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan palata a‘zolarining manfaatlarini, shuningdek o‘z manfaatlarini ko‘zlab berilgan arizalar bo‘yicha.

3) Nodavlat notijorat tashkilotlari o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzayotgan davlat organlarining g‘ayriqonuniy qarorlari, ular mansabdar shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilganda.

4) Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha hududiy kengashlar fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzayotgan davlat boshqaruvi organlarining, ma‘muriy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo‘lgan boshqa organlarning, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, ular mansabdar shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilganda.

5) Nogironlarning jamoat birlashmalari, shuningdek ularning muassasalari, o‘quv-ishlab chiqarish korxonalari va birlashmalari o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzayotgan davlat boshqaruvi organlarining, ma‘muriy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo‘lgan boshqa organlarning, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, ular mansabdar shaxslarining g‘ayriqonuniy qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilganda.

6) Davlat soliq xizmati organlari, moliya va bojxona organlari barcha ishlar hamda hujjatlar bo‘yicha.

7) Prokuratura organlari davlatning, yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab beriladigan arizalar yuzasidan.

8) Adliya organlari davlatning, yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab beriladigan arizalar yuzasidan.

9) Yuridik va jismoniy shaxslar davlat ijrochisining harakatlari (harakatsizligi) ustidan beriladigan arizalar (shikoyatlar) bo‘yicha.

10) O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa er egalari kengashi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va tumanlar fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa er egalari kengashlari fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa er egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzayotgan davlat boshqaruvi organlarining, ma‘muriy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo‘lgan boshqa organlarning, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, ular mansabdar shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa er egalarining manfaatlarini ko‘zlab beriladigan arizalar (shikoyatlar) yuzasidan.

11) Mulkdorlar xususiy mulk huquqini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilganligi to‘g‘risida davlat organlarining va boshqa organlarning, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining qarorlari, ular mansabdar shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilish haqidagi ishlar yuzasidan.

12) Xorijiy investistiylar ishtirokidagi akstiyadorlik jamiyatlari ularning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilganligi to‘g‘risidagi arizalar (shikoyatlar) yuzasidan.

13) Taraflar muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxsn ni reabilitastiya markaziga joylashtirish haqidagi ishlar yuzasidan.

Quyidagi tovarlarni import qilish qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadi:

1) Jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni bojsiz olib kirishning bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida tasdiqlangan normalari doirasida olib kirilayotgan tovarlar.

2) Chet el diplomatik vakolatxonalar va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalar rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek ushbu vakolatxonalarining diplomatik va ma’muriy-texnik xodimlari, shu jumladan ularning o‘zlar bilan birga yashayotgan oila a’zolari shaxsiy foydalanishi uchun mo‘ljallangan tovarlar.

3) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda insonparvarlik yordami tariqasida olib kirilayotgan tovarlar.

4) Davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan xayriya yordami maqsadida, shu jumladan texnik ko‘mak ko‘rsatish maqsadida olib kirilayotgan tovarlar.

5) O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo‘yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan qarzlar (kreditlar) mablag‘lari, shuningdek grantlar hisobiga yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan tovarlar.

6) Dori vositalari, veterinariya dori vositalari, tibbiyot va veterinariya uchun mo‘ljallangan buyumlar, shuningdek dori vositalari, veterinariya dori vositalari, tibbiyot va veterinariyaga mo‘ljallangan buyumlar ishlab chiqarish uchun qonun hujjatlarida belgilanadigan ro‘yxat bo‘yicha olib kiriladigan xomashyo. Mazkur imtiyoz olib kirilayotgan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasida ham ishlab chiqarilayotgan tayyor dori vositalariga, veterinariya dori vositalariga, tibbiyot va veterinariya uchun mo‘ljallangan buyumlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

7) O‘zbekiston Respublikasi hududiga qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha olib kirilayotgan texnologik asbob-uskunalar, shuningdek butlovchi buyumlar va ehtiyoj qismlar, agar ularni etkazib berish texnologik asbob-uskunalarini etkazib berish kontrakti shartlarida nazarda tutilgan bo‘lsa. Import qilingan texnologik asbob-uskunalar olib kirilgan paytdan e’tiboran uch yil mobaynida eksportga realizastiya qilingan yoki tekin berilgan taqdirda, mazkur imtiyozning amal qilishi qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lash bo‘yicha majburiyatlar tiklangan holda bekor qilinadi.

8) Investor bilan davlat mulkini boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi o‘rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq investistiya majburiyatlar sifatida olib kiriladigan mol-mulk.

9) Vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdig‘i mavjud bo‘lgan taqdirda, telekommunikastiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo‘yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari.

10) Qonun hujjatlarida belgilanadigan ro‘yxat bo‘yicha yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan yog‘och-taxta materiallari va yog‘och.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizastiya qilish aylanmasiga 20 foizli stavka bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadi.

Tovarlarni chet el valyutasida eksportga realizastiya qilish (qimmatbaho metallar bundan mustasno) oborotiga nol darajali stavka bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadi.

Tovarlarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududidan bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq olib chiqish tovarlar eksportidir.

Soliq qonunchiliga muvofiq tovarlarning eksport qilinganligi tasdiqlanmagan taqdirda, mazkur tovarlarni realizastiya qilish oborotiga belgilangan stavka bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadi.

Tovarlarning eksport qilinganligini tasdiqlovchi hujjatlar quyidagilardir:

- Kontrakt (kontraktning belgilangan tartibda tasdiqlangan ko‘chirma nusxasi).

- Tovarlarni eksport qilish rejimiga chiqarishni amalga oshiruvchi bojxona organining belgi qo'yilgan bojxona yuk deklarastiyasi.
- O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan o'tkazish punktidan joylashgan bojxona organining tovarlar tayin etilgan mamlakatga jo'natilganligini tasdiqlovchi qayd belgisi qo'yilgan tovarga ilova qilinadigan hujjatlar.
- Tovarlar eksportga vositachi (ishonchli vakil) orqali vositachilik (topshiriq) shartnomasi bo'yicha realizastiya qilinganda eksportni tasdiqlash uchun komitent (topshiriq beruvchi) tomonidan quyidagi hujjatlar taqdirm etiladi:
  - Soliq to'lovchi bilan vositachi yoki ishonchli vakil o'rtasidagi vositachilik shartnomasi yoki topshiriq shartnomasi (shartnomaning ko'chirma nusxasi).
  - Soliq to'lovchining topshirig'iga ko'ra (vositachilik shartnomasi yoki topshiriq shartnomasiga muvofiq) eksportga tovarlar etkazib berishni amalga oshirayotgan shaxsning tovarlarni O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan tashqariga etkazib berish uchun chet ellik shaxs bilan tuzilgan kontrakti (kontraktning belgilangan tartibda tasdiqlangan ko'chirma nusxasi).
  - Tovarlarni eksport rejimiga chiqarishni amalga oshiruvchi bojxona organining belgisi qo'yilgan bojxona yuk deklarastiyasining ko'chirma nusxasi.

Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq, «bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha bajarilgan ishlarga (ko'rsatilgan xizmatlarga), agar qayta ishlash mahsulotlari O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tashqariga olib chiqiladigan bo'lsa, nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

«Bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha bajarilgan ishlarga (ko'rsatilgan xizmatlarga), agar keyinchalik qayta ishlash mahsulotlari bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq «erkin muomalaga chiqarish» rejimiga joylashtiriladigan bo'lsa, belgilangan stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

Xalqaro yo'nalishda tashishlar bo'yicha ko'rsatiladigan quyidagi xizmatlarni realizastiya qilish oborotiga nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi:

  - Tranzit yuklarni O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab tashish. Tranzit yuklarni tashish jumlasiga yukning tranzitini amalga oshirish uchun chet ellik shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri tuzilgan shartnomalar yoki xalqaro (idolararo) transport bitimlari hamda bojxona organlarining mazkur tranzit yuklar haqiqatda olib kirilganligi va olib chiqilganligi to'g'risida belgilari mavjud bo'lган taqdirda, O'zbekiston Respublikasi hududi orqali chet el tranzit yuklarini tashish va ularga xizmat ko'rsatishga doir xizmatlar kiradi.
  - Yo'lovchilar, bagajlar, yuklar va pochtani xalqaro yo'nalishda tashish. Agar jo'natish punkti yoki tayin etilgan punkt O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan bo'lsa, tashishlar yagona xalqaro tashish hujjatlari asosida rasmiylashtirilgan taqdirda, xalqaro yo'nalishlarda tashish hisoblanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining turli farqlangan stavkalarini belgilangan bir necha faoliyat turlari bilan shug'ullanadigan qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar ushbu faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritish hamda soliq to'lovchilarning tegishli toifalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashi kerak.

Davlat boji naqd pulsiz o'tkazilganligiga doir to'lov topshiriqnomalari, davlat bojini to'lash uchun pul qabul qilib olinganligi to'g'risidagi kvitanstiya davlat bojini undiradigan davlat organlarida qoladigan tegishli materiallarga qo'shib qo'yiladi.

Notarial harakatlarni ro'yxatdan o'tkazish reestridda kiritilgan davlat boji summasi, davlat boji to'langanligi haqidagi hujjatning sanasi va raqami ko'rsatiladi.

To'lovchilar davlat bojini to'lashdan ozod etilgan hollarda, tegishli hujjatlarga (reestrlarga, daftarlarga va boshqa shu kabilarga) tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalarini ilova qilingan holda belgi qo'yiladi bundan pensiyalar va nafaqalar olish uchun ishonchnomalarni tasdiqlash hollari mustasno.

O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqariladigan, shuningdek uning bojxona hududiga import qilinadigan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda aksiz markalari bilan tamg'alanishi shart.

Davlat boji tushumlarini hisobga olish davlat bojini undiradigan davlat organlari va tashkilotlari tomonidan tegishli davlat organlari bilan kelishilgan holda, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

### 13.2.5-jadval

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 26- dekabrdagi “O'zbekiston Respublikasining 2019- yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari proqnozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida”gi PQ-4086-son qaroriga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lashning soddalashtirilgan tartibiga o'tgan soliq to'lovchilar uchun qo'shilgan qiymat solig'ining farqlangan stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi<sup>23</sup>**

Nº	To'lovchilar	Soliq stavkalari soliq solinadigan bazaga nisbatan foizda
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi yuridik shaxslar	7
2.	Qurilish tashkilotlari	8
3.	Chakana, ulgurji, shuningdek ulgurji-chakana savdoni amalga oshiradigan savdo korxonalar	6
4.	Umumi ovqatlanish, mehmonxona xo'jaligi korxonalar	10
5.	Kasbiy xizmatlar ko'rsatadigan yuridik shaxslar (auditorlik xizmatlari, soliq maslahati xizmatlari, konsalting xizmatlari, brokerlik xizmatlari va boshqalar)	15
6.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, realizastiya qiladigan yuridik shaxslar o'zining ishlab chiqarish mahsulotlari bundan mustasno	4

13.2.5-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 26- dekabrdagi PQ-4086-son qarori muvofiq iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi yuridik shaxslar 7 foiz, qurilish tashkilotlari 8 foiz, chakana, ulgurji, shuningdek ulgurji-chakana savdoni amalga oshiradigan savdo korxonalar 6 foiz, umumi ovqatlanish, mehmonxona xo'jaligi korxonalar 10 foiz, kasbiy xizmatlar ko'rsatadigan yuridik shaxslar (auditorlik xizmatlari, soliq maslahati xizmatlari, konsalting xizmatlari, brokerlik xizmatlari va boshqalar) 15 foiz, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini realizastiya qiladigan yuridik shaxslar 4 foiz miqdorida belgilangan (13.2.5-jadval).

Davlat bojini undirgan davlat organi yoki tashkilotning rahbari uni qaytarish qonuniyligini tasdiqlagan taqdirda, davlat organi yoki tashkilot va davlat bojining boshqa oluvchilari ilgari o'z hisobvaraqliga o'tkazilgan davlat boji summalarining tegishli qismlarini qonun hujjatlariga muvofiq qaytaradilar. O'z navbatida, davlat organi yoki tashkilot qaytarilishi lozim bo'lgan, ilgari davlat byudjeti daromadiga o'tkazilgan davlat boji summasining bir qismini qaytarish to'g'risida davlat soliq xizmati organiga yozma shaklda xabar yuboradi.

Aksiz solig'ining stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan import qilinayotgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan bojxona qiymati asosida belgilanadi.

Aksiz to'lanadigan tovarlar eksportini tasdiqlovchi hujjatlar quyidagilardir:

- Eksport qilinadigan aksiz to'lanadigan tovarlarni etkazib berish uchun tuzilgan kontrakt.

- Tovarlarni eksport rejimida chiqarishni amalga oshiruvchi bojxona organining belgisi qo'yilgan bojxona yuk deklarastiyasi.

- O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidagi o'tkazish punktida joylashgan bojxona organining tovarlar tayinlangan mamlakatga jo'natilganligini tasdiqlovchi belgisi qo'yilgan tovarga ilova qilinadigan hujjatlar.

Aksiz to'lanadigan tovarlar va xizmatlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi.

<sup>23</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 26- dekabrdagi “O'zbekiston Respublikasining 2019- yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari proqnozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet m o'ljallari to'g'risida”gi PQ-4086-son qarori

Davlat boji tushumlarini hisobga olish davlat bojini undiradigan davlat organlari va tashkilotlari tomonidan tegishli davlat organlari bilan kelishilgan holda, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Aksiz solig'i stavkalari tovarning yoki xizmatning qiymatiga nisbatan foizlarda (advalor), naturada ifodalangan o'Ichov birligiga nisbatan mutlaq summada (qat'iy), shuningdek advalor va qat'iy stavkalardan tashkil topgan aralash stavkada belgilanadi.

Aksiz markalari bilan tamg'alanishi lozim bo'lgan import qilinadigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'i aksiz markalari olinguniga qadar to'lanadi.

### **13.3. Davlat boji va bojxona to'lovlarini hisoblash va to'lash tartibi**

Davlat boji tushumlari bo'yicha hisobot davlat bojini undiruvchi davlat organlari va tashkilotlari tomonidan o'zлari joylashgan erdagи davlat soliq xizmati organlariga yilning har choragida, hisobot choragidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmasdan taqdim etiladi.

Davlat boji quyidagi hollarda to'liq yoki qisman qaytarilishi kerak:

- Davlat boji qonun hujjatlarida talab qilinganidan ortiqcha miqdorda to'langanida.
- Sud da've arizasini (arizani, shikoyatni) qaytarganda yoki qabul qilishni rad etganda, shuningdek davlat notarial idoralari notarial harakatlarni amalga oshirishni rad etganda.
- Apellyastiya, kassastiya va nazorat shikoyati qaytarilganda yoki uni qabul qilish rad etilganda.
- Davlat boji to'langan da've arizasi (ariza, shikoyat) yoki apellyastiya, kassastiya va nazorat shikoyati sudga kelib tushmaganda.
- Agar ish sudga taalluqli bo'lmasa, ishni yuritish tugatilganda.
- Ariza ko'rmasdan qoldirilganda, agar u muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan berilgan bo'lsa.
- Sudning yoki hakamlik sudining ish yurituvida ayni bir taraflar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan ish mavjud bo'lsa, ariza ko'rmasdan qoldirilganda.
- Agar taraflar o'rtasida nizoni hal qilish uchun hakamlik sudiga topshirish to'g'risida hakamlik bitimi tuzilgan bo'lsa, ariza ko'rmasdan qoldirilganda.
- Agar taraflar o'rtasida mediativ kelishuv tuzilgan bo'lsa, ariza ko'rmasdan qoldirilganda.
- Ishda qatnashgan shaxs vafot etganida, agar nizoli huquqiy munosabat huquqiy vorislukka yo'l qo'ymasa.
- Da'vogar nizoni sudga qadar hal etish (pretenziya bildirish) tartibiga rioya etmaganida, agar bu hol qonunda ushbu toifadagi nizolar uchun yoki taraflarning shartnomasida nazarda tutilgan hamda bunday hal etish imkoniyati boy berilgan bo'lsa.
- Voyaga etmagan bolalari bo'limgan er-xotinning nikohi o'zaro rozilik asosida bekor qilinganligini qayd etish uchun davlat boji to'langanda, agar er-xotinning yarashishi yoki ulardan birining sudga kelmaganligi tufayli nikohni bekor qilish amalga oshirilmagan bo'lsa.
- Agar ishda qatnashayotgan yuridik shaxs tugatilgan bo'lsa.
- Sud buyrug'i chiqarish to'g'risidagi arizani qabul qilish rad etilganda.
- O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga chet elga chiqish huquqi uchun hujjat berish rad etilganda.

Davlat boji O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan boshqa hollarda ham to'liq yoki qisman qaytarilishi mumkin.

Davlat boji summalarini qaytarish to'lovchining yozma arizasiga binoan yoki sudning hal qiluv qarorlari asosida amalga oshiriladi. Davlat boji summasini qaytarish uchun arizachi davlat bojini undirgan tegishli davlat organiga yoki tashkilotga murojaat qilishi kerak. Davlat bojini undirgan davlat organi yoki tashkilotning rahbari uni qaytarish qonuniyligini

tasdiqlagan taqdirda, davlat organi yoki tashkilot va davlat bojining boshqa oluvchilari ilgari o‘z hisobvaraqlariga o‘tkazilgan davlat boji summalarining tegishli qismalarini qonun hujjalariغا muvofiq qaytaradilar. O‘z navbatida, davlat organi yoki tashkilot qaytarilishi lozim bo‘lgan, ilgari davlat byudjeti daromadiga o‘tkazilgan davlat boji summasining bir qismini qaytarish to‘g‘risida davlat soliq xizmati organiga yozma shaklda xabar yuboradi.

Davlat boji summasini qaytarish qonun hujjalarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasini aniqlashda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) oluvchi haqiqatda olingen va (yoki) soliq to‘lovchi tomonidan ishlab chiqarilgan hamda o‘z ehtiyojlari uchun foydalanilgan tovarlar (ishlarni, xizmatlarni) bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan (to‘langan) qo‘shilgan qiymat solig‘ining summasini hisobga olish huquqiga ega, agar bunda quyidagi shartlar bajarilsa:

- Tovarlar import qilinganda qo‘shilgan qiymat solig‘i byudjetga to‘langan bo‘lsa. Agar import qilingan tovarlar bo‘yicha soliqni byudjetga to‘lashdan ozod etish tarzida bo‘sagan mablag‘larni aniq maqsadlarga yo‘naltirish sharti bilan imtioz berilgan bo‘lsa ham qo‘shilgan qiymat solig‘i hisobga olinadi.

- Nol darajali stavka bo‘yicha soliq solinadigan tovarlar eksportida chet ellik sotib oluvchi (to‘lovchi) tomonidan eksport qilinayotgan tovarlar uchun haq to‘langanligini tasdiqlovchi bank hujjatidan ko‘chirma mavjud bo‘lsa.

Nol darajali stavka bo‘yicha soliq solinadigan tovarlarni eksportga realizastiya qilish oboroti maqsadida foydalaniladigan, haqiqatda olingen tovarlar (ishlarni, xizmatlarni) bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan (to‘langan) qo‘shilgan qiymat solig‘i tovarlar eksportidan soliq to‘lovchining O‘zbekiston Respublikasidagi bank hisobvarag‘iga kelib tushgan valyuta tushumining ulushida hisobga olinadi. Tovar vositachilik, topshiriq shartnomasi bo‘yicha vositachi, ishonchli vakil orqali eksportga realizastiya qilingan taqdirda, qo‘shilgan qiymat solig‘i vositachining, ishonchli vakilning yoki soliq to‘lovchining hisobvarag‘iga kelib tushgan valyuta tushumining summasini ulushida hisobga olinadi.

Tovar vositachilik, topshiriq shartnomasi bo‘yicha olingen taqdirda, komitent, topshiriq beruvchi O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirishda to‘langan qo‘shilgan qiymat solig‘i hisobot davrida realizastiya qilingan tovarlar ulushida hisobga olinadi.

Quyidagilar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi hisobga olinmaydi:

- O‘zbekiston Respublikasi hududi realizastiya qilish joyi deb e’tirof etilmaydigan tovarlar (ishlarni, xizmatlarni) bo‘yicha.

Soliq solinmaydigan oborot uchun foydalilanadigan tovarlar (ishlarni, xizmatlarni) bo‘yicha mahsulot etkazib beruvchilarga va import bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan (to‘langan) qo‘shilgan qiymat solig‘i hisobga olinmaydi, balki ushbu tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymatida hisobga olinadi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadigan oborotni va qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilingan oborotni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar, shuningdek qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi bo‘lмаган yuridik shaxslar tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) oluvchi shaxsga hisobvaraql-faktura taqdim etishlari shart, quyidagi hollar bundan mustasno:

- Tovarlarning eksport-import tarzida etkazib berilishini rasmiylashtirish.
- Kalender yil soliq davridir. Yil oyi hisobot davridir.

Tovarlarni import qilish bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘ining summasi soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ining hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lash har oyda keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Import qilinadigan tovarlar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lash bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjalarda belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Soliq davri davomida yalpi tushumi uch milliard so‘mdan oshmaydigan yuridik shaxslar, shu jumladan yagona soliq to‘lovi to‘lovchilari hisoblangan yuridik shaxslar

qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lashning ushbu bobda belgilangan soddalashtirilgan tartibini tanlash huquqiga ega.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lashning soddalashtirilgan tartibiga o'tish uchun soliq qonunchiligidan ko'rsatilgan soliq to'lovchilar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lashning soddalashtirilgan tartibiga o'tish to'g'risida yozma xabarnomani quyidagi muddatlarda taqdim etadi:

- O'tgan yil yakunlari bo'yicha yalpi tushumi uch milliard so'mdan oshmagan yuridik shaxslar joriy yilning 1 fevralidan kechiktirmsandan.

- Soliq davri davomida yalpi tushumi bir milliard so'mdan oshgan yuridik shaxslar yalpi tushumi bir milliard so'mdan oshgan oydan keyingi oyning 15-sanasidan kechiktirmsandan.

- Ixtiyoriy ravishda qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash istagini bildirgan yuridik shaxslar hisobot davri boshlanishidan bir oy oldin, yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar esa, o'z faoliyatini amalga oshirishni boshlagunga qadar.

Import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchilar [soliq](#) qonunchiligidan ko'rsatilgan hujjatlarga qo'shimcha ravishda quyidagi hujjatlarni taqdim etadir:

- Tovarlarni eksport qilishni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar [soliq](#) qonunchiligidan muvofiq hujjatlarning ko'chirma nusxalarini, shuningdek chet el valyutasida realizastiya qilingan tovarlar uchun tushum soliq to'lovchining O'zbekiston Respublikasidagi bank hisobvarag'iga kelib tushganligini tasdiqlovchi bank hujjatidan ko'chirmalarni.

- Tovarlar eksportini vositachilik, topshiriq shartnomasi bo'yicha vositachi, ishonchli vakil orqali amalga oshirayotgan yuridik shaxslar [soliq](#) qonunchiligidan muvofiq hujjatlarning ko'chirma nusxalarini, shuningdek chet el valyutasida realizastiya qilingan tovarlar uchun tushum vositachining, ishonchli vakilning yoki soliq to'lovchining O'zbekiston Respublikasidagi bank hisobvarag'iga kelib

tushganligini tasdiqlovchi bank hujjatidan ko'chirmalarni yoki ularning ko'chirma nusxalarini.

- «Bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha ishlar bajarayotgan, xizmatlar ko'rsatayotgan, shuningdek chet el yuklarini O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tashish (tranzit tashish) bo'yicha xizmatlar ko'rsatayotgan yuridik shaxslar:

- Ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish uchun tuzilgan kontraktning nusxasini.

- Bajarilgan ishlarga, ko'rsatilgan xizmatlarga chet ellik sotib oluvchi (to'lovchi) tomonidan haq to'langanligini tasdiqlovchi bank ko'chirmasi nusxasini.

- Ishlarni (xizmatlarni) sotuvchi va sotib oluvchi tomonidan imzolangan ishlar bajarilganligini (xizmatlar ko'rsatilganligini) tasdiqlovchi hujjat nusxasini.

Import qilinayotgan aksiz to'lanadigan tovarlar bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilgan sana ularga doir operastiya amalga oshirilgan sanadir.

Aksiz solig'ini hisoblab chiqarish [soliq](#) qonunchiligidan muvofiq aniqlanadigan soliq solinadigan bazadan va aksiz solig'ining belgilangan stavkalaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Yil oyi soliq davridir. Import qilinadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'ini to'lash bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Davlat boji davlat boji undiriladigan harakatlar amalga oshirilguniga qadar naqd pulli yoki naqd pulsiz shaklda to'lanadi.

To'lovchining davlat bojini naqd pulsiz shaklda to'laganligi fakti bankning to'lov ijro etilganligi to'g'risidagi belgisi bo'lgan to'lov topshiriqnomasi bilan tasdiqlanadi.

To'lovchining davlat bojini naqd pul shaklida to'laganligi fakti bank tomonidan to'lovchiga beriladigan belgilangan shakldagi kvitanstiya yoki O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi belgilagan shaklda to'lojni amalga oshirgan mansabdor shaxs yoxud davlat organi va tashkilotning kassasi tomonidan to'lovchiga beriladigan kvitanstiya bilan tasdiqlanadi.

Davlat bojini to‘lashning o‘ziga xos xususiyatlari amalga oshirilayotgan yuridik ahamiyatga molik harakatlarning turiga, to‘lovchilarining toifalariga yoki boshqa holatlarga ko‘ra soliq qonunchiligidagi belgilanadi.

Davlat boji to‘lov hujjatlari asosida byudjet tasarrufiga o‘tkaziladi, davlat bojining xizmatlari uchun davlat boji undirilayotgan davlat organi tasarrufida qoldirilayotgan qismi bundan mustasno.

Davlat bojining bir qismi davlat organi tasarrufida qoldirilgan taqdirda, davlat boji keyinchalik mablag‘lar byudjet va davlat organi o‘rtasida qonun hujjatlarida belgilangan normativlar bo‘yicha taqsimlangan holda yagona hisob varag‘iga to‘lanadi.

Davlat bojining davlat organi tasarrufida qoldiriladigan miqdori qonun hujjatlarida belgilanadi.

Mulkiy nizo bo‘yicha sudga da’vo arizasi berilganda, shuningdek mol-mulkning oldi-sotdi, hadya, ayrboshlash shartnomasini notarial tartibda tasdiqlashda, merosga bo‘lgan huquqni rasmiylashtirishda, agar da’vo qiymati, shartnoma summasi yoki meros miqdori chet el valyutasida belgilansa, davlat boji qonun hujjatlarida belgilangan hollarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda chet el valyutasida undirilishi mumkin.

Sudlarga beriladigan da’vo arizalaridan, alohida tartibda yuritiladigan ishlar bo‘yicha arizalardan, ma’muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar bo‘yicha sudlarga beriladigan shikoyatlardan, sndlarning hal qiluv qarorlari ustidan apellyastiya, kassastiya va nazorat tartibidagi shikoyatlardan, shuningdek sudlar tomonidan hujjatarning nusxalarini bergenlik uchun davlat boji quyidagi tartibda undiriladi:

- Shartnomalarni haqiqiy emas deb e’tirof etish to‘g‘risidagi, shartnomalarni bekor qilish to‘g‘risidagi yoki ularning shartlariga o‘zgartish va qo‘sishchalar kiritish haqidagi da’vo arizalariga shartnoma to‘laligicha yoki uning biron bir qismi nizolashilayotganligidan qat’i nazar, shartnoma oldi nizolari bo‘yicha arizalar uchun belgilangan stavkalar bo‘yicha to‘lanadi.

- Qarshi da’vo arizalaridan, shuningdek uchinchi shaxslarning ishga mustaqil da’vo talablari bilan kirishganligi to‘g‘risidagi arizalardan davlat boji umumiy asoslarda undiriladi.

Sud dastlabki da’vogarni uning roziligi bilan boshqa shaxs bilan almashtirganda, bu shaxs davlat bojini umumiy asoslarda to‘lashi kerak.

Ishdan dastlabki da’vogar chiqib ketgan va u huquqiy voris bilan almashtirilgan hollarda, davlat boji, agar u dastlabki da’vogar tomonidan to‘lanmagan bo‘lsa, qanoatlanrilgan da’vo talablari miqdoriga mutanosib ravishda huquqiy vorisdan undiriladi.

Sudya bir yoki bir nechta birlashgan da’vo talablarini alohida ish yuritish uchun ajratgan taqdirda, da’vo taqdim etilganda to‘langan davlat boji qayta hisoblab chiqilmaydi va qaytarilmaydi. Alohida ish yurituvga ajratganlik yuzasidan davlat boji ikkinchi bor to‘lanmaydi.

Ilgari ko‘rmasdan qoldirilgan takroran berilgan arizalar bo‘yicha davlat boji qaytadan umumiy asoslarda to‘lanadi. Agar ariza ko‘rmasdan qoldirilganligi munosabati bilan davlat boji qaytarilishi kerak bo‘lgan, lekin qaytarilmagan bo‘lsa, agar davlat boji byudjetga o‘tkazilgan kundan e’tiboran fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq da’vo muddati tugamagan bo‘lsa, davlat boji to‘langanligi to‘g‘risidagi dastlabki hujjat takroran berilgan arizaga ilova qilinishi mumkin.

Davlat boji hisoblab chiqariladigan da’vo bahosi da’vogar tomonidan, belgilangan hollarda esa, fuqarolik prostessual va iqtisodiy prostessual qonun hujjatlariga muvofiq sud tomonidan aniqlanadi.

Agar ishni muhokamaga tayyorlash paytida da’vogar alimentlarni undirish to‘g‘risidagi ishni tugatish haqida ariza bergen bo‘lsa, bunday hollarda javobgardan davlat boji undirilmaydi.

Da’vogar tomonidan da’vo talablari kamaytirilgan taqdirda, to‘langan davlat boji qayta hisoblab chiqilmaydi.

Da’vo summasi ko‘paytirilgan taqdirda, davlat bojining etishmayotgan summasi da’voning ko‘paytirilgan summasiga muvofiq to‘lanadi.

Da'vogar davlat bojini to'lashdan ozod etilgan taqdirda da'vo qanoatlantirilsa, davlat boji javobgardon (agar u davlat bojini to'lashdan ozod etilmagan bo'lsa) davlat daromadiga belgilangan da'vo summasiga muvofiq undiriladi.

Da'vo birgalikda bir nechta da'vogar tomonidan bir yoki bir nechta javobgarga nisbatan taqdim etilganda, davlat boji da'veoning umumiy summasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi va da'vogarlar tomonidan ular qo'ygan talablar ulushiga mutanosib tarzda to'lanadi.

Da'veoning umumiy summasidan kelib chiqqan holda davlat boji quyidagi hollarda ham undiriladi:

- Da'vo da'vogar tomonidan bir nechta javobgarga nisbatan taqdim etilganda.
- Da'vo arizalarini qabul qiladigan sudya bir tusdagi bir necha talabni bir ish yurituviga birlashtirganda.

Davlat bojini to'lashdan ozod etilgan bir yoki bir nechta da'vogar tomonidan bir nechta javobgarga nisbatan taqdim etilgan da'vo to'liq yoki qisman qanoatlantirilganda davlat bojini undirish sudning hal qiluv qaroriga binoan har bir javobgardon belgilangan qarz summasidan kelib chiqqan holda alohida-alohida amalga oshiriladi. Agar bunday da'vo bir nechta da'vogarlar tomonidan bir javobgarga nisbatan taqdim etilgan bo'lsa, davlat boji javobgardon umumiy belgilangan qarz summasidan kelib chiqqan holda byudjetga undiriladi.

Sud boshqa shaxsni ikkinchi javobgar sifatida jalb qilgan va da'vo summasining bir qismini bir javobgardon, qolgan qismini esa ikkinchisidan undirishga hukm qilgan taqdirda va, agar bunda da'vogar davlat bojini to'lashdan ozod qilingan bo'lsa, davlat boji da'veoning qanoatlantirilgan umumiy summasidan hisoblab chiqariladi hamda har bir javobgardon unga belgilangan da'vo summasi miqdoriga mutanosib ravishda byudjetga undiriladi.

Davlat bojini to'lashdan ozod qilingan da'vogar o'z talablarini da'vo berilganidan keyin ular javobgar tomonidan ixtiyoriy ravishda to'liq yoki qisman qanoatlantirilganligi tufayli qo'llab-quvvatlamagan hollarda davlat bojining summasi javobgardon sud ajrimi bo'yicha byudjetga undirilishi lozim.

Da'vogar arizada da'vo summasini ko'rsatmagan hollarda sudya da'vo arizasini qabul qilish asnosida, da'veoning taxminiy bahosidan kelib chiqqan holda to'lanishi lozim bo'lgan davlat bojining miqdorini dastlabki tarzda belgilaydi. Agar sud hal qiluv qarorini chiqarganda da'veoning umumiy summasi oshsa, davlat boji da'veoning oshgan summasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Bunda vujudga kelgan farq da'vogardan yoki da'vo to'liq qanoatlantirilgan taqdirda javobgardon byudjet daromadiga undirilishi lozim. Sud qonun hujjatlarida belgilangan hollarda ish holatlariga bog'liq ravishda da'vogar arizada ko'rsatgan talablar doirasidan chiqib ketganda, davlat boji shunday tartibda hisoblab chiqariladi. Bunday hollarda da'vo qisman qanoatlantirilgan taqdirda, davlat boji javobgardon da'veoning qanoatlantirilgan qismiga mutanosib ravishda undiriladi, davlat bojining qolgan qismi esa da'vogardan undirilishi lozim.

Sud mol-mulkni meros qilib olish huquqi to'g'risida hal qiluv qarori qabul qilgan taqdirda, davlat boji mol-mulkning umumiy qiymatidan kelib chiqqan holda sud tomonidan hisoblab chiqariladi va har bir merosxo'r dan uning ulushiga mutanosib ravishda undiriladi.

Mol-mulkka bo'lgan mulk huquqi to'g'risidagi, mol-mulkni talab qilib olish to'g'risidagi, mol-mulkdag'i ulushga bo'lgan huquqni e'tirof etish to'g'risidagi, umumiy mol-mulkdan ulush ajratish to'g'risidagi va merosxo'rlarning o'zlariga tegishli mol-mulk ulushini talab qilib olish to'g'risidagi da'vo arizalari uchun davlat boji ushbu mol-mulk yoki uning ulushi qiymatidan kelib chiqqan holda to'lanishi lozim.

Bir vaqtning o'zida mulkiy va nomulkiy xususiyatga ega bo'lgan da'vo arizalari uchun mulkiy xususiyatdagi da'vo arizalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha va nomulkiy xususiyatdagi da'vo arizalari uchun belgilangan stavkalarga ko'ra har bir talab bo'yicha alohida-alohida davlat boji to'lanadi.

Qiymat jihatidan baholanmaydigan talablar (o'zboshimchalik bilan egallangan joylarni bo'shatish to'g'risidagi, natura shaklida maydon berish to'g'risidagi, topshirish balansini qabul qilishga majburlash bilan bog'liq nizolar va boshqalar) nomulkiy xususiyatdagi da'vo arizalari jumlasiga kiradi.

Nikohni bekor qilish bilan bir vaqtida mol-mulkni bo‘lish to‘g‘risidagi da‘vo arizalaridan nikohni bekor qilganlik uchun va mol-mulkni bo‘lganlik uchun davlat boji undiriladi.

Da‘vo arizasini (arizani, shikoyatni) qaytarishga asos bo‘lgan sharoitlar bartaraf etilganidan so‘ng takroran beriladigan da‘vo arizalariga (arizalarga, shikoyatlarga) davlat boji to‘langanligi to‘g‘risidagi dastlabki hujjat davlat boji takroran to‘lanishing oldini olish uchun ilova qilinishi mumkin.

Arizachi davlat bojini to‘lashdan ozod qilingan hollarda da‘vo qanoatlantirilgan taqdirda davlat boji, agar javobgar davlat bojini to‘lashdan ozod qilinmagan bo‘lsa, qanoatlantirilgan da‘vo talablari miqdoriga mutanosib ravishda javobgardan undiriladi.

Davlat boji to‘lashdan ozod qilingan davlat organlari hamda boshqa shaxslar tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab bildirilgan talablarini qanoatlantirish rad etilgan yoki ular qisman qanoatlantirilgan taqdirda, davlat boji ariza qaysi shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab taqdim etilgan bo‘lsa, shu shaxslardan da‘vo talablarining qanoatlantirilishi rad etilgan qismiga mutanosib ravishda undiriladi.

Muayyan sudda ko‘riliши kerak bo‘lgan bir necha ishlар uchun bir to‘lov topshiriqnomasi bo‘yicha davlat boji o‘tkazilgan hollarda topshiriqnomasi ishlarning biriga ilova qilinadi. Mazkur ish bo‘yicha to‘langan davlat bojining summasi to‘g‘risida qolgan ishlarga belgi qo‘yiladi va to‘lov topshiriqnomasi qo‘shib qo‘yilgan ish ko‘rsatiladi.

Sud buyrug‘i bekor qilingan taqdirda, undiruvchi tomonidan to‘langan davlat boji qaytarilmaydi. Da‘vo undiruvchi tomonidan qarzdorga nisbatan da‘vo ishini yuritish tartibida qo‘zg‘atilgan taqdirda u to‘lanishi lozim bo‘lgan davlat boji hisobiga olinadi.

Pul mablag‘lari mayjud bo‘lmagan, bu xizmat ko‘rsatuvchi bank tomonidan tasdiqlangan taqdirda, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslarga sudning ajrimiga ko‘ra davlat bojini kechiktirib to‘lashga ruxsat berilishi

mumkin. Bank tasdig‘ida sudga murojaat qilingan sanadan ko‘pi bilan uch kun oldingi sana qayd etilgan bo‘lishi lozim.

Akstiyadorlar akstiyadorlik jamiyatining faoliyatidan kelib chiqadigan nizolar bo‘yicha o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilganligi to‘g‘risidagi da‘vo bilan iqtisodiy sudga murojaat qilgan taqdirda akstiyadorlarga davlat bojini to‘lash muddati kechiktirilib, bu boj keyinchalik aybdor tarafdan undirib olinadi.

Notarial harakatlar davlat notarial idoralari tomonidan bajarilganligi uchun davlat boji notarial harakatlar amalga oshirilganda undiriladi, notarial idoralardagi ishlarda mavjud bo‘lgan hujjatlarning dublikatini, hujjatlarning nusxalarini berganlik uchun esa ular berilayotganda undiriladi.

Davlat boji to‘lashdan bir taraf ozod etiladigan bitimlar bo‘yicha davlat bojini boshqa taraf to‘liq to‘laydi.

Davlat notarial idorasi depozitiga qabul qilish uchun pul summalarini pochta orqali yoki bankdan kelib tushgan hollarda davlat bojining tegishli summalarini kelib tushgan puldan ushlab qolinadi, ularning qoldig‘i esa depozitga qabul qilinadi. Ushlab qolingga davlat boji summalarini davlat notarial idorasi depozit summalarini bankka navbatdagi topshirish chog‘ida byudjetga o‘tkazilib, bank kvitanstiyasi notarial idora ishlarida saqlanadi.

Davlat notarial idorasi binosidan tashqarida amalga oshiriladigan notarial harakatlar uchun davlat boji ikki baravar miqdorda undiriladi, bundan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari binolarida notariuslarning sayyor qabullari chog‘ida amalga oshiriladigan notarial harakatlar, shuningdek ozodlikdan mahrum qilish joylaridagi yoki qamoqda saqlanayotgan shaxslarning ishonchnomalarini notarial tartibda tasdiqlash mustasno.

Bir nechta merosxo‘r (shu jumladan qonun bo‘yicha, vasiyatnomasi bo‘yicha va merosdan majburiy ulush olish huquqiga ega merosxo‘rlar) bo‘lgan hollarda davlat boji har bir merosxo‘rga tegishli meros ulushidan hisoblab chiqariladi.

Voyaga etmagan merosxo‘rlar (shu jumladan, meros qoldiruvchilarining bolalari bo‘lmagan merosxo‘rlar) mayjud bo‘lgan taqdirda davlat boji faqat voyaga etgan merosxo‘rlardan ularning merosdagi ulushiga mutanosib ravishda undiriladi.

Agar merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risidagi guvohnoma merosxo‘rlarning arizasi bo‘yicha meros mol-mulkning bir qismiga berilayotgan bo‘lsa, davlat boji mol-mulkning berilayotgan guvohnomada ko‘rsatilgan qismi uchun belgilangan stavka bo‘yicha hisoblab chiqariladi. Keyinchalik mol-mulkning qolgan qismiga guvohnoma berilganida davlat boji mol-mulkning umumiy qiymatidan hisoblab chiqariladi, to‘lashga esa hisoblab chiqarilgan summa bilan birinchi guvohnoma berilganligi uchun to‘langan summa o‘rtasidagi farq taqdim etiladi.

Qonun bo‘yicha bir vaqtning o‘zida boshqa merosxo‘rlar mavjud bo‘lgan taqdirda, meros mol-mulkning bir qismi merosxo‘rlarga vasiyatnoma bo‘yicha o‘tgan hollarda davlat boji vasiyatnoma bo‘yicha mol-mulkning qismidan alohida hisoblab chiqariladi, qolgan mol-mulkning qismidan esa umumiy tartibda hisoblab chiqariladi.

Qonun bo‘yicha va vasiyatnoma bo‘yicha meros qilib olinayotgan mol-mulkdan merosning majburiy ulushi ajratilgan hollarda davlat boji qonunga binoan vorislik huquqi bo‘yicha o‘tayotgan butun mol-mulkning qismidan, shu jumladan majburiy ulush bilan birga hisoblab chiqariladi.

Sudlarning ilgari berilgan guvohnomalar haqiqiy emasligi to‘g‘risidagi hal qiluv qarorlari asosida beriladigan merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risidagi takroriy guvohnomalar uchun davlat boji umumiy asoslarda undiriladi. Bunda birlamchi guvohnoma uchun to‘langan davlat boji summasi qaytarilishi yoki soliq to‘lovchining arizasiga ko‘ra yangi guvohnoma berganlik uchun beriladigan summa hisobiga, agar summalar byudjetga o‘tkazilgan kundan e’tiboran fuqarolik qonun hujjatlarda nazarda tutilgan da‘vo muddati tugamagan bo‘lsa, o‘tkazilishi lozim. Sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgan har qanday shartnoma takroran tasdiqlangan taqdirda ham masala xuddi shunday tartibda hal qilinadi.

Davlat notarial idorasi reestrda takroriy guvohnomalar va shartnomalarni qayd qilishda tegishli katakchada davlat boji qachon va qancha summada undirilganligi hamda undirish to‘g‘risidagi yozuv qaerda borligi ko‘rsatiladi. Bunda notarial idora ishlarida qoladigan asosiy hujjatlarga sudning tegishli guvohnomalar va shartnomalarni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi hal qiluv qarorlari ilova qilinishi kerak.

Kredit tashkilotlari tomonidan beriladigan sertifikatlar va akkreditivlarga doir merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risida guvohnoma berganlik uchun davlat boji umumiy asoslarda undiriladi.

Er-xotining birgalikda yashaganda olingen va er-xotindan birining vafotidan keyin qolgan mol-mulkka doir merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risida guvohnoma berganlik uchun davlat boji meros bo‘yicha haqiqatda o‘tayotgan mol-mulkning qismidan undiriladi.

Davlat boji mutanosib ravishda undiriladigan notarial harakatlar bajarilganda uni hisoblab chiqarish taraflar ko‘rsatgan summadan belgilangan qoidalarga rioxatga holda amalga oshiriladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli uylar, kvartiralar, dala hovlilari, garajlar, boshqa imoratlar, binolar va inshootlarni boshqa shaxsga o‘tkazish shartnomalarini tasdiqlaganlik uchun davlat boji summasi ularning umumiy maydonidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Toshkent shahri va Toshkent viloyatidagi ko‘chmas mulkning alohida toifalarini boshqa shaxsga o‘tkazish shartnomalarini tasdiqlaganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlat bojini hisoblab chiqarishning boshqacha tartibini belgilashi mumkin.

Eng kam va eng ko‘p summa ko‘rsatilgan shartnomalarni tasdiqlashda davlat boji eng ko‘p summadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi va undiriladi.

Ayirboshlash shartnomalari bo‘yicha davlat boji yuqori bo‘lgan mol-mulkdan hisoblab chiqariladi.

Shartlariga ko‘ra to‘lovlar summasida ijara oluvchi tomonidan quriladigan imoratlar va boshqa inshootlar, xonalarni jihozlash qiymati, shuningdek ijara oluvchi tomonidan amalga oshiriladigan kapital ta’mirlash va boshqa shu kabilarning qiymati hisobga olinadigan mulk ijarsi shartnomasini tasdiqlashda hisoblab chiqariladigan va undiriladigan davlat bojining summasi amalga oshiriladigan xarajatlarning qiymati hisobga olingen holda belgilanadi.

Ijro yozuvlari bo‘yicha yozuvni amalga oshirganlik uchun tegishli davlat boji summasi undiruvchi uni to‘lashdan ozod qilingan taqdirda yozuv bo‘yicha qarz undirilayotganda qarzdordan undiriladi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etganlik uchun davlat boji dalolatnomalarni ro'yxatda qayd etish chog'ida, takroriy guvohnomalar bergenlik uchun esa, ular berilayotganida to'lanadi.

Chet elga chiqish, O'zbekiston Respublikasiga taklif qilish huquqini beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirganlik uchun, bu hujjatlarga o'zgartirishlar kiritganlik uchun, shuningdek yashash guvohnomasini, fuqaroligi bo'lмаган shaxs guvohnomasini bergenlik yoki ularning muddatini uzaytirganlik yoxud chet ellik fuqarolarning pasportlariga yoki ularning o'rnnini bosadigan hujjatlariga chiqib ketish yoki kirib kelish huquqini beradigan vizalar qo'yanlik uchun davlat boji tegishli hujjatlar olinguniga qadar, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish to'g'risidagi arizalardan esa, bunday arizalar berilguniga qadar to'lanadi.

Chet eldan kirish va chet elga chiqish huquqini beruvchi hujjatlarni, yashash guvohnomasini, fuqaroligi bo'lмаган shaxs guvohnomasini bergenlik yoki ularning muddatini uzaytirganlik, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish va O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish to'g'risidagi arizalardan, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan chet elga xizmat safariga yuboriladigan fuqarolarning xorijga chiqish huquqini beruvchi hujjatlardan davlat boji belgilangan tartibda ushbu korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan to'lanadi.

Chet elga xizmat safariga yuborilgan xodimlar bilan birgalikda ularning xotini va bolalari xizmat safarining butun muddatiga safarga borganida davlat boji xizmat safariga yuborilganlarning o'zlaridan undirilgani kabi tartibda va miqdordorda undiriladi. Oila a'zolari chet elga xizmat safariga yuborilgan shaxsning oldiga mehmon bo'lib oddiy safarga borganlarida davlat boji umumiy asoslarda undiriladi.

Chet ellik fuqarolarga O'zbekiston Respublikasidan chiqishga vizalar bergenlik uchun davlat boji har bir shaxsga alohida viza yoki bir nechta shaxsga umumiy viza berilayotganligidan qat'i nazar, o'n olti yoshga to'lgan har bir shaxsdan undiriladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini turar joyga qayd etganlik va turgan joyi bo'yicha hisobga organlik, ov qilish huquqi uchun ruxsatnoma bergenlik uchun davlat boji hujjat berilayotganda to'lanadi.

Bojxona organlari bojxona ishini amalga oshirishda bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan bojxona to'lovlarini undiradi.

Bojxona to'lovlarini to'lovchilar, bu to'lovlarini hisoblab chiqarish, to'lash, qaytarish va undirish tartibi, shuningdek bojxona to'lovleri bo'yicha imtiyozlar bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirishda aksiz solig'i hamda qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi soliq qonunchiligidagi belgilanadi.

#### **Takrorlash uchun savollar**

1.Davlat boji qanday to'lov hisoblanadi?

2.Davlat boji va bojxona to'lovlarini undirish obyekti va to'lovchilar tarkibini tushuntirib bering?

3.Davlat boji va bojxona to'lovleri stavkalari va soliq imtiyozlari nimalardan iborat?

4.Davlat boji va bojxona to'lovlarini hisoblash va to'lash qanday amalga oshiriladi?

## **XIV bob. SOLIQ TO'LOVCHILARNING AYRIM TOIFALARIGA SOLIQ SOLISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

### **14.1. To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investisiyalar ishtirokidagi soliq to'lovchilarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari**

To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investisiyalarini jalg qiluvchi va qonun hujjatlarida tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar uchun ayrim soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari nazarda tutiladi. To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investisiyalar deyilganda chet davlatning fuqarolari bo'lgan jismoniy shaxslar, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida doimiy ravishda yashovchi fuqaroligi bo'lмаган shaxslar, shuningdek xorijiy nodavlat yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan investisiyalar tushuniladi.

To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investisiyalarini jalg qiluvchi va qonun hujjatlarida tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq kiritilgan investisiya hajmidan kelib chiqqan holda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni, yagona soliq to'lovini to'lashdan muayyan muddatga ozod qilinadilar.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, yagona soliq to'lovi bo'yicha imtiyozlар quyidagi hollarda qo'llaniladi:

- yuridik shaxslar qonun hujjatlarida belgilanadigan hududlarda joylashtirilganda.
- chet ellik investorlar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investisiyalar O'zbekiston Respublikasining kafolati berilmagan holda amalga oshirilganda.
- yuridik shaxslarning ustav fondida (ustav kapitalida) xorijiy ishtirokchilarning ulushi kamida 33 foiz, akstiyadorlik jamiyatlari uchun esa kamida 15 foiz bo'lganda.

○ xorijiy investisiyalar erkin almashtiriladigan valyuta yoki yangi zamонавиу texnologik asbob-uskuna tarzida kiritilganda.

○ soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar berilganligi natijasida ularning qo'llanilishi muddati mobaynida olingen daromadlarning kamida 50 foizi yuridik shaxsni yanada rivojlantirish maqsadida qayta investisiyalashga yo'naltirilganda.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, yagona soliq to'lovi bo'yicha imtiyozlarni olgan to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investisiyalar ishtirokidagi yuridik shaxs imtiyozlar berilgan muddat tugaganidan keyin bir yil o'tmasdan faoliyatini tugatgan taqdirda, chet ellik investorning foydasini o'z mamlakatiga o'tkazish va kapitalini chet elga olib chiqib ketish faqat soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha berilgan imtiyozlarning summalari byudjetga undirilganidan keyin amalgalashadi.

Soliq qonunchiligidida nazarda tutilgan shartlarga nomuvofiqlik aniqlangan taqdirda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, yagona soliq to'lovi bo'yicha imtiyozlarni olgan to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investisiyalar ishtirokidagi yuridik shaxs belgilangan talablarga muvofiq bo'lмаган davr uchun soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar soliq qonunchiligidida nazarda tutilgan moliyaviy sankstiylar qo'llanilgan holda umumbelgilangan tartibda to'lanadi.

Soliq qonunchiligidida nazarda tutilgan imtiyozlarning qo'llanilish mezonlariga mos keladigan yuridik shaxs imtiyozlarni qo'llash boshlangan sana haqida soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda yozma ravishda bildirishi shart.

Soliq davri mobaynida soliq qonunchiligidida nazarda tutilgan imtiyozlarga bo'lgan huquq yo'qotilgan taqdirda, soliq to'lovchi ro'yxatdan o'tkazish joyidagi davlat soliq xizmati organini soliq to'lovchining imtiyozlarga bo'lgan huquqi

yo‘qotilgan sana to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan shaklda yozma ravishda xabardor etadi.

#### **14.2. Oddiy shirkat shartnomasi bo‘yicha bиргаликдаги faoliyatga**

##### **soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari**

Oddiy shirkat shartnomasi bo‘yicha sheriklarning (ishtirokchilarining) oddiy shirkat shartnomasi bo‘yicha bиргаликда foydalananadigan mol-mulki bиргаликдаги faoliyatga qo‘shilgan hissa tarzida har bir sherikning (ishtirokchining) balansida hisobga olinishi lozim.

Bиргаликда ishlab chiqarilgan mahsulotni realizastiya qilish bilan bog‘liq holda vujudga keladigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarini hisoblab chiqarish hamda to‘lash bo‘yicha majburiyatlar bиргаликда ishlab chiqarilgan mahsulotni realizastiya qilishni amalga oshiruvchi shaxs (ishonchli shaxs) tomonidan ijro etiladi. Bunda, agar oddiy shirkat shartnomasi sheriklarining (ishtirokchilarining) biri yuridik shaxs bo‘lsa, faqat yuridik shaxs ishonchli shaxs bo‘lishi mumkin.

Yuridik shaxslar ishtirokidagi bиргаликдаги faoliyat natijalariga soliq solish, soliq qonunchiligidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Agar oddiy shirkat shartnomasining barcha sheriklari (ishtirokchilar) yakka tartibdagi tadbirkorlar bo‘lsa, bиргаликдаги faoliyatga soliq solish soliq qonunchiligidan nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Ishonchli shaxs vazifasini bajaruvchi yuridik shaxs soliq solish obyektlari va bиргаликдаги faoliyat bo‘yicha soliq solish bilan bog‘liq obyektlarini hisobini alohida-alohida yuritadi.

Soliq qonunchiligidan nazarda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarini to‘lash majburiyati yuklatilayotgan ishonchli shaxs oddiy shirkat shartnomasi asosida bиргаликдаги faoliyatni amalga oshirishni boshlagan kundan e’tiboran o‘n kun ichida ishonchli shaxsnинг soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organida bиргаликдаги faoliyat doirasida soliq majburiyatlarini bajaruvchi soliq to‘lovchi sifatida hisobga turishi shart.

Ishonchli shaxs bиргаликдаги faoliyatga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga oлган holda bиргаликда chiqariladigan mahsulotni ishlab chiqarish va realizastiya qilish hisobini alohida-alohida yuritadi.

Ishonchli shaxs bиргаликда ishlab chiqarilgan mahsulotni realizastiya qilish oborotlari bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i to‘laydi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchi bo‘lmagan ishonchli shaxs bиргаликдаги faoliyatni amalga oshirishga taalluqli qism bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchi sifatida davlat soliq xizmati organida hisobga turishi shart.

Ishonchli shaxs hisobvaraq-fakturani rasmiylashtirgan holda bиргаликда ishlab chiqarilgan mahsulotni soliq qonunchiligidan nazarda tutilgan tartibda realizastiya qiladi.

Bиргаликдаги faoliyat natijasida olingen daromad bиргаликда ishlab chiqarilgan mahsulotni realizastiya qilishdan tushadigan sof tushum bilan realizastiya qilingan bиргаликда ishlab chiqarilgan mahsulotlarga to‘g‘ri keladigan bиргаликдаги faoliyatga kiritilgan mablag‘lar summasi o‘rtasidagi farq tarzida aniqlanadi.

Bиргаликдаги faoliyat natijasida olingen daromad bиргаликдаги faoliyat sheriklari (ishtirokchilar) o‘rtasida har bir sherikning (ishtirokchining) hissasi ulushi asosida yoki oddiy shirkat shartnomasi shartlariga muvofiq taqsimlanadi hamda har bir sherikning (ishtirokchining) boshqa daromadlari tarkibiga kiritiladi.

Oddiy shirkat shartnomasining amal qilishi tugatilgan va mol-mulk ushbu shartnomasi sheriklariga (ishtirokchilariga) qaytarilgan taqdirda, har bir sherikning (ishtirokchining) o‘zi kiritgan hissasi miqdori doirasida olingen mablag‘lari oddiy shirkat shartnomasi sheringining (ishtirokchisining) daromadlari tarkibiga kiritilmaydi.

Agar bиргаликда ishlab chiqarilgan mahsulot realizastiya qilinmasdan oddiy shirkat shartnomasi sheriklari (ishtirokchilar) o‘rtasida taqsimlab olinsa, ishonchli shaxs tomonidan bиргаликдаги faoliyat sheriklaridan (ishtirokchilaridan) soliq qonunchiligidan muvofiq olingen qo‘shilgan qiymat solig‘i summasiga soliq qonunchiligidan belgilangan tartibda tuzatish kiritilishi va bu summa ilgari uni ishonchli shaxsga topshirgan sherikka (ishtirokchiga) qaytarib berilishi lozim. Tuzatish kiritilishi lozim bo‘lgan soliq summasi topshiriladigan bиргаликда ishlab

chiqarilgan mahsulotning qiymatiga kiritilmaydi va birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotning tegishli hissasini oladigan sheriklar (ishtirokchilar) tomonidan hisobga olinadi. Tuzatish kiritilgan soliq summasi soliq qonunchiligiga muvofiq mazkur mol-mulkni topshirish rasmiylashtiriladigan hujjatlarda ko'rsatiladi.

Ishonchli shaxs birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotni sheriklariga (ishtirokchilariga) topshirayotganda soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan tartibga muvofiq aniqlanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasini ko'rsatgan holda hisobvaraqturani rasmiylashtiradi. Birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotni topshirish uchun rasmiylashtirilgan hisobvaraqturani byudjetga to'lanishi lozim bo'lган qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobida sherikning (ishtirokchining) ushbu soliq summasini hisobga olishi uchun asos bo'ladi. Hisobvaraqturadagi «tovar jo'natish hujjatlarining yoki shartnomalarining raqami va sanasi» satriga «birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotning taqsimoti» degan belgi qo'yildi.

Mol-mulkni birgalikdagi faoliyatga hissa sifatida topshirish sheriklar (ishtirokchilar) o'rtaida kelishilgan qiymat bo'yicha yoki buxgalteriya hisobi hujjatlarida hisobga olinadigan balans qiymati bo'yicha amalga oshiriladi hamda unga tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizastiya qilish sifatida qaralmaydi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bilan olingan va birgalikdagi faoliyatga hissa sifatida topshirayotgan mol-mulk bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotni realizastiya qilayotgan ishonchli shaxsda hisobga olish uchun qabul qilinadi. Bunda oddiy shirkat shartnomasi sherigi (ishtirokchisi) birgalikdagi faoliyatga topshirayotgan mol-mulk bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasini hisobga olish uchun qabul qilmaydi. Agar kiritilayotgan mol-mulk bo'yicha ilgari qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olish amalga oshirilgan bo'lsa, mol-mulk birgalikdagi faoliyatga topshirilgan davrda ilgari mazkur mol-mulk olinganda hisobga olish uchun qabul qilingan qo'shilgan qiymat solig'i summasi kamayadi.

Oddiy shirkat shartnomasining sherigi (ishtirokchisi) o'zi ishlab chiqargan mahsulotni birgalikdagi faoliyatga hissa sifatida topshirgan taqdirda, qo'shilgan qiymat solig'i hisoblanmaydi. Tayyor mahsulot ishlab chiqarish vaqtida ilgari hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga soliq qonunchiligidagi nazarda

tutilgan tartibda tuzatish kiritilishi lozim. Tuzatish kiritilishi lozim bo'lган soliq summasi topshirayotgan mol-mulkning qiymatiga kiritilmaydi va birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotni realizastiya qilishni amalga oshiruvchi ishonchli shaxs tomonidan hisobga olinadi. Tuzatish kiritilgan soliq summasi soliq qonunchiligiga muvofiq mazkur mol-mulkni topshirish rasmiylashtiriladigan hujjatlarda ko'rsatiladi.

Oddiy shirkat shartnomasining birgalikdagi faoliyatga hissa sifatida mol-mulk topshirayotgan sherigi (ishtirokchisi) qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi bo'lishi yoki bo'lmastidan qat'i nazar, soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan tartibda ishonchli shaxs tomonidan hisobga olinishi uchun topshirayotgan mol-mulk bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasini ko'rsatgan holda hisobvaraqturani rasmiylashtiradi. Birgalikdagi faoliyatga topshirilgan mol-mulk bo'yicha rasmiylashtirilgan hisobvaraqturani byudjetga to'lanishi lozim bo'lган qo'shilgan qiymat solig'ini hisob-kitob qilishda soliqning ushbu summasini ishonchli shaxs tomonidan hisobga olish uchun qabul qilishga asos bo'ladi. Hisobvaraqturadagi «jo'natiladigan tovarlar hujjatlari yoki shartnomalar raqami va sanasi» degan katakchada «birgalikdagi faoliyatga hissa» degan belgi qo'yildi.

Birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olingan daromadlarga soliq solish oddiy shirkat shartnomasi shergiga (ishtirokchisiga) soliq solishning amaldagi tartibiga muvofiq oddiy shirkat shartnomasining har bir shergida (ishtirokchisida) boshqa daromadlar tarkibida amalga oshiriladi. Bunda qat'iy belgilangan soliq to'lovchilar (yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirdorlar), shuningdek yagona er solig'ini to'lovchilar bo'lган oddiy shirkat shartnomasi sheriklarining (ishtirokchilarining) birgalikdagi faoliyatdan olingan daromadlariga dividendlarga soliq solishda belgilangan stavkalar bo'yicha soliq solinadi.

#### **14.3. Dehqon xo'jaliklariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari**

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari soliq qonunchiligidagi jismoniy shaxslar soliq to'lovchilar uchun nazarda tutilgan tartibda soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlar to'laydi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda dehqon xo'jaliklari quyidagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'laydi:

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig'i.
2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.
3. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq.
4. Bojxona to'lovlari.
5. Davlat boji.
6. Avtotransport vositalarini olganlik va vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaligi a'zolari soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan soliqlar va majburiy to'lovlarni to'lash bilan bir qatorda soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan tartibda yagona ijtimoiy to'lov to'laydi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaligi a'zolari qishloq xo'jaligi mahsuloti etishtirish, o'zлari etishtirgan mahsulotni qayta ishslash va realizastiya qilish bilan bog'liq bo'lмагan faoliyat bilan shug'ullangan taqdirda, ular yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida ro'yxatdan o'tishlari hamda soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashlari shart.

#### **14.4.Bozorlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari**

Bozorlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik shaxs shaklida tashkil etiladi.

Bozorlarning daromadlariga quyidagilar kirdi:

- patta to'lovi tushumlari.
- boshqa tushumlar.

Patta to'lovinini bozorlarda tovarlar, buyumlar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotishni amalga oshirayotgan jismoniy shaxslar to'laydi.

Patta to'lovi har bir sotish joyidan savdo qilingan har bir kun uchun yoki har bir tovar, buyum, chorva mol uchun undiriladigan qat'iy belgilangan to'lovdir.

Jismoniy shaxs bilan tuzilgan ijara shartnomasiga binoan savdo joyi uchun ijara haqi to'lanadigan hollarda, patta to'lovi summasi ijara haqi tarkibiga kiritiladi.

Patta to'lovi har bir to'lovchidan naqd pulli yoki naqd pulsiz shaklda, bir vaqtning o'zida fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasining chekini yoki terminal chekini berish orqali undiriladi.

Patta to'lovi miqdorlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlanadi.

Bozorlarning boshqa tushumlari jumlasiga quyidagilar kirdi:

1.Ijara to'lovidan olingan daromadlar. Ijara to'lovi bozor ma'muriyatining tasarrufida bo'lган binolar, inshootlar hamda boshqa mol-mulkdan foydalanganlik uchun yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadi.

2.Sotuvchilarga va sotib oluvchilarga xizmatlar ko'rsatishdan olingan daromadlar.

3.Bozor ma'muriyati tomonidan amalga oshiriladigan qishloq xo'jaligi tovarlarini tayyorlash, xarid qilish va realizastiya qilishdan olingan daromadlar. Bunda realizastiya qilingan tovarlarning xarid qiymati bilan sotish qiymati o'rtasidagi farq daromaddir.

4.Qonun hujjatlariga zid bo'lмагan boshqa tushumlar.

Ijara to'loving va bozor ma'muriyati ko'rsatadigan xizmatlar qiymatining miqdorlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlanadi.

Bozorlar zimmasida to'lov manbaida soliqlar va majburiy to'lovlarni undirish bo'yicha majburiyatlar hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga quyidagilarni to'lash majburiyatları saqlanib qoladi:

- bojxona to'lovlari.
- yagona ijtimoiy to'lov.
- davlat boji.
- tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im.

- o avtotransport vositalarini olganlik va vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im.

Bozorlar daromadlarining umumiylaridan, 50 foizi bozorlar joylashgan joydagi tegishli mahalliy byudjetlarga belgilangan tartibda yo'naltiriladi. Qolgan 50 foizi bozorlar ma'muriyati tasarrufida qoladi va ularidan joriy xarajatlarni qoplash, rekonstruksiya qilish, obodonlashtirish, bozorlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning ro'yxatini kengaytirish, sifatini yaxshilash uchun foydalaniadi.

Qat'iy belgilangan soliq solinadigan faoliyat turlari bozorlar tomonidan amalga oshirilganda, soliq qonunchiligiga muvofiq qat'iy belgilangan soliq solinadi.

Olingen daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlarni bozorlar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlagan shaklda taqdim etadi.

Mablag'larni byudjetga o'tkazish olingen daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish muddatidan kechiktirmsandan bir oyda bir marta amalga oshiriladi.

Soliq qonunchiligi qoidalari ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 51 foizdan kam bo'limgan yuridik shaxslar savdo komplekslariga tatbiq etiladi.

#### **14.5.Konstert-tomosha faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari**

Yuridik va jismoniy shaxslar konstert-tomosha faoliyatini qonun hujjalarda belgilangan tartibda beriladigan listenziya asosida amalga oshiradi.

Konstert-tomosha faoliyati bilan shug'ullanish huquqi uchun listenziya oladigan yuridik va jismoniy shaxslar belgilangan stavka bo'yicha davlat boji to'laydi.

Konstert-tomosha faoliyati bilan shug'ullanish huquqi uchun davlat boji to'lovchi yuridik shaxslar mazkur faoliyat turi bo'yicha soliq qonunchiligidagi nazarda tilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan ozod etiladi.

Soliq qonunchiligidagi ko'rsatilgan yuridik shaxslar zimmasida quyidagilarni to'lash majburiyati saqlanib qoladi:

- o bojxona to'lovlar.

- o yagona ijtimoiy to'lov.
- o avtotransport vositalarini olganlik va vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im.

- o to'lov manbaida ushlab qolinadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar.

Yuridik shaxslar konstert-tomosha faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'limgan faoliyat turlari bilan shug'ullanganlarida soliq to'lovchi faoliyatning mazkur turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishi hamda soliq qonunchiligidagi nazarda tilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini to'lashi shart.

Yuridik shaxslar konstert-tomosha faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'limgan faoliyat turlari bilan shug'ullangan taqdirda, davlat boji soliq qonunchiligidagi nazarda tilgan tartibda to'lanadi.

Konstert-tomosha faoliyati bilan shug'ullanish huquqi uchun davlat boji to'lovchi jismoniy shaxslar mazkur faoliyat turi bo'yicha qat'iy belgilangan soliq to'lashdan ozod etiladi.

Soliq qonunchiligidagi ko'rsatilgan jismoniy shaxslar zimmasida quyidagilarni to'lash majburiyati saqlanib qoladi:

- o bojxona to'lovlar.
- o avtotransport vositalarini olganlik va vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im.

Agar konstert-tomosha faoliyati bilan shug'ullanish huquqi uchun davlat boji to'lovchi jismoniy shaxslar soliq solinadigan mol-mulk va er uchastkasiga ega bo'lsalar, soliq qonunchiligidagi nazarda tilgan tartibda jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va jismoniy shaxslardan olinadigan er solig'ini to'lash majburiyati ularning zimmasida saqlanib qoladi.

Konstert-tomosha faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shaxslar soliq qonunchiligidagi nazarda tilgan majburiy to'lovlarini to'lash bilan bir qatorda soliq qonunchiligidagi yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun nazarda tilgan tartibda yagona ijtimoiy to'lov to'laydi.

#### **14.5. Advokatlar hay'atlari, advokatlik firmalari, advokatlik byurolari va advokatlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari**

Advokatlar hay'atlari, advokatlik firmalari va advokatlik byurolari nodavlat notijorat tashkilotlari sifatida faoliyatning advokatlar tomonidan yuridik yordam (xizmat) ko'rsatish bilan bog'liq qismi bo'yicha soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'lashdan ozod etiladilar.

Advokatlar hay'atlari, advokatlik firmalari, advokatlik byurolari va advokatlarga quyidagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar saqlab qolinadi:

- bojxona to'lovlar.
- yagona ijtimoiy to'lov.
- avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im.
- to'lov manbaida ushlab qolinadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar.

Advokatlar hay'atlari, advokatlik firmalari va advokatlik byurolari tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirgan taqdirda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar soliq qonunchiligidagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga uchun nazarda tutilgan tartibda to'lanadi.

Advokatlar tomonidan yuridik yordam (xizmat) ko'rsatganlik uchun olingan gonoralar summalariga soliq qonunchiligidagi belgilangan tartibda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinadi.

Advokatning daromadlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i obyektidir.

Advokatning daromadi advokat tomonidan yuridik yordam (xizmat) ko'rsatganlik uchun olingan summa bilan advokatlar hay'atlari, advokatlik firmalari va advokatlik byurolarini saqlab turish uchun o'tkazilgan mablag'lar summasi o'rtaсидаги farq sifatida aniqlanadi.

Soliq solinadigan baza advokat daromadidan advokat gonorarida hisobga olinadigan yagona ijtimoiy to'lov chegirib tashlangan holda aniqlanadi.

Advokatlarning daromadlariga soliq solish soliq qonunchiligidagi muvofiq soliq agentlari advokatlar hay'atlari, advokatlik firmalari va advokatlik byurolari tomonidan amalga oshiriladi.

#### **Takrorlash uchun savollar**

- 1.To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investisiyalar ishtirokidagi soliq to'lovchilarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering?
- 2.Oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birgalikdagi faoliyatga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
- 3.Dehqon xo'jaliklariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntiring?
- 4.Bozorlarga soliq solish tartibi qanday?
- 5.Konstert-tomosha faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga soliq solish qanday amalga oshiriladi?
- 6.Advokatlar hay'atlari, advokatlik firmalari, advokatlik byurolari va advokatlarga soliq solish tartibi qanday?

**XV bob. DAVLAT SOLIQ XIZMATI ORGANLARI TIZIMIDA  
YURIDIK SHAXSLARGA OID AXBOROT-KOMMUNIKASTIYA  
TEXNOLOGIYALARI**

**15.1. Davlat soliq xizmati organlarida yuridik shaxslarga oid amaliyotda  
qo'llanilayotgan dasturiy maxsullar, interaktiv xizmatlarni joriy qilinishi  
va ahamiyati**

Davlat soliq xizmati organlarining asosiy vazifasi belgilangan soliq va yig'implarni o'z vaqtida, belgilangan hajmda yig'ilishini ta'minlash yo'li bilan davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdan iborat bo'lib, mamlakatimizda davlat soliq xizmati organlarida zamonaviy axborot-kommunikastiya texnologiyalaridan oqilona foydalanishning keng yo'lga qo'yilgani izchil rivojlanishga xizmat qilmoqda.

Mustaqillik yillarda mamlakatda bozor tamoyillariga javob beradigan soliq tizimi shakllandi, soliqlarni boshqarishning zamonaviy metodlari va mexanizmlari joriy etildi, soliq organlarining yaxlit tizimi yaratildi, lekin hozirgi kunda soliq tizimini xavfsizligini ta'minlash davlat soliq xizmati organlari faoliyatini ilg'or axborot-kommunikastiya texnologiyalarini qo'llagan holda modernizastiya qilish hamda ishlarni tashkil etishning zamonaviy shakl va metodlaridan zarur darajada samarali foydalanishi taqazo etmoqda.

Hozirgi kunda mamlakat iqtisodiyotini etakchi soha va tarmoqlarining zamon bilan hamnafas faoliyat yuritishiga barcha zarur sharoit yaratib berilmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berilayotgani, axborot-kommunikastiya texnologiyalarining hayotimizga izchillik bilan joriy etilayotgani erishilayotgan samarali yutuqlarimizning mustahkam poydevorini tashkil etmoqda. Soliq sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlar natijasida mamlakatimiz iqtisodiyoti barqaror su'ratlar bilan rivojlanib ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilanishiga zamin yaratmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018- yil 28- dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2019- yildan boshlab joriy etilayotgan yangi soliq konsepsiyasining eng asosiy g'oyasi soliq yukini kamaytirish, sodda va barqaror soliq tizimini qo'llashni ko'zda tutilishi ta'kidlab o'tildi:

«2019 -yildan boshlab joriy etilayotgan yangi soliq konsepsiyasining eng asosiy g'oyasi soliq yukini kamaytirish, sodda va barqaror soliq tizimini qo'llashni ko'zda tutadi. Shu orqali iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish, tadbirkor va investorlar uchun har tomonlama qulay muhit yaratishga erishish mumkin.

Yangi tahrirdagi Soliq kodeksida mamlakat taraqqiyotining tayanchi bo'lgan insofli, halol soliq to'lovchilarni rag'batlantirish.

Buni samarali soliq ma'muriyatichiligi orqali bartaraf etish va byudjet barqarorligini ta'minlash mumkin»<sup>24</sup>

Soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma'muriyatichiligidagi zamonaviy elektron ma'muriyatichilik tizimini takomillashtirish, iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investisiyaviy jozibadorligini yaxshilashning eng muhim shartlari hisoblanadi.

2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirish harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo'naliшlaridan biri bu *iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'naliшharida* soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish yo'lini davom ettirish, soliq ma'muriyatichilagini takomillashtirish va rag'batlantirishning tegishli choralarini kengaytirish belgilab qo'yilgan bo'lib, mamlakatimizda olib borilayotgan byudjet-soliq siyosatining va amalga oshirilayotgan iqtisodiy chora-tadbirlarning asosiy maqsadi byudjet daromadlarini optimal ravishda shakllantirish, shuningdek byudjet xarajatlaridan samarali foydalanishga qaratilgan. Bugungi kunda davlat soliq xizmati organlari tizimida axborot-kommunikastiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, innovastiya va modernizastiyalashga qaratilgan tub islohotlar amalga oshirilmoqda.

Davlat soliq xizmati organlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1.Davlat soliq siyosatini amalga oshirish hamda soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni ta'minlash.

<sup>24</sup> 2019-yil – «Faol investisiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili» O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018- yil 28- dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi //Xalq so'zi, 2018- yil 29- dekabr

2.Soliqlarning soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘liq hamda o‘z vaqtida tushishini ta‘minlash.

3.Soliq to‘lovchilarni va soliq solish obyektlari o‘z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta‘minlash, ularning to‘liq qamrab olinish mexanizmlarini soliq ma‘muriyatçiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikastiya texnologiyalari va ilg‘or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish orqali takomillashtirish.

4.Soliq solinadigan bazani kengaytirish bo‘yicha tahlil qilish va ta‘sirchan choralar ishlab chiqish, shu jumladan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali ta‘sirchan choralar ishlab chiqish, soliqlar yig‘ilishini oshirish bo‘yicha choralarini amalga oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish, soliqlarga oid huquqbazarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha kompleks tadbirlarni bajarish.

5.Pul mablag‘larining g‘ayriqonuniy aylanishi manbalariga barham berish, aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul tushumining to‘liq va o‘z vaqtida topshirilishi ustidan mutzazam nazoratni ta‘minlash.

6.Soliq to‘lovchilar bilan ishlashni takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu jumladan soliq to‘lovchilarga muloqotsiz elektron xizmat ko‘rsatishga o‘tish yo‘li bilan amalga oshirish.

7.Soliq to‘lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarishda har tomonlama ko‘maklashish.

8.Soliqlarning ixtiyoriy ravishda to‘lanishini ta‘minlashga qaratilgan, soliq to‘lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish bo‘yicha ishlarni takomillashtirish.

9.Xo‘jalik yurituvchi subyektlar, yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyatini rag‘batlantirishga, ularga zarur imtiyozlar va preferenstiylar berishga doir qonun hujjatlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritish.

10.Bozorlar va savdo komplekslarining moliya-xo‘jalik faoliyati, ular tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni

amalga oshirish hamda ularning hududida aniqlangan huquqbazarliklar bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv o‘tkazib, jinoyat ishlarini tergovga tegishliligiga ko‘ra huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshirish.

11.Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, shuningdek mahalliy davlat hokimiyyati organlari bilan davlat byudjetini shakllantirish masalalari bo‘yicha hamkorlik qilish.

12.Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan valyuta hamda eksport-import operasiyalarini amalga oshirish chog‘ida qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan o‘z vakolatlari doirasida nazoratni amalga oshirish.

13.Kadrлarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, soliq organlarini yuksak ma‘naviy-axloqiy sifatlarga ega bo‘lgan malakali xodimlar bilan to‘ldirish, korrupstiya va ishga rasmiyatçilik bilan yondashish faktlariga barham berish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, shuningdek xodimlar o‘rtasida huquqbazarliklar profilaktikasini va ular uchun xizmatni o‘tashning munosib shart-sharoitlari yaratilishini ta‘minlash.<sup>25</sup>

Iqtisodiyotni modernizastiyalash sharoitida mamlakatimiz soliq tizimini isloh qilish va uning asosiy yo‘nalishlarini belgilash muhim ahamiyatga egadir. Hozirgi kunda Respublikamizda o‘tkazilayotgan soliq islohotlari natijasida soliq tizimida qator ijobjiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Soliqlarni boshqarishning zamonaviy metodlari va mexanizmlari joriy etildi, soliq organlarining yaxlit tizimi yaratildi, soliq tizimini xavfsizligini ta‘minlash davlat soliq xizmati organlari faoliyatini ilg‘or axborot-kommunikastiya texnologiyalarini qo‘llagan holda modernizastiya qilish hamda ishlarni tashkil etishning zamonaviy shakl va metodlaridan foydalanish samaradorligini oshirilishi va boshqa muhim masalalar hal etilmoqda.

25 O‘zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi qonuni. 1997 yil 29 avgust. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 474-I-son

### 15.1.1-jadval

#### Davlat soliq xizmati hududiy organlari boshqaruv xodimlarining cheklangan soni

T/r	Davlat soliq xizmati organlari	Davlat soliq xizmati organlari xodimlari cheklangan soni	Shundan:	
			davlat soliq boshqarmalari	tumanlar (shaharlar) davlat soliq inspeksiyalari
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	613	88	525
2.	Andijon viloyati	873	91	782
3.	Buxoro viloyati	722	89	633
4.	Jizzax viloyati	500	77	423
5.	Qashqadaryo viloyati	739	85	654
6.	Navoiy viloyati	445	77	368
7.	Namangan viloyati	727	85	642
8.	Samarqand viloyati	973	97	876
9.	Surxondaryo viloyati	608	84	524
10.	Sirdaryo viloyati	503	81	422
11.	Toshkent viloyati	1 238	112	1 126
12.	Farg'ona viloyati	1 181	96	1 085
13.	Xorazm viloyati	669	84	585
14.	Toshkent shahar	1 855	156	1 699
<b>Jami</b>		<b>11 646</b>	<b>1 302</b>	<b>10 344</b>

Manba. O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasiga ma'lumotlari

Mamlakat iqtisodiyotini uzoq muddatli rivojlantirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgan sharoitda samarali soliqqa tortish tizimi va davlat soliq xizmati organlarining uyg'unlashgan faoliyatini alohida ahamiyat kasb etadi.

Davlat soliq xizmati organlari faoliyatida tahlil va masofaviy nazorat-tahlil ishlarini amalga oshirish uchun ma'lumotlarni to'liq yig'ish va qayta ishlashni ta'minlaydigan zamonaviy, ilg'or axborot-kommunikastiya texnologiyalarini joriy etish choralarini yanada kuchaytirish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 26- iyundagi "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3802-son qarori muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga Ma'lumotlarni qayta ishlash markazini kengaytirish, zamonaviy elektron ma'muriyatçilik tizimini, jumladan elektron hisobvaraq-fakturalarni hisobga olish va onlayn nazorat-kassa mashinalarini avtomatlashtirilgan monitoring qilish tizimi dasturiy mahsulotlarini joriy etish, soliq ma'muriyatçiligi samaradorligini oshirishga ko'maklashuvchi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini ishlab chiqish va qo'llash metodologiyasi takomillashtirilishi ko'rsatib o'tilgan.<sup>26</sup>

### 15.2. Davlat soliq xizmati organlaridagi axborot tizimlari

Axborot tizimi bu axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalaridan iborat.

Axborot resursi axborot tizimi tarkibidagi elektron shakldagi axborot, ma'lumotlar banki va ma'lumotlar bazasidir.

Avtomatlashtirilgan axborot tizimi - ma'lumotlar bazasini shakllantirish, ro'yxatga olish, soliq to'lovchilar va soliq obyektlari hisobini yuritish hamda statistik ma'lumotlarni tayyorlashga xizmat qiluvchi dasturiy vositalar majmui hisoblanadi.

<sup>26</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 26-iyundagi "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3802-son qarori

**15.2.1-jadval.**

**Davlat soliq xizmati organlarida ish jarayonini avtomatlashtirishga  
xizmat qiluvchi avtomatlashtirilgan axborot tizimlari**

T/r	Avtomatlashtirilgan axborot tizimining to‘liq nomi	Avtomatlashtirilgan n axborot tizimining qisqa nomi	Mas’ul tuzilma
1.	«Davlat byudjeti va maqsadli jamg‘armalariga tushumlar hisobini yuritish»	«1-N»	Axborot-tahlil bosh boshqarmasi
2.	«Bank-DSQ»	«Bank-DSQ»	
3.	«Jamg‘arib boriladigan pensiya badali kunlik tushumlarini qayta ishslash»	«Pensiya badali»	
4.	«Kompyuter texnikasini hisobga olish tizimi»	«Kompyuter hisobi»	
5.	«Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan dasturiy mahsullardan foydalanish darajasini aniqlash»	«Dasturlardan foydalanish»	
6.	«Davlat soliq xizmati organlarida interaktiv xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha mas’ul xodimlar hisobini yuritish»	«Interaktivga mas’ullar»	Texnik boshqarma
7.	«Soliq to‘lovchilar tarixi»	«Soliq to‘lovchi tarixi»	
8.	«Interaktiv xizmatlardan	«Interaktiv	

T/r	Avtomatlashtirilgan axborot tizimining to‘liq nomi	Avtomatlashtirilgan n axborot tizimining qisqa nomi	Mas’ul tuzilma
	foydalanish statistikasi»	statistikasi»	
9.	«Yuridik va jismoniy shaxslarning soliq qarzlarini hisobini yuritish»	«Soliq qarzi»	Soliq bo‘yicha qarzlarni majburiy undirish bosh boshqarmasi
10.	«Soliq qarzini yuritish hisoboti»	«Soliq qarzi hisoboti»	
11.	«Yuridik shaxslar imtiyozlari hisobini yuritish»	«Imtiyoz»	
12.	«Elektron tarzda yuborilgan hisobotlarini qabul qilish (WEFOINS)»	«Elektron hisobot»	Yuridik shaxslarga soliq solish bosh boshqarmasi
13.	«Moliya-xo‘jalik faoliyatini amalgaga oshirmayotgan korxonalarini tugatish tartibi»	«Korxonalarini tugatish»	
14.	«Yuridik shaxslar bo‘yicha statistik ma’lumot»	«Yuridik shaxslar statistik ma’lumoti»	
15.	«Qo‘silgan qiymat solig‘i to‘lovchilarini aniqlash»	«QQS to‘lovchilarini»	
16.	«Davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulklar hisobini yuritish»	«Musodara»	Jismoniy shaxslarga soliq solish bosh boshqarmasi
17.	«Yakka tartibdagi tadbirkorlardan hisobotlarni	«YaTT hisoboti»	

<b>T/r</b>	<b>Avtomatlashtirilgan axborot tizimining to‘liq nomi</b>	<b>Avtomatlashtirilgan axborot tizimining qisqa nomi</b>	<b>Mas’ul tuzilma</b>
	elektron shaklda qabul qilish va qayta ishlash»		
18.	«Davlat boji»	«Davlat boji»	
19.	«Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar haqida ma’lumot»	«Veb so‘rov»	
20.	«Soliq tekshiruvlari hisobini yuritish»	«Soliq tekshiruvlari»	Nazorat-taftish bosh boshqarmasi
21.	«Tekshiruvchi xodimlarning xizmat safari buyruqlari hisobini yuritish»	«Tekshiruvchi xodimlar»	
22.	«Nazorat kassa mashinalarini ro‘yxati va nazoratini olish»	«NKM»	Chakana savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida naqd xorijiy valyuta muomalasiga yo‘l qo‘ymaslik ustidan nazorat qilish, qisqa muddatli tekshirishlarni tashkil etish bo‘yicha maxsus boshqarmasi
23.	«Naqd pul tushumlari hisobini yuritish»	«Naqd pul»	
24.	«Ma’muriy amaliyotni hisobga olish»	«Ma’muriy amaliyot»	Ma’muriy amaliyot bo‘limi
25.	«Moliyaviy sankstiyalarni sud tartibida qo‘llash	«Moliyaviy sankstiyalar»	

<b>T/r</b>	<b>Avtomatlashtirilgan axborot tizimining to‘liq nomi</b>	<b>Avtomatlashtirilgan axborot tizimining qisqa nomi</b>	<b>Mas’ul tuzilma</b>
	to‘g‘risida davlat soliq xizmati organlarining murojjatlari va ularning natijalari hisobini yuritish»		
26.	«Tekshirishlarni muvofiqlashtirish»	«Tekshirishlarni muvofiqlashtirish»	Nazorat organlari faoliyatini muvofiklashtirish boshqarmasi
27.	«Kadrlarga oid ma’lumotlar bazasi»	«Kadrlar banki»	Kadrlar bilan ishslash boshqarmasi
28.	«Hujjatlar bajarilishini nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi»	«HINAT»	Tashkiliy-inspektorlik boshqarmasi
29.	«Ichki idoraviy hujjatlar elektron axborot tizimi»	«Ichki idoraviy hujjatlar»	Soliq solish metodologiyasi boshqarmasi
30.	«Quyi davlat soliq xizmati organlari faoliyatini masofadan turib nazorat qilish tizimi»	«Masofadan nazorat tizimi»	Soliq organlarining maxsus nazorat-taftish boshqarmasi

### **15.3. Soliq xizmati organlaridagi axborot tizimlari va texnologiyalarining vazifalari**

*Dasturiy vosita* – dasturlar, tadbirlar, qoidalar, shuningdek, agar ko‘zda tutilgan bo‘lsa, axborotga ishlov berish tizimlarining faoliyatiga taalluqli bo‘lgan, ularga mos keluvchi hujjatlar va ma’lumotlardan tashkil topgan obyekt.

*Dasturiy ta’midot* – axborotga ishlov berish tizimlari dasturi va bu dasturlarni ishlatalish uchun zarur bo‘lgan dasturiy hujjatlar majmui.

*Dasturiy mahsulot* – foydalanuvchiga etkazish, uzatish va sotish uchun mo’ljallangan dasturiy vositalar.

*Axborot tizimi* – axborotni to‘plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalari.

*Axborot resursi* – axborot tizimi tarkibidagi elektron shakldagi axborot, ma’lumotlar banki va ma’lumotlar bazasi.

*Avtomatlashtirilgan axborot tizimi* – ma’lumotlar bazasini shakllantirish, ro‘yxatga olish, soliq to‘lovchilar va soliq obyektlari hisobini yuritish hamda statistik ma’lumotlarni tayyorlashga xizmat qiluvchi dasturiy vositalar majmui.

*Tashabbuschi* – axborot tizimini yaratish tashabbusi bilan chiqqan va texnik topshiriqni tayyorlagan Davlat soliq qo‘mitasining markaziy apparati tarkibiy tuzilmasi.

*Buyurtmachi* – tasdiqlangan texnik topshiriq asosida axborot tizimini yaratish uchun Yangi texnologiyalar ilmiy-axborot markaziga buyurtma beruvchi Davlat soliq qo‘mitasining Axborot-tahlil bosh boshqarmasi Dasturiy mahsullarni test-sinovidan o‘tkazish va kuzatish bo‘limi.

*Bajaruvchi* – texnik topshiriq asosida axborot tizimini yaratuvchi (ishlab chiquvchi) Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Yangi texnologiyalar ilmiy-axborot markazi yoki boshqa korxona va tashkilotlar.

*Ishchi guruhi* – Davlat soliq qo‘mitasining 2015 yil 18 apreldagi 117-soni buyrug‘i bilan tashkil etilgan Davlat soliq xizmati organlarida dasturiy mahsullardan foydalanishni muvofiqlashtiruvchi ishchi guruhi.

*Foydalanuvchi* – davlat soliq xizmati organlarida amaliyotga joriy etilgan axborot tizimlaridan foydalanuvchi Davlat soliq qo‘mitasi, davlat soliq boshqarmalari va davlat soliq inspeksiylarining mas’ul xodimlari.

Davlat soliq xizmati organlarida amaliyotga joriy etiladigan barcha axborot tizimlarini, shu jumladan, dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish, ularning toifasini aniqlash, sifati hamda foydalanish samaradorligini oshirish, takroriy texnik topshiriqlar ishlab chiqilishining oldini olish, dasturiy mahsulotlarda bir-birini takrorlovchi funkstiyalarni bartaraf etish, shuningdek amaliyotdagi ehtiyojlardan kelib chiqib, dasturiy mahsulotlarga qo‘srimcha va o‘zgartirish kiritish, ishlab chiqilgan axborot tizimlarini topshirish va qabul qilish tartib-qoidalaridan iborat.

Axborot tizimi soliq solish bazasini kengaytirish, qo‘srimcha soliq obyektlarini aniqlash, soliq to‘lashdan bo‘yin tov lash, soliqlarni yashirish, soliqdan qochish va shu kabi qo‘srimcha manbalarni aniqlash vazifalarini bajargan taqdirda *dasturiy mahsulot* toifasiga kiritiladi.

Axborot tizimini dasturiy mahsulot toifasiga kiritish uchun quyidagi shartlar bajarilishi lozim:

- kerakli ma’lumotlarning turli xil manbalardan olinishi;
- ma’lumotlarni aks ettirish shakllarining xilma-xilligi;
- tahlil va taqqoslash funkstiyalarining mavjudligi;
- ma’lumotlarning matematik modellar asosida va strategik tahlil qilish usullarining qo’llanilganligi;
- samaradorlik ko‘rsatkichlarining aniq aks ettirilganligi;
- tahlika (risk)lar, imkoniyatlar va oqibatlarni aniqlash, prognoz qilish imkoniyatlari yaratilganligi;
- qaror qabul qilish jarayonida ko‘makchi vazifasini bajara olishi.

Axborot tizimi ma’lumotlar bazasini shakllantirish, ro‘yxatga olish, soliq to‘lovchilar va soliq obyektlari hisobini yuritish hamda statistik ma’lumotlarni tayyorlash, ish jarayonini avtomatlashtirishga xizmat qilgan taqdirda *avtomatlashtirilgan axborot tizimi* toifasiga kiritiladi.

Avtomatlashtirilgan axborot tizimiga o‘zgartirishlar kiritilib, dasturiy mahsulot darajasiga etkazilgan taqdirda, ishchi guruhining qaroriga asosan avtomatlashtirilgan axborot tizimi dasturiy mahsulot deb topilishi mumkin.

Axborot tizimini yaratish jarayonida quyidagi umumtuzilmaviy tamoyillarga rioxat etilishi lozim:

1. Axborot tizimi foydalanuvchiga axborotni oson qabul qilinadigan ko‘rinishda berishi;
2. Axborot tizimi tasodifiy yoki qasddan kirib, asossiz o‘zgartirishlar kiritishdan himoyalangan bo‘lishi;
3. Axborot tizimi interfeysi qulay, tushunarli va estetik jihatdan ko‘rkam dizaynli, ma’lumotlarni kiritish jarayoni mumkin qadar avtomatlashtirilgan, oson va sodda bo‘lishi;
4. Axborot tizimi ishlash algoritmini ro‘yobga chiqarishda optimal echimlardan foydalanish, ishlash tezligi yuqori operativ xotira va tarmoq trafigi resurslaridan oqilona foydalanylган bo‘lishi;
5. Axborot tizimining interfeysi va hisobot shakllari foydalanuvchining tanloviغا ko‘ra kamida o‘zbek hamda rus tilida bo‘lishi.

#### **15.4. Davlat soliq xizmati organlarida yuridik shaxslarni soliqqa tortishga doir dasturiy mahsullar turlari va mohiyati**

Soliq tizimining moddiy-texnik bazasi tobora mustahkamlanayotgani zamonaviy va ilg‘or kompyuter texnologiyalaridan unumli foydalanish, davlat soliq xizmati organlarining o‘zaro aloqalari samaradorligini sezilarli darajada oshirish, ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tahvil qilish jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini bermoqda.

Davlat soliq organlari tomonidan 39 turdagи dasturiy mahsullar bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimidagi dasturiy mahsullar quyidagilardan iborat:

- 1.«Soliq inspektorining avtomatlashtirilgan ish joyi (SIAIJ-4)»
- 2.«Qayta ishlash va tahvil»

- 3.«To‘lovlar monitoring»
- 4.«Eksport-import operastiyalarini nazorat qilish»
- 5.«Soliq to‘lovchilarning egaligidagi er fondi»
- 6.«Tahlika tahvil»
- 7.«Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish»
- 8.«Soliq deklarastiyalarini qayta ishlash»
- 9.«Bozorlar va savdo komplekslarida bir martalik yig‘imlar, ko‘rsatilgan xizmatlar uchun haqlar va ijara to‘lovlar hisobini yuritish va nazorat qilish»

Davlat soliq xizmati organlaridagi axborot tizimlari va texnologiyalarining tarkibi quyidagicha belgilangan:

- 1.«Davlat byudjeti va maqsadli jamg‘armalariga tushumlar hisobini yuritish»
- 2.«Bank-DSQ»
- 3.«Jamg‘arib boriladigan pensiya badali kunlik tushumlarini qayta ishlash»
- 4.«Kompyuter texnikasini hisobga olish tizimi»
- 5.«Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan dasturiy mahsullardan foydalanish darajasini aniqlash»
- 6.«Davlat soliq xizmati organlarida interaktiv xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha mas‘ul xodimlar hisobini yuritish»
- 7.«Soliq to‘lovchilar tarixi»
- 8.«Interaktiv xizmatlardan foydalanish statistikasi»
- 9.«Yuridik va jismoniy shaxslarning soliq qarzlari hisobini yuritish»
- 10.«Soliq qarzini yuritish hisoboti»
- 11.«Yuridik shaxslar imtiyozlari hisobini yuritish»
- 12.«Elektron tarzda yuborilgan hisobotlarini qabul qilish (WEFOINS)»
- 13.«Moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan korxonalarni tugatish tartibi»
- 14.«Yuridik shaxslar bo‘yicha statistik ma’lumot»
- 15.«Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilarni aniqlash»
- 16.«Davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulklar hisobini yuritish»

17.«Yakka tartibdagi tadbirkorlardan hisobotlarni elektron shaklda qabul qilish va qayta ishlash»

18.«Davlat boji»

19.«Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar haqida ma’lumot»

20.«Soliq tekshiruvlari hisobini yuritish»

21.«Tekshiruvchi xodimlarning xizmat safari buyruqlari hisobini yuritish»

22.«Nazorat kassa mashinalarini ro‘yxati va nazoratini olish» 23.«Naqd pul tushumlari hisobini yuritish»

24.«Ma’muriy amaliyotni hisobga olish»

25.«Moliyaviy sankstiyalarni sud tartibida qo‘llash to‘g‘risida davlat soliq xizmati organlarining murojatlari va ularning natijalari hisobini yuritish»

26.«Tekshirishlarni muvofiqlashtirish»

27.«Kadrlarga oid ma’lumotlar bazasi»

28.«Hujjatlar bajarilishini nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi»

29.«Ichki idoraviy hujjatlar elektron axborot tizimi»

30.«Quyi davlat soliq xizmati organlari faoliyatini masofadan turib nazorat qilish tizimi»

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 13 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5598-ton Farmoniga muvofiq mamlakatimizda ma’muriy tartibotlardan o‘tishni soddalashtirish, aholi turmushi sifatini oshirish, investisiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga qaratilgan elektron hukumatni, shu jumladan davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimini modernizastiya qilish va rivojlantirish borasida izchil choralar ko‘rilmogda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizastiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018- yil 21- noyabrdagi PQ-4022-ton qaroriga muvofiq Agentlik tomonidan «Raqamli ishonch» raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi bilan birgalikda barcha davlat xizmatlari faqatgina

operatorning ma’lumotlarni qayta ishlash markazlari orqali ko‘rsatilishini ta’minlashni nazarda tutadigan 2019-2021 yillarda «Universal Mobile Systems» MChJni rivojlantirish Konsepsiysi ishlab chiqilmoqda.<sup>27</sup>

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21- fevraldag“Toshkent shahrida onlayn nazorat-kassa mashinalarini qo‘llash bo‘yicha tajriba loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 150-ton qarori muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Innovastion loyihalarni amalga oshirish va idoraviy axborot tizimlarini jadal integrastiyalashuvining tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018- yil 18- apreldagi PQ-3673-ton qarorida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobiga Toshkent shahrida onlayn nazorat-kassa mashinalarini qo‘llash bo‘yicha tajriba loyihasini ishga tushirish va tajriba loyihasini amalga oshirish doirasida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi «Yangi texnologiyalar» ilmiy-axborot markazi DUK sotilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) bo‘yicha realizastiya vaqtini va joyini ko‘rsatgan holda ma’lumotlarni davlat soliq xizmati organlariga onlayn rejimida uzatishni ta’minlovchi zamonaviy nazorat-kassa mashinalarini qo‘llash orqali savdo va xizmatlar ko‘rsatish sohasidagi tushumlarni avtomatlashtirilgan nazorat qilish tizimining fiskal ma’lumotlar operatori etib belgilandi.<sup>28</sup>

Soliq ma’murchilagini sifatini oshirishining asosiy yo‘nalishi axborot-kommunikastiya texnologiyalari tizimidan samarali foydalanishni kengaytirishni bosqichma-bosqich tatbiq etish hisoblanadi. Elektron hujjatlar aylanishiga o‘tish soliq nazorati va axborotlarni qabul qilishni engillashtirib soddalashtiradi. Davlat soliq xizmati organlarining samarali faoliyati foydalanilayotgan axborot-kommunikastiya texnologiyalarining ilmiy-texnik darajasiga bog‘liqdir. Soliq

<sup>27</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 13- dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish b o‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5598-ton Farmoni

<sup>28</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019- yil 21- fevraldag“Toshkent shahrida onlayn nazorat-kassa mashinalarini qo‘llash bo‘yicha tajriba loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 150-ton qarori

tizimining moddiy-texnik bazasi tobora mustahkamlanayotgani zamonaviy va ilg‘or kompyuter texnologiyalaridan unumli foydalanish imkonini bermoqda.

#### **Takrorlash uchun savollar**

1.Davlat soliq xizmati organlarida yuridik shaxslarga oid amaliyotda qo‘llanilayotgan dasturiy maxsullar va interaktiv xizmatlarni joriy qilinishi hamda ahamiyati tushuntiring?

2.Davlat soliq xizmati organlaridagi axborot tizimlari nimalardan iborat?

3.Davlat soliq xizmati organlarida yuridik shasxlarni soliqqa tortishga doir dasturiy mahsullar turlari va mohiyati tushuntiring?

4.Soliq xizmati organlaridagi axborot tizimlari va texnologiyalarining vazifalari nimalardan iborat?

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

##### **I. O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitustiyasi. -T.: O‘zbekiston NMIU, 2014y.40

b.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2018- yil 24- dekabrdagi “Soliq va byudjet siyosatining 2019- yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-508-son Qonuni

3. O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to‘plami, 2018- y.,1-son

4.O‘zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to‘plami, 2018- y.,1-son

5.O‘zbekiston Respublikasining Bojaxona Kodeksi.O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to‘plami, 2018- y.,1-son

6.O‘zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi qonuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2014- y.,36-son

6.O‘zbekiston Respublikasining «Davlat bojaxona xizmati to‘g‘risida»gi qonuni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to‘plami, 2018- y.,1-son

##### **II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar**

###### **Mahkamasining qarorlari:**

7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018- yil 29- iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiysi to‘g‘risida”gi PF-5468-son Farmoni

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 18- iyuldagи «Soliq ma’muriyatichilagini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5116-son Farmoni

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 13- fevraldagи «Soliq qonunchilagini tubdan takomillashtirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi F-5214-son farmoyishi

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 22- yanvardagi «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovastion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida»gi PF-5308-son Farmoni

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 11- apreldagi «Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi listenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini yanada qisqartirish va soddalashtirish, shuningdek, biznes yuritish shart-sharoitlarini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5409-son Farmoni

12.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 29- dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining 2018- yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari proqnozi va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida»gi PQ-3454-sonli qarori

13.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 26- dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari proqnozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo‘ljallari to‘g‘risida”gi PQ-4086-son qarori

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7- fevraldaggi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-son Farmoni

### **III. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari:**

15. 2019- yil—«Faol investisiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili» O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018- yil 28- dekabrdagi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi //Xalq so‘zi, 2018- yil 29- dekabr

16. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik–har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil yakunlari va 2017- yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. //Xalq so‘zi, 2017- yil 16- yanvar, №11.

17. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik o‘zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016. - 56 b.

18. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash–yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. -T.:“O‘zbekiston”, 2017. 48 b

19. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

### **IV. Asosiy adabiyotlar:**

20. Alimardonov M.I., Xudoyqulov S.K., Yusupov O.A., Agzamov A.T. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish: Darslik. – T.: TDIU, 2013. - 320 b.

21. Миляков Н.В.Налоги и налогообложение -М:Инфра- М, 2018-245 с

22.VahobovA.V., MalikovT.S. Moliya. Darslik/Toshkent moliya instituti.-Toshkent: “Noshir”, 2012. 712-bet.

23.Vahobov A.V, Jo‘raev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. T.: Sharq, 2009. 448- bet.

24.Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik/Toshkent Moliya Instituti. – Toshkent: “Noshir”, 2011. 712-bet.

25.Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti, Darslik (qayta ishlangan)- T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003.-247 bet.

### **V. Qo‘shimcha adabiyotlar:**

26. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot.-Toshkent: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2005.-3-bet.

27. Fisher S., Dornbush R.,Shmalenzi R.Economics.-M.:“Delo”,2018.-435-b.

28. Kempbell R. Makkonnell, Stenli L. Bryu. Ekonomiks.—M., 2018.-134-b.

29.Yo‘ldoshev M., Tursunov Y. Soliq huquqi-Toshkent: “Moliya”2000-80-b

30.A. J o‘raev, Sh.Toshmatov, O. Abduraxmanov; E. F. Soliqlar va soliqqa tortish: Toshkent: NORMA nashriyoti, 2009 -184-6.

### **VI. Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar va hisobotlar:**

31.«Soliqlar va bojxona xabarları» moliyaviy iqtisodiy gazetasi 2018-2019 yillar

32.O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ma’lumotlari

33.O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo‘mitasi ma’lumotlari

34.O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika Qo‘mitasi ma’lumotlari

35.O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona Q o‘mitasi ma’lumotlari

**VII. Internet saytlari:**

36.[www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portalı.

37.[www.lex.uz](http://www.lex.uz)– O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

38.[www.soliq.uz](http://www.soliq.uz)-O‘zbekiston Respublikasi Soliq Qo‘mitasi sayti.

39.[www.mf.uz](http://www.mf.uz)- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.

40.www.norma.uz -Elektron xuquqiy sayti.

41.www. stat.uz- O‘zbekiston Respublikasi Statistika Qo‘mitasi sayti.

M.I. ALIMARDONOV. O.A. YUSUPOV. Sh.Sh. ISLAMOV

**YURIDIK SHAXSLARNI  
SOLIQQA TORTISH**

*Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik*

*“IQTISODIYOT” – 2020.*

*Muharrir  
Mirhidoyatova D.*

*Musahhih  
Matxo ‘jayev A.O.*

Litsensiya AI № 240 04.07.2019. Terishga berildi 05.01.20. Bosishga ruxsat etildi 10.02.2020. Qog‘oz bichimi 60x80 1/16. Times garniturasi. Ofset bosma. Shartli bosma tabog‘i 12,1. Hisob nashr varag‘i 11,8. Adadi 20 nusxa.

“IQTISODIYOT” nashriyoti DUKning matbaa bo‘limida chop etildi.  
100003. Toshkent shahri Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy.